SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)
2026

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V6I1Y2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G‘aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo‘rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o‘g‘li — yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
6-jild, 1-son (yanvar, 2026). - 301 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal
SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO‘YICHA SIYOSATI 09-21

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы
МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.) 22-31

Gadoyev Dadaxon Xayrulloyevich
DEGGARON MASJIDINING SOVET O‘LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI 32-47

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich
QO‘QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA’MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI 48-53

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o‘g‘li
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO‘YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI 54-58

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna
O‘ZBEKISTONDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI 59-68

Karimov Xurshid Abdumannabovich
AN’ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA 69-74

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI..... 75-82

Norqulov Shahzod Shuhrat o‘g‘l
IJTIMOIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR 83-87

Beshimov Xamidjon Sayidovich
FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA’MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI..... 88-96

Нишонов Сарвар Жасур угли
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ).. 97-105

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go‘zal Sharipovna
SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI TA’MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI 106-112

Eshimbetov G‘ulomjon Sultonbayevich
ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich
JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI HAMDA IJTIMOIY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли
УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o‘g‘li
FUQARONI BEDARAK YO‘QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN DEB E’LON QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich
GEOGRAFIK KO‘RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY TA’MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,
RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK: KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO‘LLARI 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna
ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O‘TASH TARTIBINI BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug‘ani o‘g‘li
KORRUPSION JINOYATLARNING O‘ZIGA XOS TAHLILI 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна
СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli
ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES: THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich
O‘ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI 181-189

Tollibayeva Malika Ulmasjon qizi
ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI: XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи
СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna
RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG‘LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur
OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARI O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI 213-222

Шадиева Сайёра Арифовна
ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА 223-233

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich
DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O‘ZARO BOG‘LIKLIK (“ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA”)..... 234-241

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdamovna
TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF 242-246

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN’AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O‘QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI 247-251

Temple Chimuanya Odimegwu
REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE 252-265

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo‘latov Omonulloxon Ulmas o‘g‘li
O‘ZBEKISTON XUSUSIY UNIVERSITETLARIDA TA’LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI 266-271

Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi
INNOVATSION YONDASHUVNING BO‘LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIY KOMPETENSIYASIGA TA’SIRI 272-277

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI 278-283

Kurbonova Shoxsanam
TASVIRIY SAN’AT FANLARINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILAR O‘QUV-IJODIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... 284-289

Toxirov Shaxzod Toxirovich
IJTIMOIY INTELLEKTNING TARKIBIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O‘RNI..... 290-294

Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna
GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIY FIKRLASH 295-300

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

THE POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT ON THE ESTABLISHMENT OF SOVIET REPUBLICS IN TURKESTAN

Akmal Yakubov,
Sharof Rashidov Samarkand State University
DSc Doctoral Candidate
E-mail: akmalyakubov1981@gmail.com;
akmal.yakubov.81@mail.ru

Abstract. This article examines key aspects of the consistent policy pursued by the Soviets, who came to power following the coup d'état carried out by the Left Socialist Revolutionaries and the Bolsheviks on October 25, 1917, aimed at establishing "national" Soviet republics in Turkestan. Based on the contextual conditions of the historical period, the study analyzes the gradual political transformations implemented by the Soviet government between 1917 and 1924 in this direction, as well as the subsequent process that led to the division of Turkestan into several "national" Soviet republics. The analysis relies on existing scholarly literature and archival documentary sources.

Keywords: protectorate, bourgeois revolution, October coup, leftist factions, Soviets, Young Bukharians, Young Khivans, autonomy, national Soviet republics.

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI

Yakubov Akmal
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
DSc doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1917-yil 25-oktyabrda so'l eserlar va bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan davlat to'ntarishi oqibatida hokimiyat tepasiga kelgan sovetlarning Turkistonda "milliy" sovet respublikalarini tashkil etish bo'yicha olib borgan izchil siyosatining muhim jihatlari ochib berilgan. Mavjud tarixiy vaziyat kontekstidan kelib chiqib, sovet hokimiyatining 1917-1924-yillarda bosqichma bosqich bu yo'nalishdagi siyosatida amalga oshirgan o'zgarishlari va buning oqibatida Turkistonning bir nechta "milliy" sovet respublikalariga bo'linib ketish jarayoni mavjud tarixiy adabiyotlar ham hujjatli manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: protektorat, burjua inqilobi, oktyabr to'ntarishi, so'l unsurlar, sovetlar, yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar, muxtoriyat, milliy sovet respublikalari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N01

Kirish. XX asr boshlarida jahon siyosiy xaritasida sodir bo'lgan ulkan geosiyosiy o'zgarishlar orasida Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatining o'rnatilishi va shundan so'ng "milliy" sovet respublikalarini barpo etish siyosati alohida o'rin tutadi. 1917-yil 25-oktyabrda Petrogradda amalga oshirilgan davlat to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar rahbarligidagi sovet hukumati Turkistonni ham yangicha siyosiy-huquqiy makonda qayta shakllantirishga kirishdi. Bu jarayon sobiq Rossiya imperiyasining koloniyasi

bo‘lgan o‘lkaning taqdiri, uning siyosiy-hududiy manzarasi va milliy tarkibi uchun uzoq muddatli va chuqur oqibatlarga ega bo‘ldi. Fevral burjua inqilobi va Oktyabr to‘ntarishi natijasida Rossiyada ko‘p asrlik monarxiya tugatilishi, respublika tuzumining ham qisqa fursatda inqirozga uchrashi Markazdagi siyosiy beqarorlikni yanada chuqurlashtirdi. Mazkur beqarorlik va fuqarolar urushi sharoitida Turkistonda ham hokimiyat uchun kurash yangi bosqichga ko‘tarildi: bir tomonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari kuchaysa, ikkinchi tomonda esa bolsheviklar va boshqa so‘l unsurlar sovet tuzumini o‘rnatish va mustahkamlashga harakat qildi. Bu jarayonda “milliy sovet respublikalari” g‘oyasi ideologik jihatdan jozibador shiorlar orqali ilgari surilgan bo‘lsa-da, amaliyotda u markazlashgan, totalitar boshqaruv tizimi manfaatlariga bo‘ysundirilgan siyosat ko‘rinishida namoyon bo‘ldi.

1917-yil 2-noyabrda e’lon qilingan “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi” va undan keyingi qator dekretlarda sobiq imperiya xalqlarining tengligi, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, hatto ajralib chiqish huquqi e’tirof etildi. Shu bois Turkiston, Buxoro, Xiva va Qozog‘istondagi milliy-siyosiy elita va oydinlar guruhlarining bir qismi (yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar, Alash-O‘rda, Turkiston Muxtoriyati tarafdorlari va boshqalar) dastlab sovet hokimiyatini milliy suverenlikka erishishning muvaqqat hamkor sifatida qabul qildilar. Ammo qisqa tarixiy tajriba shuni ko‘rsatdiki, “milliy davlat qurish” shiorlari ortida Turkistonni etnik va ma’muriy jihatdan parchalash, uni Moskvaning siyosiy-nazariy ta’siri doirasida saqlab qolish maqsadi yotar edi. I.Stalin tomonidan nazariy jihatdan asoslangan “korenizatsiya” siyosati ham boshlang‘ich bosqichda mahalliy kadrlarni davlat boshqaruviga jalb etish, milliy til va madaniyatni rivojlantirish, mahalliy xususiyatlarni hisobga olish kabi ijobiy shiorlar bilan niqoblandi. Lekin 1920-yillar o‘rtasidan boshlab bu siyosat bosqichma-bosqich “markazlashtirish”, ma’muriy bo‘ysunishni kuchaytirish, milliy elitaning mustaqil qanotlarini cheklash va yo‘q qilish usullari bilan almashdi. 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish natijasida Turkiston hududi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, shuningdek Qoraqalpog‘iston kabi bir nechta “milliy” sovet respublikalari va avtonom tuzilmalarga bo‘lindi. Bu jarayon resdorona geosiyosiy loyiha sifatida Turkiston xalqlarining yagona siyosiy makon sifatidagi rivojlanish imkoniyatlarini jiddiy tarzda cheklab qo‘ydi.

Mazkur masalaning tarixshunosligi ham o‘ta ziddiyatlidir. Sovet davridagi rasmiy adabiyotlarda bu jarayon “milliy davlatchilikni tiklash”, “millatlar do‘stligi asosida yangi sotsialistik tuzum qurish” sifatida ideallashtirib ko‘rsatilgan. G‘arb va turk tadqiqotchilari esa bu siyosatni sovet imperializmining yangi shakli, “berilgan mustaqillik”dan “qaytarib olingan mustaqillik”gacha bo‘lgan bosqichlar sifatida baholaydi. Mahalliy mustaqil tadqiqotlarda esa Turkistonning parchalanishi, Alash-O‘rda, Turkiston Muxtoriyati, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalari tajribasi yangi faktlar va arxiv materiallari asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Shunday tarzda, Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan “milliy” sovet respublikalarini barpo etish siyosati o‘zida bir vaqtning o‘zida islomiy-sharqona meros, kolonial muqaddima va bolshevistik inqilob ideologiyasi to‘qnashuvini mujassam etgan murakkab tarixiy fenomen hisoblanadi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, u 1917–1924-yillar oralig‘ida Turkistonda amalga oshirilgan siyosiy o‘zgarishlarni nafaqat formal-huquqiy islohotlar sifatida, balki mintaqaning uzoq muddatli milliy-hududiy taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan kompleks geosiyosiy jarayon sifatida tahlil qiladi.

Maqolaning maqsadi – 1917-yil Oktyabr to‘ntarishidan keyin sovet hokimiyatining Turkistonda “milliy” sovet respublikalarini barpo etish bo‘yicha olib borgan bosqichma-

bosqich siyosati mohiyatini ochib berish, bu jarayonning asosiy bosqichlari, harakatlantiruvchi ichki va tashqi omillarini aniqlash, shuningdek Turkistonning bir necha “milliy” sovet respublikalariga bo‘linishi oqibatlarini tarixiy adabiyotlar va hujjatli manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning obyekti – 1917–1924-yillarda Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan davlat va ma’muriy-hududiy siyosat; predmeti – mazkur siyosat doirasida “milliy” sovet respublikalarini barpo etish g‘oyasi, uning amaliy mexanizmlari va mintaqaviy oqibatlaridir. Maqolada sifat jihatdan tahliliy, tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik usullaridan foydalaniladi, xorijiy va mahalliy tarixchilar asarlari, arxiv hujjatlari, shuningdek, sovet davridagi rasmiy nashrlar qiyosan o‘rganiladi.

Shu asosda keyingi bo‘limlarda Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, “milliy” sovet respublikalarini barpo etish bo‘yicha amalga oshirilgan bosqichma-bosqich siyosat, Buxoro va Xivada monarxiya tuzumlarining ag‘darilishi, Turkiston ASSR, XXSR va BXSR tajribalari hamda 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish jarayonlari alohida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va muhokama. Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va 1917–1924-yillarda “milliy” sovet respublikalarini barpo etish bo‘yicha amalga oshirilgan siyosatni o‘rganishda mavjud tarixiy-nazariy manbalar muhim ahamiyatga ega. Mavzuni tadqiq etish jarayonida xorijiy va mahalliy mualliflarning asarlari, arxiv hujjatlari hamda zamonaviy tarixshunoslikdagi yondashuvlar tahlil etildi. Ushbu adabiyotlar turli ilmiy maktablarning qarashlarini aks ettirib, sovet milliy siyosati mohiyatini har tomonlama yoritish imkonini beradi.

Avvalo, sovet hokimiyatining milliy masala bo‘yicha e’lon qilgan dastlabki siyosiy bayonotlari tahlil etilganda, “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi” (1917)ning g‘oyaviy asoslari yangi tuzumning siyosiy maqsadlarini ochib beruvchi muhim manba ekanligi ko‘rinadi. Deklaratsiyadagi “har bir xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi” kabi qoidalar bir tomondan Turkiston xalqlari orasida umid uyg‘otgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu qoida amalda siyosiy texnologiya sifatida ishlatilgani keyingi manbalarda tilga olinadi. Masalan, R.Deniyels, I.Ratikovskiy kabi g‘arblik tadqiqotchilar Lenin va bolsheviklar tomonidan milliy masaladagi shiorlar taktik xarakterga ega bo‘lganini ta’kidlaydilar. Ularga ko‘ra, bolsheviklar milliy mustaqillik tamoyilini rasman tan olgan bo‘lsalar-da, aslida markazning manfaatlariga mos “avtonom sovet respublikalari” tizimini shakllantirishni maqsad qilganlar.

Turkistondagi inqilobiy harakatlar dinamikasini yoritishda mahalliy olimlar — Q.Rajabov, M.Qoiygeldiyev, S.Ershahin, I.Hasanog‘lu tomonidan yozilgan maqolalar va monografiyalar muhim o‘rin tutadi. Q.Rajabovning Turkiston Muxtoriyati, Alash-O‘rda, Buxoro va Xivadagi siyosiy kurashlar bo‘yicha tadqiqotlari sovet hokimiyatining o‘lkadagi harakatlariga tanqidiy yondashuvni shakllantiradi. Uning fikricha, 1917–1920-yillardagi inqilobiy jarayonlar sovet hokimiyati tomonidan “milliy ozodlik” harakati sifatida emas, balki “sobiq mustamlakalarni markazga qaram holda saqlab qolish”ning yangi usuli sifatida yuritilgan.

Boshqa bir yo‘nalishdagi tadqiqotlar — xususan, G.Safarovning “Kolonialnaya revolyutsiya” asari Turkistondagi inqilobiy harakatlar mohiyatini sovet idorachilari nuqtai nazaridan yoritadi. Safarov Turkistondagi rus askarlarining va mahalliy sovet guruhlarining xatti-harakatlarini “iste’molchi kommunizmi” deb ta’riflar ekan, o‘lkadagi vaziyatning ziddiyatli va qaltis tabiatini yaqqol ko‘rsatib beradi. Uning bayonotida Turkistondagi inqilobiy harakatlar

mahalliy aholi manfaatidan koʻra, rus garnizonlari va inqilobiy kuchlarning ichki qarama-qarshiliklari bilan belgilangani ta’kidlanadi.

Shu bilan birga, Buxoro va Xivadagi sulola tuzumini agʻdarishga doir adabiyotlar ham mavzuda muhim oʻrin tutadi. “Buxarskaya Narodnaya Sovetskaya Respublika” haqidagi Bolshaya sovetskaya ensiklopediyadagi ma’lumotlar, Turkiston fronti harakatlarini yorituvchi asarlar, F.Xoʻjayev va yosh buxoroliklar faoliyatiga oid tadqiqotlar sovet intervensiyasining harbiy-siyosiy mexanizmlarini ochib beradi. Masalan, M.Frunze qoʻmondonligidagi bosqin 1920-yil 29-avgustda boshlab, qisqa fursatda Buxoro amirligining yiqilishini ta’minlagani haqidagi ma’lumotlar tarixiy jarayonning rejalashtirilgan va markazlashgan xususiyatga ega boʻlganini koʻrsatadi.

Gʻarb olimlari tomonidan yozilgan tadqiqotlar — jumladan, P. Bergnening Qoʻqon Muxtoriyati haqidagi ilmiy asari — Turkistondagi milliy davlatchilik harakatlariga mutlaqo boshqacha optikadan yondashadi. Unda bolsheviklarning Turkiston Muxtoriyatiga nisbatan dushmanona pozitsiyasi va uni harbiy kuch bilan yoʻq qilgani xalqaro huquq nuqtai nazaridan baholanadi. Bergnega koʻra, Qoʻqon Muxtoriyati qisqa umr koʻrgan boʻlsa-da, u haqiqiy milliy davlatchilik uchun ilk urinish sifatida tarixiy ahamiyatga ega.

I.Stalinning “Marksizm va milliy masala” hamda uning 1924-yildan keyingi siyosiy amaliyotini oʻrganuvchi tadqiqotlar mavzuda alohida toifa hisoblanadi. Bir tomondan, Stalin milliy masalani “iqtisodiy bazis”ga bogʻlab izohlaydi, boshqa tomondan esa, amaliy siyosatda milliy-hududiy chegaralanishni etnik guruhlarni bəl-bəl qilish va markazga bogʻlab qoʻyish strategiyasi sifatida qoʻllagan. Zamonaviy mualliflar — R.M. Cucciola, B. Dave kabi tadqiqotchilar bu jarayonlarni sovet davlatini mustahkamlashga qaratilgan geosiyosiy loyiha sifatida baholaydilar.

Arxiv manbalari (OʻzR PAA, 60-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 3177-yigʻmajild) esa tarixiy voqealarning toʻgʻridan-toʻgʻri guvohi boʻlib, sovet hukmronligi davridagi qarorlar, murojaatlar va ichki yozishmalarning mohiyatini ochib beradi. Bu hujjatlar Turkistondagi siyosiy oʻzgarishlarning koʻp jihatlari Moskvada shakllantirilgan markaziy siyosatning tarmoqli qismi ekanini tasdiqlaydi.

Tahlil qilingan adabiyotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, sovet hokimiyatining Turkistonda “milliy” respublikalarni barpo etish siyosati ikki qarama-qarshi yoʻnalishda rivojlangan:

- Rasmiy ritorikada — xalqlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilash, tenglik, millatlarning erkin rivojlanishi;
- Amalda — mintaqa ustidan siyosiy-nazariy hukmronlikni saqlab qolish, etnik guruhlarni parchalash, Moskvaga bogʻlangan mahalliy elitani shakllantirish.

Mana shu ziddiyatli tabiat mavzudagi barcha asosiy adabiyotlarda qay darajada boʻlmasin aks etgan. Ayniqsa, mahalliy tadqiqotchilar bu jarayonni mustamlakachilik siyosatining davomiy koʻrinishi sifatida baholaydi, gʻarblik olimlar esa uni bolshevistik inqilobning geosiyosiy strategiyasi sifatida koʻradilar. Sovet davri tarixshunosligi esa bu jarayonni sotsialistik davlat qurilishi doirasidagi “milliy tiklanish” sifatida talqin qilgan.

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlili Turkistondagi milliy-hududiy tashkilot va chegaralanish siyosati bir vaqtning oʻzida ham siyosiy-ideologik, ham geostrategik vazifalarni bajarganini, uning oqibatlari esa mintaqaning keyingi tarixiy rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir koʻrsatganini koʻrsatadi.

Muhokama. Turkiston xalqlari yarim asr davomida *(Bu yerda Turkiston yerlarining katta qismi 1867-1917-yillarda Turkiston general-gubernatorligi misolida Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lganligi nazarda tutilmoqda. Zero, 1917-yilga kelganda Turkiston o'lkasining katta qismi Rossiya imperiyasiga qaram bo'lib, rasman bo'lsa-da, o'z mustaqilligini saqlab qolgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi amalda "Rossiya imperatorining protektorati" ostida rus davlatiga qaram edi – A.Ya.)* Rossiya imperiyasining mustamlakachilik va o'lka boyliklarini o'zlashtirishga asoslangan iqtisodiy-moliyaviy tuzumi ostida yashagan bo'lsa, 1917-yil bahoridan o'lkada fevral burjua inqilobi va sovetlarning oktyabr to'ntarishi oqibatida jiddiy ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Fevral burjua inqilobi Rossiyada ko'p asrlik monarxiya tuzumiga barham bergan bo'lsa, sovetlarning V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar guruhi va boshqa muxolif unsurlar 1917-yil 25-oktyabrida Rossiyada shu yilning 1-sentyabrida Muvaqqat hukumat tomonidan e'lon qilingan [20: 26 b] respublika tuzumiga barham berdi. Rossiya va unga qaram bo'lgan o'lkalarda o'rnatilgan yangi – sovet tuzumi siyosat tarixida misli ko'rilmagan hodisa bo'lib, kelajakda butun dunyoda proletariat (mehnatkashlar – A.Ya.) diktaturasi o'rnatilajagini e'lon qildi. Bir so'z bilan aytganda bolsheviklar va boshqa so'l unsurlar yetakchiligida sovetlar tomonidan amalga oshirilgan davlat to'ntarishi sobiq Rossiyada imperiyasida o'rnatila boshlagan sovet tuzumidan tashqari barcha siyosiy tuzilmalarni rad qildi.

Bu yerda bolsheviklar guruhining yetakchilaridan biri L.Troskiyning 1917-yil oktyabr to'ntarishiga bo'lgan munosabati sovetlar tomonidan amalga oshirilgan to'ntarish va uning ortidan boshlangan inqilobiy o'zgarishlar ko'lamini tushunishda juda muhim hisoblanadi. 1917-yil 25-oktyabrda Muvaqqat hukumat joylashgan Qishki saroyga bostirib kirishdan oldin L.Troskiy A.Kerenskiy hukumatiga quyidagi talabni e'lon qilgan edi: *"Hukumatimiz (sovet hukumati – A.Ya.) Muvaqqat vazirlar mahkamasiga chinakam xalq hukumatini o'rnatishga yo'l ochish uchun ishonib topshirilgan hukumatni tarix supurgisi olib ketishini kutayotgan ayanchli va ojiz hukumat deb hisoblaydi"* [12: 69 b].

Shu bilan birga, L.Troskiyning 1917-yil 3-noyabr kuni Smolniy saroyiga chaqirilgan ishchi, dehqon va soldat deputatlari majlisida so'zlagan nutqi ham bu to'ntarish va uning ortidan boshlangan inqilobiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. L.Troskiy saroyga kelgan deputatlarga murojaat qilib, *"Xush kelibsiz, o'rtoq deputatlar! Siz bu yerga mehmon sifatida emas, balki rus inqilobining yuragi bo'lgan shu xonadonning xo'jayini sifatida keldingiz. Hozir bu zalda millionlab mehnatkashlarning irodasi birlashdi"* [12: 283 b].

Ta'kidlash joizki, sovetlar tomonidan amalga oshirilgan davlat to'ntarishi oqibatida boshlangan inqilobiy harakatlar faqat Moskva yoki Rossiyaning boshqa yirik shaharlari bilan chegaralanib qolmadi. Qisqa vaqt ichida Turkiston o'lkasi ham sobiq Rossiya imperiyasining deyarli barcha hududlarini qamrab olgan bu inqilobiy harakatlarning asosiy markazlaridan biriga aylandi. Chunki Petrogradda boshlangan keskin siyosiy o'zgarishlar Rossiya imperiyasining mustamlakasi bo'lgan Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Bu yerda ham ishchi, dehqon va soldat deputatlari Sovetlari tuzila boshlandi [18: 15 b].

1917-yil 25-oktyabrda Petrogradda sovet hokimiyatining o'rnatilgani e'lon qilingach, V.I.Lenin va bolsheviklar tomonidan e'lon qilingan dasturlar sobiq shu paytga qadar misli ko'rilmagan *va'dalarni o'z ichiga olgan edi. Xususan, "Non hamma uchun, mehnat hamma uchun", "Yer va suv dehqonlarga, zavod va fabrikalar ishchilarga!", "Butun hokimiyat sovetlarga!",*

“Xalqlarga tinchlik!” kabi shiorlarni o‘z ichiga olgan bu va’dalar Turkiston xalqlari uchun ham yarim asrlik mustamlakachilik hukmronligi nihoyasiga yetganligini anglatar edi. Shuningdek, keyinroq VKP (b) ga aylangan RSDRP (b) ning “Millatlar masalasi” deb nomlangan dekretida sobiq Rossiya imperiyasi tarkibidagi barcha xalqlarning Rossiyadan ajralib chiqish va mustaqillikka erishish huquqini tan olishini e’lon qilingan edi [8: 316 b].

O‘z-o‘zidan urush va ocharchilikka barham berilishi, krepostnoylikning amalda yo‘q qilinishi, yer va suv islohoti, xalqlarning suverenligi huquqining tan olinishi kabi va’dalar Turkiston oydinlari bir qismini sovet hokimiyatining qo‘llab-quvvatlashiga omil bo‘ldi. 1917-yil davomida Xiva va turkman oydinlari “Yosh xivaliklar”, buxorolik ma’rifatparvarlar “Yosh buxoroliklar”, Toshkent, Samarqand va Farg‘onalik oydinlar “Turkiston Muxtoriyati”, qozoqlar “Alash-O‘rda” harakatlariga birlashdilar. Ushbu harakatlarning ba’zilari sotsializmga intilib, bolsheviklar va boshqa so‘l unsurlar misolida sovet hokimiyatini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, Turkiston Muxtoriyati va Alash-O‘rda millatchilik xususiyati tufayli sovet hokimiyati tomonidan tan olinmadi. Ta’kidlash lozimki, bu vaqtga kelib Turkistondagi inqilobiy harakatlar fonida “yosh buxoroliklar” va “yosh xivaliklar” eng faol va radikal harakatlar hisoblangan. Tez orada ular sovetlarning bevosita harbiy va siyosiy “dastagi” bilan Buxoro va Xiva davlatlarida monarxiya tuzumini ag‘dardilar va bolsheviklarning “sovet davlati” tipidagi dastlabki “milliy” sovet respublikalarini barpo etdilar. Bu to‘g‘risida maqolaning keyingi qismlarida tahliliy ma’lumotlar keltiriladi.

1917-yil oktyabrida bolsheviklar va boshqa so‘l unsurlar tomonidan o‘rnatilgan sovet hokimiyati Rossiya imperiyasining Jahon urushidagi ishtirokiga va mamlakatda mavjud ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlikka barham berish zaruratidan kelib chiqqan bo‘lsa, tez orada Rossiya imperiyasining barcha hududlarida sovet tuzumini o‘rnatishga bo‘lgan harakat sobiq imperiya tarkibidagi barcha xalqlarni qamrab olgan fuqarolar urushiga aylanib ketdi. Ushbu vaziyatda fuqarolar urushining ikkita asosiy unsuri monarxiyachi va respublikachi “oq armiya” va so‘l unsurlarning qurolli guruhlaridan iborat bo‘lgan “qizil gvardiyachilar” sobiq Rossiya imperiyasi tarkibidagi o‘ziga o‘xshash unsurlar tomonidan qo‘llab-quvvatlana boshladi. 1917-yil davomida Turkistonda harbiy-siyosiy jihatdan yuzaga kelgan vaziyatni o‘lkada sovet respublikalarini tashkil etishda alohida g‘ayrat ko‘rsatgan G.Safarov *“Bu yerdagi askar va ishchilar ommasiga ichki osoyishtalik, fuqarolar tinchligi va milliy birlikning saqlashning hech qanday ma’nosi yo‘q edi. O‘zini o‘zi “demobilizatsiya” qilgan va “qizil gvardiyachilar”ga aylangan askarlar musulmonlarning yuqori qatlamlari, ulamo va boylari bilan aloqani yo‘qotmaslikka intilgan sobiq mustamlakachi ma’muriyat tomonidan o‘ziga va’da qilingan qulay turmush sharoitini yerli aholini talash hisobiga qo‘lga kiritdi. Rus kelgindilari to‘g‘risida hatto gapirmasa ham bo‘ladi. Fevral inqilobidan boshlab ular Turkistondagi qishloq va ovullarga xuddi o‘z hamyonlaridek xo‘jayinlik qila boshladilar. Agar askar va ishchi iste’molchi kommunizmi to‘g‘risida gapirish mumkin bo‘lsa, bu aynan shu yerda – imperiyaning sobiq mustamlakasi – Turkistonda yuz berdi [21: 67* b *]”*, so‘zlari izohlagan edi.

Bolsheviklar va so‘l unsurlar tomonidan amalga oshirilgan oktyabr to‘ntarishidan ilhomlangan so‘l unsurlar 1917-yil 1-noyabrda o‘lkada Rossiya imperiya mustamlakachilik siyosatining yurituvchi bo‘lgan general-gubernatorlikning ma’muriy davomi bo‘lgan Turkiston qo‘mitasi faoliyatiga barham berdi va Toshkent shahrida de-fakto sovet hokimiyatini o‘rnatdi [25: 51 b]. Buning ortidan 1917-yil 2-noyabrda e’lon qilingan va sovet hukumatining milliy masala bo‘yicha ilk hujjatlaridan biri hisoblangan “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi”da

[1] Rossiya xalqlarining tengligi va suverenligi, ularning o‘z taqdirini o‘zi belgilash, xususan ajralib chiqish va mustaqil davlat tashkil etish huquqi, barcha va har qanday milliy va milliy-diniy imtiyozlar va cheklovlarning bekor qilinishi va Rossiya hududida yashayotgan milliy ozchiliklar va etnik guruhlarning erkin rivojlanishi kabi asosiy negizlar qayd etilgan edi [14: 28-30 b].

Mazkur deklaratsiyada Rossiyadagi barcha xalqlarning teng huquqliligi ta’kidlangan, barcha diniy va milliy cheklovlar va taqiqlar bekor qilinishi ma’lum qilingan, eng muhimi, yangi Rossiyada har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi ta’minlashi e’lon qilingan edi. Ayniqsa, deklaratsiyaning 3-moddasiga ko‘ra, Rossiya tarkibidagi har bir xalqning Rossiyadan alohida mustaqil davlat sifatida yashash huquqiga ega ekanligining ta’kidlanishi. Turkiston xalqlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi [5: 66 b]. Bu o‘z navbatida Turkistondagi mahalliy madaniy va siyosiy elitaning, xususan ularning tarkibidagi radikal unsurlarning oktyabr to‘ntarishidan sovet hokimiyati va qizil gvardiyachilarni qo‘llab-quvvatlashida, Turkiston, Buxoro va Xivada hokimiyat jilovini o‘z qo‘llariga olish uchun bolsheviklar va boshqa so‘l unsurlar bilan ishbirlikchilik qilishlarida muhim omillardan biri bo‘ldi.

Aslida bu deklaratsiya o‘lka xalqlarining Fevral inqilobidan keyin boshlangan milliy suverenlik va muxtoriyatchilik kabi “millatchilik” harakatlariga javoban e’lon qilingan edi. Chunki tarixiy jarayonlarning tahlilidan ham ma’lumki, tez orada millatchi qozoqlar va boshqirdlarning sa’y-harakatlari bilan Alash-O‘rda Muxtoriyati [11: 156 b], Turkistonlik millatchilarning milliy, diniy va madaniy suverenlik uchun say-harakatlari natijasida Turkiston Muxtoriyati [2: 31 b] tashkil topgan edi. Rossiya imperiyasining sobiq protektoratlari Buxoro amirligi va Xiva xonligi Fevral inqilobidan so‘ng Muvaqqat hukumat va uning o‘lkadagi tamsilchisi bo‘lgan Turkiston qo‘mitasini qo‘llab-quvvatladi hamda bolsheviklar va boshqa so‘l unsurlarga qarshi qat’iy qarshi pozitsiyasini ko‘rsatgan bo‘lsalar, Oktyabr to‘ntarishidan keyin sovet hukumati tomonidan e’lon qilingan “Deklaratsiya”ga asoslanib o‘zlarining to‘la mustaqilligini e’lon qilgan edi [24: 4 b].

E’tiborli jihati shundaki, sovet hokimiyati “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi”ni e’lon qilish bilan birga “korenizatsiya” deb nomlangan markazsizlashtirish siyosatini ham amalga oshirishga qaror qildi. “Korenizatsiya” siyosati “mahalliylashtirish” siyosati bo‘lib, rus tilida “ildizga borish” degan ma’noni anglatadi. “Korenizatsiya” siyosati 1913-yildayoq bolsheviklar tomonidan qabul qilingan bo‘lib, I.Stalinning “Marksizm va milliy masala” asarida nazariy jihatdan asoslangan bu siyosat yangi tashkil etiladigan “milliy” sovet davlatlari hukumatlari tarkibiga faqat rusiyzabon yevropaliklarni emas, balki joylardagi milliy-inqilobchi kadrlarni ham kiritishga asoslangan edi.

I.Stalin tomonidan “muxtoriyatchilik” va “ajralib chiqish huquqi” barcha xalqlar va millatlar uchun zarurat ekanligini ta’kidlagan, shu bilan birga bu huquqni suiiste’mol qilishdan qochish zarurligi ta’kidlagan. Uning fikricha, yangi tashkil etiladigan har qanday siyosiy tuzilma yoki davlat K.Marks va V.Lenin tomonidan g‘oyaviy jihatdan asoslangan “sotsializm” yo‘lidan og‘ishmasligi kerak edi [22: 271-272 b]. Shu munosabat bilan u har bir millatni o‘zining ichki ijtimoiy-siyosiy harakatlariga ko‘ra loyihalash va sovet “inqilobi”ni amalga oshirish zarurligini ilgari suradi. Ammo Stalin “milliy davlat qurish masalasi”ni butunligicha iqtisodiy omillarga bog‘lagan. Unga ko‘ra, tuzilajak davrlarda ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, yer-suv masalalari hal qilinib *(bu yerda “natsionalizatsiya” ya’ni davlat ixtiyoriga zo‘rlik bilan olish nazarda tutilmoqda),* demokratlashtirishga erishilgach, milliy masala degan narsa

qolmaydi [22: 276-277 b]. Bu uning jiddiy xatosi bo‘lib, sovet hokimiyati tomonidan keyingi yillarda va aynan Stalinning boshqaruvi davrida amalga oshirilgan sanoatlashtirish va qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish yillarida millionlab kishilarning ochlikdan qirilib ketishiga sabab bo‘ldi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillardagi “milliy” davlatlar masalasidagi siyosati natijalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bolsheviklarning milliy masaladagi va’dalari va bayonotlaridan ilhomlangan, boshqa tomondan o‘lkaning yirik shaharlari zo‘rlik bilan sovet hokimiyatining o‘rnatilishidan chorasiz qolgan Turkistonlik millatchilarning o‘ng va markazchi, liberal va dindor kesimlari tamsilchilari Rossiyada mavjud kuchlarning qarama-qarshiligi yuzaga keltirgan harbiy-siyosiy vaziyat bergan fursatdan foydalanib, o‘z muxtor davlatlarini tashkil etishga muvaffaq bo‘ldilar. Qozoq va boshqird millatchilarining Alash-O‘rda va Turkistonlik o‘ng va markazchi guruhlarning Turkiston Muxtoriyati buning yorqin misolidir. Bu muxtoriyatlarni tashkil etgan millatchi zehniyatning sovet hokimiyati va bolsheviklar diktaturasiga nisbatan munosabatini Alash-O‘rda Muxtoriyati hukumatining rahbari A.Bukeyxonovning V.Leninga yo‘llagan maktubida keltirilgan “Rossiya proletariati asrlar davomida qozoq xalqiga zulm va jabr o‘tkazib keldi, agar ular podshoh o‘rniga oddiygina qirib tashlaydigan amaldorlar emas, mazlum xalqlarning ozod qiluvchisi bo‘lishlari kerak bo‘lsa, buni isbotlashlari kerak” [11: 160 b], so‘zlaridan ham bilish mumkin.

Sovet hokimiyatining 1917-yil noyabridan boshlab Turkistonda amalga oshirilgan “milliy” sovet respublikalarini tashkil etish bo‘yicha siyosati qizil armiya qismlari va dashnoq otryadlari tomonidan qonga botirilishi va RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil etilishi bilan boshlandi, deyish mumkin. 1918-yil 20-30-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan o‘lka Sovetlarning V qurultoyida Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi tuzilganligi e’lon qilindi [9: 319 b]. Qurultoy ayni paytda P.Kobozev raisligida Turkiston ASSR MIQ va F.Kolesov raisligidagi Turkiston XKS tartibini ham tasdiqladi. Turkiston MIQ va XKS tarkibi deyarli teng ravishda bolsheviklar va so‘l eserlardan tashkil topgan edi [25: 83-84 b]. E’tiborli jihati shundaki, Turkiston ASSR “milliy” sovet respublikasi deb e’lon qilinishiga qaramasdan, MIQ va XKS tarkibidagi kadrlarning asosiy qismi milliy emas, balki butunlay rus yoki rusiyzabon yevropaliklardan iborat edi [9: 319 b]. Buni qurultoyda yangragan *“Hozirgi davrda inqilobiy boshqaruvning yuqori o‘lka organlarida musulmonlarning ishtirok etishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, chunki mahalliy aholining ishchi va dehqon deputatlari sovetlari boshqaruviga munosabati ma’lum emas, aholi orasida esa proletarlar tabaqasi yo‘q”* [9: 319 b], degan so‘zlar bilan ham izohlash mumkin. 1922-yil dekabrida Turkiston ASSR Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqining ajralmas qismi deb e’lon qilindi [4: 4 b].

Rossiyadagi Fevral inqilobi e’lon qilgan g‘oyalarning ta’sirida Xiva xoni Asfandiyorxon 1917-yil 5-aprelda “Yosh xivaliklar” tomonidan taqdim etilgan islohotlar dasturini imzolashga majbur bo‘lgan hamda Xivada Bobooxun Salimov raisligida Majlis va Xusaynbek Matmurodov raisligida Nozirlar Kengashi tashkil etilgan edi. Oradan qisqa vaqt o‘tib, Muvaqqat hukumatning xonlikdagi kuchlari yordamida Asfandiyorxon Yosh xivaliklar hukumatiga qarshi urush ochdi va 1917-yil noyabrda Majlis faoliyatini tugatdi [25: 107 b]. Bolsheviklarning Turkistonda hokimiyat tepasiga kelishi ham Xiva xonligidagi siyosiy beqarorlikni o‘zgartirmadi, aksincha Asfandiyorxon o‘zi tomonidan Xivaga chaqirilgan turkmanlarning yovmut urug‘i sardori Junaidxon tomonidan 1918-yil 1-oktyabrda saroy to‘ntarishi oqibatida o‘ldirildi. Taxtga

xonning akasi Said Abdullaxon o‘tqazilgan bo‘lsada, amalda xonlikdagi butun hokimiyat Junaidxon qo‘lida jamlangan edi. 1920-yil 25-yanvarda Jumaniyoz Sultonmurodov boshchiligidagi Xiva inqilobiy qo‘mitasi xon hokimiyati va Junaidxon rejimini ag‘darish uchun Turkistondagi sovet hokimiyatidan yordam so‘rab murojaat qildi [8: 319 b]. 1920-yil 1-fevralda Turkiston fronti qo‘shinlari va ularga qo‘shilgan yosh xivaliklar Xiva shahrini egalladilar [23: 304-305 b] va Said Abdullaxon taxtdan voz kechdi [25: 112 b]. 1920-yil 26-30-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tuzilganligi e’lon qilindi.

1917-yil noyabr oyining boshlarida Turkistonda joylashgan qizil armiya qismlari Turkiston XKS raisi F.Kolesov qo‘mondonligida [8: 317 b] 1918-yil 2-martida Buxoro amirligiga qarshi uyushtirilgan avantyurada jiddiy mag‘lubiyatga uchragan va amir bilan 9 banddan iborat Qiziltepa bitimini imzolashga majbur bo‘lgan edi [26: 116-117 b]. Biroq “yosh buxoroliklar”ning F.Xo‘jayev boshchiligida tuzilgan 7 kishidan iborat Inqilobiy qo‘mitasi [25: 100 b] amir hokimiyatiga qarshi kurashni davom ettirdi va ular 1920-yilga kelib Turkistonda ancha mustahkamlanib olgan bolsheviklar yordamida 1920-yil avgustida amirga qarshi inqilob uyushtirishni rejalashtirdilar [13]. 1920-yil 16-18-avgust kunlari amir Sayyid Olimxon buxorolik kommunistlar *(Buxoro Kommunistik partiyasi 1918-yil 25-sentyabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Yosh buxoroliklarning yig‘ilishida F.Xo‘jayev boshchiligidagi guruh tomonidan tashkil etilgan edi)* va ularning ishbirlikchilari bo‘lgan bolsheviklarga qarshi g‘azovat (muqaddas urush) e’lon qilgan bo‘lsa-da, 1920-yil 29-avgustga o‘tar kechasi M.Frunze boshchiligidagi qizil armiya qismlari Buxoroga hujum boshladi [16: 12 b], 2-sentyabrda amirlik tuzumi qizil askarlar tomonidan ag‘darib tashlandi [25: 131 b]. 1920-yil 6-8-oktyabr kunlari Buxoro amirlarining yozgi saroyi – Sitorai Mohi Xosada chaqirilgan Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tuzilganligi tantanali ravishda e’lon qilindi [19: 378 b].

Umuman olganda Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va bolsheviklarning “milliy” sovet respublikalarining tashkil etish bo‘yicha olib borgan siyosatining birinchi bosqichi 1918 bahoridan 1920-yil kuzigacha bo‘lgan suronli davrni qamrab oladi. Turkistonning markaziy, janubiy va g‘arbiy qismlarida bu siyosiy o‘zgarishlar sodir bo‘lar ekan, uning shimolida tashkil etilgan Alash-O‘rda Muxtoriyati ham sovet hokimiyatining jiddiy qarshiligiga uchradi. Alash-O‘rda yetakchilarining sovet hukumati bilan tuzishga erishgan kelishuvi natijasida Qozoq inqilobiy qo‘mitasi 1919-yil 10-iyulda qozoq yerlarini amalda boshqarish huquqini qo‘lga kiritdi. 1920-yil 26-avgustda bu yerlar Qirg‘iz Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi nomi bilan RSFSR tarkibida huquqiy maqomga ega bo‘ldi [8: 317 b].

Sovetlarning Turkistonda milliy sovet respublikalarni tashkil etish bo‘yicha siyosatining 1924-yilgacha davom etgan birinchi bosqichida o‘lkada Qirg‘iz ASSR, Turkiston ASSR, XXSR va BXSR kabi siyosiy tuzilmalar paydo bo‘ldi. 1924-yil yanvaridan I.Stalinning hokimiyatning butun jilovini o‘z qo‘liga olishi oqibatida “korenizatsiya” siyosati o‘rniga “markazlashtirish” siyosati joriy etila boshlandi va o‘lkadagi barcha “milliy” sovet respublikalari tugatilib, ularning o‘rnida etnik tamoyillar asosida yangi sovet respublikalarini tashkil etish jarayoni boshlandi [10: 194 b]. Mintaqaning nufuzli va asosiy xalqi bo‘lgan o‘zbeklar chegaralanishdan eng katta jabr ko‘rdi [15: 7 b].

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyatining 1924-yildan keyin amalga oshirgan tadbirlari bugungi Turkiston – Markaziy Osiyo milliy-hududiy geografiyasini mohiyatan

shakllantirdi. Bolsheviklar Turkistonni nafaqat O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston kabi davlatlarga bo‘linibgina qolmay, balki Qoraqalpog‘iston va hatto Tog‘li Badaxshonga ham muxtoriyat maqomini berdi. Bu siyosatning eng muhim oqibatlaridan biri yerlarning nomutanosib taqsimlanishi natijasida kelajakda etnik nizolarning paydo bo‘lishi mumkinligi edi. Bu o‘z navbatida sovet hokimiyati va uning “milliy” sovet respublikalarini tashkil etish bo‘yicha bosh mafkurachisi I.Stalin tomonidan amalga oshirilgan rejaning asosiy g‘oyalaridan biri edi. Sovetlar mintaqa ustidan doimiy nazoratni saqlab qolishga harakat qilishdi va bu siyosatni “Bo‘lib tashla va hukmronlik qil” degan ma’noni anglatadigan “Divide et Impera” deb ifodalash ham mumkin.

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan “milliy” sovet respublikalarini barpo etish siyosati mazmun-mohiyati bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turganini ko‘rsatdi:

Birinchi natija shundaki, 1917–1924-yillarda Turkistonda “milliy” sovet respublikalarini tashkil etish jarayoni rasmiy ritorikada “millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi”, “teng huquqlilik” va “milliy tiklanish” shiorlari bilan asoslantirilgan bo‘lsa-da, amalda u markazlashgan totalitar tuzum manfaatlariga mos ravishda olib borilgan siyosiy-hududiy qayta taqsimlash siyosati bo‘lgan. Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalarining barpo etilishida mahalliy aholi manfaatlaridan ko‘ra Moskvada shakllantirilgan inqilobiy-siyosiy dastur ustuvor o‘rin tutgan.

Ikkinchi natija sifatida, Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilishi va “milliy” respublikalar tashkil etilishi, avvalo, harbiy yo‘l bilan hal etilgani ayon bo‘ldi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida monarxik tuzumning ag‘darilishi, Qo‘qon Muxtoriyati va Alash-O‘rda harakatlarining yo‘q qilinishida Qizil armiya qismlari va ular bilan hamkor so‘l guruhlarning qo‘lga qurol olgan holdagi ishtiroki hal qiluvchi omil bo‘lgan. Bu esa sovet milliy siyosatining zohirdagi “avtonomiya” shiorlari ortida zo‘ravonlikka tayanadigan imperiyaviy mexanizm yashirinib yotganini ko‘rsatadi.

Uchinchi natija shundan iboratki, “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi” va “korenizatsiya” siyosati dastlab Turkistondagi milliy-siyosiy elita va oydinlar orasida katta umid uyg‘otgan bo‘lsa-da, qisqa vaqt ichida ushbu siyosatning chegaralari va shartli xarakteri namoyon bo‘lgan. Turkiston ASSR MIQ va XKS tarkibida mahalliy musulmon kadrlarining cheklangan darajada va ko‘proq ikkinchi planga surilgan holda ishtirok etishi, yuqori boshqaruv pog‘onalarida rus va rusiyzabon yevropalik kadrlarning mutlaq ustunligi saqlab qolingani bunga yorqin misol bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchi natija, 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish siyosati Turkistonni bir butun tarixiy-geografik makon sifatida saqlab qolish emas, balki uni milliy-etnik va ma’muriy jihatdan parchalash, o‘zaro bog‘liq iqtisodiy-ijtimoiy hududlarni turli respublikalar tarkibiga ajratib yuborishga qaratilganini ko‘rsatdi. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Qoraqalpog‘iston kabi yangi davlat tuzilmalarining vujudga kelishi bir tomondan formal “milliy davlatchilik” obrazini yaratgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan kelajakdagi chegaraviy nizolar, resurslardan nomutanosib foydalanish va markazga siyosiy-iqtisodiy bog‘liqlikni chuqurlashtirish uchun zamin yaratgan.

Beshinchi natija sifatida aytish mumkinki, Turkistondagi milliy harakatlar — Turkiston Muxtoriyati, Alash-O‘rda, yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar faoliyati sovet hokimiyati tomonidan ikki xil yondashuv bilan baholangan: bir tomondan, ular bilan qisqa muddatli taktik

To‘plardan hollardagina odve chuyandan, tayerlangan. Mayda temir bilaklari, mix parchalari ustidan chumn quyilgan. Ba’zan yadro markaziga tosh ham qo‘yilgan. Ayrim yadrolarning markazi ataylab teshib qo‘yilardi. Otilgan vaqtda u tovush chiqarib uchgan va bu holat dushman qo‘shinini cho‘chitishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Dastlabki yadrolar portlovchi bo‘lmagan. Keyinchalik portlovchi yadrolar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Qo‘qon ustalari tomonidan yasalgan to‘plar, aytish mumkinki, zamonaviy talablarga javob bermagan. Bu xulosani rus harbiylari fikrlari ham tasdiqlaydi: “Qo‘qonliklar artilleriyasining samaradorlik va taktik darajasi nihoyatda past. Bundan tashqari ularning to‘plarini qimirlatmasdan mustahkam tutuvchi taglik va mo‘ljalga olish imkonini beruvchi birorta moslama mavjud emas [7,67-68]. Qo‘qon artilleriyasini ibtidoiy ko‘rinishda desa ham bo‘ladi”.

Harbiy sohadagi islohotlar, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, xonlikka ko‘plab chet ellik mutaxassislarning taklif etilishi, qo‘shinda zamonaviy tartiblarning joriy qilinishi, qurol yarog‘ning takomillashuviga olib kelgan. Mukammallashuv ayniqsa artilleriya sohasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mallaxon davrida Qobul orqali kelgan INGLIZ mutaxassislarining Qo‘qon ustaxonalarida to‘p va snaryadlar tayyorlashi, artilleriyaning jangovar qobiliyatini yanada oshiradi. Qo‘qon xonligi qo‘shini, xususan, artilleriyasining takomillashib borganligi rus armiyasi zobit va harbiy mutaxassislari hisobotlarida ham o‘z tasdig‘ini topgan. Sibir korpusining generali Gosfort 1855-yilning bergan hisobotida Qo‘qon qo‘shini takomillashib borganini quyidagicha bayon qiladi: “Ularning (Qo‘qonliklarning izonidaB.T.) lagerida bo‘lib qaytgan qirg‘izlar, chet elliklar va turk sultoni jo‘natgan harbiy mutaxassislar tomonidan qo‘shinda zamonaviy tartiblar joriy qilinganini ko‘rganliklarini bildirdilar”[8,301-302]. Qo‘qon qo‘shinidagi ijobiy o‘zgarishlarni general M.G. Chernyaev Chimkent qal’asini qo‘lga kiritganidan so‘ng oliy qo‘mondonlikka yozgan bayonotida ham tasdiqlaydi: “Chimkent qal’asini olishda biz artilleriyaning tezlik va aniqlik bilan o‘q uzishi va yerga kelib tushgandan so‘ng portlovchi yadrolarni ko‘rib hayratlandik [9,78-79]. Men qo‘lga kiritgan ma’lumotlarga ko‘ra Toshkentda to‘p quyish bilan yevropalik shug‘ullanayotgan ekan”, 1865 yil mayda Niyozbek qal’asini qo‘lga kiritgan general M.G. Chernyaev o‘z hisobotida Qo‘qon xonligi o‘z qurollarni takomillashtirganini yana e’tirof etgan. “Qo‘lga kiritilgan o‘ljalar orasidagi to‘plar, bizning to‘plar ishlangan. kabi sifatli va mustahkam Miltiqlariga ham bizniki kabi nayzalar o‘rnatilgan”. Bundan ko‘rinib turibdiki, oliy hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar qisman bo‘lsada, o‘z samarasini bergan [10,245-246]. Ammo, bundan chet ellik mutaxassislar kelgunga qadar Qo‘qon xonligida to‘plar son jihatidan kam bo‘lgan degan xulosaga kelmaslik kerak. Garchi Qo‘qon to‘plarining sifati talabga javob bermasa-da, son jihatidan salmoqli darajada bo‘lgan. Jumladan, 1854-yilga oid arxiv hujjatlarining ko‘rsatishicha, Qo‘qonda to‘p

quyish ustaxonasi mavjud bo‘lib, ma’lumot berilgan davrda bu markazda 17 dona to‘p tayyorlangan edi. Shu davrdagi ma’lumotlarga ko‘ra, Andijon shahrida ham anchagina katta qurol ishlab chiqaruvchi ustaxona bo‘lib, unda yiliga beshta to‘p tayyorlangan [11,47-48]. Tursunboy Abdusamatovich, [01.01.2026 22:34]

Shunday qilib, XYIII asr boshlarida Ashtarxoniylar davlatidan ajralib chiqqan Farg‘ona vodiysida Ming urug‘i Qo‘qon xonligiga vakillari tomonidan yangi davlat uyushmasi asos solindi. Bu davlat turli hukmdorlar davrida ham hududiy, ham siyosiy, ham ijtimoiy iqtisodiy jihatdan rivojlanib bordi. Qo‘qon xonlari Buxoro va Xiva hukmdorlari singari o‘z davrining siyosiy muammolari qo‘shni davlatlarning kezi kelganda qo‘shni olish orqali o‘z siyosatini amalga tajovuzkorona yurishlarini to‘xtatish, mamlakatlarning ayrim hududlarini bosib mamlakatlari kengaytirish hududlarini oshirdilar. Biroq ularning bu faoliyati mamlakat va mintaqada barqarorlikni o‘rnatishga olib kelmadi. Asosiy e’tiborni O‘rta Osiyo davlatlari bilan mavjud muammolarini harbiy usul orqali hal qilishga qaratgan Qo‘qon hukmdorlari bu masalalarni tinch yo‘l bilan, yaxshi qo‘shnichilik va ittifoqda bartaraf etishga harakat urinmadilar. Shu bilan bir qatorda O‘rta Osiyo xonliklari o‘z xavfsizligini kafolatlaydigan harbiy-siyosiy shartnomalarg‘a ega emasdilar. Buxoro amiri o‘zini Qo‘qon va Xiva xonlaridan O‘rta Osiyoda ham, xalqaro maydonda ham yuqori qo‘yishga intilar. O‘zaro yaqinlashish o‘rniga janjal va uzoqlashish qo‘shni xonliklarni zaiflashtirishni tashqi siyosatning asosi deb bilardi. Bu esa Rossiya imperiyasi uchun qulay imkoniyat edi natijada, O‘rta Osiyo xonliklaridagi bu nizoli holatdan Rossiya imperiyasi unumli foydalanib qoldi va Qo‘qon xonligi uning dastlabki qurboniga aylandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Avaz Muhammad Attor Ovannisyan. Qo‘qon xonligi tarixi Sharq yulduzi. 1991. No 8. 119-137-betlar
2. Valixonov Ch. Ch. Qo‘qon xonligi haqida eslatmalar Besh jildlik to‘plam asarlar. jild. 3. Olma ota 1985. - 415 b.
3. Vamberi A. Markaziy Osiyo bo‘ylab sayohat. Moskva: A.I. Mamantov nashriyoti, 1867. - 361 b.
4. Vamberi A. “Qo‘qon xonligi shaqarlari” O‘zbekiston-Aloqa. 1991 yil, 7-son, 8-9-betlar.
5. Veselovskiy N.I. "Turkiston mintaqasidagi rus istilolari haqida qirg'iz hikoyasi." Matn, tarjima va qo'shimchalar. Sankt-Peterburg. Bibliografik inventarizatsiya. 1894.-206 b.
6. Dolgorukiy D.M. "Qo'qonda besh hafta" Russian Herald. T-91. Moskva, 1871. 244-318 betlar.
7. Praporshik Potaninning Qo'qon xonligi (1830) haqidagi eslatmalari Sankt-Peterburg harbiy jurnali, 1831, 4-son, 102-139 betlar.
8. Isxoqxon Ibrat. Farqona tarixi. T.: Kamalak, 1991. 266-327 b.
9. XIV-XIX asrlarda Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo va Qozog'iston tarixi bo'yicha xitoy hujjatlari va materiallari. Almati: Gylym, 1994. 271 b.
10. Lunin, B.V. Manbalarda O'zbekiston tarixi. T.: Fan, 1990. 194 b.
11. Maksheev, A. 1849 yildan 1852 yilgacha Qo'qon xalqi tomonidan asirlikda bo'lgan Sibir kazaklari Milyushin va Batyrishkinning ko'rsatmalari // Vestnik Russkogo Geograficheskogo obshestva. -SPB, 1856. Ch17 (II). S. 21-31.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

ANALYSIS OF GLOBAL EXPERIENCE IN ECONOMIC AND ECOLOGICAL OPTIMIZATION OF WATER RESOURCE USE

Umurzakova Umida Nosirjanovna
Associate Professor, PhD,
Department of Social and Humanities
Navoi Innovation University

Gafurjonov Jamshidbek Furkat o‘g‘li
Master’s Student in Economics
Navoi Innovation University
Group IQ-101-25M

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the economic and ecological optimization of water resource use based on global experience. In the context of accelerating climate change, limited water availability, and increasing demand for water resources, improving the efficiency of water use has become a critical scientific and practical challenge. The study examines modern approaches to water resource management applied in developed countries, including integrated water resources management, economic incentive mechanisms, and the alignment of environmental constraints with economic efficiency. Furthermore, based on global practices, the article assesses the prospects for improving water resource use in Uzbekistan, with particular emphasis on water-saving management mechanisms and ensuring long-term environmental sustainability.

Keywords: water resources, economic and ecological optimization, global experience, water resource management, water efficiency, sustainable development, environmental balance.

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO‘YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, (PhD)

Gafurjonov Jamshidbek Furkat o‘g‘li
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi IQ-101-25M guruh magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy va ekologik mezonlar asosida optimallashtirish masalalari jahon tajribasi asosida kompleks tahlil qilinadi. Iqlim o‘zgarishi jarayonlarining jadallashuvi, suv resurslarining tabiiy cheklanganligi hamda suvga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi sharoitida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda. Tadqiqotda rivojlangan mamlakatlarda suv resurslarini boshqarishda qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, jumladan, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari va ekologik cheklovlarning uyg‘unligi yoritiladi. Shuningdek, jahon tajribasi asosida O‘zbekistonda suv resurslaridan

foydalanishni takomillashtirish, suvni tejashga yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish va barqaror ekologik muvozanatni ta’minlash imkoniyatlari ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so‘zlar: suv resurslari, iqtisodiy-ekologik optimallashtirish, jahon tajribasi, suv resurslarini boshqarish, suv samaradorligi, barqaror rivojlanish, ekologik muvozanat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N05

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy va ekologik mezonlar asosida optimallashtirish masalasi barqaror rivojlanish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, aholining o‘sishi, qishloq xo‘jaligi va sanoatda suvga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi hamda suv ekotizimlarining degradatsiyasi ko‘plab mamlakatlarda suv boshqaruvining an’anaviy mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda suvdan foydalanishni optimallashtirish iqtisodiy instrumentlar, ekologik cheklovlar va boshqaruvning havza tamoyiliga asoslangan modellari orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, suv sarfini normativ asosda tartibga solish, suvdan foydalanishda iqtisodiy rag‘batlar yaratish hamda suv resurslarining ekologik holatini doimiy monitoring qilish jahon amaliyotida o‘zini oqlagan yondashuvlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday tajribalar suv tanqisligi sharoitida resurslardan samarali foydalanish bilan birga, atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi davrda suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy va ekologik mezonlar asosida optimallashtirish masalasi global miqyosda barqaror rivojlanish siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi jarayonlarining jadallashuvi, suv resurslarining tabiiy jihatdan cheklanganligi hamda suvga bo‘lgan talabning izchil ortib borishi ko‘plab mamlakatlarda suvdan foydalanishning an’anaviy, asosan texnik yechimlarga tayanib shakllangan boshqaruv modelini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, suv resurslarini samarali boshqarish faqat suv ta’minotini kengaytirishga emas, balki mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik cheklovlarni hisobga olish va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini uyg‘unlashtirishga asoslanishi lozim.

Mazkur yondashuvning huquqiy ifodasi sifatida Yevropa Ittifoqida qabul qilingan 2000/60/EC-sonli Suv asosiy direktivasi alohida ahamiyatga ega[1]. Ushbu direktiva suv resurslarini boshqarishda havza tamoyiliga asoslangan integratsiyalashgan yondashuvni joriy etib, suv obyektlarining ekologik holatini ustuvor mezon sifatida belgilaydi. Direktiva doirasida suvdan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik ekologik barqarorlik bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, suv resurslarini boshqarish jarayonida ekologik oqimlar, suv sifati va ekotizim ehtiyojlarini majburiy hisobga olish talab etiladi. Shu orqali suvdan foydalanish iqtisodiy manfaatlarni ta’minlash bilan birga, uzoq muddatli ekologik barqarorlikka xizmat qiluvchi normativ asosga ega bo‘ladi.

Jahon tajribasida shakllangan ushbu tamoyillar O‘zbekiston sharoitida ham izchil tatbiq etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-apreldagi PQ-107-sonli “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori suv resurslarini boshqarishda samaradorlik va tejamkorlikni ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi[2]. Qarorda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tizimlarida yo‘qotishlarni kamaytirish, suv hisobi va monitoringini takomillashtirish orqali suv resurslaridan oqilona foydalanish

vazifalari belgilangan bo‘lib, bu yondashuv suv ta’minotini kengaytirishdan ko‘ra talabni boshqarishga asoslangan zamonaviy modelni aks ettiradi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot jarayonida suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish masalasini yoritishda zamonaviy suv boshqaruvi nazariyalari va jahon amaliyotida shakllangan ilmiy yondashuvlarga tayangan holda kompleks metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqot materiallari sifatida suv resurslarini boshqarishning konseptual asoslarini ochib beruvchi fundamental ilmiy maqolalar, shuningdek, iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni asoslaydigan empirik tadqiqotlar tanlab olindi. Ushbu manbalar suvdan foydalanish jarayonini alohida iqtisodiy yoki ekologik muammo sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq yagona tizim doirasida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish konsepsiyasiga tayandi. Mazkur konsepsiya suv, yer va ekologik resurslarni yagona boshqaruv obyekti sifatida qarab, resurslardan foydalanishda manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan. Savenije va Van der Zaag tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvda suv resurslarini boshqarish samaradorligi faqat texnik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki institutsional tuzilma, iqtisodiy manfaatlar va ekologik cheklovlar uyg‘unligi orqali belgilanishi asoslab berilgan [3; 290-297]. Ushbu nazariy qarashlar maqolada metodologik tayanch sifatida qabul qilindi.

Metodik jihatdan tadqiqotda tizimli-tahliliy va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Tizimli yondashuv suv resurslaridan foydalanish jarayonini murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizim sifatida o‘rganishga imkon berdi. Qiyosiy tahlil orqali turli mamlakatlarda shakllangan suv boshqaruvi modellari tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorligi va ekologik natijalari solishtirildi. Xususan, Avstraliyaning Murray–Darling havzasida suv huquqlarini bozor mexanizmlari asosida taqsimlash tajribasi suv tanqisligi sharoitida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgani ilmiy jihatdan asoslangan [4; 148-156]. Mazkur tadqiqot suv bozorlarining moslashuvchanlikni kuchaytirishi va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirishdagi rolini ochib beradi. Ekologik komponentni baholashda suv ekotizimlarining barqaror faoliyatini ta’minlash masalasi markaziy o‘rin tutdi. Shu munosabat bilan ekologik oqim tushunchasi asosiy metodik mezon sifatida qo‘llanildi. Poff va Zimmerman tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda suv oqimining o‘zgarishi chuchuk suv ekotizimlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asosda tahlil qilingan bo‘lib, ekologik oqimlarni saqlash suv resurslaridan foydalanishda majburiy ekologik cheklov sifatida qaralishi zarurligi ta’kidlangan [5; 1943-1969]. Ushbu yondashuv maqolada ekologik omillarni iqtisodiy qarorlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi.

Xususan, suv resurslaridan qayta foydalanish va suv ta’minoti barqarorligini oshirish masalalari alohida metodik yo‘nalish sifatida tahlil qilindi. Singapur tajribasi asosida olib borilgan tadqiqotlarda qayta ishlangan suvni (NEWater) milliy suv ta’minoti tizimiga integratsiya qilish orqali suv tanqisligini kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash mumkinligi ko‘rsatib berilgan [6; 611-621]. Ushbu model texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda institutsional boshqaruv va jamoatchilik ishonchining ahamiyatini ochib berishi bilan metodik jihatdan muhimdir.

Shuningdek, Isroil tajribasi ham suvdan foydalanishni optimallashtirishda muhim amaliy model sifatida tahlil qilindi. Tal tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tomchilatib

sug‘orish texnologiyalarining keng joriy etilishi suv mahsuldorligini oshirishi bilan birga, tabiiy resurslarga bo‘lgan ekologik bosimni sezilarli darajada kamaytirgani ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan [7; 52-63]. Ushbu tajriba suv tanqis hududlarda iqtisodiy va ekologik manfaatlarni uyg‘unlashtirishning samarali usullaridan biri sifatida baholandi.

Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan materiallar va metodlar majmuasi suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish masalasini jahon tajribasi asosida chuqur va tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Tanlangan metodologik yondashuvlar suvdan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikni birgalikda ta’minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar chiqarish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan tahlil natijalari suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish masalasi alohida texnik yoki moliyaviy choralar bilan emas, balki boshqaruvning tizimli modeli orqali hal etilishini ko‘rsatdi. Suv resurslari iqtisodiy faoliyat uchun ishlab chiqarish omili bo‘lishi bilan birga, ekologik tizimlarning barqarorligini ta’minlovchi asosiy tabiiy resurs sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli suvdan foydalanishni optimallashtirish jarayonida iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini ekologik cheklovlardan ajratib baholash mumkin emas. Integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish yondashuvi doirasida olib borilgan ilmiy qarashlar suv boshqaruvida rejalashtirish, monitoring va taqsimot bosqichlari yagona mantiqiy tizimda ishlaganda barqaror natijaga erishish mumkinligini asoslaydi. Agar ushbu bosqichlar o‘zaro uzilib qolsa, qisqa muddatli iqtisodiy foyda uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy yo‘qotishlarga olib kelishi ehtimoli kuchayadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy instrumentlarning joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularning samaradorligi ekologik cheklovlar bilan uyg‘unlashmagan holda cheklangan bo‘lib qoladi. Avstraliyaning Murray-Darling havzasida suv bozorlarini shakllantirish tajribasi suv tanqisligi sharoitida resurslarni qayta taqsimlash orqali iqtisodiy moslashuvchanlikni oshirganini ko‘rsatadi. Suv huquqlarining bozor mexanizmlari orqali harakatlanishi suvni yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarga yo‘naltirish imkonini bergan va shu orqali suv birligiga nisbatan iqtisodiy samaradorlikni oshirgan. Biroq tadqiqotlar shuni ham tasdiqlaydiki, bozor mexanizmlari o‘z-o‘zidan ekologik barqarorlikni ta’minlamaydi. Agar suv savdosi ekologik oqim me’yorlari, suv sifati standartlari va institutsional nazorat bilan mustahkamlanmasa, suv ekotizimlariga bo‘lgan bosim ortib boradi va resurslarning degradatsiyasi xavfi kuchayadi. Demak, iqtisodiy optimallashtirish instrumentlari faqat ekologik cheklovlar bilan parallel ishlaganda barqaror natija beradi.

Mazkur muhokama ekologik oqim tushunchasining suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirishda markaziy ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Oqim rejimining o‘zgarishi, mavsumiylikning buzilishi, minimal oqim darajasining pasayishi yoki oqim tebranishlarining kuchayishi daryo ekotizimlarining tuzilishi va funksional barqarorligiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ekologik oqim talabini oddiy tavsiya sifatida emas, balki iqtisodiy qarorlar uchun majburiy chegaraviy shart sifatida qabul qilish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik oqimni e’tiborsiz qoldirgan iqtisodiy optimallashtirish qisqa muddatda foyda keltirishi mumkin, biroq uzoq muddatda suv ekotizimlarining yemirilishi va resurs salohiyatining pasayishiga olib keladi. Bu esa oxir-oqibat iqtisodiy samaradorlikning ham kamayishiga sabab bo‘ladi. Shunday qilib, suv resurslaridan

foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish jarayonida ekologik oqim me’yorlari iqtisodiy instrumentlar bilan uzviy va uzluksiz bog‘langan holda ishlashi lozim.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda tahlil qilingan jahon tajribasi suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy-ekologik optimallashtirish masalasi O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish yondashuvi, iqtisodiy instrumentlarning ekologik cheklovlar bilan uyg‘un qo‘llanishi hamda ekologik oqim me’yorlarini saqlashga asoslangan boshqaruv modellari suv tanqisligi sharoitida resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Jahon amaliyotida suvni qayta taqsimlash, samaradorlikni oshirish va ekotizimlarni muhofaza qilish o‘rtasidagi muvozanatga erishilgan holatlar O‘zbekiston uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur tajribalarni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirishda suv xo‘jaligining transchegaraviy xususiyati, sug‘oriladigan dehqonchilikning ustunligi va iqlim o‘zgarishi ta’sirini inobatga olish zarur. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, suvdan foydalanishda iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish faqat qat’iy ekologik me’yorlar, samarali monitoring va institutsional muvofiqlik bilan birga olib borilgandagina barqaror natija beradi. Demak, mamlakatimiz uchun suv resurslarini boshqarishda jahon tajribasiga tayangan holda iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtiruvchi yondashuvlarni izchil joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Directive 2000/60/EC of the European Parliament and of the Council of 23 October 2000 establishing a framework for Community action in the field of water policy // Official Journal of the European Communities. - 2000.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-apreldagi PQ-107-sonli “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. -2023.
3. Savenije H.H.G., Van der Zaag P. Integrated water resources management: Concepts and issues // Physics and Chemistry of the Earth. 2008. - Vol. 33, No. 5. - Pp. 290-297.
4. Wheeler S., Loch A., Zuo A., Bjornlund H. Reviewing the adoption and impact of water markets in the Murray-Darling Basin, Australia // Journal of Hydrology. -2014. - Vol. 518. - Pp. 148-156.
5. Poff N.L.R., Zimmerman J.K.H. Ecological responses to altered flow regimes: a literature review to inform the science and management of environmental flows // Freshwater Biology. 2010. Vol. 55, No. 1. Pp. 1943-1969.
6. Lee H., Tan T.P. Singapore’s experience with reclaimed water: NEWater // International Journal of Water Resources Development. - 2016. Vol. 32, No. 4. -Pp. 611-621.
7. Tal A. Rethinking the sustainability of Israel’s irrigation practices // Water Research. - 2016. Vol. 90. -Pp. 52-63.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

THE PROCESS OF REFORMING SELF-GOVERNMENT BODIES IN UZBEKISTAN AS AN IMPORTANT INSTITUTION OF CIVIL SOCIETY

Yunusova Manzurakhon Pazliddinovna
Head of the Department of Social Sciences,
Andijan State University,
Doctor of Philosophy, Professor

Abstract. This article analyzes the process of reforming citizens' self-government bodies in Uzbekistan as an important institution of civil society based on a systematic and comprehensive approach. The study examines the historical formation of the mahalla institution, its legal and regulatory framework, its role in the decentralization of public administration, as well as its functional capacities in ensuring public participation. In addition, the content and essence of reforms aimed at improving the mahalla institution during the years of independence—particularly within the framework of strategic documents adopted in 2017–2023—are revealed. The research also analyzes the role of self-government bodies in the fields of social protection, public oversight, crime prevention, and work with families and women, and scientifically substantiates their significance for the sustainable development of civil society.

Keywords: civil society, self-government bodies, mahalla institution, decentralization, public oversight, democratic reforms, social partnership, rule of law, "Prosperous and Safe Mahalla".

O‘ZBEKISTONDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna
AnDU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri,
Falsafa fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida isloh etish jarayoni tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mahalla institutining tarixiy shakllanishi, huquqiy-me'yoriy asoslari, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish jarayonidagi o‘rni hamda jamoatchilik ishtirokini ta'minlashdagi funksional imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida, ayniqsa 2017-2023-yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar doirasida mahalla institutini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyati ochib beriladi. Tadqiqotda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy himoya, jamoatchilik nazorati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, oilalar va xotin-qizlar bilan ishlash tizimidagi roli tahlil qilinib, ularning fuqarolik jamiyati barqaror rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy asosda xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahalla instituti, nomarkazlashtirish, jamoatchilik nazorati, demokratik islohotlar, ijtimoiy hamkorlik, huquqiy davlat, "Obod va xavfsiz mahalla".

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N06

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mahalliy darajadagi boshqaruv

institutlari aholi manfaatlarini bevosita ifodalash, jamoatchilik faolligini oshirish va davlat hokimiyati faoliyatining ochiqligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda mahalla instituti tarixan shakllangan o‘ziga xos ijtimoiy boshqaruv shakli sifatida fuqarolik jamiyatining tayanch bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Mustaqillikdan so‘ng mamlakatda amalga oshirilgan siyosiy-huquqiy islohotlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini demokratik institut sifatida mustahkamlashga xizmat qildi. Ayniqsa, davlat boshqaruvini markazsizlashtirish, quyi bo‘g‘inlar vakolatlarini kengaytirish, aholini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylandi. Natijada mahalla institutining jamiyatdagi roli nafaqat ijtimoiy-ma’naviy, balki siyosiy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan ham sezilarli darajada oshdi.

Bu borada 2020-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida mahalla institutiga alohida strategik e’tibor qaratilgani diqqatga sazovordir. Murojaatnomada mahallaning jamiyatdagi o‘rni “jamiyatning yorug‘ yuzi va vijdoni ko‘zgusi” sifatida ta’riflanib, uni davlat va jamiyat boshqaruvi o‘rtasidagi eng muhim bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida rivojlantirish zarurligi ta’kidlandi. Shuningdek, mahalla institutining vakolat va resurslarini kengaytirish, uning aholi muammolarini hal etishdagi mustaqilligi va mas’uliyatini oshirish orqali fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Bu esa mahallaning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi ahamiyatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan konseptual yondashuv ekanini ko‘rsatadi[1].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida isloh etish jarayoni zamonaviy islohotlar kontekstida ilmiy tahlil qilinadi hamda mazkur jarayonning ijtimoiy barqarorlik va demokratik taraqqiyotga ta’siri asoslab beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlaridan keng foydalanildi. Jumladan, tarixiylik va mantiqiylik metodlari orqali mahalla institutining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari izchil tahlil qilindi. Tizimli yondashuv metodi asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik nazorati tizimi bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganildi.

Shuningdek, qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali milliy tajriba rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyoti bilan solishtirildi, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili yordamida mahalla institutini tartibga soluvchi qonun va farmonlarning mazmun-mohiyati ochib berildi. Statistik va empirik ma’lumotlarni tahlil qilish usullari orqali fuqarolar yig‘inlari faoliyatining amaliy samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari umumlashtirish va xulosalash metodlari asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari. Respublikada o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari mustaqillikka erishilgandan keyin fuqarolik jamiyatining institutlari sifatida taraqqiy eta boshladi. Davlatning bosh islohotchilik siyosatida o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlarini demokratik tamoyillarni asos qilib oldi, taraqqiy etishini ta’minlaydigan qonuniy asoslari vujudga keldi. Davlatda fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqaruvchi tashkilotlarining tamoyillari, mamlakatning qomusi va huquqiy me’yoriy hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan, fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlarning xarakteriga oid mahalliy ahamiyat kasb etuvchi funksiyalarni amalga oshirilishini tashkillashtiruvchi muhim qoidalar jamlanmasi asosidir. Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqaruv tamoyillariga mos bo‘lgan obyektiv nazariya va qarashlarda o‘z ifodasini topdi:

2013-yil 22-aprelda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida quyidagidek ifoda etiladi: “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir” deb qo‘yilgan. Qonunning 1-moddasining maqsadi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat[3].

Uning tashkilotlari faoliyatlarini tashkillashtirilishida hamda rivojlantirilishida aholining bilvosita qatnashishi ta’minlanadi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari faoliyatida xalq hokimiyatchilik tizimi tamoyillarini davlatimizda erkinlashtirish faoliyatini tez suratlarda amalga oshiradi, milliy va umum bashariy an’analarni yuksaklikka ko‘tarish, mustaqil fuqarolik jamiyatini shakllantirib borish, bu sohada fuqarolarning qatnashishlarini amalga oshirish vazifalarini bajaradi.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari Respublika“Mahalla” xayriya jamg‘armasining hududlardagi bo‘limlarida azaldan shakllanib kelgan milliy va ma’naviy an’analarni kengroq tashviq etish, eng sara milliy qadriyatlar va urf odatlarni yanada kengroq tarqatish, mamlakat xaqli orasida, madaniyat, ma’rifatga oid ishlarni kengroq yo‘naltirish, xayr-saxovat hamda odamiylik, insonlarning o‘rtasida bir-birlarini o‘zaro anglashi, ahil qo‘shnichilik g‘oyasini tushuntirib borishda faol tashviqot va targ‘ibot ishlarini yuritish, aniq hududlarda istiqomat qilayotgan ijtimoiy muhtoj oilalarni, nogironligi bo‘lgan shaxslarni, nuroniylarni hamda bola huquqini keng ko‘lamda ijtimoiy himoya qilish, xar xil an’anaga oid bo‘lgan marosimlarni tashkil qilish, mahalla hududini obod qilish; mamlakatda mahallar fuqarolari yig‘inlarini faoliyat olib borishini yaxshilashga doir ishlarni muvofiqlashtirib borish.[3; Б.87-89.]

O‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari davlat va jamiyat funksiyalarini boshqarib borishda aholini jalb etib borishga yordamlashadi, mamlakat apparati tashkilotlariga, yuqorida turuvchi davlat tashkilotlarining aktlarini mahalliy kengash deputatlari, hamda hokimlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni bajarilishida ko‘maklashish maqsadida aholini o‘zaro jipslashtiradi. Bugungi kunda davlatimizda 9794 ta fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari o‘zlarining faoliyatlarni olib bormoqda. Toshkentda 1165 tasi, Jizzaxda 305 tasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 401 tasi joylashtirilgan[4].

Ushbu tashkilotlarning faoliyati quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

• yosh oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali ularni qo‘llab-quvvatlash;

• ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga to‘y va boshqa marosimlarni o‘tkazishda moliyaviy yordam berish;

• xususiy biznesni rivojlantirish, shuningdek yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

• hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni rivojlantirishga ko‘maklashish.

Asosan ularning faoliyatida jamoatchilik nazoratiga doir bo‘lgan funksiyalarni faollik bilan amalga oshirilib kelinmoqda.

Muhokama. Bugungi kunda, yurtimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish sohasida bir talay islohotlarni amalga oshirilib kelinmoqda. Buning natijasida, olib borilayotgan islohotlarning asosiga e’tiborni qaratsak, boshqaruv tizimining markazlashtirish

orqali boshqarishdan, nomarkazlashtirish tizimiga o‘tib borayotganligi namoyon bo‘ladi, nomarkazlashtiriv tizimida esa, boshqarishning quyi bosqichi bo‘lgan, o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari funksiyalarini takomillashtirib borish, asosiy ahamiyatni ifoda etadi.

2017-2021-yillarni o‘z ichiga olgan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida, O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi faoliyatini “2018-2021-yillarda amalga oshirish nazarda tutilgan davlat dasturi loyihasini ishlab chiqishga doir vazifa qo‘yilgan.

Ushbu dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirib borish ko‘zda tutilgan:

- «Mahalla» jamg‘armasi tizimi va funksiyalarini takomillashtirib borish;

- o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlarga berilgan vakolatlarni amalga oshirishda konstruktiv uslublarni bir tizimga tushirish;

- o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlarining umumilmiy faoliyatlarni amalga oshirishlari uchun moddiy-texnika bazalarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

2017-yil 3-fevralda qabul qilingan “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4944-sonli farmoni O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari faoliyatida muhim bo‘lgan fuqarolik jamiyati institutlarini taraqqiy etishini ta’minlashda, uning huquqiy asosini zamini yaratildi. Ushbu farmonning mazmun-mohiyatiga nazar solsak, yurtimizda o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlarni fuqarolik jamiyati institutlari darajalariga ko‘tarib chiqilishiga oid islohotlarida tub burilish davrini vujudga keltirdi.

Unda, o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari faoliyatlari samarasini oshirib borish, bunda mahalla institutini halqa eng yaqin bo‘lgan xalqchil strukturaga aylantirib borish, fuqarolar yig‘inlarining chambarchas ehtiyojlarini ifodalovchi uyushmalarga birlashtirish huquqini kamol toptirishda ularning moliyaviy sharoitlarini mustahkamlab qo‘yish va davlat tashkilotlarining fuqarolik jamiyatining bir biri bilan hamjihatligini yana ham taraqqiy ettirish maqsadi strategiyasi va nazariyalari amalga oshirildi. Ushbu, farmonda mahalla institutlarining takomillashtirib borishning muhim yo‘nalishini amalga oshirishni quyidagicha belgilandi:

- o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlarning jamiyat siyosiy hayotidagi, roli va o‘rnini kuchaytirib borish, ularni joylardagi aholining samimiy ko‘makdoshi va maslakdoshiga aylantirib borish;

jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlab olishda, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, mahalla a’zolarida qonunga bo‘lgan hurmatni shakllantirishni kuchaytirib borish, ularning bilvosita qatnashishini kengaytirib borish;

o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari, qonuniy va huquqiy ehtiyojlarini himoyalashning faoliyatlarini mujassamlashtirishning samaradorligini oshirishdagi uslublarini joriy etib borishda mahalla doirasida yagona huquqiy tartibotni qo‘llab borish tajribasini ta’minlash[5].

Ushbu farmonning ijro etilishining ta’minlash maqsadlarida hukumatning 2017-yil 23-noyabrda 940-sonli “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra respublikaning hududlar kesimida belgilanganidek, shahar va tuman hokimliklarining o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari hamkorligida doimiy funksiyalarini olib borishi belgilab berildi:

- hududlarda iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiy ettirish dasturlarini hamda huquqiy me’yoriy aktlar loyihalarini tayyorlash va ularni ekspertiza qilish va amaliyotga tatbiq etish;

- hududlarda, ularni obod qilish ishlarini amalga oshirishni hamda ko‘kalamzorlashtirishni ta’minlashga, mahalladagi uy-joylar shirkatlarning faoliyatida yuzaga kelgan muammolarni aniqlab olish va ularning yechimlarini yechishga qaratilgan aniq maqsadlarni ochib beradigan tadbirlarni muntazam tashkil etib borish;

- oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy sharoitni o‘rganib borish orqali vujudga kelgan muammolarni yechimlarini topib va ularni bartaraf qilish bo‘yicha ta’sirli bo‘lgan jamoat nazoratini tashkillashtirish va amalga oshirib borish;

- ijtimoiy sohaga tegishli bo‘lgan obyektlar, dast avval, tibbiyot, maorif hamda boshqa turdagi muassasalarni unumli faoliyatlarini olib borishlarini ta’sirli tarzda chora-tadbirlarini amalga oshirib borish va ularning ijrosini ta’minlashda jamoat nazoratini bir tizimda olib borishga yo‘naltirish;

- tadbirkorlarga amaliy ko‘maklashish va yangidan ish o‘rinlarini tashkil etish, aholini doimiy ish bilan ta’minlab borish yuzasidan barcha sohalarni qamrab olgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borish;

- dehqon fermer xo‘jaliklari, aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida ularga ajratilgan tomorqa uchun yerlardan aniq maqsad asosida foydalanib borish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda fermer xo‘jaliklariga yordamlashish tadbirini ko‘rish;

- mahallarda huquqbuzarliklarni oldini olish, voyaga yetmagan hamda uyushmagan yoshlar orasida huquqbuzarliklarga qarshi profilaktika ishlarini olib borish[6].

Hozirgi davrga kelib, davlat boshqaruvida demokratik islohotlarni amalga oshirish vazifasini nazarda tutgan holda davlat hokimiyatining ba’zi bir vakolatini hududiy boshqaruv tashkilotlariga o‘tkazishga oid islohotlarni amalga oshirish. Boshqacha qilib aytilganda, hududiy hokimiyat tashkilotlari davlatning ijtimoiy, moliyaviy hamda siyosiy sohasini boshqarishda erkin va tashabbuskor subyektlarga aylanishiga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Shu bilan birgalikda, mahalliy boshqaruv bo‘g‘inida aholining o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotiga (shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari) ga ham nomarkazlashtirish tamoyili asnosida hokimliklarning ba’zi bir vakolatlarini bosqichma bosqich o‘tkazib borishga oid huquqiy asosni shakllantirish ko‘zda tutilmoqda. Tarixan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish shakli ko‘rinishida shakllanib kelgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi taraqqiyoti uchun huquqiy va ijtimoiy imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.02.2018-yilda qabul qilingan 117-sonli “Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolar yig‘inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga uslubiy-amaliy ko‘maklashish, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vazifalar ijrosini to‘laqonli ta’minlash tizimini shakllantirish hamda o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari faoliyat ko‘rsatishini umumlashtirish borasida respublika kengashi, shuningdek manfaatdor bo‘lgan vazirlik va idoralar hamda NNTlarning davlat organlari bilan birgalikdagi vazifasi hamda funksiyasini nazarda tutgan holda, fuqarolar yig‘inlaridagi jamoatchilik strukturasiga biriktirish.

Jamoatchilik tuzilmalarining muhim vazifasi etib quyidagilar belgilab olindi:

- mahallalarda mamlakat hamda NNT vazifalarining ijrosini ta’minlash, ular tomonidan ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan takliflarni bevosita joylardagi fuqarolardan olishda jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini kengaytirish;

- davlat va NNTlar faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda jamoatchilik tuzilmalari rolini oshirish;

- mahallalarda yuzaga kelayotgan turli muammolarni aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish va bartaraf etishda jamoatchilik tuzilmalari imkoniyatlarini samarali ro‘yobga chiqarish[7].

2018-yil 27-iyunda imzolangan PF-5467-sonli «Obod mahalla» dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni mahalla institutini nafaqat ijtimoiy jihatdan rivojlantirish, balqi uning iqtisodiy va moliyaviy asoslarini ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur farmonda mamlakatdagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi ochib berildi:

- barcha darajadagi mahalliy hokimliklar va kommunal tarmoq korxonalari tomonidan bevosita zimmasidagi muvofiqlashtirish vazifasining to‘liq bajarilmasligi oqibatida mahalladagi ijtimoiy va muhandislik infratuzilmalari nochor ahvolga tushib qolgan;

- mahallalar hududlarida aholiga xizmat ko‘rsatadigan tuzilmalarning faoliyati doimiy ravishda yo‘lga qo‘yilmaganligi oqibatida aholi kundalik ijtimoiy-maishiy masalalar bilan ham mahalliy hokimlik va davlat organlariga murojaat qilishga majbur bo‘lmoqda;

Shu bilan birga, Farmonda “Obod mahallar” dasturining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- har bir mahallada o‘z ichiga mahalla guzarini, tibbiyot maskanlari negizida qulay va arzon dorixonalarni, zarur maishiy xizmat va servis shoxobchalarini, bolalar maydonchasi hamda kichik istirohat bog‘ini qamrab oladigan “mahalla markazi”ni barpo etish;

- har bir mahallaning tarixan shakllangan tadbirkorlik va hunarmandchilik salohiyatini hamda ma’naviy-madaniy an’analarini qayta tiklash va rivojlantirish;

- mahalla ahlini elektr energiyasi, ichimlik suvi, ko‘mir va tabiiy gaz bilan ishonchli ta’minlash, maishiy chiqindilarni to‘plash va chiqarishning zarur infratuzilmasini yaratish va har bir oila energiya va kommunal xizmatlarga to‘lovni to‘liq xolda hamda o‘zining vaqt-soatida amalga oshirishi va xonadonlardagi o‘lchov-hisoblash uskunalarining bir maromda ishlashi uchun mahallaning mas’uliyatini keskin oshirish;

- mahalla hududidagi maktabgacha ta’lim muassasalarini, umumta’lim maktablarini, tibbiyot, madaniyat va jismoniy tarbiya xamda sport tashkilotlari bino va inshootlarini ustuvor ravishda rekonstruksiya qilish va ta’mirlash;

- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj oilalarga ularning uy-joylarini ta’mirlashda moddiy va moliyaviy yordam ko‘rsatish hamda aholini qurilish materiallari bilan imtiyozli tarzda ta’minlash[8].

Hozirgi davrda davlatda o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlarini fuqarolik jamiyatining institutlari funksiyalarini rivojlantirishning bosqichi 18 fevral 2020 yilda imzolangan PF-5938-sonli “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[9] gi farmonining qabul qilinishi bilan boshlandi. Farmonga asosan har bir mahallada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan oltita muhim yo‘nalishni ko‘zda tutuvchi boshqaruvning yangicha shakli joriy qilindi:

- jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko‘mak doshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish;

- xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

- jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish;

- mahalla institutining ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz, tizimli hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari va ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlarining roli va mavqeyini yanada oshirish, mustaqilligi hamda vakolatlarining amaliy samaradorligini ta’minlash;

- sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda xodimlarning mehnatini munosib rag‘batlantirish fuqarolar yig‘inlariga xos bo‘lmagan funksiyalar yuklatilayotganligi, ularning boshqa quyi idoralar bilan hamkorligi tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, oila, xotin-qizlar va keksalarga yordam ko‘rsatishning yaxlit tizimi mavjud emasligi, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar samarali natija bermayotganligi jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va qonun ustuvorligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi ko‘rsatib o‘tildi[10; B.3].

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi shuningdek ushbu vazirlikning hududiy kesimlari bo‘limlaridagi muhim vazifa “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to‘liq hamda sifatli amalga oshirilishida har tomondan ko‘mak berish, oila va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari birkalikda yaqindan aloqalar belgilanib, ushbu aloqalarni amalga oshirishni har tomonlama qo‘llash hisoblanadi.

Binobarin, mamlakatimizda tinch totuv hayotni ta’minlashda, xalqimizni fidokorona mehnatni amalga oshirishlarida, mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi[10; B.4.].

O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi quyidagi vazifa faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi:

Mahallalarda istiqomat qiluvchi oilalarda ijtimoiy-ma’naviy shart-sharoitlarini sog‘lomlashtirish uchun fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari hamjihatligini ta’minlash;

- Xotin-qizlarni qo‘llab borishga oid davlat siyosatini unumli amalga oshirib borilishini ta’minlab borish,ularni qonuniy va huquqiy ehtiyojlarini davlatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi o‘rni va faol bo‘lishlarini ta’minlash;

- Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlab borish, mehnat qilish muhitini yaxshilab borish, qishloq joylarda yashaydigan xotin-qizlarni,ayniqsa,yosh qizlarni xususiy tadbirkorlikka va oilaviy korxonalarni tashkil etishga ko‘maklashish, turli xil hunarlari o‘rgatishda keng ko‘lamda qo‘llab quvvatlash;

- fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari faoliyatlarini qo‘llab borish, ularni qonuniy va huquqiy ehtiyojlarini himoyalash, mahalla tizimlarini taraqqiy ettirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlarini jamiyat siyosiy hayotidagi roli va o‘rnini kuchaytirish, aholining kundalik muammolarini hal etish va ta’sirli tarzda jamoatchilik nazoratini rivojlantirib borish;

- mahallada qonun ustuvor ekanligini ta’minlab borish va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida profilaktika ishlari olib borish, davlat tashkilotlari va jamoat organlarining o‘zaro hamjihatligini mustahkamlab borish;

- fuqarolarning yig‘inlarini moddiy-texnikaviy ta’minotlarini yaxshilab borish va zamonaviy ommaviy axborot ishlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.-oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o‘rnatish;

- xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash;

- xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo‘llab-quvvatlash;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Fuqarolar yig‘ini raisiga o‘ziga tegishli bo‘lgan hududda profilaktika inspektorini xizmat vazifasini bajarishini baholab borishi, hamda uni faoliyatiga qarab rag‘batlantirishi yoki inspektorni ishdan bo‘shatishgacha bo‘lgan choralarni amalga oshirish uchun Ichki ishlar vazirligi hamda unga qarashli bo‘lgan hududiy bo‘linmalarida ko‘rib chiqish uchun majburiy taqdimnomalar kiritish huquqi berildi[10; B.4.].

2020-yil 12-fevralda Prezident Sh.M. Mirziyoyev raisligida mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilib, unda mahalla tizimi jamiyatimizning eng muhim va tayanch bo‘g‘ini hisoblanishi, oxirgi uch yilda uni rivojlantirish borasida qator amaliy ishlar amalga oshirilganligi ta’kidlab o‘tildi.

2017-2023-yillarda mahalla institutiga oid 90 ta qonun va me’yoriy hujjatlar qabul qilindi, ulardan 50 dan ortig‘i takomillashtirildi. So‘nggi besh yilda yilda 624 ta mahalla idorasi yangidan qurildi, 2 ming 265 tasi rekonstruksiya qilindi va ta’mirlandi, 102 ta tuman va shahar markazida “Mahalla markazi” majmualari barpo etildi, har bir fuqarolar yig‘inida “Keksalar maslahati” guruhlari, 4 mingdan ziyod mahalla binolarida kutubxonalar tashkil qilindi.

Mahalla faollarining mas’ul tashkilotlar va profilaktika inspektorlari bilan hamkorligida oxirgi besh yilda 87 mingga yaqin kam ta’minlangan oila ehtiyojmandlik darajasidan chiqarildi. Mahallalarda 18 mingdan ortiq xodim faoliyat ko‘rsatib kelayotgan bo‘lsa-da, ularning ishi samarali tashkil etilmaganligi, oilalarda ijtimoiy-ma’naviy shart-sharoitlarga yomon ta’sir etuvchi holatlarning oldini olish bo‘yicha tizim yo‘lga qo‘yilmaganligi o‘zining salbiy oqibatlarini namoyon qila boshlagan edi.

2020-yilning boshlarida 1 ming 234 ta fuqarolar yig‘ini turli tashkilotlar yoki tadbirkorlarga tegishli binolarda joylashganligi, ularning mingdan ziyodi ijtimoiy muassasalarda, 78 tasi qo‘shni mahalla yig‘inlari binolarida faoliyat ko‘rsatishi, 48 ta mahalla binosi avariya holatida ekanligi aniqlandi. Shuningdek, mahalla tizimida kadrlar qo‘nimsizligi odatiy holga aylanganligi, mahalla xodimlarini ularga bog‘liq bo‘lmagan ishlar, majlis va turli tadbirbozliklarga jalb etish kuchaygan edi. Shuningdek, bu davrga kelib mahalla fuqarolar yig‘inlari zimmasiga 200 dan ortiq vazifa yuklangan edi[11].

Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarining yashab borishini ta’minlab olish uchun davlat apparati tashkilotlarini zamonaviylashtirishning asosiy muhitini yaratish uchun bu

sohalarga oid bo‘lgan, islohotlar dasturini belgilab berdi: davlat boshqaruv apparatini vakolatlarini cheklash, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlanishi uchun o‘zini o‘zi boshqarishda zarur bo‘lgan, yetarlicha vakolatlarni berib borish. Mamlakatda mahalliy hokimiyat tashkilotlarining vakolatlarini qariyb yarimini markaziy boshqaruvdan, mahalliy hokimiyat tashkilotlariga o‘tkazib borish masalasi uni nomarkazlashtirishning muhim qismi bo‘lib, ushbu funksiyalarni bajarishda zamonaviy rivojlangan davlatlar tajribalarini o‘rgan xolda, ularni kundalik hayotga kengroq tatbiq etish, bugungi kunda dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Xulosa. Umumiy tahlillar shuni ko‘rsatadi-ki, O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida isloh etish jarayoni izchil, bosqichma-bosqich va tizimli xarakter kasb etayotganligini ko‘rsatadi. Mustaqillik yillarida, ayniqsa so‘nggi davrda amalga oshirilgan huquqiy-demokratik islohotlar mahalla institutining jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi hamda uni davlat va jamiyat o‘rtasidagi samarali bog‘lovchi bo‘g‘inga aylantirdi.

Davlat boshqaruvini markazlashtirilgan modeldan nomarkazlashtirilgan tizimga o‘tkazish jarayonida o‘zini o‘zi boshqarish organlariga berilayotgan vakolatlarning kengayishi ularning funksional imkoniyatlarini kuchaytirib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mahalla institutining ijtimoiy himoya, jamoatchilik nazorati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, oilalar, xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlashdagi roli tobora ortib borayotgani fuqarolik jamiyati barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

2017–2023-yillar davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat dasturlari mahalla institutining huquqiy, tashkiliy va moddiy-texnik negizlarini mustahkamlashga xizmat qildi. Ushbu chora-tadbirlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini davlat boshqaruvi tizimida faqat ijrochi emas, balki faol, tashabbuskor va mustaqil subyekt sifatida shakllanishiga imkon yaratdi. Xususan, “Obod va xavfsiz mahalla” konsepsiyasining amaliyotga tatbiq etilishi mahalliy miqyosda ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, jamoat xavfsizligini ta’minlash hamda aholining qonuniy manfaatlarini himoya qilishda samarali mexanizm sifatida o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlarini isloh qilish jarayoni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqiy davlat barpo etish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan strategik maqsadlarni amalga oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Kelajakda ushbu institutlarning huquqiy mustaqilligini kengaytirish, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlarini kuchaytirish, shuningdek, jamoatchilik ishtirokini yanada faollashtirish fuqarolik jamiyatining barqaror va uzluksiz taraqqiyotini ta’minlovchi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4057
2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonuni (25.04.2013) // http://taraqqiyot.uz/qonunchilik yangiliklari/article post/fuarolarning-zini-zi-bosharish-organlari-trisidagi-zbekiston.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-oktyabrdagi “Respublika «Mahalla” xayriya jamg‘armasi faoltiyani tashkil etish masalalari to‘g‘risida» gi qarori.

//Mahalla: o‘zini o‘zi boshqarish huquqiy kafolati (Qonunchilik va me’yoriy hujjatlar to‘plami). - Toshkent: 1999. - B.87-89.
4. O‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati takomillashmoqda // http://qoraqalpoq.adliya.uz/qora-qalpoq/uz/news/detail.php?ID=4374.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4944-sonli Farmoni (2017-yil 3-fevral) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - Toshkent: 2017. 6-son. 69-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida”gi 940-sonli qarori (2017-yil 23-noyabr)// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2017-yil 25-noyabr https://nrm.uz/contentf?doc=524135.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.02.2018-yilda qabul qilingan 117-sonli “Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2018-yil 17-fevral.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyunda qabul qilgan PF-5467-sonli “Obod mahalla” dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni//“O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”. - Toshkent: 2018-yil 2-iyul, 26-son, 508-modda.
9. O‘zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni. Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5938-son.// https://lex.uz/ru/docs/4740345
10. Bo‘stonov A., O‘rinov T., Tog‘ayqulov T., Seitov A., Fuqarolar yig‘inlari xodimlari faoliyatini manzilli tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. - Toshkent: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. - B 3-4.
11. “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili amalga oshiriladi http://www.uzavtoyul.uz/cy/post/obod-va-xavfsiz-mahalla-tamoyili-amalga-oshiriladi.html.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

TRADITION AND MORAL UNIVERSALISM IN THE CONTEXT OF PHILOSOPHICAL COMPARATIVE STUDIES

Karimov Khurshid Abdumannabovich
Senior Lecturer at Tashkent International University of Education

Abstract. The article is devoted to the analysis of the relationship between tradition and moral universalism in the context of philosophical comparative studies. It is shown that tradition acts not only as a form of preserving moral norms, but also as a dynamic space for the formation of moral meanings, in which universal values receive a specific cultural embodiment. Based on the comparison of Western and Eastern ethical concepts, the dialogical character of moral universalism, which is formed in the process of intercultural philosophical interaction, is substantiated. It is concluded that tradition and universalism are not opposed to each other, but complement each other, providing stability and semantic depth of moral thinking in the context of globalization.

Keywords: tradition, moral universalism, philosophical comparative studies, ethics, intercultural dialogue.

AN’ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA

Karimov Xurshid Abdumannabovich
“Tashkent International University of Education”
xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqola falsafiy komparativistika kontekstida an’ana va axloqiy universalizm o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilishga bag‘ishlangan. An’ana nafaqat axloqiy me’yorlarni saqlab qolish shakli, balki axloqiy ma’nolarni shakllantirishning dinamik makoni bo‘lib, unda universal qadriyatlar aniq madaniy ifodasini topishi ko‘rsatilgan. G‘arb va Sharq axloqiy konsepsiyalarini qiyoslash asosida madaniyatlararo falsafiy o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadigan axloqiy universalizmning dialogik tabiati asoslangan. An’ana va universalizm bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki bir-birini to‘ldiradi, globallashuv sharoitida axloqiy tafakkurning barqarorligi va mazmuniy teranligini ta’minlaydi, degan xulosaga kelingan.

Kalit so‘zlar: an’ana, axloqiy universalizm, falsafiy komparativistika, etika, madaniyatlararo muloqot.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N07

Kirish. An’ana va axloqiy universalizm nisbati muammosi zamonaviy falsafiy refleksiyada markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Globallashuv, madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi va me’yoriy xilma-xillikning o‘sishi sharoitida universal axloqiy asoslar imkoniyati masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy dunyo madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlashga qodir bo‘lgan, ularning qadriyatli va tarixiy o‘ziga xosligini buzmaydigan umumiy axloqiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqish zaruratiga duch kelmoqda.

Falsafiy an’anada axloqiy universalizm uzoq vaqt ratsional etikaning zaruriy sharti sifatida qaralgan. Madaniy mansubligidan qat’i nazar, barcha odamlar uchun umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan axloqiy me’yorlarning mavjudligi g‘oyasi Ma’rifatparvarlik loyihasi va axloqning universal asosi sifatida aql haqidagi g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liq edi. Biroq gumanitar fanlarning rivojlanishi, madaniyatlarni empirik o‘rganishning kengayishi va tarixiy

kontekstga e’tiborning kuchayishi axloqning mavhum universalist modellarini shubha ostiga qo‘ydi [1, p.88]. Axloqiy me’yorlar muayyan an’analar, amaliyotlar va hayot shakllari doirasida shakllanishi va anglanishi tobora ayon bo‘lib bordi.

Bunda an’ana axloqiy tafakkurning foni bo‘lmay qoladi va uning mavjudligining asosiy shartiga aylanadi. An’ana orqali qadriyatlar, me’yorlar va axloqiy dalillash usullari uzatiladi, shaxs va jamoaning o‘ziga xosligi shakllanadi. Shu bilan birga, an’ana turg‘un va yopiq shakllanish emas. U o‘zgaradi, talqin qilinadi va boshqa madaniy va falsafiy tizimlar bilan muloqotga kirishadi. An’ananing aynan shu dinamikasi uni umuminsoniy axloqiy tamoyillar muhokamasiga kiritish imkonini beradi.

Falsafiy komparativistika ushbu ziddiyatni tahlil qilish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Turli axloqiy an’analarni — G‘arb va Sharq, diniy va dunyoviy, klassik va zamonaviy an’analarni taqqoslash orqali qiyosiy yondashuv etnotsentrizm va bir tomonlama talqinlar doirasidan chiqish imkonini beradi. U axloqiy tafakkurning o‘ziga xos va universal elementlarini bir-biriga bog‘lamasdan aniqlash imkonini beradi. Shu ma’noda komparativistika shunchaki taqqoslash usuli emas, balki falsafiy muloqot shakli sifatida maydonga chiqadi [2, b.48].

Qanday qilib universal axloqiy g‘oyalar axloqning an’anaviy shakllari bilan ma’no chuqurligini yo‘qotmagan holda o‘zaro bog‘lanishi mumkinligi haqidagi masala alohida ahamiyat kasb etadi. Madaniy kontekstdan ajralgan universalizm hayotiy kuchga ega bo‘lmagan mavhum me’yoriy sxemaga aylanib qolish xavfi bor. Shu bilan birga, an’ananing o‘z me’yorlari bo‘yicha yopiqligi axloqiy relyativizmga va madaniyatlararo o‘zaro tushunishning imkonsizligiga olib kelishi mumkin. Falsafaning vazifasi ana shu chekkaliklar o‘rtasidagi muvozanatni topishdan iborat.

Zamonaviy falsafiy munozaralar axloqning dialogik modellariga tobora ko‘proq murojaat qilmoqda, ularda universal tamoyillar tashqaridan majburlanmaydi, balki turli an’analarni taqqoslash va o‘zaro tan olish orqali aniqlanadi. Bunda axloqiy universalizm qat’iy me’yorlar tizimi sifatida emas, balki qadriyatlarni muvofiqlashtirishning ochiq jarayoni sifatida tushunila boshlaydi. Bunday yondashuvda an’ana to‘siq emas, balki jonli madaniy shakllarda universal g‘oyalarni aniqlashtirish imkonini beruvchi axloqiy anglash manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya. An’ana va axloqiy universalizm nisbati muammosi zamonaviy falsafiy adabiyotda muhim o‘rin tutadi va turli nazariy yo‘nalishlar doirasida ko‘rib chiqiladi. G‘arb mumtoz falsafasida axloqiy me’yorlarning umumiyligi masalasi I.Kant asarlarida tizimli ravishda anglab yetilgan bo‘lib, uning uchun axloqiy qonun aprior va umumiy ahamiyatga ega edi. Uning qat’iy imperativ konsepsiyasi ratsionalistik universalizmga asos soldi, bu esa keyingi axloqiy nazariyalar va inson huquqlari bo‘yicha munozaralarga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Ayni paytda XX asr falsafasida mavhum universalizmni tanqid qilish kuchaydi. An’ananing rolini qayta ko‘rib chiqishga A. Makintayr katta hissa qo‘shdi, u axloqiy tafakkur har doim aniq tarixiy va madaniy amaliyotlarga asoslanganligini ko‘rsatdi. After Virtue asarida u an’anaviy shartlangan ratsionallik g‘oyasini asoslaydi, uning doirasida axloqiy me’yorlar faqat ma’lum bir hamjamiyat ichida ma’no kasb etadi. Shunga o‘xshash pozitsiyani Ch.Teylor rivojlantirib, shaxsning axloqiy o‘ziga xosligi mavhum universal tamoyillar orqali emas, balki madaniy va ramziy ufqlarga mansublik orqali shakllanishini ta’kidlaydi.

An’anani tushunishga germenevtik yondashuv G.-G.Gadamer asarlarida keltirilgan bo‘lib, u an’anani me’yorlarning qat’iy to‘plami sifatida emas, balki talqinning dinamik jarayoni sifatida ko‘rib chiqadi. Uning “tarixiy harakatdagi ong” g‘oyasi turli davrlarda axloqiy ma’nolar qanday yetkazilishi va qayta idrok etilishini tushunishga imkon beradi. Bu o‘rinda an’ana universalizm uchun to‘siq emas, balki uni mazmunli amalga oshirish sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Komparativ falsafa doirasida G‘arb va Sharq axloqiy tizimlarini taqqoslashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. R. Ams va D. Xollning konfutsiychilik falsafasiga bag‘ishlangan asarlari shuni ko‘rsatadiki, jen va li kabi tushunchalar relyatsion va kontekstual ko‘rinishda ifodalangan universal axloqiy intuitsiyalarni o‘z ichiga oladi. An’anaviy axloqning universal asoslarini ochib berishga shunga o‘xshash urinishlar islom falsafasida, xususan, S. X. Nasr asarlarida axloqning metafizik tartib va ma’naviy an’ana bilan bog‘liqligi ta’kidlangan.

Madaniy plyuralizm va mustamlakachilikdan keyingi tafakkur nuqtayi nazaridan universalizmni tanqid qilish M. Valser va B. Santos asarlarida keltirilgan. Ular turli jamiyatlarning madaniy o‘ziga xosligi va tarixiy tajribasini hisobga olmagan holda universal me’yorlarni majburan qabul qildirish xavfiga e’tibor qaratadilar. Shu bilan birga, Valser universal axloqiy minimumlar va ularni amalga oshirishning madaniy shartlangan shakllarini farqlashga imkon beradigan “nozik” va “qalin” axloq konsepsiyasini taklif qiladi.

Shunday qilib, falsafiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axloqiy universalizmning zamonaviy talqini ko‘pincha an’anaga qarshi emas, balki u bilan muloqotda amalga oshiriladi. Axloqning dialogik modeliga aynan shu burilish ushbu tadqiqotning nazariy doirasini belgilaydi.

Turli axloqiy an’analar va axloqiy tushunchalarni qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan falsafiy-qiyosiy yondashuv ishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv axloqiy tafakkurning universal va an’anaviy shakllari o‘rtasidagi farqlarni ham, kesishish nuqtalarini ham aniqlash imkonini beradi, ularni yagona reduksionistik sxemaga keltirmaydi.

Tadqiqotda G‘arb va Sharq mutafakkirlari asarlaridagi an’ana va universalizmning asosiy tushunchalarini tahlil qilishga qaratilgan tarixiy-falsafiy usuldan foydalanilgan. Bu usul axloqiy g‘oyalar evolyutsiyasini kuzatish va ularning kontekstual shartlanganligini aniqlash imkonini beradi. Axloqiy matnlar va falsafiy tushunchalarni ularning madaniy-tarixiy kontekstida talqin qilish uchun qo‘llaniladigan Gadamer va Rikyor g‘oyalariga asoslangan germenevtik usul qo‘shimcha hisoblanadi.

Qiyosiy-tahliliy usul turli axloqiy modellarni — Kant universalizmini, kommunitar va an’anaviy yondashuvlarni, shuningdek, sharqona axloqiy tizimlarni taqqoslash uchun ishlatiladi. Bunday taqqoslash turli falsafiy an’analarda namoyon bo‘ladigan universal axloqiy intuitsiyalarni aniqlash va ularni konkretlashtirishda an’ananing rolini belgilash imkonini beradi.

Umuman olganda, tanlangan metodologiya an’ana va axloqiy universalizm muammosining kompleks tahlilini ta’minlaydi, ularni axloqni falsafiy anglashning o‘zaro bog‘liq elementlari sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu madaniyatlararo o‘zaro ta’sir va falsafiy muloqot sharoitida axloqiy jarayonlarni chuqurroq anglashga zamin yaratadi.

Natijalar va muhokama. An’ana falsafada nafaqat yetkaziladigan me’yorlar, urf-odatlar va amaliyotlar majmui sifatida, balki, avvalo, ma’nolarni saqlash, anglash va tarjima qilishning o‘ziga xos usuli sifatida tushuniladi. Shu jihatdan, an’ana tarixiy xotira shakli bo‘lib, unda

avlodlar tajribasi, ularning qadriyat yo‘nalishlari va fundamental ekzistensial savollarga javob berish usullari mustahkamlanadi. An’ana orqali axloqiy xulq-atvorning barqaror modellari shakllanadi, yo‘l qo‘yiladigan va yo‘l qo‘yilmaydigan mezonlar belgilanadi, yaxshilik va yomonlik, burch va mas’uliyat, adolat va shaxs qadr-qimmati haqidagi tasavvurlar belgilanadi. Aynan an’ana axloqiy ongning vorisiyligini ta’minlaydi, ijtimoiy va madaniy hayotning barqarorligi uchun zamin yaratadi.

Falsafiy tafakkurda an’ana ratsional tafakkurga to‘siq emas, balki uning zaruriy sharti sifatida qaralmoqda. E.Byork, G.G.Gadamer va A.Makintayr asarlarida an’ana ichki yangilanish va o‘z-o‘zini tanqid qilishga qodir bo‘lgan jonli, ochiq va dinamik tuzilma sifatida talqin etiladi [2, b.55]. U o‘tmishni mexanik takrorlash emas, balki meros bo‘lib qolgan tajriba va hozirgi zamonning dolzarb muammolari o‘rtasidagi doimiy muloqotni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan an’anaviy axloq dogmatizm bilan aynan bir narsa emas. Aksincha, u aniq madaniy va tarixiy amaliyotga asoslangan amaliy oqilonalik shakli bo‘lib, unda axloqiy me’yorlar ularni qo‘llash va talqin qilish orqali ma’no kasb etadi.

An’anani tushunish gorizonti sifatida Gadamercha tushunish har qanday axloqiy hukm muayyan tarixiy vaziyat ichida shakllanishini ko‘rish imkonini beradi. Inson hech qachon an’anadan tashqarida fikrlamaydi, lekin uning mazmunini qayta ko‘rib chiqish orqali u bilan refleksiv munosabatda bo‘lishi mumkin [3, p.110]. Makintayr, o‘z navbatida, axloqiy ratsionallik faqat fazilatlar an’anasi ichida mumkinligini ta’kidlaydi, bu yerda qadriyatlar amaliyot va hayot shakllarida ildiz otgan. Shunday qilib, an’ana erkinlikni cheklash emas, balki ongli axloqiy tanlov sharti sifatida namoyon bo‘ladi [5, p.54].

Sharq falsafiy an’analarida, masalan, konfutsiylik yoki islom axloqshunosligida an’ana yanada fundamental mavqega ega. Bu yerda axloqiy tartib koinot, ontologik yoki ilohiy tartibning in’ikosi sifatida qabul qilinadi, axloqiy me’yorlar esa inson, jamiyat va umuman dunyo o‘rtasidagi uyg‘unlik shartlari sifatida qaraladi. Konfutsiychilikda an’ana marosim, oilaviy va ijtimoiy iyerarxiya bilan bog‘liq bo‘lib, unda axloq to‘g‘ri xulq-atvor shakllari orqali amalga oshiriladi. Islom falsafasida an’ana axloqiy, huquqiy va diniy o‘lchovlarni birlashtirib, axloqqa muqaddaslik maqomini beradi. Bu an’anaga nafaqat ijtimoiy, balki metafizik mazmun baxsh etib, uning me’yoriy ahamiyatini kuchaytiradi.

Axloqiy universalizm, o‘z navbatida, madaniy, diniy yoki tarixiy mansubligidan qat’i nazar, barcha odamlar uchun majburiy bo‘lgan umumiy ahamiyatga ega axloqiy tamoyillarning mavjudligi shartidan kelib chiqadi. Universalizm axloqning shunday asoslarini aniqlashga intiladiki, ular butun insoniyat hamjamiyati uchun umumiy tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Universal axloqning klassik ifodasi Kantning qat’iy imperativ konsepsiyasi bo‘lib, uning doirasida axloqiy qonun amaliy aql tuzilmasining o‘zidan kelib chiqadi va empirik holatlarga bog‘liq bo‘lmaydi.

Yevropa Yangi davr falsafasida universalizm inson huquqlari, shaxs avtonomiyasi va axloqiy tenglik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu g‘oyalar zamonaviy siyosiy-huquqiy tizimlar, xalqaro axloqiy me’yorlar va global adolat diskursini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Biroq universalizm ko‘pincha o‘zining mavhumligi va madaniy hamda tarixiy farqlarga yetarlicha e’tibor bermasligi uchun tanqid qilinadi. Mavhum shaklda ifodalangan universal me’yorlar ko‘pincha aniq ijtimoiy kontekstlarga nisbatan kam qo‘llaniladi.

Universalizm tanqidchilari, birinchi navbatda, kommunitarizm va postkolonial falsafa vakillari universal axloqiy me’yorlar ko‘pincha global me’yoriy kuchga da’vo qiluvchi ma’lum

bir sivilizatsiyaning qadriyatlarini aks ettirishini ta’kidlaydilar. Bunda universalizm madaniy gegemoniyaning betaraf va umumiy tamoyillar niqobi ostida yashiringan shakli sifatida talqin etiladi. Bunday tanqid hayotning aniq shakllariga asoslanmagan universal axloqning mavjudligini shubha ostiga qo‘yadi.

Falsafiy komparativistika “an’ana – universalizm” qat’iy dixotomiyasi doirasidan chiqib, ularni axloqiy tafakkurning bir-birini to‘ldiruvchi o‘lchovlari sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Falsafiy an’analarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab axloqiy tizimlar ramziy til va dunyoqarash asoslaridagi farqlarga qaramay, universal sifatida talqin qilinishi mumkin bo‘lgan elementlarni o‘z ichiga oladi. Adolatparvarlik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, boshqalar uchun mas’uliyat, uyg‘unlikka intilish g‘oyalari G‘arb va Sharq falsafiy tafakkurida uchraydi [5, p.44].

Masalan, konfutsiychilikning jen konsepsiyasida, adlning islomiy tushunchasida va nasroniylikning muhabbat etikasida o‘xshash axloqiy intuitsiyalar kuzatiladi, garchi ular turli konseptual va teologik shakllar orqali ifodalanadi. Komparativistik tahlil bu kesishgan tuzilmalarni yagona mavhum modelga keltirib qo‘ymasdan va madaniy farqlarni yo‘q qilmasdan aniqlash imkonini beradi. Aksincha, tafovut falsafiy tushunish va bir-birini boyitish manbaiga aylanadi.

Komparativistik kalitda universalizm dialogik xarakter kasb etadi. U tashqaridan tiqishtirilmaydi va tayyor me’yoriy sxema sifatida tasdiqlanmaydi, balki madaniyatlararo falsafiy muloqot jarayonida shakllanadi [6, p.29]. Bunday universalizm an’ana qadriyatini axloqiy ma’nolar manbai sifatida tan olishni va ayni paytda umuminsoniy axloqiy ko‘rsatmalarga ochiqlikni nazarda tutadi. Dialog bu yerda murosa sifatida emas, balki turli madaniyatlarda mavjud bo‘lgan chuqur axloqiy asoslarni aniqlash usuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Falsafiy komparativistikaning asosiy xulosalaridan biri universal axloqiy tamoyillar madaniy voqelanishning aniq shakllaridan tashqarida mavjud bo‘la olmasligini tushunishdir [7, p.48]. An’ana shunday makonga aylanadiki, unda umuminsoniy qadriyatlar mazmunan to‘ldiriladi va amaliy jihatdan ro‘yobga chiqadi. An’anaviy kontekstsiz universalizm ekzistensial va axloqiy kuchga ega bo‘lmagan rasmiy deklaratsiya bo‘lib qolishi mumkin.

Shu ma’noda an’ana universalizmga qarshi turmaydi, balki uning yashovchanligi va tarixiy barqarorligini ta’minlaydi. U umumiy axloqiy mo‘ljallarni muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarga ularning me’yoriy o‘zagini buzmasdan moslashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv globallashuv sharoitida, umumiy qadriyatlar va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish o‘rtasida nozik muvozanat talab qilinadigan ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatlar sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa. Falsafiy komparativistika an’ana va axloqiy universalizmni qarama-qarshi qo‘yish metodologik jihatdan cheklanganligini ko‘rsatadi. Haqiqatda esa ular o‘rtasida murakkab o‘zaro shartlanish munosabati mavjud. An’ana axloqiy me’yorlarning ildiz otishi va mazmuniy chuqurligini ta’minlasa, universalizm madaniyatlararo o‘zaro tushunish va axloqiy muloqot ufqini belgilaydi.

Global dunyo sharoitida aynan komparativistik yondashuv axloqning madaniy tafovutlardagi relyativistik singib ketishidan ham, insoniyatning tarixiy tajribasini e’tiborga olmaydigan mavhum universalizmdan ham qochish imkonini beradi. An’ana va universalizm

bu o‘rinda antogonistik emas, balki axloqni falsafiy anglashning bir-birini to‘ldiruvchi asoslari sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov R., Naumenko O., Saidova K., Elmuratov R., Bekbaev R. The Phenomenon of Education in the Context of an Intercultural Philosophical Approach // Wisdom. – 2022. – №4(24). – P.84-90.
2. Бекбаев Р.Р. Феномен традиции и традиционализм в истории восточной и западной философии: диссертация доктора философских наук (DSc). – Ташкент, 2025.
3. Gadamer, H.-G. Truth and Method. New York: Continuum, 2004.
4. MacIntyre, A. After Virtue: A Study in Moral Theory. Notre Dame: University of Notre Dame Press, 1981.
5. Nasr, S. H. Islamic Philosophy from Its Origin to the Present. Albany: State University of New York Press, 2006.
6. Santos, B. de Sousa. Toward a New Legal Common Sense. London: Butterworths, 2002.
7. Walzer, M. Thick and Thin: Moral Argument at Home and Abroad. Notre Dame: University of Notre Dame Press, 1994.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

THE FORMATION OF LOCAL CUSTOMS AND CEREMONIES IN UZBEKISTAN AND THEIR PHILOSOPHICAL-HISTORICAL ESSENCE

Egamberdiev Bakhiddin Bakhodir oglu
Teacher of the Namangan branch of the Tashkent International University of Chemistry

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the socio-philosophical aspects of local customs, traditions and rituals in Uzbek society. The introduction raises the issue of the balance between national values and traditions in the context of globalization. The article uses the following approaches - philosophical-analytical, historical-genetic, comparative and explanatory anthropological methods - synergistically and uses sources such as Bahodir Sarimsakov, Mahmud Sattor, Adham Ashirov, Usmon Khosil, as well as Rtveladze as information. Customs, as a system of social norms, add an "informal norm" to the actions of society. Customs and rituals serve as a meaning that ensures cultural and spiritual stability.

Keywords: tradition, ritual, custom, identity, collective consciousness, cultural changes, cultural policy in the republic.

O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali o‘qituvchisi
E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-2272-7775

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek jamiyatidagi mahalliy urf-odat, an’ana va marosimlarning ijtimoiy-falsafiy jihatlari chuqur tahlil qilingan. Kirish qismida globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar va an’analar o‘rtasidagi muvozanat masalasi ilgari suriladi. Maqolada quyidagi yondashuvlar – falsafiy-tahliliy, tarixiy-genetik, qiyosiy va izohli antropologik usullar sinergetik tarzda qo‘llanadi va ma’lumot sifatida Bahodir Sarimsoqov, Mahmud Sattor, Adham Ashirov, Usmon Xosil, shuningdek, Rtveladze kabi manbalardan foydalaniladi. Udumlar, ijtimoiy normalar tizimi sifatida, jamiyatning xatti-harakatlariga “norasmiy me’yor” qo‘shadi. Urf-odatlar va marosimlar madaniy va ma’naviy barqarorlikni ta’minlovchi ma’no vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: an’ana, marosim, odat, o‘zlik, jamoaviy ong, madaniy o‘zgarishlar, respublikadagi madaniy siyosat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N08

Kirish. Bugungi kunda globallashuv va texnologik inqilob jarayonlari butun dunyoda ijtimoiy-madaniy aloqalarni tezlashtirmoqda. Bu jarayonlar, axborot tezligi, migratsiya, ommaviy axborot vositalarining o‘sishi natijasida “ommaviy madaniyat” unsurlari keng tarqalmoqda. Bunday sharoitda har bir xalq o‘zining madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolish, qadriyatlar tizimini yo‘qotmaslik uchun kurashmoqda. Darhaqiqat, global ta’sir ostida xalqning urf-odatlari, udumlari, marosimlari sinovdan o‘tkazilmoqda: ba’zilari butunlay yo‘q bo‘lib ketsa, boshqalari yangi shakl va mazmunga moslashib bormoqda. Bunday holda quyidagi savollar ilmiy ustuvorlik kasb etadi: globallashuv jarayoni barcha xalqlarni bir butun bo‘lib birlashtiradimi yoki har bir xalq o‘ziga xos qadriyatlarini saqlab qoladimi? Bu savollarga javob

topish uchun urf-odat va marosimlarni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish zarur. Ushbu tahlil yordamida milliy o‘zlikni shakllantirish, jamiyat barqarorligini ta’minlash, ma’naviy birlikni saqlashda an’anaviy madaniyat qanday rol o‘ynashi mumkinligini aniqlashga harakat qilamiz. Nomoddiy madaniy meros konsepsiyasi doirasida urf-odatlar va marosimlar insoniyatning madaniy xilma-xilligini saqlab qolish vositalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. UNESCO nomoddiy madaniy merosni “madaniy xilma-xillikning ifodasi” deb ataydi va ularni muhofaza qilish uchun muhim deb belgilaydi [1:100]. O‘zbekiston misolida Navro‘z, Shashmaqom, Askiya, Boysun madaniy yodgorligi kabi an’analar nomoddiy meros ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ular nafaqat milliy meros, balki jahon miqyosidagi madaniy boylikdir [2:155]. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda milliy madaniy huquqlarni asrab-avaylash, yosh avlodga ularni yetkazish hamda madaniy o‘ziga xoslikni mustahkamlashda urf-odat va marosimlarni o‘rnini ilmiy jihatdan o‘rganish katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston mustaqillik davrida “milliy o‘zlikni tiklash” strategiyasini ilgari surdi. Biroq urf-odat va marosimlar juda uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanganligi sababli ularning mohiyatini faqat folklor yoki etnografik yondashuvlar bilan tushuntirishning o‘zi yetarli hisoblanmaydi? Boshqa tomondan, globallashuv bosqichi an’analarni tashqi ta’sirlar bilan aralashtirib yubormoqda, ba’zilari nomaqbul ravishda yo‘q bo‘lib ketmoqda, ba’zilari esa “zamonaviylashgan” shaklni qabul qilmoqda. Masalan, an’anaviy to‘ylarga g‘arb uslubidagi unsurlar kiritilib, sunnat va motamning o‘ziga xos tasvir va marosimlari soddalashtirilmoqdan. Shu bois maqolamizdagi muammo quyidagicha shakllantiriladi: urf-odat va marosimlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati nimada, ularning O‘zbekistonda tarixiy rivojlanishi qaysi falsafiy namunalarga bog‘liq holda shakllangan? Ya’ni, biz ularni oddiy folklor hodisasi sifatida emas, balki jamiyat, shaxs, tarix bilan uzviy bog‘langan mazmun tizimi sifatida ko‘rmoqchimiz. [4:168]

Maqolaning maqsadi o‘zbek xalqining urf-odat va marosimlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish va ularning jamiyatdagi bajaradigan vazifasini ochib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun urf-odat va marosimlarning ijtimoiy integratsiya, me’yoriylik, axloqiy tarbiya, o‘zlikni shakllantirish kabi jihatlari chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda marosimlarning tarixiy shakllanish bosqichlari, ularning asl ildizlari, hozirgi shakllari falsafiy jihatdan o‘rganiladi.

Tushunchalar tahlil – “urf-odat”, “udum” va “marosim” tushunchalarining falsafiy mazmunini aniqlash; bu jarayonda madaniyat nazariyasi va ijtimoiy falsafa tushunchalariga asoslanib, ularning farqli va o‘xshash tomonlarini ko‘rsatib berish hisoblandi. Jamiyatdagi urf-odat va marosimlarning ijtimoiy birlikni ta’minlashi, huquqiy me’yorlarni yaratishi, axloqiy tarbiya vositasi kabi asosiy ijtimoiy vazifalarini tahlil qilishdan iborat. O‘zbekistonda urf-odat va marosimlariga qadimgi zardushtiylikning aralashuvi, islom dinining ta’siri, sovet davridagi dunyoviylik, mustaqillik davrida va hozirgi globallashuv sharoitida o‘zgarishlarning shakllanish bosqichlarini falsafiy asosda tasvirlab beradi.

Emil Dyurkgeymning ijtimoiy birlik va jamoaviy ong nazariyasi, marosimlar tomonidan yaratilgan “jamoaviy yuksalish” g‘oyasi marosimning jamiyatning ma’naviy birlashuviga ta’sirini tushuntiradi. [5:145] Klifford Geertzning talqin qiluvchi antropologiyasi va “qalin tavsif” tamoyili, marosim va urf-odatlar nafaqat tashqi shakllari, balki ichki ramziy ma’nolari bilan ham tahlil qilinadi. Entoni Giddensning refleksiv zamonaviylik nazariyasi zamonaviy jamiyatda odamlar an’analarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqadilar va ularning ma’nolarini ongli ravishda yangilaydilar.

Sharq mutafakkiri Forobiyning ezgu jamiyat nazariyasi urf-odat va axloqqa asoslangan jamiyat barqarorligi, Beruniy madaniyatlararo hamdardlik boshqa xalqlar urf-odatlarini hurmat bilan o‘rganish, Navoiyning urf-odatlar va axloqiy tarbiya an’analari milliy ruhiyat ko‘zgusi sifatidagi dono qarashlariga asoslanadi. Bu nazariy uyg‘unlik go‘yoki qarama-qarshi bo‘lib ko‘ringan urf-odatlar – eski va yangi, konservativ va innovatsion elementlar o‘rtasida ilmiy muloqot o‘tkazish imkoniyatini beradi. [9:258]

Milliy o‘zlikni asrash, yosh avlodga an’anaviy qadriyatlarni to‘g‘ri tushuntirish va singdirish, madaniy g‘ururni rivojlantirishga xizmat qiladi. Madaniyatni rivojlantirish siyosati va strategiyasida to‘y, bayram va marosimlarni tartibga solishda davlat organlarining ilmiy asoslardan foydalanishi mumkin bo‘ladi. Ta’lim va tarbiyada maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlarida an’analar bo‘yicha interfaol o‘quv kurslar tashkil etishning nazariy asoslarini yaratadi. Madaniy merosni asrab-avaylashda an’ana va marosimlarning zamonaviy shakllarini aniqlash, ularni muhofaza qilish va targ‘ib qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Bilimlarni iqtisodiyotga tatbiq etishda an’analar va meros elementlarini turizm, madaniy tadbirlar va mahalliy biznes bilan birlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi [3:157].

Maqolada qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlar, ularning nazariy asoslari va maqola jarayonida o‘ziga xos qo‘llanilishi yoritilgan. O‘zbekistonda urf-odat, an’ana va marosimlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini hamda ularning tarixiy shakllanishini ishonchli, tizimli ravishda ochib berishdir. Maqolada bir nechta uslubiy yondashuvlar qo‘llanilgan. Ular bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda beriladi. Har birining o‘z imkoniyatlari va cheklovlari mavjud bo‘lib, ular orqali mavzuning turli tomonlari ochiladi. Bu yondashuv “urf-odat”, “udum”, “marosim” kabi tushunchalarning me’yoriy-axloqiy mohiyatini o‘rganadi.

Marosim va an’ana elementlarining kelib chiqishini aniqlash uchun zardushtiylik davri, fors madaniy ta’siri, islom davri, sovet davri ta’siri tahlil qilindi. Tarixiy manbalardan (qadimiy hujjatlar, arxiv materiallari, arxeologik topilmalar) foydalanib, marosimlarning shakllanish bosqichlari aniqlandi. “Evolyutsiya” tushunchasi genetik metafora sifatida ishlatiladi: urf-odatlar va qadriyatlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadigan jarayondir, ba’zilari yo‘qoladi, ba’zilari qayta ishlatila boshlaydi. Diaxronik tahlil **(**tarixiy rivojlanish jarayonini tahlil qilish**)** orqali an’analarning o‘zgarishi jarayonlari va ularning sabablarini aniqlashga harakat qilindi. Ushbu usulning afzalligi shundaki, u bizga marosimlarning zamonaviy shaklini nafaqat ularning tashqi ko‘rinishidan, balki tarixiy sharoitlarida ham tushunish imkonini berdi. Xalqaro yoki mintaqaviy miqyosda urf-odatlar va marosimlarni taqqoslash orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

O‘zbek urf-odatlari boshqa O‘rta Osiyo xalqlari masalan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston yoki turkiy-islom madaniyatlari bilan taqqoslandi. Taqqoslash natijasida umumiy tendensiyalar masalan, to‘y marosimlarini soddalashtirish va farqli jihatlari masalan, hududlar o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. Qiyosiy tahlil “millatlararo o‘zaro ta’sir” shakllarini madaniy sintez, uyg‘unlik, differensiatsiya ochib berdi. Qiyosiy usul mintaqaviy bilimlarga asoslangan yondashuvga olib keldi masalan, Rtveladze va boshqa tadqiqotchilarning Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari bo‘yicha asarlaridan foydalanildi. Qiyosiy usul o‘zbek urf-odatlarining umumiy madaniy yo‘nalishlarga qay darajada mos kelishini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.[6:75] Urf-odatlar, marosimlar va an’analarning ramziy ma’nolarini tushunish uchun talqin qiluvchi antropologik usullardan, xususan, Klifford Geertzning “qalin tavsif” tamoyilidan foydalanildi.

Maqolada nafaqat tashqi hodisalarni, balki ishtirokchilarning tushunchasi, niyatlari va sharoitini ham tushunishga qaratilgan. “Qalin tasvir” tushunchasi antropologning marosimni boshqa nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qilmasligini, balki undagi qatlamli timsollarni, sharoitni, ma’no to‘qimasini chuqur ochib berishini bildiradi[3:258]. Ushbu yondashuv marosim davomida ishtirokchilarning har bir tasviri, qo‘shig‘i, libosi, harakati va dialogini ramziy belgilar orqali izohlaydi. Maqolada bir vaqtning o‘zida antropolog rolini o‘ynab, ishtirokchilarni kuzatish va suhbat usullaridan foydalanadi. Izohlash usuli urf-odatlarni nafaqat tashqi shakldan, balki ichki ma’nolar qatlamidan ham o‘rganish imkonini berdi. Bu yondashuv madaniyatni “nisbiy ma’nolar tizimi” deb hisoblaydi, ularga obyektlar sifatida emas, balki tasviriy jihat sifatida yondashdi.

Tarixiy-genetik tahlil marosimlarning kelib chiqishi va rivojlanishini ramzlar asosida tushuntirdi. Falsafiy-tahliliy yondashuv bu evolyutsiyaning axloqiy va huquqiy mazmunini ochib berdi. Qiyosiy usulda an’analarning hududiy o‘ziga xosliklari aniqlandi. Interpretativ (izohli) antropologik metod zamonaviy kontekst va ishtirokchilarning tushunchalariga asoslangan marosimlarning ma’nolarini aks ettirdi. Bundan tashqari, maqolaning asosliligi va ishonchliligini ta’minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar qo‘llanildi. Manbalarni ko‘p usul bilan tahlil qilish yondashuvi asosida ochib berish turli manbalar (etnografik matnlar, arxiv hujjatlari, suhbatlar) orqali olingan ma’lumotlar solishtirildi va mos keladiganlari tanlandi. Boshqa tadqiqotchilar bilan o‘zaro munozara maqola natijalarini boshqa olimlar bilan muhokama qilindi, tanqidiy fikrlar inobatga olindi.

Har bir metodologik yondashuv ma’lum cheklovlarga ega bo‘lishi mumkin. Falsafiy-tahliliy yondashuvda nazariy tushunchalarning amaliy vaziyatga aloqadorligi muammosi paydo bo‘lishi mumkin. Tarixiy-genetik usulda ba’zi qadimiy manbalar yo‘qolishi yoki buzilgan bo‘lishi mumkin. Qiyosiy usulda solishtirilayotgan xalqlarning madaniy kontekstlari bir-biridan juda farq qiladi, shuning uchun ularni solishtirishda talqin qilishda xatolar bo‘lishi mumkin. Interpretativ antropologik usulda “qalin tasvir” konsepsiyasiga tayangan holda, subyektivlik va tahrirlash xavfi mavjud. Resurs cheklovlari vaqt, moliyaviy resurslar va joylarga kirishning yetishmasligi masalan, ba’zi chekka qishloqlarda marosimlarni bevosita kuzatish kamdan-kam uchraydi. Tadqiqot jarayonida olingan ma’lumotlar va ularni tahlil qilish natijasida quyidagi natijalarga erishildi.

Maqola natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek jamiyatida urf-odatlar rasmiy me’yorlardan tashqarida, lekin ular ijtimoiy xulq-atvorda faol faoliyat yuritadi. Urf-odatlar ko‘pincha “norasmiy normativ” vazifani bajaradi ya’ni ularga rioya qilmaganlar jamiyat tomonidan ijtimoiy tanqidga duchor bo‘lishi mumkin. Masalan, mahalla muhitida diniy odat bo‘lmagan taqdirda ham “qo‘shni xonadonga fotiha olib kelish” odati ijtimoiy hurmat belgisi sifatida qabul qilinadi. Bu odat jamiyatdagi muloqot va xulq-atvorni tartibga solish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, urf-odatlar ham jamiyatning dinamik normalariga moslashtiriladi: bir tomondan, ular rasmiy qonunlar va diniy normalar bilan chegaradosh bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular mahalla va jamoatchilik nazorati orqali uyg‘unlashtiriladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, urf-odatlar jamiyatning ijtimoiy normalari tizimida “me’yoriy ketma-ketlikni to‘ldiruvchi” element sifatida namoyon bo‘ladi.

Aniqlangan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, urf-odatlar jamiyatning madaniy barqarorligi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Udumlar — salomlashish, mehmondo‘stlik, hashar odatlari kabi kundalik hayotning takroriy odatlari jamiyat a’zolarini bir-biri bilan bog‘lab

turadi. Ular barqarorlikni saqlaydigan “madaniy ko‘priklar” bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, O‘zbekistonning qishloq mahallalarida har bir xonadonga ko‘maklashish hashar odati ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu odatlar nafaqat harakat tarzida, balki ma’naviy-axloqiy mazmunda ham tushuniladi kimgadir yordam kerak bo‘lsa, jamiyat uni qo‘llab-quvvatlash majburiyatini his qiladi. Shu tariqa urf-odatlar ham jamiyatda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash vositasiga aylanadi.[5:156] Marosimlar to‘ylar, nikohlar, motamlar, bayramlar va boshqa jamoaviy marosimlar jamiyatni ramziy va amaliy jihatdan birlashtiruvchi mexanizm sifatida maydonga chiqadi. Marosimlarda ishtirokchilar tasvirlar va belgilar orqali umumiy ma’noni yana bir bor tasdiqlaydilar. Maqoladagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, to‘y marosimida kelin-kuyov, mehmonlar, qarindoshlar dasturxon atrofida to‘planib, qo‘shiqlar, duolar, sovg‘alar orqali hamjihatlik hissini yaratadilar. Shunday qilib, marosimlar “ijtimoiy birlashish” mexanizmi sifatida ishlaydi va jamoa a’zolarini jamoaviy o‘ziga xoslikning bir qismini his qilishga undaydi.

Maqola natijalari shundan dalolat beradiki, urf-odatlar, udumlar va marosimlar orqali quyidagi asosiy ijtimoiy vazifalarni amalga oshiriladi.

Ijtimoiy integratsiya marosimlar va bayramlar paytida jamiyat a’zolari bir joyga to‘planadi, jamoaviy birdamlik hissi kuchayadi, bu “birlik holati” Dyurkgeym konsepsiyasidagi jamoaviy efervesansiyaga mos keladi.[4:145]

O‘zlikni shakllantirish urf-odatlar va marosimlar jamiyat a’zolari uchun “men kimman” degan savolga javob beradigan ramziy makon yaratadi. Yoshlar o‘zlariga mos keladigan urf-odatlarni qabul qiladi va o‘zlarining milliy o‘ziga xosligini tushunadilar.

Tarbiya urf-odat va marosimlar orqali axloqiy qadriyatlar, hurmat, mehnatsevarlik, o‘zaro munosabatlar tamoyillari yangi avlodlarga yetkaziladi. Tug‘ilish va nikoh marosimlarida ota-onalarga maslahat berish, oila va jamiyat qadriyatlarini taklif qilish kabi harakatlar tarbiyaviy vazifani bajaradi. Axloqiy me’yorlarni mustahkamlash urf-odatlar va marosimlar orqali jamiyatga mos axloqiy modelni qayta-qayta tasdiqlanadi “kattalarni hurmat qilish”, “mehmondo‘stlik”, “yordam berish” kabi qonunlar majburiy yoki ijtimoiy jihatdan amal qiladi. Bu vazifalarni tizimli ravishda bajaruvchi urf-odat va marosimlar jamiyatning ma’naviy-ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi.

Tarixiy-genetik tahlillar natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda marosimlarning dastlabki shakllari zardushtiylik va agrar davrlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Agrar ritmlar asosida bahor bayramlari, yomg‘ir chaqirish marosimlari, tabiatni uyg‘otish bayramlari shakllangan. Bu marosimlar bugungi Navro‘z bayramining ichki tuzilishi va ramziy tushunchasini belgilab beradi. A. Ashirovning “Avestodan meros urf-odatlar” asarida zardushtiylik davridagi qurbonlik, namoz, bayram unsurlari zamonaviy marosimlardagi izlari bilan tahlil qilingan, bu marosimlarning qadimiy ildizlarini ochishga xizmat qiladi. [11:145]

Vaqt o‘tishi bilan islom dini ta’sirida marosimlar rasmiy diniy me’yorlar bilan uyg‘unlashtirildi. Nikoh, motam va bayram marosimlari islom diniy tamoyillari bilan uyg‘unlashtirildi. Nikoh marosimida nikoh rishtasi, sevgi, sunnat, janoza va motamdagi ibodat kabi unsurlar shakllangan. Shu tariqa marosimlarning ichki ramziy tuzilmalari islomiy unsurlar bilan uyg‘unlashib, jamiyatdagi me’yoriy jihatlar mustahkamlandi.

Sovet hukmronligi davrida diniy unsurlar cheklangan, marosimlar esa dunyoviy shakllarga o‘tgan yoki qisqartirilgan. Ayrim diniy obraz va marosimlar ichki ma’nosini yo‘qotib, xalq og‘zaki ijodi shakliga o‘tadi. Maqolada aniqlangan misollarda davlat bayramlari madaniy

bayramlar sifatida tan olingan, ba’zi diniy marosimlarga “folklor” sifati berilgan.[13:156] Bunday o‘zgarish marosimlarning tashqi ko‘rinishini saqlab qolgan holda ma’nosini o‘zgartirishga sabab bo‘ldi.

1991-yildan mustaqillikka erishganimizdan keyin O‘zbekiston hukumati urf-odatlar, an’analar va marosimlarni milliy siyosat elementiga aylantirdi. Navro‘z bayrami davlat miqyosida nishonlandi, milliy sayil va bayram tadbirlari ko‘lami kengaytirildi, an’anaviy to‘y-hashamlarga davlat e’tibori kuchaytirildi. Shunday qilib, marosimlar nafaqat folklor hodisasiga, balki milliy o‘zlikni namoyon etishning ommaviy namoyishiga ham aylandi. Ayrim marosimlar (masalan, boychechak sayli, askiya) UNESCO ro‘yxatiga kiritilib, xalqaro miqyosda tan olingan. Bu jarayon jamiyatda marosimlar mavqeyining oshishi sifatida namoyon bo‘ldi.

Bugungi kunda marosimlar tobora xilma-xil shakllari ko‘payib bormoqda. To‘ylar video, fotosurat, sahna ko‘rinishlari, orkestrlar va xorijiy musiqa elementlarini o‘z ichiga olmoqda. Shu bilan birga, yoshlar marosim belgilarini qayta talqin qilmoqdalar. J. Beyer va P. Fink tomonidan O‘rta Osiyoda olib borilgan tadqiqotlarida “an’anaviylashtirish” jarayoni – an’analarni yangilash va qayta tiklash jarayoni tahlil qilingan va ularda G‘arb omillari va mahalliy qadriyatlarning o‘ziga xos sintezi ko‘rsatilgan. Masalan, O‘zbekiston qishloqlarida yog‘-o‘choq (kelin qaynonasining uyiga yog‘ sepish) marosimi o‘zining asl ramziy ma’nosini saqlab qolgan holda video tasvirga olingan va atmosferik bezatish marosimiga aylantirilgan.

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, urf-odat, udum va marosimlar zamon, siyosat va madaniy bosimlar natijasida shakl jihatdan o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyati — jamiyatni uyg‘unlashtirish, normativ me’yorlarni mustahkamlash, identitetni shakllantirish va axloqiy tarbiya vazifalarini bajarishda davom etmoqda.

Ushbu maqola natijalari shuni ko‘rsatdiki, urf-odatlar va marosimlar shaxs va jamiyat o‘rtasida ma’naviy bog‘liqlik vazifasini bajaradi. Bu bog‘lanish ikki tomonlama bo‘ladi. Jamiyat urf-odat va marosimlarni me’yoriy asos sifatida taklif qiladi, shaxs esa ichki talqin orqali ularning ma’nosini qabul qiladi. Bu jarayonni K. Gertsning talqin qilish nazariyasi orqali ham tushuntirish mumkin marosimlar va urf-odatlar shaxsiy dunyoqarash va jamiyat qadriyatlari o‘rtasidagi muloqotni tashkil qilib, “ma’no to‘qimalariga” ma’nolar tarmog‘i kiradi.[3:235] Shunday qilib, urf-odatlar va marosimlar shaxsga o‘zlik tuyg‘usini beradi, uni ma’naviy jihatdan yo‘naltiradi va jamiyat bilan aloqasini yoritadi. Bu bog‘lanishning mustahkamligi shundaki, urf-odatlar va marosimlar orqali jamiyatning ichki tasavvufiy tuzilmalari — qadriyatlar, ramzlar, cheklovlar shaxsga o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilish imkonini beradi. Shu ma’noda ular jamiyatning obyektiv tuzilishini ichki tajriba sifatida his qilish imkoniyatini beradi.

Emil Dyurkgeymning marosim va urf-odatlar nazariyasi makonda jamiyatni yaratuvchi kuch sifatida juda qulay zamin hamda sharoit yaratadi. Dyurkgeym marosimlarda “jamoaviy yuksalish” (xalqaro formatda “jamoaviy yuksalish”) qurilishini jamoa birligi va kuchli energetika hissi masalan, jamoa bir vaqtdagi ibodat qilganda his qilinadigan ruhiy uyg‘unlik sifatida tasvirlaydi. Bu holat, Dyurkgeymning fikricha, jamiyatdan ramziy-obyektiv shakllarga kelib chiqadigan kuchni yo‘qotadi va “muqaddas” unsurni shakllantiradi. Maqolada to‘y, bayram, motam marosimlarida ishtirokchilarning birgalikdagi hissiy kechinmalari, umumiy ma’naviy uyg‘unlik kuzatildi – aynan shu narsa Dyurkgeymning ko‘tarilish tushunchasiga yaqin hisoblanadi. Masalan, Navro‘z bayramida mahalla ahli bir-biri bilan qo‘shiq aytish, “yangi yil”ga birgalikda intilish orqali ichki ma’naviy uyg‘unlikni vujudga keltiradi. [1:45] Dyurkgeym

nazariyasida bir jihat ham bor: u tajribaning ichki holatini, marosimlarning subyektiv talqinlarini yetarlicha yoritmaydi. Shuning uchun bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun ko‘p tarmoqli va antropologik usullar qo‘llanilgan holda amalga oshiriladi.

Bronisław Malinovskiy antropologiya traditsiyasida madaniyat unsurlarini jamiyat ehtiyojlari kontekstida tahlil qilgan. U marosimlarni psixologik funksiyalar (qiyinchilik, noaniqlik paytida ruhiy barqarorlik) uchun zarur deb hisoblagan. Masalan, dehqonchilik davrida yomg‘ir chaqirish marosimlari jamiyatga umid va emotsional xotirjamlik beradi. Shu jihatdan, bizning natijalar ham ko‘rsatdiki, agrar marosimlar atrof-muhit xavfi yoki tabiiy muammolarga qarshi kollektiv psixologik usul bo‘lib xizmat qilgan. Biroq, Malinovskiy individual psixologik ehtiyojga haddan tashqari urg‘u beradi. Bizning tahlilimizda marosimlar nafaqat psixologik to‘qima, balki ramziy-ijtimoiy tizim bo‘lib, jamiyat barqarorligini saqlashda normativ yukni ham oladi.

Entoni Giddens zamonaviy jamiyatda an’analarni “qayta ko‘rib chiqish” va “refleksiv modernizatsiya” tushunchasini taklif qiladi. Shaxslar an’analarga mukammal bog‘liq emas, balki ularni qayta talqin qiluvchi vosita sifatida ishlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, urf-odatlar va marosimlar vaqtincha institutlar emas, balki doimo yangilanib turadigan tarkibiy kuchlardir. [6:159] Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda marosimlar zamonaviy tendensiyalarga (video, musiqa, kiyim-kechak, internet) moslashmoqda, lekin ularning ichki ma’nolari saqlanib qolgan. Bu Giddensning tuzilma-agentlik dualizmi konsepsiyasiga mos keladi — marosim tuzilma bo‘lsa-da, u vositalar (jamiyat a’zolari) tomonidan ham yangilanadi.

Abu Nasr Forobiyning ezgu jamiyat konsepsiyasida jamiyat barqarorligi va farovonligi solih (axloqiy odatlarga ega) shaxslar orqali shakllanadi, deb ta’kidlanadi. U ezgulik va odatlarni jamiyat barqarorligini ta’minlovchi omillar deb bilgan. Bu g‘oya bevosita o‘zbek urf-odat va marosimlariga to‘g‘ri keladi – urf-odatlar orqali ezgu odatlar (namoz, ehson, ezgulik) jamiyat ro‘yxatiga kiritilgan.[8:245]

Alisher Navoiy asarlarida saxovat, mehr-muruvvat, keksalarni e’zozlash kabi fazilatlar alohida ta’kidlanib, ularni jamiyatning ma’naviy ustunlari deb atagan. Navoiy o‘zining “Odat el og‘zidadir, millatni boyitadi” degan so‘zlari bilan odatning jamiyatni boyitish, obod qilish, barqarorlik, ma’naviyat farovonligi omili sifatidagi ahamiyatini ifodalaydi. Bu g‘oya urf-odat va marosimlarning ma’naviy mazmunini mustahkamlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida urf-odat va marosimlar milliy o‘ziga xoslik va jahon tendensiyalari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash vositasi darajasiga ko‘tarilmoqda. Jahon madaniyati bosimi ostida an’analar yo‘qolib ketish xavfi ostida, biroq kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek jamiyati bir tomondan zamonaviylikni qabul qilsa, ikkinchi tomondan milliy o‘zlikni tiklashga intilmoqda. Masalan, yoshlar o‘rtasida milliy liboslar kiyish, marosim qo‘shiqlarini ijro etish, hududiy urf-odatlarni ulug‘lash – bular o‘zlikni isloh qilish jarayonlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, g‘arb uslubi va texnologiyasining marosimlarga singdirilishi. Marosimning tashqi ko‘rinishi yangilanadi, lekin ichki ma’nolari saqlanib qoladi. Bu jarayon Giddensning refleksiv modernizatsiya nazariyasiga mos keladi. Jamiyat a’zolari marosim va marosimlarni ongli ravishda tanlaydilar va sharhlaydilar, ularni yangilaydilar. Binobarin, urf-odat va marosimlar vaqtincha yodgorliklar emas, balki hozirgi zamon ma’no tizimiga moslashgan muassasalardir.

Xulosa. Maqolada shuni koʻrsatdiki, oʻzbek jamiyatida urf-odatlar, udumlar, marosimlar shaxsiy xatti-harakatlarga rahbarlik qiluvchi va jamiyat barqarorligini mustahkamlovchi norasmiy normalar tizimi vazifasini bajaradi. Marosimlar (toʻylar, motamlar, mavsumiy va diniy bayramlar) jamoa aʼzolarini bir vaqtning oʻzida bir harakat va hissiy holat atrofida birlashtiradi, Dyurkgeymning "jamoaviy koʻtarilish" mexanizmini real tarzda namoyish etadi, bu oʻz-oʻzidan ijtimoiy birdamlik, "muqaddas" va "dunyoviy" chegaralarni qayta belgilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, M. Mausning "sovgʻa va oʻzaro almashuv" – berish, olish va qaytarish majburiyatlari oʻzbek toʻy tizimidagi "sovgʻa-salom", "koʻrmana", "mahr", "sep" kabi amaliyotlar orqali qarindoshlik va mahalla tarmoqlarini mustahkamlaydi; sovgʻa iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-ramziy aloqadir. [12:102] M. Malinovskiy taʼkidlagan psixologik qoʻllab-quvvatlash vazifasi, shuningdek, marosimlarda, ayniqsa, katta tashvish (kasallik, hosil, ob-havo) davrida "umidning institutsionalizatsiyasi" shaklida ishlaydi. K. Geertzning "qalin tasvir" yondashuvi marosimlar maʼnosining ichki qatlamlarini — jamiyatning ramz, nutq, qoʻshiq va odob orqali "oʻzini talqin qilish" jarayonini talqin qilish imkonini berdi.

Islom davrida nikoh, motam va bayram marosimlari diniy-huquqiy normalar bilan umumlashtirilgan; Sovet davrida koʻpchilik marosimlar dunyoviylashtirilgan, baʼzilari esa folklorga "koʻchirilgan". Mustaqillikdan soʻng Navroʻz, Askiya, Shashmaqom, Boysun madaniyat maskani kabi unsurlar davlat darajasida qayta tiklandi va xalqaro roʻyxatlarga kiritildi; bu jarayon milliy oʻzlikni anglash siyosatining madaniy poydevorini mustahkamladi.

Hozirgi globallashuv davrida marosimlar texnologiya, ommaviy madaniyat va bozor mexanizmlari bilan oʻzaro aloqada boʻlib, ularning shakllarini (masalan, audiovizual, ssenariy, liboslar) yangilaydi, shu bilan birga oʻz mazmunida mahalliy maʼno va qadriyatlarni saqlaydi — Giddensning "refleksiv modernizatsiya" tavsifining mahalliy koʻrinishi. [4:52]

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Durkheim, Emile. The Elementary Forms of the Religious Life. London: Allen & Unwin, 1912. – 456 b.
2. Geertz, Clifford. The Interpretation of Cultures: Selected Essays. New York: Basic Books, 1973. – 470 b.
3. Geertz, Clifford. "Thick Description: Toward an Interpretive Theory of Culture." In: The Interpretation of Cultures. New York: Basic Books, 1973. – pp. 330 b.
4. Mauss, Marcel. The Gift (Expanded Edition). London: Routledge, 2002. – 192 b.
5. Malinowski, Bronisław. Magic, Science and Religion. New York: Doubleday, 1948. – 274 b.
6. Giddens, Anthony. Modernity and Self-Identity. Cambridge: Polity Press, 1991. – 256 b.
7. Ashirov, Adham. Avestodan meros marosimlar. Toshkent: Fan, 2005. – 210 b.
8. Sarimsoqov, Bahodir. O'zbek marosim folklori. Toshkent: O'zbekiston, 1990. – 180 b.
9. Sattor, Mahmud. O'zbek udumlari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 165 b.
10. Xosil, Usmon. Odatnoma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010. – 240 b.
11. Rtveladze, E. Sivilizatsii, gosudarstvo, kul'tury Sredney Azii. Moskva: Nauka, 1989. – 300 b.
12. Beruniy, Abu Rayhon. India (Kitāb al-Hind). London: Kegan Paul, Trench, Trübner & Co., 1910 (Sachau tarjimasi). – 371 b.
13. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. Toshkent: Sharq, 1980. – 350 b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF SOCIAL ADVERTISING: ESSENCE AND FUNCTIONS

Norkulov Shahzod Shuhrat ogli
Karshi State Technical University
Assistant, Department of Social Sciences and Humanities

Abstract. This article explains social advertising and its function is to draw people's attention to existing social problems and to provide facts and information that are considered relatively important for the formation of ideas about them in people's minds. Social advertising is aimed at everyone and every person. Therefore, it is emphasized that social advertising is also important in using it as a tool for fully involving members of society in social processes.

Keywords: socialization, stratification, consciousness and value, phenomenon, dynamic phenomenon, social advertising, social, demographic.

IJTIMOIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR

Norqulov Shahzod Shuhrat o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti
“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy reklama va uning vazifasi mavjud ijtimoiy muammolarga odamlarning e’tiborini jalb qilish, ular haqida odamlar ongida tasavvurlar hosil bo‘lishi uchun nisbatan muhim hisoblangan faktlar, ma’lumotlarni yetkazib berishdan iborat ekanligi ochib beriladi. Ijtimoiy reklama hammaga va har bir bir kishiga qaratilganligi. Shu sababli ijtimoiy reklamalardan to‘liq holatda jamiyat a’zolarini ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish instrumenti sifatida foydalanilishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiylashtirish, stretiplashtirish, ong va qadriyat, fenomen, dinamik hodisa, ijtimoiy reklama, ijtimoiy, demografik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N09

Kirish. Ma’lumki, XX asrning 90-yillaridan ro‘y bergan global miqyosdagi o‘zgarishlar natijasida kommunistik totalitar tuzum barham topdi. Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o‘tish munosabati bilan postotalitar jamiyatlar kuchli transformatsiyaviy o‘zgarishlarga yuz tutdi. Ushbu yirik o‘zgarishlardan biri sifatida ijtimoiy institutlarning yangidan yuzaga kelishi ham kuzatilinadi. Xususan, bozor munosabatlari tizimida muhim o‘rin tutgan reklama misolida yangidan vujudga kelgan ijtimoiy institutlar nafaqat pozitiv, balki aksincha ayrim negativ ta’sir xususiyatlarini ham namoyon qilmoqda. Albatta, har qanday ijtimoiy institut jamiyatdagi mavjud muammolarga o‘ziga xos javob bera olish xususiyati bilan tavsiflanib, bunda vaqt muhim o‘rin tutadi. Ayni paytda, reklama murakkab fenomen sifatida u nafaqat qandaydir tovarlar, xizmatlar va siyosiy dasturlarni tashviq qilishga qaratilgan, balki reklama zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida insonlar hayotida, ularning xulq-atvorlari shakllanishida o‘ziga xos muhim ijtimoiy va ma’naviy-psixologik ahamiyat kasb etadi. Uning funksiyasi bevosita jamiyat hayoti bilan bog‘langan.

Umuman olganda, bir tomondan, inson, jamiyat hayotini takomillashtiruvchi omillar nihoyatda ko‘p va keng. Ular har qanday jamiyat rivojini, shaxsning “qiyofasi”ni belgilaydi. Ammo, ikkinchi tomondan, jamiyat hayotidagi konkret muammolarga keng aholini jalb qilish, odamlarni murakkab ijtimoiy muammolar yechimiga yo‘naltiruvchi, ularda oddiy fuqarolik mas’uliyati, o‘z mamlakati bilan g‘ururlanish hislarini shakllantirishda ijtimoiy reklamaning o‘rnini hech nima bosa olmasligi ham tushunarlidir. Uchinchi tomondan esa, har qanday jamiyatning o‘ziga xos muammolari mavjud bo‘lib ular hech bir boshqa jamiyatda takrorlanmasligi ham mumkin. Hatto, har qanday rivojlangan jamiyatda ham ekologik, ma’naviy muhit deformatsiyasi hosilasi bo‘lgan kriminogen vaziyat murakkablashishi, shaxsga, ayniqsa bolalarga qarshi qaratilgan jinoyatlar, texnogen halokatlar, giyohvandlik, fohishabozlik va boshqa yuzlab muammolar singari “kasallik” indikatorlari mavjuddir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xo‘sh, qanday qilib odamlarning hayot tarzini insoniylik me’yorlari tomon o‘zgartirish va shu asosda jamiyatni gumanizatsiyalash mumkin? Qanday qilib insonlarni, ayniqsa, yoshlarni muammolarga “o‘rganib qolish”dan asrash mumkin?

Albatta, har qanday ijtimoiy muammolar faqat reklama, aniqrog‘i ijtimoiy reklama vositasi orqali yechilishi absurd demakdir. Ammo, har qanday murakkab xarakterga ega ijtimoiy muammolar, o‘z navbatida, ijtimoiy reklama omilini faollashtirmasdan, odamlarni muammolar yechimi yo‘lida o‘ylashga “majbur qilmasdan”, keng jamoatchilik diqqat-e’tiborini ularga jalb qilmasdan muammolar mexanik ravishda o‘z-o‘zidan barham ham topmaydi.

Masalaga shu nuqtai nazardan yondashganda ijtimoiy reklama– ijtimoiy muammolar yumshatilishi va bartaraf etilishining muhim omillaridan, instrumentlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy reklama, umuman, reklama bizning hayotimizga kirib kelganiga uncha ko‘p vaqt bo‘lmagan tushunchalardan. Shu sababdan ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy reklama mavzusi unchalik katta o‘rin olmagan.

Ijtimoiy reklamaga oid maxsus ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy reklamaga turlicha ta’rif beriladi. Ularda ko‘pincha ijtimoiy reklama ma’lum bir aniq tovarlar reklamasi emas, balki ma’lum ma’noda “olamga nisbatan munosabat” tarzidagi reklama sifatida ta’riflanadi. Xususan, N. Parshenseva, ijtimoiy reklama – bu jamiyatning xayrli, ezgu xohishining aks etishini, ijtimoiy reklama jamiyatda sezilarli ahamiyatga ega hisoblangan qadriyatlarga nisbatan prinsipial holatini belgilab berishi, ijtimoiy muammolarga qaratilganligi qayd qiladi.[1,46-b]

Ana shular asosida umumlashtirib aytganda, ijtimoiy reklama yig‘ilgan tarzdagi, badiiy aks ettirilgan shakldagi axborotlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy reklama va uning vazifasi mavjud ijtimoiy muammolarga odamlarning e’tiborini jalb qilish, ular haqida odamlar ongida tasavvurlar hosil bo‘lishi uchun nisbatan muhim hisoblangan faktlar, ma’lumotlarni yetkazib berishdan iborat. Ijtimoiy reklama hammaga va har bir bir kishiga qaratilgan bo‘ladi. Shu sababli ijtimoiy reklamalardan to‘liq holatda jamiyat a’zolarini ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish instrumenti sifatida foydalaniladi. Shunga bog‘liq holatda ijtimoiy reklamalarga nisbatan qiziqish darajasi yetarlicha yuqori hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ko‘pgina e’tibor ijtimoiy reklamalarning jamiyat hayotidagi o‘rni va roliga qaratilgan. Ijtimoiy muammolar yechimida bu reklama turining ahamiyati ortishi kuzatilmoqda va uning kelgusidagi rivojlanishi vazifalarini belgilash muhim o‘rin tutadi. Biroq, qayd qilib o‘tish kerakki, ijtimoiy reklama haqidagi nashr qilingan ommaviy va ilmiy-tadqiqot materiallarida ushbu fenomenning o‘zi to‘liq holatda o‘rganilmagan.

Bahs-munozaralar fokusida ijtimoiy, siyosiy va tijorat maqsadlaridagi reklamalarning qo‘shilib ketish jarayonlari kuzatilib, ishlab chiqarishni boshqarishning qonuniy jihatlari va ijtimoiy reklamalarni tarqatish, ijtimoiy reklamalar uchun dolzarb mavzular va boshqa masalalar ko‘zga tashlanadi. Bizning fikrimizcha, ko‘pgina ishlarda ushbu hodisaning tavsiflari va alohida jihatlariga to‘xtalib o‘tish bo‘yicha yuksak darajadagi holatlar qayd qilinmaydi. Ko‘pincha holatlarda ushbu fenomen qandaydir tizimdan tashqari, o‘z-o‘zicha mavjudlik tarzida qarab chiqilgan. Shu sababli ijtimoiy reklamalarni tadqiq etishning dolzarbligi bizning fikrimizcha, ushbu tushunchaga oydinlik kiritishda nazariy jihatdan ehtiyoj hisoblanib, ushbu fenomenning mavjud bir qator kommunikativ amaliyotlar bilan birgalikdagi tutgan o‘rnini aniqlash, shuningdek tadqiqotlar asosida uning amaliy ahamiyatini aniqlash, ijtimoiy jihatdan nisbatan samarali hisoblangan kampaniyalarni aniqlash imkonini berishi mumkin.

Ommaviy (ijtimoiy) reklama qandaydir pozitiv hisoblangan hodisalarni tashviqot qilishga qaratilgan ma’lumotlarni uzatishni o‘z ichiga oladi. Uni o‘z kasbining ustalari tekin yaratadi (aniqroq aytganda etik nuqtai nazardan daromadni rad qilgan holatda), SMI tarkibida joyi va vaqti xam notijorat asoslarida amalga oshiriladi [2,25-b].

Qat’iy tartibda aytganda, ijtimoiy reklama atamasi faqatgina Rossiyada qo‘llaniladi. Butun dunyo miqyosida esa bu tushuncha notijorat reklamalari va ommaviy reklama tushunchalari orqali ifodalanadi. AQSHda bu tipdagi reklamalarni ifodalashda public service advertising yoki public service announcement (PSA) atamasidan foydalaniladi. PSA predmeti g‘oyalardan tashkil topgan bo‘lib, bu g‘oyalar ma’lum bir ijtimoiy qadr-qimmatga ega bo‘lishi talab qilinadi. Bu tipdagi reklamalarni yaratishdan maqsad – “ma’lum bir muammoga ommaning munosabatini o‘zgartirish, kelgusida uzoq davrga mo‘ljallangan tarzda – yangi ijtimoiy qadr-qimmatni yaratish hisoblanadi”[3,65-b].

Muhokama. O‘zbekiston Respublikasining “Reklama haqidagi” Qonunining 18 – bandiga muvofiq “ijtimoiy reklama ommaviy va davlat miqyosidagi qiziqishlarni o‘zida ifodalab, ma’lum bir ezgu maqsadlarga erishiga yo‘naltirilgan hisoblanadi”. Ijtimoiy reklama notijorat xususiyatlariga ega bo‘lib, muhim hisoblangan ommaviy muammolarni yechishga qaratiladi. U ma’lum bir hayot tarzini tashviqot qilish va ma’lum bir ta’sirni yuzga keltirishga qaratiladi.

Ushbu ko‘rinishda, ijtimoiy reklama – bu notijorat axborotlarining o‘ziga xos tarqatilish turi hisoblanib, davlat yoki ijro organlari tomonidan ma’lum bir ijtimoiy maqsadga erishish uchun yo‘naltiriladi.

Ijtimoiy reklamalarning yuzaga kelishining asosiy manbai zamonaviy ommaviy hayot hisoblanadi, bunda ijtimoiy guruhlar o‘rtasida qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar yuzga kelishi qayd qilinib, shu sababli yaratuvchi turki va jarayonlar yuzaga keltirilishiga o‘tkir tarzdagi talab vujudga keladi.

Ijtimoiy reklamalarda xam tijorat reklamalarida qo‘llaniladigan vositalar yig‘indisidan foydalaniladi: ya’ni televizion roliklar, nashrlar, ko‘cha va transportda qo‘llaniladigan reklamalar va hokazolar ishlatiladi. Ijtimoiy reklamalarning tijorat reklamalaridan asosiy farqi ularning turli xil maqsadlarga yo‘naltirilganligida hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda tijorat maqsadlaridagi reklamalar beruvchilar u yoki bu tovarga bo‘lgan talabni oshirish yoki uning savdodagi hajmini oshirish maqsadini ko‘zlashadi, ijtimoiy reklamalarning maqsadi esa ommaviy hodisalarga kishilarning e’tiborni jalb qilishga qaratiladi.

Masalan, agar televizion tijorat reklamalarining yakuniy maqsadi yangi navdagi kofega nisbatan iste'molchi talabini odatdagi holatga aylantirishga qaratilgan bo‘lsa, ijtimoiy reklamalarda, masalan boshpanasizlikka qarshi kurashga e'tibor qaratiladi, strategik maqsadlarda esa kelgusida jamiyatda xulq-atvor modellarini o‘zgartirishga qaratilgan maqsad ko‘zda tutiladi. Bundan tashqari, bu solishtirilayotgan ikkita tipdagi reklamaning maqsadga yo‘naltirilishi bo‘yicha tinglovchilari ham keskin farqlanadi: tijorat maqsadlaridagi reklamalar – bu yetarlicha darajadagi tor marketing guruhlari uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, ijtimoiy reklamalar – keng aholiga yoki uning ma'lum bir qismiga qaratilgan bo‘ladi.

Tijorat reklamalaridan farqli ravishda ijtimoiy reklamalar o‘z ichiga oluvchi axborotlar yangi hisoblanmaydi. Aksincha, ijtimoiy mavzu haqida ijtimoiy reklama qancha ko‘p yaratilsa, ushbu masalaga e'tibor shu darajada ortadi va ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin bo‘lgan, samarali kampaniya amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy reklama jamiyatning ichida yuzaga keladi va jamiyat ichida amalga oshuvchi jarayonlarni o‘zida aks ettiradi.

Natijalar. Ijtimoiy reklama ruhiy samaradorlik, esda qolish xususiyati, e'tiborni jalb qila olish, axborot bera olish, uyg‘otuvchanlik va ma'lum darajada cheklanishlar kabi xususiyatlarga ega hisoblanadi.

Ijtimoiy reklamaning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: jamiyat a'zolarining fikrini shakllantirish, jamiyat hayotidagi ma'lum bir dolzarb muammolarga ommaning e'tiborini jalb qilish, ushbu masalalarning yechimida ko‘rsatiladigan harakatlarning faollashtirilishi, davlat strukturalariga nisbatan pozitiv munosabatlarni shakllantirish, tadbirkorlikning ijtimoiy javobgarlik xususiyatini namoyish qilish, jamiyatda ijtimoiy jihatdan sezilarli ahamiyatga ega hisoblangan fuqarolik institutlarning mavqeyini mustahkamlash, jamiyatda yangi tipdagi munosabatlarni shakllantirish, jamiyatning xulq-atvorga oid modellarini o‘zgartirish.

Umumiy tarzda ijtimoiy reklama funksiyalarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

Mavjud ma'lum bir ijtimoiy muammolardan fuqarolarni ogoh qilish va unga jamoatchilik e'tiborini jalb qilish.

Ijtimoiy reklama uzoq davrni ko‘zlagan holatdagi istiqbolda davlat uchun iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanib, ko‘pgina ijtimoiy muammolarning bartaraf qilinishi natijasida davlat miqyosidagi farovonlik ta'minlanadi (masalan, millatning sog‘lomligi, soliqlarning to‘liq holatda davlat byudjetiga tushishini ta'minlashi va hakazolar).

Ma'lum bir ijtimoiy qadriyatlarning tashviq qilinishi, muammolarning izohlanishi (muammolarning manbalari, uni yechish yo‘llari tushuntirilishi va h.).

Ijtimoiy reklama uzoq davrda mo‘ljallangan istiqbolda jamiyatda jamoatchilik fikri shakllanishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, shuningdek, jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy muammolarga nisbatan munosabatlarda xulq-atvor modellarining o‘zgarishlariga qaratiladi.

Ijtimoiy reklamada estetik funksiya ikkita turda – ya'ni pozitiv va negativ tavsifga ega. Pozitiv tavsifga ega holatda – ijobiy ahillik hissini uyg‘otadi, ko‘tarinki kayfiyatni yuzaga keltiradi, o‘z navbatida muammolar yechimini yuzaga keltirishga yo‘naltiriladi (masalan, “Ota-onalarga qo‘ng‘iroq qiling” kabi). Negativ ko‘rinishdagi ijtimoiy reklamada muammolarning ko‘zga yaqqol tashlanmaydigan jihatlari aks etadi. Bu ko‘rinishdagi reklama agressiv xususiyatga ega hisoblanadi. Bu reklama o‘z navbatida “agar ... amalga oshirilmasa ... (nima) bo‘lishini...” anglatib turadi (masalan, OITSga qarshi kurashga qaratilgan reklamalarda yoki

mast holatda avtomobil boshqarish vaqtida yuzaga keluvchi noxush holatlar aks ettiriladi va hokazo).

Xulosa. “Ijtimoiy reklama” atamasi va uning talqini AQSHda XX asrning boshlarida yuzaga kelgan. Bu davrda ushbu ko‘rinishdagi reklamalarning yaratilishi ma’lum bir tovarlarni sotib olishni tashviqot qiluvchi mavjud va ma’lum bo‘lgan tijorat reklamalaridan farq qilib, jamiyatda u yoki bu ko‘rinishdagi muammolarga munosabat ko‘rinishida, muammolarga ommaning e’tiborni jalb qilish maqsadlarida yuzaga keltirilgan [4, 34-b].

AQSHda ijtimoiy reklama yuzaga kelishi bilan deyarli bir vaqtda maxsus organ – Reklama kengashi faoliyat boshlagan bo‘lib, bunda ijtimoiy reklamalar sohasida Hukumatga tegishli, ommaviy va tijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi faoliyat olib bora boshlagan. Bu nohukumat tashkiloti deyarli 60-yillik faoliyat tarixiga ega bo‘lib, ko‘plab mashhur va obro‘li jamoat arboblarini birlashtirgan.

Ijtimoiy reklama zamonaviy jamiyatda hali batamom tarzda odatdagi holatga aylanib ulgurganicha yo‘q. Ijtimoiy reklama – bu jamoat tashkilotlari tashabbusi bilan jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy holatga bog‘liq masalalarni hal qilish maqsadlarida, yoki davlat tomonidan aholining keng qatlamlariga, xususan, yoshlarga, ularning turmush tarzini muayyan maqsadlar yo‘lida amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlarning muhim komponenti tarzida namoyon bo‘luvchi jarayondir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Николайшвили Г.Г. Краткая история социальной рекламы // Тезисы межрегиональной лингвистической конференции. Екатеринбург, 2002.
2. Паршенцева Н. Социальная реклама. (http://polbu.ru/parshenceva_socadvert)
3. Сагинова О.В, Федюнин Д.В, Капенков В.Н. Организация рекламной деятельности. М: Издательский центр Академия, 2006.
4. Уэллс У, Бернет Д, Мориарти С. Реклама: принципы и практика СПб, 1999.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

CRITERIA FOR DETERMINING HUMAN DIGNITY IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY AND THE ROLE OF TRADE UNIONS IN ENSURING HUMAN DIGNITY IN MODERN SOCIETY

Beshimov Khamidjon Sayidovich
Deputy Chairman of the Bukhara Regional Council of the Federation of Trade Unions of Uzbekistan, Independent Researcher of Bukhara State University

Abstract. This article analyzes the criteria for determining human value in the context of the development of civil society philosophically-socially. As the main indicators of human value, issues of personal freedom, protection of rights and interests, social justice and the provision of decent working conditions are highlighted.This article analyzes the criteria for determining human value in the context of the development of civil society philosophically-socially. As the main indicators of human value, issues of personal freedom, protection of rights and interests, social justice and the provision of decent working conditions are highlighted.in this article, the criteria for determining human value in the context of the development of civil society are analyzed philosophically-socially. As the main indicators of human value, issues of personal freedom, protection of rights and interests, social justice and the provision of decent working conditions are highlighted.s the main indicators of human value, issues of personal freedom, protection of rights and interests, social justice and the provision of decent working conditions are highlighted. Also, in the formation of today's society, the ros the main indicators of human value, issues of personal freedom, protection of rights and interests, social justice and the provision of decent working conditions are highlighted. Also, in the formation of today's society, the role of trade unions in determining human value, their impact on the protection of labor rights, the development of social partnership and the increase of civil activity are analyzed. It is explained that human value depends on the norm. The article substantiates the importance of trade unions as an important institutional mechanism in ensuring human value on the basis of the activities of Trade Unions of the Republic and Trade Unions of the Bukhara region.

Keywords: civil society, human dignity, social justice, labor rights, trade unions, social partnership, civic activism.

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA’MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI

Beshimov Xamidjon Sayidovich
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashi raisi o‘rinbosari, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: beshimovhamid@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati taraqqiyoti sharoitida inson qadrini belgilash mezonlari falsafiy-ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Inson qadrining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida shaxsiy erkinlik, huquq va manfaatlarning himoya qilinishi, ijtimoiy adolat hamda munosib mehnat sharoitlarini ta’minlash masalalari yoritiladi. Shuningdek, bugungi jamiyat shakllanishida inson qadrini qaror toptirishda kasaba uyushmalarining o‘rni, ularning mehnat huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish va fuqarolik faolligini oshirishdagi ta’siri tahlil qilinadi. Inson qadrining me’yorga bog‘liqligi tushuntiriladi. Maqolada kasaba uyushmalarining inson qadrini ta’minlashda muhim institutsional mexanizm sifatidagi ahamiyati respublika kasaba uyushmalari va Buxoro viloyati kasaba uyushmalari faoliyati asosida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, inson qadri, ijtimoiy adolat, mehnat huquqlari, kasaba uyushmalari, ijtimoiy sheriklik, fuqarolik faolligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N10

Falsafiy tafakkurda inson qadri masalasi azaldan markaziy o‘rin egallab kelgan va turli davrlarda u turlicha mazmunda talqin qilingan. Inson qadri deganda, avvalo, uning shaxsiy va ijtimoiy mavqeyini, ruhiy-ma’naviy dunyosi hamda amaliy faoliyatdagi salmog‘ini belgilaydigan o‘lchovlar nazarda tutiladi. Bu o‘lchovlar bir vaqtning o‘zida obyektiv va subyektiv, ma’naviy va moddiy, ilmiy va amaliy jihatlardan iboratdir. Shuning uchun ham inson qadrini faqat iqtisodiy yoki siyosiy mezonlar bilan cheklash mumkin emas, balki uning ma’naviy kamolotini, ijodiy imkoniyatlarini va falsafiy g‘oyalarini ham nazarda tutish talab etiladi.

Inson qadrining falsafiy mazmun-mohiyati, avvalo, uning butun jamiyat tizimida tutgan o‘rni va mavqeyi bilan chambarchas bog‘liq. Jamiyatning rivojlanish darajasi qay darajada yuqori bo‘lsa, unda inson qadrini anglash, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham shunchalik ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Inson qadrini e’tirof etmagan, uning shaxsiy qadriyat sifatidagi mohiyatini anglamaydigan ijtimoiy tuzumlar esa uzoq yashay olmagan. Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, faqat inson qadrini yuksaltirishga asoslangan tizimlargina barqaror taraqqiyotga erishgan.

Inson qadri tushunchasining genezisini tahlil qilar ekanmiz, uning ildizlari qadimgi mifologik dunyoqarashlarda ham ko‘rinib turadi. Masalan, Sharq mifologiyasida inson koinotning bir qismi sifatida talqin qilingan va unga mutanosib ravishda ma’naviy mas’uliyat yuklangan. G‘arb mifologiyasida esa inson ko‘pincha tabiatga qarshi qo‘yilgan holda, uning kuchlarini zabt etuvchi qahramon sifatida namoyon bo‘lgan. Keyinchalik, falsafa shakllanishi bilan birga inson qadri masalasi ilmiy-mantiqiy asosda tadqiq qilina boshladi.

Antik davr faylasuflari — Suqrot, Platon, Aristotellar inson qadrini aql va ma’rifat bilan bog‘lab talqin qilganlar. Suqrot inson qadrining mohiyatini “o‘zini anglash”da ko‘rgan bo‘lsa, Platon uni ideal g‘oyalar dunyosi bilan chambarchas bog‘lab izohlagan. Aristotel esa insonni “ijtimoiy hayvon” sifatida ta’riflab, uning qadri jamiyatdagi faoliyat va munosib hayoti orqali belgilanishiga urg‘u berdi. Bu fikrlar keyingi asrlarda inson qadrini anglash va izohlashda nazariy asos vazifasini bajardi.

Islom falsafasida inson qadri mutlaq darajada yuksak o‘ringa ega bo‘lib, Qur’oni karimda “Biz odam farzandlarini aziz-u mukarram qildik” degan oyat inson qadrining ilohiy asosini belgilab berdi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlar insonni aql va ma’naviyat sohibi sifatida ko‘rib, uning qadri ilm-ma’rifat, axloq va ijtimoiy mas’uliyat bilan belgilanishini asoslab berdilar. Ular insonni nafaqat moddiy jism, balki ma’naviy va ruhiy olam egasi sifatida ham tahlil etdilar.

Yangi davr faylasuflari — Dekart, Kant, Gegel, Fixte, Feyerbax va boshqalar inson qadri tushunchasini yangi bosqichga olib chiqdilar. Dekartning “Men o‘ylayman, demak men mavjudman” degan g‘oyasi insonning ong va tafakkur orqali qadrini anglash imkoniyatini ko‘rsatdi. Kant esa insonni “maqsad sifatida” talqin etib, uning qadri hech qanday vosita bilan o‘lchanmasligini, insonning ma’naviy avtonomiyasi va erkinligi eng yuksak qadriyat ekanligini ta’kidladi.

XX asrda inson qadri tushunchasi global miqyosda o‘rganildi. Ekzistensializm va gumanistik falsafa insonning shaxsiy mas’uliyati, tanlovi va ozodligiga katta e’tibor qaratdi. Masalan, Sartr insonni “ozodlikka mahkum” deb ta’riflab, uning qadri o‘z tanlovlari va qarorlari orqali belgilanishini ta’kidladi. Shu bilan birga, global muammolar — urushlar, ekologik

inqirozlar, texnologiyalar ustuvorligi kabi jarayonlar inson qadrini yangi jihatdan qayta ko‘rib chiqish zaruratini tug‘dirdi.

Sharq mutafakkirlari ham inson qadriga oid muhim g‘oyalarni ilgari surdilar. Masalan, Navoiy insonni “kamolot yo‘lidagi zot” sifatida talqin qilib, uning qadri ma’naviyat va axloq bilan belgilanishini ta’kidladi. Uning fikricha, insonning haqiqiy qimmati uning ijtimoiy faolligi, ma’rifatga intilishi va odob-axloqi orqali yuksaladi.

Hozirgi zamonda esa inson qadri masalasi global falsafiy va ijtimoiy muammo sifatida qaralmoqda. Demokratik jamiyatlarda inson huquqlari va erkinliklari inson qadrining asosiy ko‘rsatkichi sifatida qabul qilinmoqda. Biroq, iqtisodiy tengsizlik, migratsiya, ma’naviy inqiroz kabi omillar inson qadriga tahdid soluvchi asosiy muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, inson qadrini yuksaltirish masalasi nafaqat falsafiy, balki amaliy-ijtimoiy vazifa sifatida ham kun tartibiga chiqmoqda.

Inson qadri tushunchasining mazmun-mohiyati va genezisi turli davrlarda turlicha talqin qilinsa-da, uning markazida har doim insonning ma’naviy olami, ijtimoiy mavqeyi va ijodiy imkoniyatlari turib kelgan. Falsafa esa bu jarayonda inson qadrini anglash, asoslash va yuksaltirishning nazariy-metodologik poydevorini yaratgan.

Inson qadri tushunchasining mazmun-mohiyatini tahlil qilar ekanmiz, uning faqat nazariy-falsafiy masala emas, balki amaliyotda inson hayotining turli sohalarida o‘z aksini topishi muhim ahamiyatga ega. Chunki qadriyatlar tizimi jamiyatning ma’naviy va moddiy asosini belgilab, uning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bois, inson qadrining mazmun-mohiyatini anglash jarayonida faqat falsafiy nazariyalargina emas, balki ijtimoiy amaliyot, tarixiy tajribalar, diniy ta’limotlar, ilmiy kashfiyotlar va ma’naviy meros ham katta ahamiyat kasb etadi.

Inson qadrining mohiyati avvalo uning tabiiy va ma’naviy dunyosida namoyon bo‘ladi. Inson bir vaqtning o‘zida biologik mavjudot hamda ma’naviy olam egasi sifatida namoyon bo‘ladi. Biologik jihatdan inson tabiatning bir qismi, uning qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi mavjudotdir. Biroq uning qadri faqat moddiy va biologik o‘lchovlar bilan belgilanmaydi, chunki insonning ma’naviy qiyofasi, axloqiy yo‘nalishi va ijtimoiy mas’uliyati uning haqiqiy qimmatini belgilaydi.

Shu jihatdan qaralganda, inson qadri tushunchasi bir qancha o‘lchovlarga ega: ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy. Masalan, ma’naviy o‘lchov insonning ruhiy olami, o‘zini anglashi, ma’rifat va bilimga intilishi bilan bog‘liq. Axloqiy o‘lchov esa uning ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg‘on, adolat va nohaqlik kabi tushunchalar bilan munosabatida ko‘rinadi. Ijtimoiy o‘lchov insonning jamiyatda tutgan mavqeyi, faolligi va ijtimoiy rollari bilan belgilanadi.

Tarixiy jarayonda inson qadrining anglanishi ham turlicha namoyon bo‘lgan. Masalan, qadimgi Sharq tamaddunida inson qadri ko‘proq diniy va ma’naviy asoslarda belgilangan bo‘lsa, G‘arb falsafasida inson qadri ko‘proq aql va tafakkur orqali asoslangan. Islom falsafasida esa inson qadri ilohiy asoslarga tayanilgan holda, uning ma’naviy yuksalishi, axloqiy poklanishi va ijtimoiy mas’uliyati orqali izohlangan.

Inson qadrining genezisini o‘rganishda ijtimoiy munosabatlar va davlatchilik tizimlarining rivoji ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, qadimgi davlatlarda inson qadri ko‘proq ijtimoiy tabaqalar, zodagonlik yoki hukmdorga bo‘lgan yaqinlik bilan o‘lchangan bo‘lsa, demokratiya va inson huquqlari g‘oyalari rivojlanishi bilan inson qadri umumiy huquqiy asosda

belgilana boshladi. Bugungi kunda inson qadrining asosiy koʻrsatkichi — uning shaxsiy huquqlari, erkinligi va imkoniyatlarining ta’minlanganligi hisoblanadi.

Inson qadrini anglash jarayonida falsafiy yoʻnalishlar orasida gumanizm gʻoyasi alohida oʻrin tutadi. Gumanizm insonni olam markaziga qoʻyib, uning aql-zakovati, ma’naviyati va ijtimoiy mas’uliyatini eng yuksak qadriyat sifatida talqin qiladi. Bu yoʻnalish ayniqsa, Uygʻonish davri falsafasida keng tarqalgan boʻlib, inson qadrini ma’rifat va ijod orqali yuksaltirish gʻoyasi shakllandi.

Zamonaviy falsafada inson qadri masalasi global muammolar bilan uzviy bogʻlangan holda koʻrib chiqilmoqda. Texnologiyalar taraqqiyoti, bioinjeneriya, sun’iy intellekt kabi sohalardagi yangiliklar inson qadrining mazmun-mohiyatiga yangi qarashlarni taqozo etmoqda. Masalan, inson aqli va ijodkorligiga raqobatchi sifatida sun’iy intellektning namoyon boʻlishi inson qadrini qayta baholash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, ekologik muammolar ham inson qadrining tabiat bilan uygʻunlikda anglanishini talab qilmoqda.

Shu tarzda, inson qadri tushunchasi oʻzining keng qamrovliligi, koʻp qirraliligi va tarixiy dinamikasi bilan ajralib turadi. Uning mohiyatini anglash uchun faqat nazariy falsafiy tahlilgina emas, balki turli tarixiy, ijtimoiy va ma’naviy omillarni ham hisobga olish zarur.

Turli jamiyatlarda inson qadrining xususiyatlarini oʻrganar ekanmiz, zamonaviy jamiyatda inson qadri uning huquq va erkinlarini ta’minlashga bevosita bogʻliqdir.

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31-moddasida “Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega boʻlish, oʻz sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega”, 60-moddasida “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburlar” deb qabul qilingan [1. 19,33b].

Keyingi 8 yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda xalqni rozi qilish, har bir insonning qadr-qimmatini yuksaltirish yoʻlida barcha sohalarda amalga oshirilayotgan harakatlar va tashabbuslar, keng koʻlamli va tizimli islohotlar natijasida katta oʻzgarish va salmoqli natijalarga erishildi.

Davlat rahbarining tashabbuslari bilan chuqur va puxta oʻylab ishlab chiqilgan dasturiy hujjatlarning qabul qilinishi hamda amalga oshirilishi mamlakat hayotida muhim ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, “Inson sha’ni va qadr-qimmati yoʻlida” tamoyiliga asoslangan islohotlarning ustuvor yoʻnalishlarini amalga oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvarda “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” tasdiqlanishi xalq farovonligini yanada oshirishda muhim qadam boʻldi.

Bugungi kunda Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan va 2023-yilda qabul qilingan “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi amalga oshirilmoqda.

Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi insonga, uning erkin hayoti, qadr-qimmati va farovonligiga qaratilgan boʻlib, bu boradi aholining turmush tarzini yaxshilash, yangi korxonalarni tashkil qilish, ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirishga asosiy e’tibor berildi.

2017-yilda O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti hajmi 249 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 567 trln. so‘mga yetdi. Kambag‘allik darajasi 2016-yildagi 17 foizdan 2024-yil yakuni bilan 7,3 foizgacha tushirildi.

Inson huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Xususan, ko‘p yillar davomida mamlakat aholisi uchun og‘riqli masala bo‘lib kelgan “ro‘yxatga qo‘yish” tizimi tubdan isloh qilindi. Birgina 2018-2021-yillarda fuqarolikni berish tartibi soddalashtirilishi natijasida 70 mingdan ortiq kishiga O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi.

Sud faoliyatida olib borilgan salmoqli o‘zgarishlar natijasida Sud jarayonida nazorat organi bekor qilinib, sud tizimidagi ortiqcha sud bosqichlarini yo‘q qilish orqali “bitta sud – bitta instansiya” tamoyili joriy etildi.

Aholining turmush darajasini oshirish sohasida olib borilgan islohotlarning yorqin natijalarini bugun butun dunyo hamjamiyati tan olmoqda.

Xususan, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1373 ta qishloq tibbiyot markazlari qisqartirilib, ular o‘rniga 793 ta qishloq oilaviy poliklinikalari, 441 ta shoshilinch tibbiy yordam bo‘limlari va kunduzgi kasalxonalar ochildi. 306 ta shahar va tuman kasalxonalarida yangi ixtisoslashtirilgan poliklinikalar va 1200 ta shoshilinch tibbiy yordam bo‘limlari tashkil etildi.

Sifatli ta’lim sohasida ham qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2017-yilda respublikamizda 77 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 213 taga yetdi, shu davrda oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 42 foizga ko‘tarildi.

Yosh xotin-qizlarning ta’lim olishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratildi. 2021-yildan boshlab, har yili 3 mingdan ortiq qiz uchun alohida grantlar ajratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ayollarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish uchun imtiyozli shartlarda ta’lim kreditlarini moliyalashtirish uchun davlat budjetidan banklarda mablag‘ ajratishning yangi tizimi joriy etildi.

Faqat 2019–2022-yillarning o‘zida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 46,6 foizdan 70,0 foizgacha oshirildi va mazkur islohotlar YUNESKO tashkiloti tomonidan yuqori baholandi. Maktabgacha ta’lim muassasalari soni 2017-yildagi 5 ming 211 tadan 2024-yilga kelib qariyb 34 mingtaga yetdi.

2017–2022-yillarning o‘zida mamlakatimizda namunaviy loyiha bo‘yicha 300 ming xonadon va yakka tartibdagi uy-joylar qurib, foydalanishga topshirildi va bu ko‘rsatkich mustaqillikning o‘tgan yillariga nisbatan 10 barobar ko‘pdir. Mamlakatimiz dovrug‘i Yangi O‘zbekiston nomi bilan butun dunyoga taralmoqda.

Ana shunday izchil islohotlar va yangilanishlar jarayonida mamlakatimizdagi eng yirik jamoat tashkiloti bo‘lgan kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib kelmoqda. Barcha sohalar kabi “Yangi O‘zbekiston”ning “Yangi kasaba uyushmalari” ham shakllandi va islohotlarning faol ishtirokchisi bo‘ldi.

“Barcha harakatlarimiz inson qadri uchun” shiori kasaba uyushmalari uchun haqiqiy dasturulamal bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Inson qadrini oshirish kasaba uyushmalari tashkilotlarining doimiy diqqat markazida bo‘ldi. Kasaba uyushmalari tomonidan kasaba uyushma a’zolarining ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy

manfaatlarini ta’minlash borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilishi natijasida, inson qadr-qimmatini yuksalishiga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 17-oktyabrda kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda shunday fikrlarni bayon qildilar: “Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Biz o‘z hayotimizni o‘zgartirmoqchi bo‘lsak, avvalo, odamlarning haq-huquqini tan olishni o‘rganishimiz kerak”, degan edi. Bu – haq gap. Chindan ham, huquq va erkinliklar ta’minlangan, odamlari emin-erkin yashab, mehnat qilib, daromad topadigan mamlakatda davlat ham, jamiyat ham albatta rivojlanadi. Shu bois, biz islohotlarni boshlagan ilk kunlardan “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani amalga oshirish uchun, avvalo, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik” [4. 2-4b.].

Kasaba uyushmalari tomonidan 2020-2025-yillarda 2500 dan ortiq korxona va tashkilotlarda xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan davra suhbatlari, uchrashuvlarda mehnat munosabatlari bo‘yicha tushuncha berildi. Xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta’minlash maqsadida keyingi besh yilda ish beruvchilarga 88 ta ko‘rsatma kiritilib, 500 nafar xodimning huquqlari tiklandi. 9,4 mlrd. so‘m haq undirib berilishi ta’minlandi.

Zardushtlik ta’limoti insonni doimiy yaxshi fikr, latif so‘z, yaxshi amallar qilishni targ‘ib etadi. Faqirlarga mehribonlik qilish, musofirparvarlik, kishiga isnod keltiruvchi narsalardan voz kechishni o‘rgatadi [7. 35-37].

330 ming nafar xodimlar ishlayotgan korxona, tashkilot va muassasalarda ish beruvchi va kasaba uyushmasi o‘rtasida tuzilgan jamoa shartnomasi tadbirlarini bajarish uchun viloyat bo‘yicha o‘rta hisobda bir xodimga yil davomida sarflangan 2020-yilda 3,1 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 7,2 mln. so‘mni tashkil etdi.

Viloyatdagi 1874 ta korxona, tashkilot va muassasalarda ish beruvchilar tomonidan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga og‘ishmay rioya qilinishi jamoatchilik nazorati tartibida o‘rganildi.

Korxona va tashkilotlardagi jamoa shartnomalari orqali kasaba uyushmalari va ish beruvchining mablag‘lari hisobidan viloyatda 2020-2025-yilning iyun oyiga qadar jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali 37 ming 695 nafar xodim va 13 ming 805 ta oilaga jami 18,9 mlrd. so‘mlik moddiy ko‘mak berildi [11.16-17b.].

Abdurauf Fitratning “Oila” asarida “inson qadri” atamasi Fitratga ko‘ra, insonning qadr-qimmati uning tug‘ilishi bilan emas, tarbiya, ma’rifat va axloq orqali kamol topadi. Oila esa inson qadrini belgilaydigan birinchi va eng muhim muhitdir. [8. 112b]

2020-2024-yillarda kasaba uyushma a’zolarining 183 ming nafari mamlakatimizning tarixiy shaharlariga hamda o‘z hududlaridagi tarixiy qadamjolar, muzeylar, diqqatga sazovor joylarga sayohatlari uyushtirildi. Kasaba uyushmalari tizimidagi tashkilotlar tomonidan 3 ming 268 ta sport musobaqasi tashkil etilib, ularga 300 ming nafardan ortiq mehnatkashlar va ularning oila a’zolari jalb etildi.

Kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda 2021-2024-yillar davomida Buxoro viloyatidan 9 ming 169 nafar dam oluvchilar sog‘lomlashtirilib, ulardan 8 ming 620 nafari imtiyozli va 902 nafari bepul yo‘llanmalar asosida o‘z salomatliklarini tikladilar. Ishlaydigan keksalarning 77 nafari bepul yo‘llanmalar bilan ta’minlandi.

2020-2025-yillarda kasaba uyushma a’zolarining 7-14 yoshdagi bolalari yoz mavsumi davomida bolalarni dam oldirish va sog‘lomlashtirilishini tashkil etish borasida 11 ta shahar orti oromgohlarda 43 400 nafardan ortiq bola sog‘lomlashtirildi [11. 2-15b].

Bundan ko‘p emas o‘n yillar oldin yuz minglab o‘quvchi-talaba, turli davlat va nodavlat tashkilotlari xodimlari to‘liq paxta mavsumiga jalb qilinar edi. Bugungi kunda Prezident Sh.Mirziyoyevning siyosiy irodasi, terim uchun barcha sharoit va mexanizmlar yaratilganligi sababli, paxta terimida majburiy va bolalar mehnati to‘liq bartaraf etildi. Bu holatni xalqaro tashkilotlar ham e’tirof etdilar. Kasaba uyushmalari tomonidan paxta yig‘im terimida bolalar mehnatiga va majburiy mehnatga barham berish borasida monitoring ishlarini olib bordilar. 2017-yildan buyon bolalar mehnati va majburiy mehnat to‘liq bartaraf etilishiga erishildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvda, “Milliy huquq tizimi xalqaro standartlarga moslashib, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining barqaror kafolatiga aylangandi. O‘zbekiston Xalqaro mehnat tashkilotining 25 ta konvensiyasini ratifikatsiya qildi.

Har bir ratifikatsiya orqali O‘zbekiston o‘z zimmasiga katta majburiyat olmoqda. Chunki, barcha islohotlar zamirida inson qadrini ulug‘lash mujassamdir. Va bu – mamlakatimiz qo‘shilayotgan xalqaro hujjatlar mazmuni bilan to‘la hamohangdir.

Aynan inson qadriga e’tibor – barcha yutuqlarimiz asosi, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz! Bir eslab ko‘ring, bolalar mehnati va majburiy mehnatga to‘liq barham berish uzoq yillar biz uchun eng og‘riqli masala bo‘lib kelgan edi. Faqat kuchli iroda, qat’iy pozitsiyamiz orqali biz bu murakkab muammoni ijobiy hal qildik. Mamlakatimizning bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo‘yicha ilg‘or tajribasi Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan namuna sifatida boshqa davlatlarga tavsiya etilgani ham shundan dalolat beradi. O‘zbek paxtasi dunyodagi ko‘plab nufuzli brend kompaniyalarning “qora ro‘yxati”dan chiqarildi. Hech shubhasiz, biz erishayotgan natijalarda 8 millionga yaqin a’zoga ega, eng xalqchil va katta nodavlat tashkiloti bo‘lgan kasaba uyushmalarining munosib hissasi bor.

Kasaba uyushmalarining korxona va tashkilotlarda mehnatga oid huquqlarni himoya qilishdagi jonbozligi alohida e’tirofga sazovor. Buni keyingi yillarda 500 mingga yaqin xodimning qonuniy huquqlari himoya qilinib, ularning foydasiga 267 milliard so‘m undirib berilgani ham tasdiqlaydi. Shuningdek, ishdagi baxtsiz hodisalar tufayli jabrlangan 1 ming nafar xodimga 35 milliard so‘m tovon puli to‘lab berilgan. Bundan tashqari, nohaq bo‘shatilgan 13 ming xodim ishga tiklangan.

Yangi O‘zbekistonda har bir insonga munosib mehnat, kasb sohasida o‘sish, dam olish va salomatligini tiklashi uchun zarur sharoit yaratish – g‘oyat muhim masala.

Biz shu maqsadda ijtimoiy davlatning yangi modelini yaratyapmiz. “Kuchli kasaba uyushmalari – kuchli jamiyat asosi” degan tashabbus asosida sizlar bu jarayonda oldingi safda bo‘lishingiz kerak” deya ta’kidladilar [4.12-14 b.]

Shuni ham ta’kidlash lozimki, insonga qancha qulay va erkin sharoitlar yaratilishi hamda inson oldida turgan muammolarning kamayishi ham inson hayoti va faoliyatida turg‘unlik ko‘zga tashlanib, uning jamiyatdagi qadriga soya tashlaydi. Hashamatli yashash, dabdabali to‘y-ma’rakalar qilish, turli hoy-havaslar uchun mablag‘larini sovurish, tabiat qonunlariga bepisand munosabatda bo‘lish, zamonaviy jamiyatda tobora ko‘p ko‘zga tashlanib, bu o‘z navbatida ekologik vaziyatni izdan chiqarmoqda. Insonga yaratilgan har bir imkoniyatda, uy-joy qurish, to‘y- ma’rakalar tashkil etish, avtomashina va boshqa jihozlarga ega bo‘lish, ovqatlanish, hattoki

orzu-havaslarini rejalashtirishda me’yorni saqlash ham maqsadga muvofiqdir. Me’yordan ortiq har bir harakat tabiat, atrof muhitga va ekologiyaga, sog‘lom jamiyatni barpo etishdagi sa’y-harakatlarimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Insonni qadrlashda ham me’yorning oltin o‘rtasini saqlash, me’yor chegaralarini qonunlar, normativ hujjatlar bilan belgilash zamonaviy jamiyatda eng muhim omil hisoblanadi. Yunon faylasufi Platon: “Ideal davlat tuzilishining asosiy negizida adolat va me’yor yotadi, deb ta’kidlagan [7. 30-33 b.].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘tgan o‘n yillik tahlil etilganda, aholining jon boshiga umumiy daromadlari 2015-yilda 6,4 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 27,5 mln. so‘mni tashkil etdi.

O‘zbekistonda aholining yashash darajasi yaxshilanishi hamda inson qadrining oshishi sababli o‘rtacha umr ko‘rishi 2015-yildagi 72,5 yosh o‘rniga, 2024-yilda o‘rtacha 75 yoshga ko‘tarildi.

Zamonaviy jamiyatda inson qadrini baholash mezonlaridan biri bu jamiyatda kasaba uyushmalarining inson huquqlarini munosib himoya qilish, qonunlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishga har jihatdan bog‘liq.

Shu bilan birga, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularni muntazam sog‘lomlashtirish, sog‘lom turmush tarzini qaror topshirish ham jamoa a’zolarining qadr-qimmatini yaxshilash oshirishga olib keladi.

Kasaba uyushmalari ijtimoiy davlatda zaruriy hodisadir. U mehnatkashlar, turli sinflar, qatlamlar va tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlarni mo‘tadil holatini ta’minlaydi. Davlat o‘z fuqarolarining munosib turmush darajasini ta’minlashi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatmog‘i, ta’lim, sog‘liqni saqlash, dam olish va odamlarning kundalik turmushi muammolariga katta e’tibor qaratmog‘i lozim. Bunday mamlakatda inson eng oliy qadriyat sifatida tan olinadi.

Inson qadrini yuksaltirishning institutsional asoslarini takomillashtirishda institutsional mexanizmlar, jumladan Kasaba uyushmalari bevosita muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ba’zi bir ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy kontekstda ishtirokchilarning o‘zaro ta’sirini va xatti-harakatlarini tartibga soluvchi tizimlar, jarayonlar va qoidalarni o‘zida aks ettiradi.

Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan, jumladan, Kasaba uyushmalarini yanada faollashtirish orqali erishish Yangi O‘zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yanada yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini rivojlantirishga yo‘nalgan faoliyat barcha sohalarning umumlashgan maqsadini aks ettirib, o‘zida ijtimoiy tashabbus va hamkorlikka tayanadigan tamoyil va ijtimoiy qadriyatlarni talab etadi.

Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yuksaltirishda shaxsga nisbatan doimiy o‘zgaruvchan jarayon sifatida, “o‘rgatish”, “maslahat berish”, “yo‘naltirish”, “o‘rganish” kabi munosabatlar tizimida virtual va an’anaviy tarzda amalga oshib, o‘zida yangi yondashuvlarni shakllantirdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 yil 30 aprel, Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. 2023 yil 11 sentabr.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 6 dekabr.
4. Mirziyoev Sh, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning respublika kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi”, 2025 yil 17 oktabr, Toshkent.
5. Mirziyoev Sh, “Yangi O‘zbekiston. Demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” nomli risolasi. 2021 yil, Toshkent
6. Rafiqov Q, “Vatan va millat qayg‘usi” kitobi, 2020 yil, Toshkent
7. Salomova X., “Me’yorning falsafiy mohiyati va amaliy ahamiyati”, 2018 yil, Buxoro.
8. Abdurauf Fitrat. Oila. – T.: «Ma’naviyat», 2000. 112 b
9. Nazarov Q. Inson qadri va shaxsiy qadriyatlar //Qadriyatlar falsafasi.-T.:UFMJ,2004. – B.96-106.
10. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2020-2025 yillardagi faoliyati yuzasidan axborotnoma.
11. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashining 2020-2025 yillardagi faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF MEANING-MAKING CATEGORIES OF THE SOCIAL LIFE OF THE PERSON (ON THE EXAMPLE OF THE WORKS OF HUSSEIN VAIZ KASHIFI)

Nishonov Sarvar Jasur ugli
Doctoral student (DSc.) of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract. The article provides a philosophical analysis of the meaning-forming categories of a person's social life based on the works of the prominent thinker of the 15th century, Husayn Kashifi. Particular attention is paid to key categories such as morality, justice, spiritual self-improvement, and social harmony, which are considered in Kashifi's works as fundamental foundations of personality formation in society. The methodological basis of the research was the principles of hermeneutic and historical-philosophical analysis, which allowed us to reveal the internal logic of the thinker's and their value-semantic content. It is shown that the social philosophy of Husayn Kashifi is oriented towards the synthesis of spiritual and social principles, where the individual acts as an active subject of moral choice and social responsibility. The article substantiates the relevance of Kashifi's philosophical heritage for the contemporary understanding of the problems of social identity, moral guidelines, and spiritual values in the context of the transformation of social life.

Keywords: Husayn Voiz Koshifiy, social philosophy, meaning-forming categories, personality, social life, morality, justice, spiritual values, hermeneutical analysis, philosophical heritage.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)

Нишонов Сарвар Жасур угли
Докторант (DSc.) Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотатция. В статье осуществляется философский анализ смыслообразующих категорий социальной жизни личности на материале произведений выдающегося мыслителя XV века Хусейна Кашифи. Особое внимание уделяется таким ключевым категориям, как нравственность, справедливость, духовное самосовершенствование и социальная гармония, которые в трудах Кашифи рассматриваются как фундаментальные основания формирования личности в обществе. Методологической основой исследования послужили принципы герменевтического и историко-философского анализа, и их ценностно-смысловое содержание. Показано, что социальная философия Хусейна Кашифи ориентирована на синтез духовных и социальных начал, где личность выступает активным субъектом морального выбора и общественной ответственности. В статье обосновывается актуальность философского наследия Кашифи для современного осмысления проблем социальной идентичности, нравственных ориентиров и духовных ценностей в условиях трансформации общественной жизни.

Ключевые слова: Хусейн Ваиз Кашифи, социальная философия, смыслообразующие категории, личность, социальная жизнь, нравственность, справедливость, духовные ценности, герменевтический анализ, философское наследие.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N11

Введение. В условиях трансформации современного общества особую актуальность приобретает философское осмысление смыслообразующих категорий социальной жизни личности. Вопросы смысла, ценностей, нравственных ориентиров и духовных оснований человеческого существования остаются ключевыми как для философии, так и для гуманитарного знания в целом. Обращение к классическому философско-этическому наследию позволяет выявить устойчивые модели понимания социальной жизни личности, которые сохраняют свою значимость вне зависимости от исторического контекста. В этом отношении особый интерес представляют произведения Хусейна Ваиза Кашифи - выдающегося мыслителя и литератора средневекового Востока, в чьём творчестве органично соединяются философия, этика, социальная мысль и религиозно-нравственные представления.

Его наследие демонстрирует глубокое осмысление человеческой природы, места личности в социуме, а также значения морально-нравственных и духовных начал в процессе формирования индивидуальности и общественной гармонии. Настоящая статья направлена на философское осмысление смыслообразующих категорий социальной жизни личности на материале трудов Хусейна Ваиза Кашифи. В ходе исследования анализируются такие категории, как нравственные ценности, личная ответственность, духовное развитие, социальная справедливость и характер взаимодействия личности с обществом. Особый акцент делается на выявлении роли этих категорий в формировании целостного представления о социальной реальности человека и в определении его экзистенциальных и аксиологических ориентиров. Методологическую базу исследования составляют философский анализ, герменевтический метод и сравнительно-исторический подход, что позволяет раскрыть смысловое наполнение текстов Кашифи в русле социальной философии. Результаты исследования могут способствовать более глубокому пониманию философско -этического наследия восточной мысли и его значения для осмысления современных проблем социальной жизни личности. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «Сегодня сфера духовности должна опережать на десять шагов другие сферы, духовность должна превратиться в новую силу, в новое движение» [10]. В этой связи основная задача данного параграфа - показать особенности некоторых суфийских понятий и терминов, рассматриваемых в «Послании», а также раскрыть их философское значение в русле философской традиции, которой придерживался автор трактата. Для философского анализа в параграфе выбраны следующие термины: «стоянка» (макам) и «состояние» (хал), «свидетельствующий» (шахид), «плотская душа» (нафс), «раскаяние» (тавба), «миг» (вакт), «экстатическое поведение» (таваджуд), «экстаз» (ваджд) и «экстатическое бытие» (вуджуд), «отречение от мира» (зухд), «единение» (джам’) и «разделение» (фарк). Выбор данных терминов обусловлен их значимостью в суфийской теории и практике, а также степенью их соответствия целям и задачам исследования. При анализе трактата ал- Кушайри, в котором рассматривается основная терминологичская база суфизма, трудно охватить все интересующие нас аспекты. По этой причине мы обратили внимание лишь на некоторые из них, которые, на наш взгляд, являются наиболее значимыми.

Термины макам и «состояние» (хал) являются одними из основополагающих терминов исламского мистицизма, и именно Хусайн Ваиз Кашифи дал им наиболее точное определение, которое в дальнейшем вошло в обиход суфиев.

Анализ литературы и методы. Макам Хусайн Ваиз Кашифи определяет как результат благочестивых поступков суфия, выражением силы его поклонения Богу. Явление есть то, «чего раб Божий достигает посредством правильного поведения (адаб), то, чего он добивается собственными поступками, то, что он осуществляет путем собственного устремления и перенесения возложенных на него тягот» [1; 282-с.]. Таким образом, стоянка в определении Хусайн Ваиз Кашифи, который трактует её как итог личностных усилий мистика, есть не что иное, как внесение активного компонента в суфийское учение. В силу того, что суфий может повлиять на свою судьбу в прохождении мистического пути (тарйка), в определенной степени он может повлиять и на познание Бога. Допущение индивидуального волеизъявления вносит важный вклад в теорию познания суфиев - Бог не всецело руководит процессом мистического познания, в определенной степени им руководит и сам мистик. Безусловно, момент наделения человека такими возможностями стал одним из принципиальнейших в споре с ортодоксальным суннизмом, поскольку данный аспект позволяет говорить об упразднении идеи абсолютно трансцендентного Бога. Ведь мистик сохраняет волевую личность до самого момента познания Истины, когда момент абсолютности трансцендентного божественного бытия уходит на второй план - в момент познания исчезает расстояние между суфием и абсолютом. Исходя из задачи, которую ставил перед собой Хусайн Ваиз Кашифи, а именно, признание суфизма в суннитских кругах, и его приверженности идеям ашаритской школы калама, эта мысль в «Послании» [2; 274-с.] не очевидна и искусно сглажена.

Как было указано ранее, Хусайн Ваиз Кашифи выступал последовательным оппонентом мутазилитского учения о свободе воли. В связи с этим он стремился чётко разграничить концепцию человеческой свободы, отстаиваемую мутазилитами, и понимание личностной свободы, представленное в суфийской традиции. В своих рассуждениях мыслитель ориентируется на поиск своеобразного «золотого баланса» между суфийским мировоззрением и ортодоксальным исламом, что в ряде случаев приводит к внутренним концептуальным противоречиям.

Следует отметить, что трактовка понятия «стоянка» (макам), предложенная в труде ас-Сарраджа ат-Туси «Ал-лум‘а фи-т-тасаввуф» («Самое блистательное в суфизме»), отличается от интерпретации Хусайна Ваиза Кашифи. Ас-Саррадж определяет макам как пребывание раба перед Аллахом в соответствии с предписанным ему служением (‘ибадат), духовным усилием (муджахада), аскетической практикой (рийада) и обращённостью к Богу. Тем самым ас-Саррадж снижает значимость свободной воли субъекта, акцентируя определяющую роль Абсолюта.

Кроме онтологического и гносеологического аспектов, категория «стоянки» выполняет также важную упорядочивающую и дисциплинарную функцию.

Результаты и обсуждение. Дело в том, что мистик может достичь стоянки только по достижении предыдущей и исполнении всех её требований. Таким образом, стоянки складываются в определенную иерархию, что несколько ограничивает свободу

человека некими дисциплинарными рамками. Ниже будет приведен список суфийских стоянок, составленный Кашифи.

Вторым важнейшим термином, употребляемым суфиями наравне с термином «стоянка» является термин «состояние» (хал). Хусайн Ваиз Кашифи трактует состояние, как «подаренное», т.е как не зависимый от человеческих усилий подарок Бога, который в беспредельности Своего могущества может даровать состояния тому, кому пожелает. Этот «подарок» невозможно вызвать по собственному желанию или заслужить, подобно стоянке. Состояния даруются, а стоянки приобретаются трудом.

Таким образом, состояние подразумевает абсолютную волю Бога, непредсказуемость Его деяний для всего сотворенного, отсутствие преднамеренности поступков, поскольку в противном случае Он уподобится человеку. Рационализм - прерогатива человека. Он может в определенной мере способствовать достижению истины, но не играет решающей роли на пути познания. Богу нельзя приписать какие-либо признаки рационализма, Он наделил человека разумом, который является неприменимой к Абсолюту категорией. Именно поэтому на главных этапах познания Бога, когда исчезают субъект-объектные отношения и происходит единение мистика с Абсолютом, разум не играет решительно никакой роли.

Состояние - термин, указующий на активность главного основополагающего начала на пути мистика - божественного начала. Человек не в силах контролировать своё нахождение в состоянии - оно может покинуть его так же быстро, как оно им овладевает, ибо состояния, по выражению Кашифи, «даруются», «приходят из источника щедрости» [3; 343-с.] По замечанию более позднего поэта-мистика Руми, «хал подобен снятию чадры с прекрасной невесты, а макам - это как первая брачная ночь» [4; 501-с.].

«Некоторые шейхи говорили: «состояния подобны молниям: если они остаются (больше, чем на мгновение), то они есть не что иное, как самовнушение». Таким образом, состояние вносит элемент динамики и иррационализма в мистическую практику - суфий не может предсказать ни сроков состояния, ни возможности его свершения.

Такое определение «состояния» является неким универсальным обобщением, оно дается в первой части главы и, по задумке Кашифи, очевидно, предназначено для общего ознакомления с мистической терминологией. Далее, во второй части главы о состояниях, он несколько меняет содержание термина, вводя в него долю статичности. Он систематизирует состояния, определяя наиболее краткосрочные из них как «просветления» (лава'их) и «неожиданные посещения» (бавадих), которые, по сути дела, являются «предсостояниями», т.е. неполноценными состояниями.

Обладатель же истинных состояний носит его отпечатки гораздо более длительное время. Постоянство состояний объясняется тем, что духовная сущность становится для человека «постоянным вкушением» (ширб), в котором он все больше и больше совершенствуется. В качестве идеального примера такого человека у Хусайн Ваиз Кашифи предстает Пророк, который, по его словам, «постоянно поднимался всё выше и выше в своих состояниях.

Когда он переходил от одного состояния к более высокому, чем то, в котором он только что находился, он порой продолжал замечать 176 предыдущее состояние» [5; 704-с.], т.е. дарованные состояния сохранялись при нем.

Таким образом, Хусайн Ваиз Кашифи вносит ноту уверенности в мотив непредсказуемости «состояний», выражая надежду на сохранение этих зыбких данностей, дарованных Богом, в сердце мистика.

Одной из основных задач, которые ставил перед собой Хусайн Ваиз Кашифи, было ознакомление с суфизмом тех, кто ещё не встал на путь мистического познания. Методика подачи информации в «Послании» во многом основывается на подобных приемах - автор сначала преподносит читателю доступные устоявшиеся определения, а затем приводит объяснения, зачастую противоречащие и дополняющие предыдущие, подтверждая эти дополнения изречениями знаменитых суфиев. Так, с одной стороны, он направляет свое «Послание» новичкам, показывая доступность суфийского знания, а с другой - суннитским улемам, показывая его неоднозначность и многогранность.

Среди мистиков не было полного согласия относительно определений «стоянки» и «состояния», а при перечислении стоянок и состояний мнения мистиков и вовсе расходилось. В трех ранних классификациях указана разная очередность стоянок. “Зу-н-Нун” говорит о вере, страхе, почитании, покорности, надежде, любви, страдании и близости. Последние три стоянки, согласно его схеме, - это смятение, бедность и единение.

Классификация его младшего современника, персидского мистика “Йахйи ибн Муаза”, более близка к общепризнанной: покаяние, аскетизм, упоение в Божьей воле, страх, томление, любовь и гносис.

Еще более молодой современник Йахйи, мистик “Сахл ат-Тустари”, так определяет порядок стоянок: ответ на зов Бога, обращение к Нему, покаяние, прощение грехов, уединение, стойкость, медитация, гносис, общение, избрание и дружба.

Хусайн Ваиз Кашифи удалось создать наиболее универсальный перечень стоянок и состояний, который впоследствии зачастую использовали как основную теоретическую модель суфизма. VПервой стоянкой он называет обращение или раскаяние (тавба), за ним следует борьба с плотской душой (муджахада), уединение (халва) и одиночество (узла), богобоязненность (таква), воздержание (вар), отречение от мира (зухд), молчание (самт), страх (хавф), надежда (раджа), печаль (хузн), голод и отказ от чувственного желания (джу ва тарк аш-шахва), покорность (хушу) и смирение (таваду), сопротивление плотской душе (мухалафа нафс), довольство малым (канаа), упование на Бога (таваккул), благодарность (шукр), достоверность (йакйн), терпение (сабр), наблюдение (мураками), удовлетворенность (рида), служение Богу (убудийа), воля (ирада), твердость (истикама), искренность (ихлас), честность (садк), стыд (хайа), свобода (хуррийа), поминание (зикр), рыцарство (футувва), проницательность (фираса), высокое моральное качество (хулук), великодушие (джавд) и щедрость (саха’), усердие (гайра), святость (вилайа), молитва (дуа), бедность (факр), чистота (тасаввуф), благопристойность (адаб) » [6; 113-с.].

Все перечисленные этапы мистического пути Кашифи относит к стоянкам - исключение составляет лишь удовлетворение (рида), которое, по мнению Кашифи, начинается как стоянка, а завершается как состояние. Далее следуют такие стоянки, как странствование (сафар), товарищество (сухба), признание единства Бога (тавхйд), благородная смерть (ахвалухум ‘инда хурудж мин ад-дунйа) - рассказы о последних часах жизни выдающихся мистиков.

Завершающими стоянками являются знание о Боге (маарифа би-лла), любовь (махабба); страстное желание (шаук) - желание встречи с Богом.

Таким образом, Хусайн Ваиз Кашифи перечисляет около сорока стоянок, в чем он расходится со своим предшественником ас-Сарраджем, который перечислял лишь семь стоянок (обращение, воздержание, самоотречение, бедность, терпение, вера в Бога, довольство) и десять состояний (медитация, близость к Богу, любовь, страх, надежда, желание, частная жизнь, спокойствие, размышление, уверенность).

«Миг» представляет собой определение психологического времени мистика, ибо оно относится, прежде всего, к его духовно-эмоциональной сущности. Для лучшего понимания этого термина Кашифи приводит пример с намерением человека посетить другого в назначенный день. При этом назначенный день есть реальность, тогда как приход человека есть мыслимая данность. Если реальное время постоянно и не изменится по воле человека, и предназначенный ход времени не изменить, то мыслимое явление, даже если оно точно запланировано человеком, может и не свершиться. Назначенный день наступит в любом случае, а запланированный визит будет зависеть от совпадения сотни обстоятельств и окончательно неизвестно, произойдет ли он. В данной интерпретации термина автор демонстрирует, что миг так относится к реальности, как заданный ход времени относится к намерениям человека.

Здесь у Кашифи прослеживается интересная тенденция: он не ставит под сомнение реальность времени, ибо его ход задан Богом, при этом он ставит под сомнение силу человеческой мысли, ибо она бренна так же, как и сам человек. Миг всегда обладает реальностью для человека, поскольку он определяется тем состоянием, теми условиями, в которых человек находится.

В «Мавохиби Алия» Хусайн Ваиз Кашифи цитирует своего наставника ад-Даккака: «Миг - это то, в чем ты есть. Если ты пребываешь в этом мире, то твой миг - этот мир; если ты пребываешь в будущей жизни, то твой миг - будущая жизнь; если ты пребываешь в радости, то твой миг - радость; если ты пребываешь в печали, то твой миг - печаль» [7; 676-с.]. Таким образом, миг представляет собой форму для того, что преобладает во внутренней жизни человека - для его мыслей, его духа, его сердца, т.е. это есть доминирующая психологическая составляющая жизни в определенный момент времени.

При этом мистик в меньшей мере может повлиять на миг, в котором он находится, поскольку он исходит от Господа, миг является из Сокровенного, а суфию надлежит отказаться от собственного выбора. Миг есть проявление Божественной воли, посредством него Господь осуществляет свои деяния над человеком.

«Миг - это сиюминутность, это не отрезок времени, скорее длительность сама по себе, т.е. живая движимая материя, которая меняется на иную подобную ей по воле Абсолюта» [8; 745-с]. Нельзя вспоминать прошедший миг или угадывать грядущий - в этом случае необратимо утратишь истинный миг, который преобладает на данный момент, а последствия этого могут стать непоправимыми для мистика.

Кашифи сравнивает миг с мечом, безопасным на ощупь, но имеющим острое лезвие: «Тот, кто обращается с ним нежно, останется невредимым, а тот, кто груб с ним, будет изувечен». Здесь идет речь о недопустимости проявления человеческой воли для изменения того, что даровано Богом, точнее, о недопустимости безразличия или

невнимательности к тому, что происходит в сердце. Встав на путь познания Истины, суфий отказывается от права мирян на невнимательность. Исламский мистицизм предполагает обращение к внутреннему миру, поскольку только отдельный мистик как индивидуальность может следовать по пути к истине. Нет точно определенного пути, для каждого он покрыт тайной, и каждому надлежит пройти этот путь по-своему. Институт наставничества призван скорее помочь понять задачи, подготовить свое тело и сердце к этому пути, но нет описания главного - мистического познания, которое не поддается описанию. Мурид при помощи наставника готовит свое сердце для познания надлежащим образом, но само познание приходит к нему от Бога и по его желанию.

Поэтому каждое изменение духовного состояния должно быть воспринято суфием как миг, т.е. как проявление Божественной воли.

Проявление гордыни и невнимательности наказуемо духовными переживаниями и беспокойством. Безусловно, волеизъявление мистика не может быть упразднено, т.к. человек, как мы увидели ранее, представляет собой составляющую часть суфийской онтологии. Человек проявляет свою волю в том, что касается внешних признаков благочестия - он свободен становиться обладателем экстатического поведения по своему желанию, совершать благочестивые поступки, отправлять зикр (поминание Бога) и бесчисленные молитвы - и без этого волеизъявления он никогда не встанет на суфийский путь и не перейдет от одной стоянки к последующим. Однако человек не вправе пытаться изменить то состояние, в котором пребывает его духовная сущность: он не должен заставлять себя радоваться, когда сердце его опечалено, поскольку он не сможет изменить волю Бога, ниспославшего на него эту печаль, но если он вмешается в высший ход событий, то это приведет к духовной дисгармонии и негативно скажется лишь на самом мистике. Таким образом, миг относится к проявлению божественной воли, употребление этого термина уместно при погруженности мистика в то или иное состояние.

Миг являет собой некую форму для проявления божественной воли к конкретному человеку - состояния определены и могут быть перечислены, в обладании состояний мистик не может быть индивидуален, тогда как миг есть захваченность отдельного человека определенным состоянием, и здесь проявляется его индивидуальность пред ликом Бога.

Миг одновременно есть и независимое от воли человека явление и явление, выделяющее его из числа других сподвижников, он предоставляет отдельному человеку право оказаться в руках Божьих, при этом остальные субъекты познания отходят на второй план - остается только Бог и конкретный человек.

- «Экстатическое поведение» (таваджуд), «экстаз» (ваджд) и «экстатическое бытие» (вуджуд) пребывание в состоянии экстаза - одна из самых характерных черт любого мистицизма, и суфизм не является исключением. В исламском мистицизме понятие экстаза получает особое значение в связи со своей онтологической наполненностью. Кашифи уделяет значительное внимание этому понятию, разбивает его на составляющие, вскрывая их укорененность в суфийской онтологии. Каждую из трех составляющих этого термина Кашифи описывает отдельно, представляя их в виде ступеней единого пути, стоящих по отношению друг к другу в строгой иерархической последовательности.

Подобная последовательность не позволяет мистику достигнуть следующего этапа, не пройдя предыдущий. Эта цепочка имеет следующий вид: «экстатическое поведение» (таваджуд), «экстаз» (ваджд) и «экстатическое бытие» (вуджуд). Мистика, экстатическое поведение - начало, экстатическое бытие - окончание, а экстаз есть середина между началом и концом.

Экстатическое поведение трактуется как вызывание экстаза по воле мистика, проявление свойства, которого нет. Оно носит характер искусственности, однако, по мнению автора, оно необходимо для продвижения по пути познания.

Вхождение в состояние искусственного экстаза силой собственной воли во время слушания музыки или молитвы, в конечном счете, приводит праведника в состояние истинного экстаза, что знаменует собой переход на новую ступень познания.

Этот этап находит суфия неожиданно и безотносительно к усилиям его воли, являя собой милость Господа, его бесценный дар мистику. Но и здесь есть доля вероятности, что Божья милость окажется тем ближе, чем больше усилий прикладывает мистик на пути к достижению экстаза, поскольку является определенного рода вознаграждением мистика за дополнительные молитвы, поминание Бога, отречение от мирских благ в угоду служения господу и т.д.

Наставник Хусайн Ваиз Кашифи ад-Даккак говорил: «Тот, кто не совершает дополнительных молитв во внешней жизни, тот не будет иметь мистических явлений в потаённых уголках своей души» [9; 16-с.].

При этом состояние экстаза приносит мистику неизмеримое удовольствие, поэтому предвкушение экстаза должно подталкивать его к свершению богоугодных поступков.

Заключение. Таким образом, можно сделать вывод, что начальный этап на пути к достижению экстаза — экстатическое поведение — полностью обусловлен активностью самого суфия. Данный отрезок пути характеризуется определённой искусственностью, поскольку не предполагает непосредственного участия Абсолюта. Второй этап, связанный с непосредственным переживанием экстаза, определяется как усилиями мистика, стремящегося к его достижению, так и божественной волей, посредством которой происходит воздаяние за искреннее духовное усердие.

Третий этап, в свою очередь, очевидным образом оказывается всецело зависимым от воли Бога. В данном контексте Хусайн Ваиз Кашифи последовательно придерживается собственной концептуальной логики: состояние экстатического бытия наступает после самого экстаза, однако если экстаз приносит личности духовное блаженство, то в условиях экстатического бытия само понятие личности утрачивает своё значение, равно как и всё человеческое. Это свидетельствует о том, что подлинное бытие становится возможным лишь после исчезновения человеческого начала.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Gafforova, U. Literary Values of the "Hussein Review" / U. Gafforova // Message from the Pedagogical University: the Tajik State Pedagogical University named after Sadriddin Aini. - Monday, 2014. - #. 6 (61). - P. 282.
2. Zamshariya, Muhammad ibn Umar ibn Muhammad. Review of Koshif. Translator and Reporter Massey Ansari. - Tehran: Kakunus, 1389. - 274 p.

3. Koshifi, Hussein Preacher. Hussain / Hussein Publisher: A copy number 726, in the Manuscript copy library of the Abdurahmoni Jomi Cultural Center named after Professor Sharifjon Huseynzoda, Department of Philology, Tajik National University. - 343p.
4. Koshifi, Kamoluddin Husain. The position of Aliyah or the Hussain Commentary. With Adjustment and Preface and Preface to Said Mohammedzo Jalali Neuin. - Tehran, 1371. - 501 p.
5. Mayhani, Muhammad ibn Abdul-Halik. Guidance Guide. Adjustment to Sayyid Ali's consent. Yazd: Bahabad, 1375. - 704 p.
6. Noyini, Sayyid Muhammad Reza Jalal. Proceeds of the commentary of ‚Ali Alibi‘ // Kosifi Kamoluddin Husain. The position of Aliyah or the Hussain Commentary. With an Amendment and Preface to Sayyid Mohammediza Jalal Nawini. - Tehran, 1371. - P. 113.
7. Numoni Shibli. Sherul-l-ajam. Translation of Saidmuhammadtaki Fahr Doi Geloni. - Teheran: Issued 1368. Edition 1. - 676 p.
8. Ozar Lutfibibek. At the end. With the introduction and review of Saidjafari Shaheedi- Teheran: Dunyoi Kitob, 1337.- e1.-745 p.
9. Muhabbati Mahdi. Review and analysis of literary rhetoric in “Tarjum-l-Bagai”. Two sections of the study of the language and literary literature of the new era. Spring and and summer. 1384.- P. 16.
10. https://president.uz/ru/lists/view/6941

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

LEGAL ISSUES OF ENSURING PUBLIC PARTICIPATION IN SOLUTION OF ENVIRONMENTAL ISSUES IN CITIES

Uzakova Guzal Sharipovna,
Professor of the Environmental Law Department
of Tashkent State University of Law,
Doctor in Law
E-mail: guzalsharipovna@gmail.com
http://www.orcid.org/0000-0001-9357-3200

Abstract. Today, the majority of the world's population lives in cities. Ensuring environmental sustainability in populated areas is critical to achieving the goals set out in the United Nations Sustainable Development Program. In addition, the rules set out in the new UN Urban Development Program (Habitat III) will play a key role in ensuring the sustainable development of cities. Given that the world's population lives mainly in anthropogenically changing regions, more precisely in populated areas, ensuring a comfortable environment for citizens is achieved through sustainable urban development. That is why today the work on greening of cities is given importance at the local, regional and even global levels. The participation of civil society institutions and the general public in this process takes several forms. In particular, the expansion of public participation in the approval of master plans for cities and other settlements is seen as an important tool in protecting the property and other rights of citizens. Institute of Civil Society in the Republic of Uzbekistan, based on long-standing historical traditions - "Citizens' Self-Government Bodies" to participate in environmental monitoring in urban areas, implementation of information policy in cities, close cooperation with the public, active partnership and cooperation with public authorities, environmental issues can participate in management activities aimed at the development of cities through solutions through urban planning.

Keywords: environmental issues, sustainable development, public control, environmental control, civil society institutions.

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI

Uzakova Go'zal Sharipovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ekologiya huquqi kafedrasi professori,
yuridik fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyo aholisining aksariyati shaharlarda yashaydi. Aholi zich joylashgan hududlarda ekologik barqarorlikni ta'minlash Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish dasturida belgilangan maqsadlarga erishish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, BMTning yangi Shaharsozlik dasturida (Habitat III) belgilangan qoidalar shaharlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rolni o'ynaydi. Dunyo aholisi asosan antropogen o'zgargan hududlarda, aniqrog'i, aholi zich joylashgan hududlarda yashashini hisobga olsak, fuqarolar uchun qulay muhitni ta'minlash barqaror shaharsozlik orqali amalga oshiriladi. Shu sababli bugungi kunda shaharlarni ko'kalamzorlashtirish ishlariga mahalliy, mintaqaviy va hatto global miqyosda ahamiyat berilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilikning bu jarayonda ishtiroki bir necha shakllarda amalga oshiriladi. Xususan, shaharlar va boshqa aholi punktlarining bosh rejalarini tasdiqlashda jamoatchilik

ishtirokini kengaytirish fuqarolarning mulkiy va boshqa huquqlarini himoya qilishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasida uzoq yillik tarixiy an’analarga asoslangan fuqarolik jamiyati instituti bo‘lgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari – shahar hududlarida ekologik monitoringda, shaharlarda axborot siyosatini amalga oshirishda, jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlikda, davlat hokimiyati organlari bilan faol sheriklik va hamkorlikda ishtirok etish, ekologik muammolarni hal qilishda shaharsozlik orqali yechimlar orqali shaharlarni rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv faoliyatida ishtirok etishi mumkin.

Kalit so‘zlar: atrof muhit masalalari, barqaror rivojlanish, jamoatchilik nazorati, ekologik nazorat, fuqarolik jamiyati institutlari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N12

Bugungi kunda ekologik muammolar jamiyat taraqqiyotidagi eng dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, insonni o‘rab turgan tabiiy muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanish, shaxsning ekologik huquqlarini kafolatlash, ekologik boshqaruv jarayonlarida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, shuningdek, shaharlar va boshqa aholi punktlarida aholining qulay yashash muhitini yaratish yuridik fan doirasidagi muhim yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida atrof muhit masalalarini hal etishda jamoatchilikning ishtirokini ta’minlash maqsadida so‘nggi yillarda bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 49-moddasida fuqarolarning ekologik huquqlari ham aks ettirildi. Mazkur huquqlar sirasiga fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo‘lish huquqi, ekologik axborot olish huquqi, shaharsozlik hujjatlarini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish huquqi kiritildi. Shuningdek, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasida fuqarolar tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha jamoat tashkilotlariga birlashish huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasida jamoatchilik nazoratining shakllari sifatida quyidagilardan belgilangan: davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar, davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o‘rganish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish. “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunda esa, jamoat ekologik nazorati ekologik nazoratning bir turi sifatida belgilab qo‘yildi. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 8-oktyabrdagi 287-son qarori bilan tasdiqlangan “Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” Namunaviy Nizomda esa, mazkur nazoratni amalga oshirish tartibi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi qonuni 5-moddasida jamoatchilik ishtiroki qonunning muhim prinsiplaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, qonunda jamoat ekologik ekspertizasi ekologik ekspertizaning bir turi sifatida belgilangan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi”da ekologik ta’lim masalasiga ham alohida e’tibor qaratilib, ekologik madaniyat va ta’limni shakllantirish – fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etgan holda, aholining uzluksiz ekologik ta’limi kompleks tizimini tashkil etish, atrof muhit masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilishda aholining ishtirok etishi konsepsiyaning asosiy yondashuvlaridan biri sifatida belgilangan. Qolaversa, Bu borada

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. [1]

Milliy qonunchilikda atrof muhit masalalarining o‘z ifodasini topishi ko‘p jihatdan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hujjatlarni tan olishi va ularni milliylashtirishi bilan bog‘liqdir.

Ta’kidlash joizki, BMTning Ming yillik deklaratsiyasida (2000) tabiatga hurmat bilan munosabatda bo‘lishning ahamiyati ko‘rsatilgan: “Barcha tirik organizmlar va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va oqilona foydalanishning asosida barqaror rivojlanish tamoyillari yotadi. Faqat shu yo‘l bilan avlodlarimiz uchun tabiat bizga bergan ulkan boylikni saqlab qolishimiz mumkin. Ishlab chiqarish va iste’mol qilishning hozirgi barqaror bo‘lmagan shakllari kelajak farovonligi va avlodlarimizning farovonligi manfaatlariga muvofiq o‘zgartirilishi kerak”. [2]

Xalqaro hujjatlarda aholining barqaror rivojlanish va shaharsozlik muammolarini hal etishda ishtirok etishi tobora ko‘proq aks etilmoqda. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi, harakatlar uchun qo‘llanma sifatida 2030-yilga qadar “butun dunyo bo‘ylab” odamlarga barqaror rivojlanish va tabiat bilan uyg‘un turmush tarzi to‘g‘risida tegishli axborotlar va ma’lumotlarni ta’minlash vazifasini belgilab berdi. Shuningdek, Shaharlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi dastur (Habitat III) fuqarolarni jamoat hayotiga faol jalb qilish, shahar aholisi o‘rtasida daxldorlik va mas’uliyat hissini shakllantirish, shuningdek, davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati o‘rtasida shahar va hududiy siyosat masalalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sheriklik va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 5-moddasida O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etishi shaharsozlik faoliyati amalga oshirilishida fuqarolarning qulay yashash va faoliyat ko‘rsatish muhiti bilan ta’minlanish huquqining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga shaharsozlik faoliyatining asosiy talablaridan biri – shaharsozlik faoliyati sohasida qarorlarning muhokamasi va qabul qilinishida fuqarolar, jamoat birlashmalari ishtirok etishi uchun sharoitlarni ta’minlash hisoblanadi (Shaharsozlik kodeksining 6-moddasi).

Yuqoridagilardan tashqari, Shaharsozlik kodeksining 10-moddasida aynan fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarining shaharsozlik faoliyati sohasidagi qarorlarning muhokamasi va qabul qilinishidagi ishtiroki masalalari tartibga solingan. Unga ko‘ra, fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari yashash va faoliyat ko‘rsatish muhitining holati, taxmin qilinayotgan o‘zgarishlari, aholi punktlarining bosh rejalari, uy-joy-fuqarolik obyektlarining qurilishi, rekonstruksiyasi, hududlarning obodonlashtirilishi, muhandislik va transport kommunikatsiyalarining o‘tkazilishi to‘g‘risida o‘z vaqtida va ishonchli, to‘liq axborot olish hamda shaharsozlik faoliyati haqidagi o‘zga axborotni olish huquqiga ega.

Fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarini shaharsozlik faoliyati to‘g‘risida xabardor qilish davlat organlari tomonidan ommaviy axborot vositalari orqali, shuningdek jamoat muhokamalari o‘tkazish, ekspozitsiya va ko‘rgazmalar tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari shaharsozlik hujjatlari tasdiqlangunga qadar ularni muhokama qilish, ularga takliflar kiritish va shaharsozlik faoliyati sohasidagi qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish huquqiga ega.

Davlat organlari fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalarining manfaatlariga daxldor, shaharsozlik faoliyati masalalariga taalluqli murojaatlarini o‘z vakolatlari doirasida ko‘rib chiqadilar va ularga belgilangan muddatlarda asosli javoblar taqdim qiladilar.

Fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari, basharti shaharsozlik faoliyati ularning manfaatlariga daxl etadigan bo‘lsa, quyidagi huquqlarga ega:

shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda binolar, inshootlar va boshqa obyektlarning joylashtirilishi, loyihalashtirilishi, qurilishi, rekonstruksiyasi yoki foydalanishga topshirilishi to‘g‘risidagi qarorning ma’muriy yoki sud tartibida bekor qilinishini talab qilish;

korxonalar faoliyatini, shuningdek boshqa ko‘chmas mulk obyektlaridan foydalanishni, basharti ularni ishlatish shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda amalga oshirilayotgan bo‘lsa, ma’muriy yoki sud tartibida cheklash, to‘xtatib turish yoki taqiqlashni talab qilish;

shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi munosabati bilan fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risida sudga da’vo taqdim qilish;

shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishni talab qilish;

shaharsozlik hujjatlari tasdiqlangunga qadar o‘z mablag‘lari hisobidan ularning mustaqil ekspertizadan o‘tkazilishini tashkil etish.

Bizning fikrimizcha, fuqarolarning shaharsozlik sohasidagi qarorlarni qabul qilishda va ularning manfaatlarini ta’minlashda ishtirok etishining asosiy shakli jamoatchilik muhokamalari bo‘lib, uning natijalari hududlarni rejalashtirishda, shaharsozlik rejalashtirishda va ba’zi hollarda hududlarni rejalashtirish va ajratishda hisobga olinishi lozim.

Jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazishning asosiy tamoyillari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazishning majburiyligi, hududiylik (har bir aholi punktida), ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar, axborot mavjudligi, ochiqlik. Ushbu tamoyillarga asoslanib, xalq deputatlari Kengashlari tegishli hudud uchun jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilashlari maqsadga muvofiqdir.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasining tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 27-noyabrdagi PF–6119-son Farmonida aholi punktlarining bosh rejalarini jamoatchilik muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda tasdiqlash tartibi belgilanganligini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, unga ko‘ra, qurilish ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlashning 4 ta bosqichini nazarda tutuvchi aholi punktlarining bosh rejalarini jamoat muhokamasiga qo‘yishning yangi tartibi joriy etilgan. Bunda, 1-bosqichda fuqarolar jamoat muhokamasini o‘tkazish tartibi, joyi va muddatlari haqida tanishtiriladi; 2-bosqichda aholi punkti bosh rejasining loyihasi bo‘yicha jamoat muhokamalari o‘tkaziladi; 3-bosqichda jamoat muhokamasi natijalari asosida jamoat fikri tahlil qilinadi; 4-bosqichda jamoat muhokamasi natijalari haqida ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet tarmog‘i orqali aholi xabardor qilinadi.

Albatta, mazkur huquqiy mexanizmning belgilanishi ushbu sohada fuqarolar ishtirokini huquqiy jihatdan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Fikrimizcha, mazkur holatda jamoatchilik muhokamasi natijalarining inobatga olinishi, ushbu muhokamalar natijalari mutasaddi rahbarlar tomonidan ko‘rib chiqilishi shartligini belgilab qo‘yilishi maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Bir tomondan, fuqarolarning ma’muriy qarorlar qabul qilish irodasini ifoda etishning asosiy shakli sifatida jamoatchilik muhokamalarining roli, muayyan faoliyat turlari bo‘yicha qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokining xalqaro tamoyillariga mos keladi, boshqa tomondan, fuqarolar irodasini bunday ifoda etishning huquqiy oqibatlari to‘g‘risidagi masala hal qilinmay qolmoqda. Darhaqiqat, fuqarolarning jamoatchilik muhokamalarida bildirilgan fikri ijobiy ham yoki salbiy ham bo‘lishi mumkin, obyektiv holatlarga asoslanishi yoki yuzaga kelgan muammoga subyektiv munosabatning natijasi bo‘lishi ham mumkin.

Shaharlarni barqaror rivojlantirish muammolarini hal qilishda aholining ishtirok etish samaradorligi fuqarolarning tabiiy resurslardan foydalanuvchi hamda muhofaza tadbirlarining bevosita ishtirokchisi sifatida ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Shaharlarni rivojlantirishni rejalashtirishning dastlabki bosqichlarida aholining amalda ishtirok etmasligi, ushbu munosabatlar subyektlariga ma’lumot yetib bormasligi yoki ushbu ma’lumotlarning o‘z vaqtida berilmaganligi, tomonlarning barqaror rivojlanishga mos kelmagan tarzda bir-birlari bilan muloqot qilishni istamasliklari, jamoatchilik ishtirokiga oid qonunchilik normalarining samaradorligini pasaytiradi va natijada ularning ijtimoiy yo‘naltirilganlik holati rivojlanmaganligini ko‘rsatadi.

Bunday sharoitda aholi yuqorida ko‘rsatilgan qonunlar tomonidan berilgan huquqlarni amalga oshirish orqali muammoga o‘z munosabatini bildirishga majbur (masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati bilan shug‘ullanadigan ijtimoiy notijorat tashkilotlarini tuzish; atrof-muhit holati va uni muhofaza qilish choralari to‘g‘risida ma’lumot olish to‘g‘risida davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga murojaatlarni yuborish; atrof-muhitni muhofaza qilishga oid masalalar yuzasidan yig‘ilishlar, mitinglar, namoyishlar, yurishlar o‘tkazish, petitsiyalarga imzo to‘plashda ishtirok etish, jamoat ekologik ekspertizasini o‘tkazish bo‘yicha takliflar kiritish va uni o‘tkazishda qatnashish, atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilishda hokimiyat organlariga yordam berish va h.k). Biroq, bu yerda ham atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida subyektiv huquqlarni amalga oshirish bilan bog‘liq muammolar mavjud.

So‘nggi yillarda qonun hujjatlarida jamoatchilik ishtirokiga oid erishilgan aniq yutuqlardan biri bu jamoatchilik nazorati institutining takomillashuvi, jamoat ekologik nazorati inspektorlari maqomining mustahkamlanganligi bilan bog‘liq.[3] Biroq, aholining huquqiy imkoniyatlaridan xabardorligi darajasi pastligi ushbu normalarning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Shaharlarning barqaror rivojlanishi, davlat va aholi, quruvchi (investor) va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda barqarorlikka erishish orqali, ishtirokchilar o‘rtasidagi teng muloqot va sheriklik orqali hududni rivojlantirish masalalarini hal qilish maqsadga muvofiq.

Shaharlarni barqaror rivojlantirish masalalarini hal qilishda jamoatchilikning faol ishtirok etishi har bir fuqaroning ongini shahar hayotidagi teng element sifatida iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilish zarurati tomon yo‘naltirishga imkon beradi. Fuqarolarning ekologik jihatdan barqaror shaharlarni

rivojlantirish masalalarini hal etishda ishtirok etishining haqiqiy taomillari va kafolatlarigina, “vaziyatga o‘z vaqtida ta’sir qilish” imkoniyati bilan sheriklik asosida yaratilgan bunday ishtirokning aniq tizimi, shaharlarda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida to‘g‘ri siyosat yuritishga imkon beradi.

Ta’kidlash joizki, atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to‘g‘risidagi konvensiyaga – Orxus konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi sohaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishda asos vazifasini o‘tamoqda. [4]

Davlat organlarining shahar atrof-muhitini muhofaza qilishdagi mavqeyini mustahkamlash va nomarkazlashtirish sharoitida xalqaro ko‘rsatmalarda va Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2007-yil 20-apreldagi 21/3-sonli va 2009-yil 3-apreldagi 22/8-sonli BMT – aholi punktlari bo‘yicha Habitat rezolyutsiyalarida bayon etilgan barcha uchun nomarkazlashtirish va bazaviy xizmatlarga kirish xalqaro tamoyillarining Boshqaruv kengashi tomonidan qabul qilingan xalqaro ko‘rsatmalarda ko‘rsatilgan qoidalar muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

1996-yildan beri xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining rolini kuchaytirish, shaharlarning barqaror rivojlanishi jarayonida ularning salohiyatini oshirishga qaratilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlari fuqarolarga yaqinroq bo‘lganligi sababli, respublika darajasidagi davlat boshqaruv organlariga nisbatan aholi punktlarining rivojlanishiga ko‘proq hissa qo‘shishlari kerak.

“Habitat II” kun tartibining (1996-y.) 177-bandiga binoan, aholi punktlarining barqaror rivojlanishiga “funksiyalarni samarali nomarkazlashtirish, siyosatni boshqarish, qonun chiqaruvchi hokimiyatni ta’minlash va oddiy fuqarolarga eng yaqin bo‘lgan va ularning manfaatlarini eng yaxshi tarzda himoya qiladigan mahalliy hokimiyat organlariga yetarli mablag‘lar ajratish” orqali erishish mumkin.[6] Keyinchalik ushbu pozitsiya Yangi ming yillikdagi shaharlar va boshqa aholi punktlari to‘g‘risidagi deklaratsiyada ham, Shaharlarni rivojlantirish yangi dasturida (Habitat III) ham qo‘llab-quvvatlandi.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish muammolariga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirgan holda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli xalq hokimiyatchiligining muhim vositasi sifatida asta-sekin mustahkamlanib bordi. O‘tgan yillar davomida o‘tkazilgan, shu jumladan ma’muriy-hududiy tuzilmani takomillashtirishga qaratilgan islohotlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi vakolatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Shunday bo‘lsa-da, ta’kidlash lozimki, ekologiya sohasidagi asosiy qonun bo‘lgan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari ko‘rsatib o‘tilishi zarur. Fikrimizcha, ushbu Qonunni 10^1-modda bilan to‘ldirib, unda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini belgilash lozim. Kelgusida Ekologiya kodeksi qabul qilinganda ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini alohida moddada belgilash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ham aholi punktlarida atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq vakolatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, ularga xo‘jalik va boshqa faoliyatlarni amalga oshirishda shovqin, tebranish, elektr, elektromagnit, magnit maydonlar va atrof-muhitga, shahar va qishloq aholi punktlari, dam olish joylari, yovvoyi hayvonlar va qushlarning yashash, jumladan ularni ko‘paytirish joylari, tabiiy ekologik tizimlar va tabiiy landshaftlarga boshqa salbiy jismoniy ta’sirlarning oldini olish va yo‘q qilish uchun zarur choralarni ko‘rish bilan bog‘liq vakolatni berish maqsadga muvofiq.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari shahar hududlarida yuqori sifatli atrof-muhitni ta’minlash jarayonida bir qator muhim faoliyat yo‘nalishlarida ishtirok etishlari mumkin. Jumladan, shahar miqyosida ekologik monitoringni amalga oshirishda qatnashish, shaharlarda ekologik axborot siyosatini yuritish, jamoatchilik bilan uzviy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va “bog‘lovchi bo‘g‘in” vazifasini bajarish, davlat hokimiyati organlari bilan faol hamkorlik va sheriklikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, atrof-muhitga oid muammolarni shaharsozlik mexanizmlari orqali hal etish, xususan, hududiy rejalashtirish va zonalashtirish, hududlarni rivojlantirishni rejalashtirish, shaharsozlik siyosatini takomillashtirish hamda qulay, jozibador va innovatsion shahar muhitini yaratish orqali shaharlarni rivojlantirishni boshqarish dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishning maxsus tamoyillari shahar ekologik muammolarini yagona tabiiy va ijtimoiy tizim sifatida kompleks o‘rganishga asoslanadi. Ushbu tamoyillar ekologik-huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilariga, jumladan, fuqarolar, jamoat birlashmalari, qonun ijodkorligi subyektlari, shuningdek, huquqni qo‘llash va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga qaratilgan bo‘lib, ular asosida shaharlarda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga qaratilgan aniq va tizimli huquqiy choralarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.05.2019-y., 09/19/434/3189-son.
2. Хабриева Т.Я., Чиркин В.Е. Теория современной конституции. – М., 2005. – С. 171.
3. Декларация тысячелетия ООН. Принята резолюцией 55/2 Генеральной Ассамблеи ООН от 8 сентября 2000 г. // БМТнинг расмий веб-сайти – www.un.org
4. Утегенов О.Д. Экология соҳасида жамоатчилик назоратини ҳуқуқий таъминлашни такомиллаштириш: Юрид. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Тошкент: ТДЮУ, 2020. – 302 б.
5. Международные руководящие принципы децентрализации и доступа к базовым услугам для всех. ООН – Хабитат. 2009. // БМТнинг расмий веб-сайти – www.un.org
6. Повестка дня Хабитат Конференции ООН по населенным пунктам (Хабитат II). Стамбул, 3—14 июня 1996 г. // БМТнинг расмий веб-сайти – www.un.org

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

PROSPECTS FOR IMPROVING THE MANAGEMENT OF PERSONNEL SERVICES IN INTERNAL AFFAIRS BODIES

Eshimbetov G‘ulomjon Sultonbayevich
Deputy Minister of Internal Affairs of the Republic of Karakalpakstan

Abstract. This article analyzes the prospects for improving the management of personnel services in internal affairs bodies. The study focuses on issues of effective organization of personnel policy, recruitment, training and retraining of employees, enhancing their professional potential, and developing mechanisms for evaluating service activities. Additionally, it highlights the role of personnel services in ensuring public safety in the context of modern threats and digitalization processes. Based on foreign experience and scientific approaches, practical proposals and recommendations are developed to improve the system of personnel management in internal affairs bodies.

Keywords: internal affairs bodies, personnel services, personnel policy, service activity management, professional training, retraining, evaluation system, public safety.

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Eshimbetov G‘ulomjon Sultonbayevich
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o‘rinbosari
E-mail: info@qriiv.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar organlarining kadrlar bilan ishlash xizmatlari faoliyatini boshqarishni takomillashtirishning istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kadrlar siyosatini samarali tashkil etish, xizmatga qabul qilish, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning kasbiy salohiyatini oshirish hamda xizmat faoliyatini baholash mexanizmlarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, zamonaviy tahdidlar, raqamlashtirish jarayonlari va jamoat xavfsizligini ta’minlashda kadrlar bilan ishlash xizmatlarining o‘rni yoritib beriladi. Xorijiy tajriba va ilmiy yondashuvlar asosida ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, kadrlar bilan ishlash xizmatlari, kadrlar siyosati, xizmat faoliyatini boshqarish, kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash, baholash tizimi, jamoat xavfsizligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N13

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2-moddasida, davlat idoralari xalq manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari, jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligi mustahkamlab qo‘yilgan[1]. Ichki ishlar organlari davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshiruvchi asosiy davlat organlaridan biri hisoblanib, uning asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat[2].

Aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash masalalari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida eng muhim va ustuvor o‘rin egallagan. Darhaqiqat, bu masala bugun yurtimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning eng asosiy sharti va garovidir. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari tomonidan ichki ishlar organlari tizimida tub islohotlar qilish, uning faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarishdek g‘oyat murakkab vazifa doimiy ravishda kun tartibiga qo‘yib kelinmoqda.

Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish hamda mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligiga bo‘lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, ichki ishlar organlarining kadrlar salohiyatini oshirish bugungi davrning asosiy talabidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo‘g‘inini rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatda va uning ma’muriy-hududiy birliklarida jamoat tartibi va xavfsizligini samarali ta’minlash maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilishga oid 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, ichki ishlar organlari samarali faoliyat olib borishi uchun bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar imzoladi. Buning yaqqol misoli sifatida 2016-yil 16-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni[3] qabul qilindi.

Muhokama. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli va samarali tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori bilan “Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi” tasdiqlandi.

Konsepsiya talablarini amalga oshirishda quyidagilar asosiy ustuvor vazifalar etib belgilandi:

– ma’naviy-ma’rifiy ishlarni milliy va xalqaro huquqiy me’yorlar asosida samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish;

– xalqimizning boy madaniyati, tarixiy qadriyatlari va an’analariga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish;

– kasb burchini bajarishda davlat ramzlari bilan faxrlanish, qasamyodga sadoqat va qonunchilikka qat’iy rioya qilish tuyg‘ularini chuqur singdirish orqali xodimlarga xalqning hurmati va ishonchini oshirish;

– mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini xodimlarga tizimli tushuntirib borish;

– xodimlarda dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlariga faol hayotiy pozitsiya va ongli munosabatni shakllantirish;

– xodimlarning estetik tarbiyasini takomillashtirish, madaniyat va san’atning turli sohalariga qiziqishlarini oshirish;

– adabiyot, kino, teatr va tasviriy san’at imkoniyatlaridan tizimli asosda keng foydalanish;

– xodimlarning ichki va tashqi mafkuraviy tahdidlarga, korrupsiyaga qarshi immunitetini mustahkamlash va ichki ishlar organlarining ijobiy imijini shakllantirish;

– fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Ichki ishlar organlari tashkil etilganining 30-yilligi hamda 25-oktyabr – ichki ishlar organlari xodimlari kuni bayrami munosabati bilan Prezidentimiz soha xodimlari va faxriylariga yo‘llagan bayram tabrigida ichki ishlar organlarida kadrlar tayyorlash yo‘nalishiga ham alohida to‘xtalib o‘tdilar. Jumladan, “mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimi yo‘lga qo‘yilib, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash, shuningdek, rahbarlarning professional salohiyatini oshirish borasida tizimli choralar ko‘rilmoqda. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oladigan ikki bosqichli zamonaviy oliy ta’lim tizimi, o‘quv jarayoniga nazariya bilan amaliyot uyg‘unligini ta’minlash uchun yangi ta’lim mexanizmlari joriy qilindi”[4].

Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida kadrlar salohiyatini oshirish, yangilikka intiluvchan va zamonaviy fikrlaydigan xodimlarni sohaga tayyorlash maqsadida “Temurbeklar maktabi” va ixtisoslashgan maktab-internat hamda barcha hududlarda akademik litseylar ish boshladi. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda, xavfsiz turizmni ta’minlash, probatsiya, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga ixtisoslashgan yangi bo‘linmalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi va bu sohalarga malakali yetuk xodimlarni tayyorlash bugungi kunda asosiy vazifalardan biridir.

Davlatimiz rahbari tomonidan berilgan e’tibor samarasida ta’lim sohasida juda ko‘p ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Qator xorij mamlakatlari bilan ilmiy tajriba almashilib, 40 ga yaqin davlatlar ishtirokida muvofiqlashtiruvchi kengashlar tuzildi, ikki tomonlama hamkorlik o‘rnatildi. Bugungi kunda xodimlarni o‘qitish sohasida hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida jahonning 29 ta davlatining huquq-tartibot idoralari bilan ikki tomonlama xalqaro kelishuvlarga muvofiq amaliy ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz ichki ishlar organlariga intellektual salohiyatli, professional kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda[5].

Bugun hayotimizning barcha jabhalariga yangi texnologiyalar kirib kelmoqda va bu xodimlardan har kuni o‘z ustida ishlashni, bilimini oshirishni talab etadi. Albatta, xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qilayotgan har bir xodim, avvalo, o‘z bilimi, ma’naviy-axloqiy sifatlari va dunyoqarashi kengligi bilan ajralib turishi kerak.

Tan olib aytish kerak, islohotlar sur’atiga va yangicha ish uslubiga moslasha olmayotgan, hamon eskicha fikrlaydigan xodimlar ham uchrab turibdi. Ayrim xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari odamlarning asosli noroziliklariga ham sabab bo‘layotgan holatlar bor. Bunday holatlarning barchasini chuqur o‘rganib, tekshiruvlar o‘tkazilib, aybdorlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda jazo choralari ko‘rilishi tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, safimizni bunday xodimlardan tozalash va ularning o‘rnini vatanparvar, xalq osoyishtaligi yo‘lida halol xizmat qiladigan, sadoqatli, o‘z bilimlarini doimiy ravishda oshirib boradigan, kasbiy va jangovar tayyorgarligi yuqori bo‘lgan kadrlar bilan to‘ldirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Ma’lumki, ichki ishlar organlarida asosan xizmatga qabul qilish vakolatiga ega rahbarlar tomonidan shaxsiy tarkib bo‘yicha buyruqlar chiqariladi. Bu buyruqlar bilan xodimlarni (shuningdek tinglovchi va kursantlarni ham tegishliligi bo‘yicha) lavozimga tayinlash yoki ozod etish, boshqa lavozimga tayinlash, o‘qishga yuborish, xizmatdan bo‘shatish, unvonlar berish, rag‘batlantirish, jazolash va boshqa huquqiy mustahkamlanadi. Garchi, ushbu shaxsiy tarkib bo‘yicha buyruqlar bilan erkin yollangan ishchi va xizmatchilarning mehnat munosabatlari ham rasmiylashtirilsa-da, biroq, ichki ishlar organlarida faoliyat yuritayotganlarning asosiy qismini shahodatlangan maxsus (harbiy) unvonga ega fuqarolar tashkil qiladi. IIV tizimidagi ta’lim muassasalarida doimiy va o‘zgaruvchan shaxsiy tarkibga ajratiladi.

O‘tkazilayotgan islohotlarning tub negizi sifatida Prezidentimiz ichki ishlar organlariga intellektual salohiyatli, professional kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda[6].

Bugun hayotimizning barcha jabhalariga yangi texnologiyalar kirib kelmoqda va bu xodimlardan har kuni o‘z ustida ishlashni, bilimini oshirishni talab etadi. Albatta, xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qilayotgan har bir xodim, avvalo, o‘z bilimi, ma’naviy-axloqiy sifatlari va dunyoqarashi kengligi bilan ajralib turishi kerak.

Biroq afsuski, shuni ham tan olib aytish kerak, islohotlar sur’atiga va yangicha ish uslubiga moslasha olmayotgan, hamon eskicha fikrlaydigan xodimlar ham uchrab turibdi. Ayrim xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari odamlarning asosli noroziliklariga ham sabab bo‘layotgan holatlar bor. Bunday holatlarning barchasini chuqur o‘rganib, tekshiruvlar o‘tkazilib, aybdorlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda jazo choralari ko‘rilishi tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, safimizni bunday xodimlardan tozalash va ularning o‘rnini vatanparvar, xalq osoyishtaligi yo‘lida halol xizmat qiladigan, sadoqatli kadrlar bilan to‘ldirish borasida vazirlik rahbariyati tomonidan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Kelgusida xodimlarda kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ular tomonidan fuqarolarga sifatli, professional xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash maqsadida, kadrlarni tayyorlash, o‘qitish va malaka oshirish borasida ham butunlay yangi tizim asosida ish tashkil etildi.

Ichki ishlar organlari tashkil etilganining 30-yilligi hamda 25 oktyabr – ichki ishlar organlari xodimlari kuni bayrami munosabati bilan muhtaram Prezidentimiz soha xodimlari va faxriylariga yo‘llagan bayram tabrigida ichki ishlar organlarida kadrlar tayyorlash yo‘nalishiga ham alohida to‘xtalib o‘tdilar. Jumladan, “mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimi yo‘lga qo‘yilib, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash, shuningdek, rahbarlarning professional salohiyatini oshirish borasida tizimli choralar ko‘rilmoqda. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oladigan ikki bosqichli zamonaviy oliy ta’lim tizimi, o‘quv jarayoniga nazariya bilan amaliyot uyg‘unligini ta’minlash uchun yangi ta’lim mexanizmlari joriy qilindi”.

Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida kadrlar salohiyatini oshirish, yangilikka intiluvchan va zamonaviy fikrlaydigan xodimlarni sohaga tayyorlash maqsadida “Temurbeklar maktabi” va ixtisoslashgan maktab-internat hamda barcha hududlarda akademik litseylar ish boshladi. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda, xavfsiz turizmni ta’minlash, probatsiya, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga ixtisoslashgan yangi bo‘linmalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi va bu sohalarga malakali yetuk xodimlarni tayyorlash bugungi kunda asosiy vazifalardan biridir.

Natija. Davlatimiz rahbari tomonidan berilgan e’tibor samarasida ta’lim sohasida juda ko‘p ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Qator xorij mamlakatlari bilan ilmiy tajriba almashilib, **40 ga** yaqin davlatlar ishtirokida muvofiqlashtiruvchi kengashlar tuzildi, ikki tomonlama hamkorlik o‘rnatildi. Bugungi kunda xodimlarni o‘qitish sohasida hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida jahonning **29 ta** davlatining huquq-tartibot idoralari bilan ikki tomonlama xalqaro kelishuvlarga muvofiq amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ichki ishlar organlari tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha vazifalarni sifatli amalga oshirish uchun ichki ishlar organlarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va doimiy ravishda ularning malakasini oshirib borish jarayonlari muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham ichki ishlar organlarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasidagi islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-son qarori bilan amalga oshirilgan institutsional o‘zgartirishlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, Akademiyada kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi joriy etildi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich, maxsus kasbiy va qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish kurslarida xodimlarni kasbiy darajasi va malakasini oshirilishi: birinchidan, xodimlarning kasbiy darajasini muntazam oshirish asosida qonunchilik normalari, nazariy, ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalarini, innovatsion texnologiyalar, fan-texnika, shuningdek ichki ishlar organlari sohasidagi so‘nggi yutuqlarni chuqur o‘rganishga; ikkinchidan, yuqori samarali zamonaviy ta’lim va ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, xodimlarni boshlang‘ich, maxsus kasbiy va qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari, dastur va uslublarini tubdan yangilashga; uchinchidan, xodimlarni boshlang‘ich, maxsus kasbiy va qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar sharoitida ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalarni hal qilish uchun soha xodimlari nafaqat huquqshunoslik sohasi mutaxassislari, balki turli xil ekstremal vaziyatlarda ham samarali harakat qilishlari kerak. Buning uchun kasbiy tayyorgarlik tizimini, xususan uning asosiy elementlarini tashkil etuvchi xizmat, jangovar, jismoniy, maxsus-taktik, axloqiy-psixologik va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlikni takomillashtirish kerak.

Kasbiy tayyorgarlik obyekt sifatida yaxlitlik, yo‘naltirilganlik, strukturalilik, o‘zaro bog‘liqlik, tizimning iyerarxiyasi, har bir tizimning tavsiflari ko‘pligi va boshqa tamoyillarga asoslangan tizim shaklida ko‘rib chiqilishi kerak. Ichki ishlar organlarining turli xizmatlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini tizim sifatida ko‘rib chiqishda uning asosiy tarkibiy elementlarini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash mumkin, bu esa ushbu faoliyatni yanada samarali tashkil etish va ijobiy natijalarga erishishga imkon beradi.

Ichki ishlar organlarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularga quyidagi vazifalarni kiritishimiz mumkin[7]:

– xodimlarni, shu jumladan ularni xizmat faoliyatidan ajratmagan holda o‘qitish va maxsus kasbiy tayyorlash, majburiy qayta tayyorlash va doimiy malakasini oshirib borishning ichki ishlar organlari kadrlar salohiyatini oshirishga imkon beradigan sifat jihatdan yangi tizimini tashkil etish;

– yoshlarda ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan dastlabki kasbiy bilim, yuksak vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadigan idoraviy oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash bo‘yicha samarali tartibni joriy etish;

– asosiy qismi sohaviy fanlarni o‘qitishdan tarkib topgan, shuningdek hududiy ichki ishlar organlariga bevosita chiqishni va tergov-tezkor tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etishni nazarda tutgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishni o‘z ichiga olgan yangilangan ta’lim standartlar va o‘quv dasturlarni ishlab chiqish va kiritish;

– ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar tarkibini malakali ilmiy-pedagogik, birinchi navbatda sohaviy fanlarni o‘qitishga ixtisoslashgan kadrlar bilan jamlash, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarni o‘quv jarayoniga keng jalb etish;

– o‘qitishning zamonaviy shakl va usullarini, eng yangi pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan situatsion mashg‘ulotlarni, masofadan o‘qitish tizimini keng joriy etish, ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarni global axborot-huquqiy va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyat-larini ta’minlash;

– idoraviy ta’lim muassasalarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini amaliyot ehtiyojini hamda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish istiqbollarini inobatga olgan holda tizimli ravishda maqbullashtirish;

– ichki ishlar organlari faoliyatida, birinchi navbatda huquqbuzarliklar profilaktikasi, tezkor-qidiruv faoliyati va jinoyatlarni tergov qilish sohasida mavjud bo‘lgan muammolar bo‘yicha fundamental va amaliyotga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilishi samaradorligini oshirish;

– yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash bo‘yicha tajriba almashish, hamkorlikdagi ta’lim dasturlarini joriy etish, professor-o‘qituvchilar tarkibini, xorijiy tillarni o‘qitishni nazarda tutgan holda, malakasini oshirish va stajirovkadan o‘tkazish orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish[8].

Ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash ko‘p bosqichli tizimni nazarda tutadi. Dastlab kasbiy bilim va ko‘nikmalar IIVning akademik litseylari hamda ixtisoslashtirilgan harbiy litseylarda 2-yil o‘qish davomida, so‘ngra IIV oliy o‘quv yurtida tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha 3 yil o‘qish davomida egallanadi. Shuningdek, ichki ishlar organlarining rahbar kadrlarini tayyorlash bo‘yicha ikki yo‘nalishdan iborat bir yillik ta’lim muddatini o‘z ichiga oluvchi magistraturada ham ta’lim olish yo‘lga qo‘yilgan. Ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lganlar yana uch yil davomida doktoranturada o‘qishni davom ettirishlari mumkin.

Yoshlarda ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan dastlabki kasbiy bilim, yuksak vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida Ichki ishlar vazirligining barcha viloyatlar, Toshkent shahar va Qoraqalpog‘iston Respublikasida akademik

litseylari tashkil etildi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki mazkur akademik litseylarning tashkil etilishi[3]:

birinchidan, ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan yuksak vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, dastlabki kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega aqlan va jismonan yetuk yoshlarni tarbiyalashga;

ikkinchidan, o‘quvchilarni Ichki ishlar vazirligining oliy ta’lim muassasalariga kirishlari uchun maqsadli chuqur tayyorlashga xizmat qiladi.

Ichki ishlar vazirligining idoraviy akademik litseylariga qabul ichki ishlar vaziri tomonidan ichki ishlar organlarining ehtiyojini inobatga olgan holda belgilanadigan kvotalar bo‘yicha tanlov asosida amalga oshiriladi. Bu borada shunisi ahamiyatliki, 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab IIV Akademiyasining bakalavriat dasturi bo‘yicha kunduzgi ta’lim shakliga qabul kvotasining 90 foizi bo‘yicha qabul faqat idoraviy akademik litseylar, harbiy akademik litseylar bitiruvchilari, ichki ishlar organlari xodimlari, shuningdek, profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari orasidan amalga oshiriladi[9].

Yuqorida keltirilgan idoraviy akademik litseylarning o‘ziga xos muhim jihatlarida biri IIV Akademiyasi yoki boshqa oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga topshirib kira olmagan litsey bitiruvchilari amaldagi normativ hujjatlarga asosan ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadigan tartibda ustunlik asosida ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilinadi.

Shu bilan birgalikda, ichki ishlar organlarini bugungi kun talablariga javob beradigan malakali kadrlar bilan jamlash borasidagi ehtiyojlarni inobatga olgan holda, Akademiyada sirtqi ta’lim fakulteti tashkil etildi. Unda kamida uch yillik ish stajiga ega bo‘lgan ichki ishlar organlari xodimlarining oliy ma’lumotga ega bo‘lmaganlari to‘rt yil, oliy ma’lumotga ega bo‘lganlari esa uch yil to‘lov-kontrakt asosida tasdiqlangan o‘quv dastur va standartlar asosida o‘qiydi hamda bitiruvchilarga «Huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni fosh etish faoliyati» mutaxassisligi bo‘yicha «yurist» malakasi beriladi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlardan yana biri, bu O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-oktyabrdagi “Oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi” 655-son qarori bilan IIV Akademiyasi oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari qatoriga kiritilganligidir.

Hujjatga ko‘ra, oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari — xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida ta’lim oluvchilarni ixtisoslik (mutaxassislik) fanlariga kasbiy yo‘naltirish hamda maqsadli tayyorlashni nazarda tutadigan, davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalari va dasturlari talablariga muvofiq ravishda o‘quv-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan oliy ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalaridir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishlaridan biri davlat organlari faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Axborot texnologiyalardan foydalanishni “elektron davlat” atamasi birlashtiradi, bu esa, o‘z navbatida, “elektron hukumat”, elektron parlament, “elektron adliya” kabi tushunchalarni qamrab oladi. Elektron hukumat yo‘nalishida Ichki ishlar organlari tomonidan 72 ta davlat xizmatlari ko‘rsatilishi belgilandi, fuqarolar bilan bevosita muloqotda xizmat faoliyatini olib borayotgan ichki ishlar organlari xodimlari bodi-kamera, videoradar va ma’muriy huquqbuzarliklarni qayd etuvchi planshetlar bilan ham ta’minlandi.

Aholi tomonidan ichki ishlar organlarining faoliyati ko‘pincha xalq bilan bevosita ishlaydigan xizmatlar orqali (YPX, PPX va JTS, HP) baholanadi va aholi tomonidan berilgan baho ko‘pincha subyektiv xususiyatga ega bo‘ladi.

Ichki ishlar organlarining xalq bilan bevosita ishlaydigan tegishli sohaviy xizmatlarining (YPX, PPX va JTS, HP) ayrim xodimlari muomala va kasb madaniyatiga yetarli darajada ega bo‘lmaganligi, fuqarolar bilan yuzaga kelgan turli xil vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olmasligi yoki muloqot jarayonida yuzaga kelgan kuchli hissiyot (emotsiya), hayajonini boshqara olmasligi natijasida ular tomonidan noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi holatlari ham uchrab turmoqda. Bu esa aholining haqli e’tiroziga, qolaversa, ularning ongida ichki ishlar organlari tizimiga nisbatan salbiy fikrlarni shakllanishiga olib kelmoqda.

Fikrimizcha, ichki ishlar organlarining birinchi navbatda xalq bilan bevosita ishlaydigan xizmatlaridagi xodimlarining yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni to‘g‘ri baholashi va to‘g‘ri qaror qabul qilishiga yordam beruvchi harakatlar standartini tajribali psixolog mutaxassislarni jalb etgan holda o‘qitish, bu bilan bog‘liq o‘quv kurslarini ko‘paytirib borish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Bundan tashqari, xizmat vaqtida fuqarolar bilan muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va to‘g‘ri qaror qabul qilishga doir ko‘nikmalarni shakllantirib borishga avvalo kadrlarni tayyorlash bosqichi jarayonidan alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Masalan, Amerika qo‘shma shtatlarida (AQSH) politsiyaga qabul qilingan xodim dastlabki tayyorlov bosqichida o‘qitiladi, ushbu bosqichda ularda fuqarolar bilan xizmat yuzasidan muloqot qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil vaziyatlarda (ekstremal vaziyatlarda ham) to‘g‘ri qaror qabul qilishga doir o‘quv trening mashg‘ulotlari o‘tkazilishi orqali amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Fikrimizcha, ichki ishlar organlarida xizmatga nomzodlarni tanlab olish tadbirlarini o‘tkazishda dastlab nomzodlar o‘rganilishi, keyin tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, sog‘lom yoki nosog‘lom ekanligi aniqlashtirilishi, so‘ng nomzodlarning bilimi va jismoniy tayyorgarlik darajasi tekshirilishi mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Agarda nomzod tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra, xizmatga yaroqsiz deb topiladigan bo‘lsa, nomzod keyingi bosqichlarda ishtirok etmaydi, nomzodning vaqti ham, qilishi mumkin bo‘lgan moddiy xarajatlari ham tejaladi, qolaversa, qabul komissiyasining ham vaqti tejaladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023 yil 2 noyabrdagi 601-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida xizmatga nomzodlarni tanlab olish tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomaning 2-bobi, 14-bandini qo‘yidagi tahrirda bayon etish tavsiya etiladi:

“14. Tanlov tadbirlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi

a) o‘rganish bosqichi:

ro‘yxatdan o‘tish;

dastlabki o‘rganish (Nizom va mazkur Yo‘riqnomada belgilangan talablarga mos kelishni tekshirish);

b) saralash bosqichi:

xizmatga yaroqlilik darajasini aniqlash maqsadida harbiy-tibbiy komissiya ko‘rigidan o‘tkazish;

psixofiziologik (poligraf) tekshiruv (ichki ishlar organlarida xizmat qilish uchun to‘sqinlik qiladigan salbiy omillarni aniqlash maqsadida).

intellektual rivojlanganlik darajasi va psixoemotsional barqarorligini baholash (bundan buyon matnda psixologik o‘rganish deb yuritiladi);

test sinovi (O‘zbekistonning eng yangi tarixi, huquqshunoslik va tarbiya fanlari bo‘yicha bilimlarni baholash);

jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash.

Bugungi kunda O‘zbekistonda erkaklarning o‘rtacha bo‘y balandligi 169,4 sm., ayollarning o‘rtacha bo‘y balandligi 157,8 sm. ni tashkil etadi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, erkaklarning o‘rtacha bo‘y balandligi 175 santimetrdan 188 santimetrgacha, ayollarning o‘rtacha bo‘y balandligi esa 165 santimetrdan 173 santimetrgacha bo‘lishi eng ideal holat deb topilgan.

Fikrimizcha, yuqoridagi tahlillardan va O‘zbekistonda erkaklarning o‘rtacha bo‘y balandligini va bo‘yning ko‘rkamroq ko‘rinishini hisobga olib, ichki ishlar organlariga ham xizmatga qabul qilinayotgan erkak jinsidagi nomzodning minimal bo‘y balandligi 170 santimetrdan past bo‘lmasligi kerakligi haqida xulosa qilish mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur yo‘riqnomaning 1-bobi, 5-bandi ikkinchi xatboshisini qo‘yidagi tahrirda bayon etish tavsiya etiladi: “erkak jinsidagi nomzodlarning bo‘yi – 170 santimetrdan past bo‘lmasligi kerak”.

Yo‘riqnomaning 5-bobi 31-bandida “Nomzodlar bilan test sinovlari yakka tartibda yoki guruh bo‘lib o‘tkazilishi mumkin. Test guruh tarkibida o‘tkazilganda, xonada nomzodlar soni 30 nafardan oshmasligi zarur”ligi belgilangan.

Fikrimizcha, nomzodlar test sinovlarini yakka tartibda emas, balki guruh bo‘lib topshirgani maqsadga muvofiq. Bu esa xalqning qabul komissiyasiga nisbatan har-xil shubha va gumonlarini yo‘qolishiga olib kelishi bilan birga, sinov imtihonlari ochiq va shaffof tarzda o‘tishini ham kafolatlashga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yo‘riqnomaning 5-bobi 31-bandidagi “Nomzodlar bilan test sinovlari” degan so‘zlardan keyin “yakka tartibda yoki” degan so‘zlarni chiqarib tashlash va ushbu bandni quyidagi tahrirda bayon etish tavsiya etiladi:

“31. Nomzodlar bilan test sinovlari guruh tarkibida o‘tkazilishi va bunda test sinovlari o‘tkazilayotgan xonadagi nomzodlar soni 30 nafardan oshmasligi zarur ”.

Yo‘riqnomaning 6-bobi 46-bandida “Qaydnoma Qabul komissiyasining har bir a’zosi tomonidan imzolanib, tasdiqlash uchun komissiya raisiga taqdim etiladi hamda tegishli ichki ishlar organlari tomonidan test sinovlari natijalari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab, ikki ish kuni ichida veb-saytga joylashtirish orqali nomzodlarga ma’lum qilinadi” deya belgilangan.

Fikrimizcha, test sinovlari natijalari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab, ikki ish kuni ichida emas, balki 1 ish kuni mobaynida veb-saytga joylashtirilishi korrupsiyaviy omillarning oldini olishga va qabul komissiyasiga nisbatan salbiy fikrlarning kelib chiqmasligiga sabab bo‘ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur yo‘riqnomaning 6-bobi 46-bandidagi “ikki ish kuni” jumlalarni “bir ish kuni” deya o‘zgartirish tavsiya etiladi.

Xulosa. Shuningdek, ichki ishlar organlarida xizmatga va ta’lim muassasalariga o‘qishga nomzodlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo‘yish hamda kadrlar barqarorligini ta’minlash borasida quyidagilar taklif etiladi:

– ichki ishlar organlariga ishga (xizmatga) yoki ta’lim muassasasiga o‘qishga kirmoqchi bo‘lgan nomzodlarni avvalo sog‘lom, namunali va ijobiy tavsiflangan oilalar orasidan, kerak

bo‘lsa bog‘cha va o‘rta ta’lim maktablaridan izlash va ularni (ota-onalari bilan kelishgan holda) yoshligidan boshlab tizimli tarzda vatanparvarlik ruhida tarbiyalab borish maqsadga muvofiq, bu esa tizimga tasodifiy xodimlarning kirib qolishini oldini olishga ma’lum bir darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // 08.12.1992 y. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 09.02.2021 y., 03/21/671/0093-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni. 16.09.2016 y. O‘RQ-407-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabr “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son Qonuni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 38 (746)-son, 2016-yil 26-sentyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ichki ishlar organlarining 30-yilligi munosabati bilan soha xodimlari va faxriylarini tabrikladi // 24.10.2021 y. (Manba: https://daryo.uz/k/2021/10/24/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar-organlarining-30-yilligi-munosabati-bilan-soha-xodimlari-va-faxriylarini-tabrikladi/)
5. Bobojonov P.R. Tanqidiy tahlil va ustuvor vazifalar faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi // “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 16.02.2021y., № 33.
6. Bobojonov P.R. Tanqidiy tahlil va ustuvor vazifalar faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi // “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 16.02.2021y., № 33.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3216-son qarori // *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.*
8. Okyulov N.O. Reformirovaniye sistemi podgotovki kadrov v obrazovatelnix uchrejdeniyax i novie tendensii kadrovoy politiki MVD Respubliki Uzbekistan // Agrarnoye i zemelnoye pravo. – 2019. – № 12(180). – S. 164-166.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3216-son qarori // *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.*
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-sonli farmoni //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

CONCEPT AND SOCIAL NECESSITY OF SOCIAL REHABILITATION AND ADAPTATION OF PERSONS RELEASED FROM PENITENTIARY INSTITUTIONS

Egamberdiyev Vokhidjon Otabekovich,
Senior Lecturer of the Department of Crime Prevention Activities at the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Lieutenant Colonel
E-mail: info@akadmvd.uz

Abstract. This article explores the theoretical and legal essence of the concept of social rehabilitation and adaptation of persons released from penitentiary institutions. The content and interrelationship of the categories of social rehabilitation and social adaptation, as well as their role in reintegrating former inmates into society, have been scientifically analyzed. Additionally, the main challenges encountered in the social adaptation of released persons are highlighted, including employment, integration into the social environment, and legal and psychological support. The article substantiates the social necessity of rehabilitation from the perspectives of ensuring public safety, preventing recidivism, and protecting human rights and legitimate interests. The research results serve as a theoretical foundation for developing scientific and practical proposals aimed at improving work with released persons in the penitentiary system.

Keywords: execution of punishment, individual, offense, public safety, social, rehabilitation, adaptation, social necessity, prevention.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI HAMDA IJTIMOIY ZARURATI

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va jamiyatga moslashtirish tushunchasining nazariy-huquqiy mohiyati ochib berilgan. Ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish kategoriyalarining mazmuni, o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ozod etilgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvida uchraydigan asosiy muammolar — ish bilan ta’minlanish, ijtimoiy muhitga kirishish, huquqiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Maqolada ijtimoiy reabilitatsiyaning ijtimoiy zarurati jamoat xavfsizligini ta’minlash, takroriy jinoyatchilikning oldini olish hamda inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari jazoni ijro etish tizimida ozod etilgan shaxslar bilan ishlashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: jazoni ijro etish, shaxs, huquqbuzarlik, jamoat xavfsizligi, ijtimoiy, reabilitatsiya, moslashish, ijtimoiy zarurat, profilaktika.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N14

Kirish. Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Aholini qo‘llab-quvvatlash, ularga ko‘mak berish, muammolarini

manzilli hal etish vazifalari belgilandi. Hozirgi kunda fuqarolarimizning ijtimoiy muammolarini bartaraf etish maqsadida qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan bir qator maqsadli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Sh.M. Mirziyoyev tomonidan “Hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo‘yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz. Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O‘zbekiston ham – kechagi O‘zbekiston emas”[1], deb islohotlar ortga qaytmas tus olganini ta’kidlagandi.

Ushbu amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning natijasi o‘laroq, respublikamizda sud-huquq sohasida huquqiy tushunchalar, ularning ahamiyati, shakllanish va rivojlanish bosqichlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir normalarni qo‘llash amaliyotida jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish shular jumlasidandir.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar birinchi navbatda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishga muhtoj bo‘lgan shaxslar hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, biz jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxs, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berish muhim hisoblanadi deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Huquqiy adabiyotlarda ilgari sudlangan shaxs iborasi ishlatilganda shaxsning ilgari jinoyat sodir etganligi uchun sud tomonidan hukm etilganligidan kelib chiqadigan huquqiy holat tushuniladi. Jazo tayinlangan ayblov hukmi kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan hisoblanadi hamda shaxs huquqbuzarliklar yoki jinoyat sodir etganda huquqiy ahamiyatga ega bo‘ladi[2]. Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni “Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar” yoxud “Ilgari sudlangan shaxslar” deb turlicha so‘zlar bilan ifodalaymiz. Ammo, ushbu ikki tushuncha ham bir ma’noni anglatadi.

Shuningdek, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

- jazoni to‘liq o‘tab bo‘lgandan so‘ng ozodlikka chiqqan shaxslar;
- muddatidan ilgari shartli ozod qilinganda;
- jazo yengilrog‘i bilan almashtirilganda;
- kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi tufayli;
- amnistiya yoki afv etilganligi tufayli;
- oqlangan (reabilitatsiya qilingan) shaxslardir.

Biroq, bugungi kunda “Ilgari sudlangan shaxs” tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” Qonuni(2014)ning qabul qilinishi bilan muayyan darajada aniqlik kiritildi[3].

Xususan, ushbu qonunning 25-moddasida ilgari sudlangan shaxslar o‘rtasida amalga oshiriladigan huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari keltirilgan. Jumladan:

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o‘rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi

sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish; huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish; ozodlikdan mahrum jazosini o‘tayotgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash; ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish; ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini tashkil etayotgan tashkilotlarni rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o‘z ichiga olishi mumkinligi keltirilgan[4].

Muhokama. Bugungi kunda jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarning muammolarini aniqlash va hal qilishga, ularga maqsadli ijtimoiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan, munosib yashash huquqini ta’minlash maqsadida, jazoni o‘taganlarni jamiyatda bir guruhga tushib qolish xavfini kamaytirish va ularning ozodlikda jamiyatga moslashishi, ularning keyingi xatti-harakatlari va oxir-oqibat retsidivizmni oldini olish ko‘p jihatdan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish tadbirlarining samaradorligiga bog‘liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar birinchi navbatda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishga muhtoj bo‘lganlar hisoblanadi. Shundan kelib chiqib biz jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish kabi tushunchalarni ma’lum darajada ochib berish muhim hisoblanadi deb o‘ylaymiz.

Huquqiy hujjatlarda *“ijtimoiylashish”, “desotsializasiya”, “resotsializasiya”, “reabilitatsiya”, “ijtimoiy reabilitatsiya”, “ijtimoiy moslashish”* tushunchalari aholining turli toifalari: kasallar, qariyalar, ayollar, voyaga yetmaganlar, doimiy yashash joyiga ega bo‘lmaganlar, zo‘ravonlikka uchragan, odam savdosi qurboni bo‘lgan va jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarga davlat idoralari, turli nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik, va pedagogik yordam ko‘rsatadigan faoliyatdir.

Izohli lug‘atlarda, *“ijtimoiy”[5]* so‘zining ma’nosi *“inson”, “jamoa”, “jamiyatga oid”, “jamiyat hayotiga oid”, “ijtimoiy tuzum”, “ijtimoiy taraqqiyot”, “ijtimoiy ishlab chiqarish”, “ijtimoiy munosabatlar”* degan ko‘plab ma’nolarni anglatadi.

Shuningdek, *“ijtimoiy”* so‘z tushunchasi inglizcha “social” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tiliga aynan tarjima qilinganda *“inson va jamiyat hayotiga oid”* degan ma’noni anglatadi[6].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *“reabilitatsiya”* [7]. so‘zining ma’nosi ikki xil ko‘rinishda keladi: *birinchisi* tibbiy yo‘nalishda organizmning izdan chiqqan funksiyalarini hamda bemorlar va nogironlar mehnat qobiliyatini tez va to‘la-to‘kis tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; *ikkinchisi* jinoyat sodir etishda asossiz gumon qilingan yoxud ayblangan shaxsning pok nomi, sha’ni va qadr-qimmatining huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari tomonidan tiklanishi deb ta’kidlangan.

Shuningdek, rus tilining yangi izohli lug‘atida *“reabilitatsiya”* [8] tushunchasi ta’rifi “avvalgi yaxshi obro‘ga”, yoki “oldingi huquqlarga qaytish”, “qonuniy huquqlarini tiklash”, “yaxshi nom” “avvalgi obro‘-e’tiborni tiklash” degan ma’nolarni bildiradi.

Rus ensiklopediyasida *“reabilitatsiya”* so‘zi bu “huquqlarni tiklashni”[9] anglatadi. Ushbu so‘zning yana bir ma’nosi “jamoatchilik munosabatlari funksiyalarini yaratish va tiklashda yordam berish”[10] deb keltirilgan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, *“reabilitatsiya”* tushunchasi lotin tilida “*restitutio in integrum”*[11] “avvalgi huquqlarni tiklash”, “sobiq davlatni tiklash” degan ma’nolarni anglatib, dastlab Rim huquqida paydo bo‘lgan.

XIX asrning oxirigacha yuridik fanlarda, reabilitatsiya jazoni ijro etish muassasasida jazo o‘tayotgan shaxslarni avvalgi holatiga qaytarish, afv etishning bir turi sifatida ko‘rilgan.

Garchi tarixan reabilitatsiya haqidagi g‘oyalarning paydo bo‘lishi jinoyat huquqi fanining evolyutsiyasi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uzoq vaqt davomida deyarli XX asr boshlariga qadar, reabilitatsiya instituti faqat afv etish va amnistiya bilan bog‘liq holatlarni anglatgan. A.F.Kistiakovskiy[12] ta’kidlaganidek, kechirim aybning to‘liq yoki bir qismini kechirish va jazoni bekor qilish yoki yumshatishdir. Afv etish ko‘lami, shakli va ta’siriga qarab, afv etish, amnistiya va reabilitatsiya turlariga bo‘lingan Kechirimning bir turi sifatida reabilitatsiya mahkumni avvalgi holatiga qaytarishdan iboratdir. Bu jazoni o‘tagan va to‘liq siyosiy va fuqarolik huquqiy layoqatga qaytishga loyiq bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan.

Mazkur tushuncha yuzasidan, Konstitutsiyaviy huquq ensiklopedik lug‘atida “*reabilitatsiya”[13]* tushunchasi “shaxsning yaxshi nomini”, “buzilgan yoki cheklangan huquqlari” va “qonuniy manfaatlarini tiklash” ma’nolarini anglatadi.

Shu o‘rinda, Amerika qonunlari hamda g‘arb ensiklopediyasini o‘rganganimizda “*reabilitatsiya”[14]* tushunchasi mahkumni jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgandan so‘ng, hayotga tayyorlashga qaratilgan huquq yoki qobiliyatlarni tiklash deb ta’riflangan.

Reabilitatsiya tushunchasi fanlararo hodisa sifatida mavjud bo‘lgan g‘oyalarga mos kelmaydigan juda munozarali ta’riflar ham mavjud bo‘lib, “tiklash”, balki ilgari mavjud bo‘lgan qobiliyat va boshqa maqomlarni qaytarish degan ma’nolarni ham anglatadi.

Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishning nazariy va amaliy masalalarini jinoiy ijroiya, penitensiar, pedagogika va penitensiar psixologiya fanlarida ham tadqiq etib kelingan.

Nazarimizda, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarga nisbatan *“ijtimoiy reabilitatsiya qilish”* tushunchasi ishlatilganda, bevosita uni axloqan tuzatish yoki sudlanganlik holatini olib tashlash singari choralarda namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda *“moslashtirish”* esa bevosita jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni o‘qishga yoki ishga joylashtirish, ma’lum muddatga uy-joy bilan ta’minlash, hokimiyatlar huzuridagi maxsus komissiyalar tomonidan moddiy, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan huquqiy yordam berish kabi holatlarda o‘z ifodasini topadi. Nazarimizda jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya jarayonini moslashuv jarayoni bilan birgalikda ko‘rib chiqish kerak.

“Moslashish” so‘zi o‘zbek tili va adabiyotida fe’lning orttirma nisbati hisoblanadi[15] lekin “*moslashish”*[16] atamasi gumanitar fan tabiatshunoslikdan kirib kelgan bo‘lib, organizmlarning (individuallar, populyatsiyalar, turlar), atrof-muhit sharoitlariga moslashish jarayoni, tuzilishi va funksiyalari tushuniladi[17].

Falsafiy adabiyotlarda *“moslashish”* tushunchasi “moslashish”, “iqlimlashtirish”, “me’yor va ideallarni idrok etish”, “ko‘nikish”, “jamoaga qo‘shilish” deb qaraladi[18].

Ushbu atama bugungi kunda yuridik adabiyotlar va tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda keng qo‘llaniladi va jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxslarning jamiyatdagi xatti-harakatlarini qayta tiklash imkoniyati va zarurati sifatida ta’riflanadi[19].

Shuningdek, Huquqiy psixologiya adabiyotlarida jazoni ijro etish muassasasida jazo o‘tayotgan shaxslarning ijtimoiy moslashuv muammolari o‘rganilib, yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish jarayoni salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlangan.

Milliy qonunchiligimiz normalari tahlili hamda tarixini o‘rganganimizda reabilitatsiya qilish institutiga nisbatan o‘ziga xos yondashuv mavjudligini ko‘rishmiz mumkin.

“Reabilitatsiya” huquqiy davlat, adolatli fuqaroviy jamiyat qurishning muhim shartlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida shaxsning huquq va qonuniy manfaatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek, xalqaro hujjatlar bilan muhofaza qilinadi va kafolatlanadi. 1930-1940-yillardagi qatag‘on qurbonlarining xotirasini abadiylashtirishda hamda ularning sha’ni va qadr-qimmatini tiklashga qaratilgan normativ hujjatlarda reabilitatsiya qo‘llash nazarda tutilgan.

Shuningdek, sho‘rolar davrida mamlakatimizning ayrim fuqarolari ham reabilitatsiya qilinib, olis hududlarga yuborilgan. Fuqarolarimizga nisbatan g‘ayriqonuniy protsessual majburlov choralari qo‘llangan, chunonchi ushlab turilgan, qamoqda saqlangan, egallab turgan lavozimidan chetlashtirilgan, tibbiy muassasaga joylashtirilgan bo‘lsa, unga yetkazilgan moddiy va ma’naviy ziyon qoplanishi, uning barcha huquqlari tiklanishi shart bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini o‘rganganimizda “*ijtimoiy”, “reabilitatsiya”, va “moslashtirish”*tushunchalar so‘z birikmasidan kelib chiqqan “*ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish”* tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risi”dagi O‘RQ 371-son (2014) qonunining 3-moddasida keltirilgan. “*Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish”* bu huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko‘rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui degan huquqiy ta’rif berilgan[20].

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi 7-bo‘lim 37-bob[21]da “reabilitatsiya asoslari va oqibatlari”, 38-bob[22]da esa “reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklash tartibi” ham keltirilgan.

Bugungi kunda “*ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish”* tushunchasi huquqiy siyosat terminologik apparatining yirik, ko‘p qirrali toifalaridan biri bo‘lib, nafaqat huquq nazariyasida, konstitutsiyaviy, fuqarolik, mehnat va boshqa sohalarda ham qo‘llaniladi. huquqning boshqa sohalari qatori huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bu borada G.Blumer o‘z qarashlarida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutning yeng qiyin muammosi bu aynan “ilmiy rivojlanishning muhim sharti bo‘lgan aniq tushunchalar bo‘lmagan taqdirda kelib chiqishini ta’kidlaydi”[23]. Hatto tegishli ijtimoiy fanlar vakillari ham ijtimoiy moslashuvning turli jihatlari haqida gapirganda bir-birlarini tushunishda qiynaladilar. Ko‘pincha bu holat ijtimoiy moslashuvning asosiy tushuncha sifatida diametral qarama-qarshi ta’rifi bilan bog‘liq.

Afsuski, xorijiy adabiyotlarida bizni qiziqtirgan ijtimoiy moslashuv jarayonlari va hodisalari hali ham shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuvining murakkabligi va dialektik nomuvofiqligini, aniq tushunchalarga ega bo‘lmagan tushunchalar va toifalarda ifodalanishidir.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni jamiyatda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish muammolarini o‘rganish uchun sotsiologik tadqiqotlarni tegishli ilmiy

fanlar bilan to‘g‘ri birlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan kompleks yondashuvlarni o‘rganish juda muhimdir.

Jamiyatdagi ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishga bag‘ishlangan nazariy qarashlarni tahlil qilganimizda, Chikagodagi Amerika sotsiologiyasi maktabi asoschilari E.Berdjess va R.Park moslashish, noto‘g‘ri moslashish, shuningdek, deviant xulq-atvorni o‘rganishda an’anaviy bo‘lib qolgan moslashish muammolarini, T.Parsonsom “Ijtimoiy hodisa sifatida moslashish muammolarini”, G.Adorno va J.Gurvichu “Ijtimoiy hodisa sifatida moslashish g‘oyasini, R.Merton “Ijtimoiy o‘zgarish”, P.Blau va R.Glirson “Ijtimoiy almashinuv” hamda E.Giddensa va Yu.Xabermasa tomonidan “Tuzilish nazariyalari” o‘rganilib chiqilgan.

Biroq, ijtimoiy moslashuv nazariyasining asoslari bevosita L.Bristola, G.Chatertona-Xila, Dj.Tomsona, M.Torpa asarlari tomonidan qo‘yilgan. Moslashuv hodisasini o‘rganishda Dj.G.Mid, D.Moreno, R.Linton, T.Parsons, T.Nyukomblar asosan “Rol nazariyasi” nuqtai nazaridan shaxslarning jamiyatdagi mavjud me’yorlarga moslashish jarayoni sifatida ko‘rib chiqilgan.

Ingliz sotsiologi B.Xoras ba’zi belgilar (moslashishning xususiyatlari) moslashuvchan, yoki neytral bo‘lishi mumkinligi, ya’ni ular moslashishni amalga oshirishi yoki oshirmasligiga e’tibor qaratdi. Har qanday vaqtda, ilgari moslashuvchan bo‘lgan shaxslar, yangi vaziyatda moslashuvchan bo‘lmasligi mumkinligini ta’kidlaydi[24].

Xorijiy adabiyotlarda “ijtimoiy moslashuv” tushunchasining xilma-xilligi u yoki bu darajada sotsiologik namunaga intiladi. Bundan tashqari, turli xil tasniflarda allaqachon an’anaviy bo‘lib kelgan ushbu namunalar turli yo‘llar bilan belgilanadi. Bular, “obyektivizm” va “subyektivizm”, “makro” va “mikro sotsiologiya”, “normativ” va “interpretativ” namunalari o‘z navbatida, interaksionizm namoyondalari Dj.G.Mida, G.Blumera, hamda fenomenologik va germenevtik yo‘nalishdagi sotsiologlar va faylasuflar E.Gusserl, G.G.Gadamer, I.Gofman, A.Shyus, P.Berger, T.Lukman, L.Vitgenshteyn, P.Rikyorlarning asarlarida to‘liq aks etgan.

Xususan, L.Filips tomonidan ishlab chiqilgan moslashuvning interaksionistik konsepsiyasiga ko‘ra, moslashuvning barcha turlari quyidagicha belgilangan, *birinchidan,* ichki psixologik omillar; *ikkinchidan* tashqi muhit bilan bog‘liq omillardir[25]. Shuningdek, interaksionistlar shaxsning samarali moslashuvi bu inson jamiyatning talablari va minimal talablariga javob beradigan turi deb ta’kidlagan.

Ta’kidlash joizki, sotsiologiyaning klassik namoyondasi E.Dyurkgeymning atamalar lug‘atida “ijtimoiy moslashuv” tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi, “ijtimoiy” bu individ tomonidan ijtimoiy me’yorlarning o‘zlashtirilishi, individning moslashuvi esa jamiyatga moslashuv jarayoni bo‘lib, “moslashuv” va “ijtimoiylashuv” tushunchalari sinonimlar. Pozitivizm konsepsiyasi ijtimoiy moslashuv nazariyasini ochib berish uchun zarur, lekin yetarli bo‘la olmaydigan metodologik asos sifatida talqin etgan[26].

Nemis sotsiologi, faylasuf M.Veberning fikricha bir vaqtning o‘zida bir qancha o‘zaro bir-birini inkor etuvchi me’yorlar ham bo‘lishi ehtimoli mavjudligini ta’kidlagan[27]. Ushbu yondashuv individning shakllanishida, me’yorning ahamiyati hamda me’yorning shakllanishi individning rolini ko‘rsatadi.

Shuningdek, T.Parsoncning “ijtimoiy moslashuv” borasidagi qarashlari ham qiziqarli. Uning “muvozanatdagi jamiyat” konsepsiyasi individning mazkur muhitda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan muhim ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishi davomida individ hamda ijtimoiy muhit ehtiyojlari orasidagi muvozanatga bag‘ishlanadi. Muvozanat bor ekan jamiyat barqaror, muvozanat bo‘lmasa ijtimoiy nizo sodir bo‘ladi. Jamiyatning muhim vazifasi ushbu

muvozanatga intilish, garchi T.Parsoncning fikricha, absolyut muvozanatga erishib bo‘lmaydi. Individning ehtiyojlari va ijtimoiy me’yorlar dinamik qiymat bo‘lib, ularning mos kelishi kutilmaganda qisqa muddatgagina sodir bo‘lishi mumkin. T.Parsons “moslashuv” va “ijtimoiy muhit” atamalaridan foydalanib, inson har gal umuman jamiyat bilan emas, balki uning katta bo‘lmagan qismi bilan o‘zaro munosabatlarga kirishadi, deb ta’kidlagan[28].

Amerika sotsiologi R.Merton o‘zining tadqiqotlarida “ijtimoiy moslashuv” tushunchasi haqida to‘xtalar ekan, u ijtimoiy moslashuvni tasniflashda asosiy eng muhim sharoitlarni ta’kidlagan: ijtimoiy moslashuv inson tomonidan ijtimoiy me’yorlarning o‘zlashtirilishini taqozo qilishi shart emas degan fikrni ilgari surgan. Bundan kelib chiqadiki, shartsiz ravishda insonning ijtimoiy me’yorlar bilan bog‘liq bo‘lgan va ularga tobe bo‘lgan ijtimoiy moslashuvi ushbu me’yorlarning aksi yoki ularning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lmay, jamiyatdan individga emas, balki individdan jamiyat tomon yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga R.Merton deviant xulq-atvorning ijtimoiy va madaniy manbalarini o‘rganib, moslashish turlariga e’tibor qaratgan, hamda moslashuvning 5 turini taklif qilgan. Jumladan: muvofiqlik, innovatsiya, ritualizm, retreatizm hamda isyondir deb ta’kidlagan[29].

Natija. Ijtimoiy aniqlikni yaratish bo‘yicha ijodkorlardan bo‘lgan P.Berger va T.Lukmanlar ilmiy faoliyatida “ijtimoiy moslashuv” tushunchasi chuqur o‘rganganligini ko‘rishimiz mumkin. Ularning fikrlaricha, shaxs rivojlanishining ba’zi davrlaridan boshlab inson o‘zi uchun ijtimoiy me’yorlarni o‘rnini bosuvchi nimalarnidir yaratadi hamda o‘z faoliyatida ulardan foydalanadi. Bunda obyektiv mavjud bo‘lgan olam hamda insoniyat tomonidan yaratilgan olamning mos kelmaydigan vaziyati yuzaga keladi. Moslashuv esa ushbu mazmun-mohiyat borasida uyg‘unlashish, o‘zaro muvozanatga erishish uchun mo‘ljallangan[30].

Shu o‘rinda, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari olimlarining fikrlarini tahlil qilganimizda, “ijtimoiy moslashuv” tushunchalarini ilmiy o‘rganganligini alohida e’tirof etish joiz. O.A.Vlasovaning fikricha, ijtimoiy moslashuvning funksional mohiyati, eng avvalo shaxsning hamda muhitning saqlanilishi nuqtai nazaridan insonlar hayoti faoliyati jarayonida shaxslararo aloqalar hamda munosabatlarida ifodalanadi deb ta’kidlagan.

Yana bir olim L.A.Gordon ta’kidlashicha ijtimoiy moslashuvning mobillashtiruvchi funksiyasini alohida ta’kidlab, moslashuv nafaqat alohida elementlarni qabul qilish, balki jamoatchilik munosabatlarining o‘zgaruvchan yaxlit tizimini o‘zlashtirish, shuningdek favquloddagi vaziyatlarni yenga bilish qobiliyatida ifodalanadi deb o‘z fikrlarini bildirgan.

Shuningdek, M.A.Shabanovaning fikricha, moslashuvning funksiyasi quyidagilarda ifodalanadi: individ nafaqat tirik qolish, balki o‘sish, unish imkoniyatiga ega bo‘ladi, makro-muhit esa o‘zini namoyon qilish hamda yanada yuqorilab ketuvchi bosqichga o‘tish imkoniyatini beradi. P.S.Kuznetsov ham shunga o‘xshash fikrni bildiradi: “Moslashuvning maqsadi shaxsning rivojlanishiga erishish, ontogenetik nuqtai nazardan bu ehtiyojlarning o‘sishi va yuksalishi, filogenetik nuqtai nazardan esa tashkilotchilik, madaniyat darajasini oshirishdan iboratdir” deb ta’kidlagan[31].

Qolaversa olimlar I.S.Diskin va Ye.M.Avramovalar e’tibor qaratgan yana bir masala, bu ijtimoiy noaniqlik va ijtimoiy harakatlarning mahsuldor modeli mavjud bo‘lmagan sharoitda moslashuvning rag‘batlantiruvchi funksiyasining ochilishidir[32]. Ularning fikricha, bu insonlarning nafaqat, mavjud bo‘lgan vaziyatga anglanilgan tarzda mo‘ljal ola bilish, balki juda muhim bo‘lgan o‘z qobiliyatlari va qiziqishlarini amalga oshirish maqsadida ijtimoiy xulq-

atvorning munosib modelini ishlab chiqish va turli resurslardan oqilona tarzda foydalanish kabi qobiliyatida ifodalanadi. Ijtimoiy moslashuv funksiyalariga oid yuqoridagi barcha fikrlarni umumlashtirgan holda, aytish mumkinki, aksariyat olimlar rivojlanish funksiyasi emas, balki shaxslarning ijtimoiy mexanizmlarini shakllantiruvchi funksiyani alohida ta'kidlashgan.

Fikrimizcha, ushbu funksiya ostida, *birinchidan*, xulq-atvorning yangi strategiyalarini o'zlashtirish, *ikkinchidan,* ushbu strategiyalarni me'yoriy tartibga solib, shaxs uchun axloqan ma'qul bo'lgan yangi me'yor va qadriyatlarni singdirish, *uchinchidan,* individning o'zini baholash tarzi va intilishlarini nafaqat o'z imkoniyatlari, balki ijtimoiy-iqtisodiy aniqlik bilan uyg'unlashuviga erishuvini tushunish lozim. Bir qancha olimlar har ikki tomon talablari va natijalari o'zaro uyg'unlashuvini ijtimoiy moslashuvning natijasi sifatida talqin qiladilar.

Xulosa. Shuningdek, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar ustidan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyatini tartibga solishning davlat-huquqiy mexanizmining mukammal emasligi jinoyatlarning takrorlanishi sabablaridan biridir. Ularga ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va pedagogik yordam ko'rsatishning aniq huquqiy mexanizmisiz ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyati jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Yuridik adabiyotlarimizda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyati tushunchasi to'liq yoritilmagan. Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyatining tuzilishi bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar mavjud emas. Bunday vaziyatda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishning xususiyatlari va sifatlarini o'rganmasdan, uni amalga oshirishning ilmiy asoslangan mexanizmini ishlab chiqish mumkin emas.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг янги даври // https://ombudsman.uz/uz/docs/inson-huquqlarini-taminlashning-yangi-davri
2. Назаров Носир Муродуллаевич Ички ишлар органларининг илгари судланган шахслар билан ишлаш фаолиятини ташкил этиш //C:/Users/admin/Downloads/3703%20(1).pdf
3. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги https://lex.uz/docs/2387357
4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги https://lex.uz/docs/2387357
5. Бегматов Э., Мадвалиев А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (электрон манба: https://n.ziyouz.com/books/uzbek tilining izohli lugati Мурожа-ат вақти: 07.11.2022й)
6. Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 194 (608) б
7. https://izoh.uz/uz/word/reabilitatsiya
8. Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка. Толково-словообразовательный. В 2 т. Т. 2 / Т.Ф. Ефремова. — Москва : Рус. яз., 2000.
9. От позднелатинского rehabilitatio - восстановление (См.: Юридический энциклопедический словарь / Под ред. А.Я. Сухарева. - 2-е изд., доп. - М.: Советская энциклопедия, 1987.-С. 40б.
10. См.: Советский энциклопедический словарь / Под ред. А.М. Прохорова. 2-е изд. — М.: Советская энциклопедия, 1983. - С. 1103.

11. Restitutio in integrum (лат.) — восстановление в прежних правах, восстановление в прежнем состоянии.
12. Кистяковский А.Ф. Элементарный учебник общего уголовного права с подробным изложением начал русского уго- ловного законодательства. Часть общая / А.Ф. Кистяковский. — 3-е изд., печ. без перемен со 2-го. — Киев : Ф.А. Иогансон, 1891. — 892 с.
13. Конституционное право : энцикл. слов. / отв. ред. С.А. Авакьян. — Москва : Норма, 2001. — 688 с.
14. Розенко С.В. Реабилитатsiя hatsizma: новые основания уголовной ответственности / С.В. Розенко // Юридическая наука и правоохранительная практика. — 2014. — № 3 (29). — С. 80–85.
15. https://izoh.uz/word/moslashtir
16. Адаптатsiя - от лат. adaptation - приспособление (см.: Булыко А.Н. Большой словарь иностранных слов. 35 тысяч слов. Изд. 2-е, испр. -М.: Мартин, 2008. - С. 16).
17. См.: Большая Советская энциклопедия. Т. 1. 3-е изд. - М., 1969. - С. 622.
18. См.: Философские проблемы теории адаптатsии / Под ред. Г.И. Царегородцева. - М., 1975.-С. 33.
19. См.: Общая теория социальной адаптатsии лиц, освобожденных от отбывания наказания. - Харьков-Запорожье, 2002. — С. 14.
20. Ўзбекистон Республикаси “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғриси”даги ЎРҚ 371-сон (2014) қонун//https://lex.uz/docs/2387357
21. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-Процессуал Кодекси// https://lex.uz/docs/111460#255157
22. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-Процессуал Кодекси// https://lex.uz/docs/111460#255157
23. Цит. по Хэммерсли М. Проблема понятия: Герберт Блумер: О соотношении между понятиями и фактами // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. — Сер. 11. Социология РЖ / РАН, ИНИОН. М„ 1993. -№ 1.- С. 11.
24. Беккер Г. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории. Изд-во: ГУ ВЭШ, 2003. - 672 с.; Парсонс Т. О структуре социального действия. Монографическое издание. 2-е изд. М.: Академ.проект, 2002. - 880 с.; Адорно Т.В. Эстетическая теория. М.: Изд-во «Республика». Серия «Философия искусства», 2001. - 527 с.; Бачинин В.А., Сандулов Ю.А. Истрия западной социологии. Учебник - СПб.: Изд-во «Ланк», 2002. - 307 с.; Bristol L.M. Social Adaptation. - Cambridge: Mass Press, 1915.
25. P. 18.; Chatterton-Hill G. Heredity and Selection in Sociology. - London, 1907. - P. 29.; Tomson J.A. Darwinism and Human Life. - Ed. By M.R. - New Haven, 1924. - P.31.; Organic Adaptation to Environment. / Ed. By M.R. Torpe. - New Haven, 1924. - P.26.; Култыгин В.П. Классическая социология (Дж. Г. Мид). М.: Наука, 2000. - 526 с.; Морено Я.Л. Социометрия: Экспериментальный метод и наука об обществе. Изд-во Академический проект, 2004 - 217 с.; Морено Я.Л. Социометрия: Экспериментальный метод и наука об обществе («концепции») Изд-во «Академ, проект», 2001. - 383 с.; Parsons T. Social Systems and Subsystems // The International Encyclopedia of Social Sciences, 1968 - v.15.; Ньюкомб Н. Развитие личности ребенка / Н. Ньюкомб. - 8-е изд. СПб.: «Питер», 2003. - 640 с.; Яницкий М.С. Адаптатsионный процесс: психологические механизмы и закономерности динамики. Уч. пособие. 1999. - С. 30.; Horace B. English and Psychoanalytical Teems. A. Guide to Usage. - Longmont, 1958. 23 СМ.: L.Philips, Human adaptation and his failures. Academic Press, N-Y&London, 1968.

26. Дюркгейм Э. Ценностные и реальные суждения / Э. Дюркгейм // Социологические исследования. 1991. №
27. Вебер М. Основные социологические понятия / М. Вебер // Избр. произведения. М., 1990
28. Парсонс Т. Функциональная теория измерения / Т. Парсонс // Американская социологическая мысль. М.,1994.
29. Р.Мертон//https://studfile.net/preview/7654017/page:13/
30. Бергер П. Социальное конструирование реальности: трактат по социологии знания /П. Бергер, Т. Лукман. М., 1995.
31. Кузнецов П.С. Адаптatsiя как функция развития личности / П.С. Кузнецов. Саратов, 1991.10 с.
32. Дискин И.С. Адаптatsiя населения и элит (институциональные предпосылки) / И.С. Дискин, Е.М. Авраамова// Общественные науки и современность. 1997. № 1.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

CRIMINAL LEGAL ASPECTS OF INVOLVING MINORS IN ANTISOCIAL BEHAVIOR

Mardanov Jasurbek Otabek ogli,
Independent researcher at
Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines the criminal law aspects of involving minors in antisocial behavior in the Republic of Uzbekistan. The social danger of this phenomenon and its impact on the formation of deviant and criminal behavior among adolescents are analyzed, as well as difficulties in the legal qualification of such acts in law enforcement practice. Special attention is paid to current legislation, legal gaps and conflicts, and various forms and methods of involving minors, including physical and psychological influence by adults. The study substantiates the need for unification of legal terminology, clarification of the elements of crimes, and development of uniform criteria for the criminal law assessment of involving minors in antisocial behavior. The author concludes that a comprehensive improvement of legislation and its application is necessary to ensure effective protection of the rights and legitimate interests of minors.

Keywords: minors, antisocial behavior, involvement, criminal law, criminal liability, crime qualification, crime prevention, social danger, deviant behavior, child rights protection, law enforcement practice, legislation of Uzbekistan.

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ

Марданов Жасурбек Отабек угли
Самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета
Email: jasur.mardanov@inbox.ru

Аннотация. В статье рассматриваются уголовно-правовые аспекты вовлечения несовершеннолетних в антисоциальное поведение в Республике Узбекистан. Анализируется социальная опасность данного явления, его влияние на формирование девиантного и преступного поведения подростков, а также проблемы квалификации соответствующих деяний в правоприменительной практике. Особое внимание уделяется действующему законодательству, коллизиям и пробелам в правовом регулировании, различным формам и способам вовлечения несовершеннолетних, включая физическое и психическое воздействие со стороны взрослых лиц. Обосновывается необходимость унификации терминологии, уточнения признаков составов преступлений и выработки единых критериев уголовно-правовой оценки вовлечения несовершеннолетних в антисоциальное поведение. Делается вывод о целесообразности комплексного совершенствования законодательства и практики его применения в целях эффективной защиты прав и законных интересов несовершеннолетних.

Ключевые слова: несовершеннолетние, антисоциальное поведение, вовлечение, уголовное право, уголовная ответственность, квалификация преступлений, профилактика правонарушений, социальная опасность, девиантное поведение, защита прав детей, правоприменительная практика, законодательство Узбекистана.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N15

Защита прав и законных интересов несовершеннолетних является одним из приоритетных направлений государственной политики Республики Узбекистан. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев неоднократно подчеркивал важность защиты прав детей. В своем Послании Олий Мажлису от 20 декабря 2022 года глава государства отметил: «Самое дорогое наше богатство – это человек, наш народ-созидатель, уважаемые ветераны, молодое поколение страны», определив при этом заботу о человеке и обеспечение его интересов как приоритетную задачу государственной политики. Эти слова наглядно отражают подход руководства страны к проблеме защиты несовершеннолетних, в том числе от вовлечения в антисоциальное и преступное поведение [1].

В условиях трансформации общественных отношений особую актуальность приобретает проблема вовлечения несовершеннолетних в антисоциальное поведение, которое нередко выступает предпосылкой совершения преступлений и иных правонарушений. За последние годы в Узбекистане реализован комплекс мер по либерализации уголовной ответственности несовершеннолетних, усилению их процессуальных гарантий и созданию условий для успешной социальной адаптации. В частности, в 2023 году принят Закон о поправках в Уголовный кодекс, направленный на то, чтобы несовершеннолетние правонарушители могли продолжить свою жизнь без клейма судимости, что способствует их реинтеграции в общество.

Антисоциальное поведение несовершеннолетних представляет собой социально опасное явление, затрагивающее основы общественного порядка, нравственности и правопорядка. Вовлечение несовершеннолетних в такие формы поведения существенно повышает уровень подростковой девиантности и криминализации молодежной среды, что обуславливает необходимость комплексного уголовно-правового анализа данного института.

Актуальность исследования определяется несколькими факторами.

Во-первых, статистические данные свидетельствуют о сохраняющейся тенденции вовлечения подростков в противоправную деятельность взрослыми лицами.

Во-вторых, существуют значительные трудности в правоприменительной практике при квалификации действий по вовлечению несовершеннолетних.

В-третьих, наблюдаются коллизии в действующем законодательстве, требующие научного осмысления и законодательного урегулирования.

Правовое регулирование противодействия вовлечению несовершеннолетних в антисоциальное поведение осуществляется комплексом нормативных актов различного уровня. Ключевое значение имеют положения Конституции Республики Узбекистан, Уголовного кодекса, а также специальных законов о профилактике правонарушений среди несовершеннолетних.

Разграничение форм вовлечения несовершеннолетних в антисоциальную деятельность на три группы обусловлено совокупностью факторов, что позволяет рассматривать понятие «антисоциальная деятельность» как обобщающую, родовую категорию. Под ней понимается любое поведение, которое в той или иной степени запрещается либо не одобряется нормами Конституции Республики Узбекистан, иными законами и нормативно-правовыми актами, а также не поддерживается моральными установками и социально признанными правилами поведения. Именно нормативная

оценка поведения выступает ключевым критерием классификации разновидностей вовлечения.

С позиции анализируемого явления вполне достаточно оперировать относительно простой, не детализированной дефиницией социализации личности, понимаемой как выработка и привитие несовершеннолетним установленных в обществе и государстве основных правовых, нравственных, этических, национальных и традиционных эталонов поведения.

Согласно статье 3 Закона Республики Узбекистан «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 года, под антисоциальными действиями понимаются действия несовершеннолетнего, выражающиеся в систематическом употреблении спиртных напитков, наркотических средств, психотропных или других веществ, влияющих на интеллектуально-волевую деятельность, занятии проституцией, попрошайничеством, а также иные действия, нарушающие права, свободы и законные интересы других граждан [2]. Однако в данном законе излишним является использование термина «систематичность» применительно к употреблению спиртных напитков, ибо это порождает коллизию норм права. Систематичность как юридически значимый признак требует установления не менее трех случаев противоправного поведения, что создает правоприменительные трудности и оставляет пробелы в защите несовершеннолетних на ранних стадиях вовлечения в антисоциальное поведение.

В статье 3 Закона Республики Узбекистан «О профилактике правонарушений» от 14 мая 2014 года под антисоциальным поведением подразумевается образ жизни, действие или бездействие лица, нарушающие принятые в обществе нормы и правила поведения. Данное определение вряд ли можно отнести к полноценной правовой дефиниции. Оно скорее носит общесоциальный характер и не формализовано с позиции законодательной техники. Отсутствие четких критериев и признаков антисоциального поведения создает предпосылки для расширительного или, напротив, ограничительного толкования данной нормы в правоприменительной практике.

Социальная опасность вовлечения несовершеннолетнего в совершение преступления определяется прежде всего тем, что под влиянием взрослых преступников нарушается процесс нормального психического и нравственного развития несовершеннолетнего. Лицо, вовлеченное в преступную деятельность в подростковом возрасте, с большей вероятностью совершит повторное преступление, чем взрослый, и, следовательно, представляет собой потенциальный резерв рецидивной преступности среди взрослых [3].

При нормальном развитии несовершеннолетние в соответствии со своим возрастом приобретают жизненные навыки, познают достижения науки и культуры, становятся физически сильнее и постепенно приобретают умственную и духовную зрелость. В результате вовлечения несовершеннолетнего в преступную деятельность нарушаются совместные усилия семьи, школы и общества, направленные на воспитание подростка в духе общечеловеческих принципов, ослабляется воспитательное влияние родителей и общества на подростка, при этом усиливается негативное влияние на него со стороны взрослых правонарушителей [4].

Вовлечение несовершеннолетнего в антисоциальное поведение предполагает все виды физического насилия и психического воздействия именно на него. Однако в судебно-следственной практике встречаются ошибки, когда не устанавливается характер действий несовершеннолетнего, проявившихся в его инициативе совместного с взрослым лицом осуществления антиобщественной деятельности, либо не выясняются характер и причины появления взрослого в группах несовершеннолетних, объединившихся для занятия антиобщественной деятельностью до его присоединения к такой компании. Подобного рода факты не создают оснований для привлечения взрослых лиц за вовлечение несовершеннолетнего в антисоциальное поведение, на что совершенно правильно обращается внимание в научной литературе [5].

Известно, что физическое насилие выражается в нанесении ударов, побоев, может также носить характер истязаний, причинении различной степени телесных повреждений вплоть до наступления смерти и иных насильственных действиях. Вместе с тем такие последствия, равно как и совершение подростком какого-либо преступления, не являются обязательными признаками рассматриваемой категории преступлений. Следовательно, случаи вовлечения несовершеннолетнего в антисоциальное поведение, сопровождавшиеся истязаниями, причинением различной степени тяжести телесных повреждений, либо повлекшие смерть потерпевшего, должны квалифицироваться по совокупности преступлений: за вовлечение в антисоциальное поведение и по статьям Уголовного кодекса, предусматривающим ответственность за преступления против личности в зависимости от фактически наступивших последствий или от направленности умысла.

Психическое воздействие включает принуждение и убеждение. При принуждении оказывается воздействие на психику несовершеннолетнего путем запугивания, угроз физической расправой, разглашения позорящих сведений, а также иных действий, вынуждающих подростка совершить антиобщественный поступок. В таких случаях, если примененные угрозы содержат самостоятельный состав преступления, например угроза убийством или применением насилия, то действия взрослого лица должны квалифицироваться по совокупности преступлений.

При правовой оценке действий взрослого по вовлечению несовершеннолетнего в антисоциальное поведение необходимо, чтобы эти действия целенаправленно воздействовали на подростка, возбуждали у него желание и стремление совершить преступление или иной антисоциальный поступок. Следовательно, простое совпадение деятельности взрослого и несовершеннолетнего по времени и месту недостаточно для констатации вовлечения. Обязательным признаком для данных преступлений является проявление активности и инициативы со стороны взрослого к совершению антиобщественного поступка несовершеннолетним [6]. Поэтому, когда инициатива совместного совершения каких-либо антисоциальных действий исходит от несовершеннолетнего, взрослые лица не подлежат ответственности за вовлечение.

Для правильной квалификации действий взрослого, вовлекающего несовершеннолетнего в антисоциальное поведение, учитывая повышенную общественную опасность этих деяний, необходимо устанавливать не только факт совершения несовершеннолетним конкретного антиобщественного поведения, но и устанавливать роль взрослого в вовлечении в другие антиобщественные действия.

Взрослым правонарушителям может быть выгодно привлекать несовершеннолетних в качестве непосредственных исполнителей, поскольку на них лежит более мягкий уровень ответственности по сравнению со взрослыми. Отправляя несовершеннолетних совершать преступления, взрослые надеются остаться вне досягаемости правоохранительных органов. Вовлечение несовершеннолетних в совершение преступления является наиболее распространенным преступлением против несовершеннолетних [7].

В научной литературе одни авторы имеют в виду «подстрекательство или принуждение несовершеннолетнего к участию в конкретном преступлении», другие – «подстрекательство несовершеннолетнего к совершению различных преступлений и вовлечение к участию в преступлении», третьи – «подстрекательство к определенному поведению, побуждение несовершеннолетнего к занятиям, предусмотренным законом, либо привлечение к участию в них». Такое многообразие подходов свидетельствует о необходимости унификации терминологии и выработки единого понятийного аппарата.

При принуждении, крайней и наиболее опасной форме вовлечения, взрослый действует преимущественно на эмоциях страха, принуждая подростка против его воли участвовать в противоправном действии.

Теория и практика различают два типа вовлечения. Первый тип – неконкретизированное вовлечение, при котором действия взрослого представляют собой пропаганду преступного образа жизни, вербовку новых сторонников преступного мира, обеспечение пополнения преступных рядов и не направлены на склонение несовершеннолетнего к совершению конкретного преступления. Второй тип – конкретное вовлечение, заключающееся как в склонении подростка к участию в задуманном взрослым преступлении в качестве соисполнителя или соучастника, так и в формировании у несовершеннолетнего самостоятельного намерения совершить определенное деяние. Именно конкретное вовлечение вызывает многие квалификационные трудности, поскольку действия взрослого содержат помимо вовлечения несовершеннолетнего в совершение преступления признаки иного состава преступления [8].

Родовым объектом вовлечения несовершеннолетнего в совершение преступления будет совокупность общественных отношений, обеспечивающих нормальное физическое, психическое, нравственное и социальное развитие лица до восемнадцатилетнего возраста при соблюдении Конституции и законов Республики Узбекистан; уважение к личности, ее правам и ее труду; уважительное отношение к обществу, правилам и традициям человеческого общения; утверждение несовершеннолетнего как самостоятельного и полноценного субъекта общественных отношений, свободно осуществляющего свои права и свободы.

Проведённое исследование позволяет сформулировать ряд выводов. Действующее законодательство, регулирующее вопросы вовлечения несовершеннолетних в антисоциальное поведение, требует дальнейшего совершенствования. В частности, актуальной является задача унификации понятийного аппарата, устранения противоречий между отдельными нормативно-правовыми актами, а также более чёткого определения признаков составов соответствующих

правонарушений и преступлений. Необходима разработка единых критериев квалификации действий совершеннолетних лиц, направленных на вовлечение несовершеннолетних, и формирование стабильной правоприменительной практики, основанной на научно обоснованных подходах. Лишь реализация комплексных мер в данной сфере способна обеспечить надлежащую защиту прав и законных интересов несовершеннолетних в Республике Узбекистан.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана. Официальный сайт: https://president.uz/ru/lists/view/5774. Дата обращения: 18.12.2025г.
2. Закона Республики Узбекистан «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 года. https://lex.uz/docs/2387359. Дата обращения: 18.12.2025г.
3. Наумов А.В. Уголовное право. Особенная часть : учебник для вузов / А.В. Наумов [и др.] ; ответственные редакторы А.В. Наумов, А.Г. Кибальник. – 6-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2024. – С. 311.
4. Земцов А.А. Вовлечение несовершеннолетнего в совершение преступления: понятие и общественная опасность деяния / А.А. Земцов // Российская наука в фокусе перемен: Сборник статей Национальной Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, Тюмень, 22 марта 2024 года. – Уфа: Общество с ограниченной ответственностью «ОМЕГА САЙНС», 2024. – С. 106.
5. Якубов А.С. Уголовно-правовые меры борьбы с вовлечением несовершеннолетних в пьянство и потребление наркотических средств. – Т., 1992. – 42 с.
6. Якубов А.С. Ответственность за вовлечение несовершеннолетних в пьянство и потребление наркотических веществ. – Т., 1985. – 44 с.
7. Тихомиров Д.В. Причины и условия, способствующие вовлечению несовершеннолетних в совершения преступлений и антиобщественных действий: российский и зарубежный опыт / Д.В. Тихомиров // Безопасное детство как правовой и социально-педагогический концепт: в ракурсе «траектория профессионального развития современного педагога» // Материалы х всероссийского научно-практического форума для студентов, магистрантов, аспирантов, преподавателей и специалистов, Пермь, 25-26 апреля 2023 года. – Пермь: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования «Пермский государственный гуманитарно-педагогический университет», 2023. – С. 211.
8. Подройкина И.А. Уголовное право. Особенная часть. Семестр I : учебник для вузов / И.А. Подройкина [и др.] ; ответственные редакторы И.А. Подройкина, Е.В. Серегина, С.И. Улезько. – 6-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2024. – С. 237.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

SOME ISSUES OF FINDING A CITIZEN AS MISSING AND DECLARING THEM AS DEAD

Mamadjonov Temurali Barotjon oglu
Head of the Chust District Internal Affairs Directorate, Captain

Abstract. This article examines certain theoretical and practical issues related to the institution of recognizing a citizen as missing and declaring him or her deceased. In the context of globalization and technological development, the study analyzes the justification of statutory time limits for declaring a person deceased, the identification of cases of deliberate concealment, the content of the concept of an "interested person," and the procedural legal status of creditors. Particular attention is paid to the mechanism of trust management of the missing person's property and the difficulties in restoring property rights when a citizen declared deceased later returns. The article also assesses the compliance of current civil legislation with the principle of effective protection of human rights. Based on the analysis, scientifically grounded proposals for improving civil legislation are presented.

Keywords: missing person, declaration of death, interested person, creditors, trust management, restoration of property rights.

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN DEB E'LON QILISHNING AYRIM MASALALARI

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li
Chust tumani IIB TQX JQB boshlig'i, kapitan

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va vafot etgan deb e'lon qilish institutining ayrim nazariy va amaliy masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida ushbu institutni qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolar, xususan, vafot etgan deb e'lon qilish uchun belgilangan muddatning asoslanganligi, qasddan yashirinish holatlarini aniqlash, "manfaatdor shaxs" tushunchasining mazmuni hamda kreditorlarning protsessual huquqiy maqomi yoritib berilgan. Shuningdek, bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulkini ishonchli boshqarish mexanizmi, qaytib kelgan fuqaroning mulkiy huquqlarini tiklashdagi qiyinchiliklar va amaldagi qonunchilik normalarining inson huquqlarini samarali himoya qilish prinsipiga muvofiqligi tahlil qilingan. Maqolada fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bedarak yo'qolgan fuqaro, vafot etgan deb e'lon qilish, manfaatdor shaxs, kreditorlar, ishonchli boshqaruv, mulkiy huquqlarni tiklash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N16

Bugungi shiddatli rivojlanish, globallashuv jarayonlari va transport vositalarining keng tarqalishi sharoitida fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va vafot etgan deb e'lon qilish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Bu institut shaxsning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Amaldagi qonunchilik fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish uchun uning yashash joyida uch yil davomida ma'lumot bo'lmasligi talab etiladi (FKning 36-m-moddasi). RF fuqarolik kodeksiga (RF GK 45-modda) ko'ra, bu muddat besh yilni tashkil etadi [1. 78-b]. RFda avval bu

muddat uch yil bo‘lgani, hozirda esa telekommunikatsiyalar va texnologiyalar rivojlangan bir paytda besh yillik muddatning uzoqligi bir qator huquqiy muammolarni keltirib chiqargan. O‘zbekiston qonunchiligida belgilangan uch yillik muddat, RF qonunchiligidagi besh yillik muddatga nisbatan qisqaroq va manfaatdor shaxslarning huquqlarini tezroq himoya qilish imkonini beradi.

Bu o‘rinda savol tug‘iladi: Texnologik rivojlanish nuqtai nazaridan, O‘zbekistondagi uch yillik muddat yetarlimi yoki uni qisqartirish mantiqan to‘g‘rimi? Ayrim olimlarning fikricha, hozirgi sharoitda bu muddatning uzoqligi muammo hisoblanadi [2. 218-b]. Muddatni saqlab qolish yoki qisqartirish yuzasidan ilmiy asoslarni keltirish muhim.

Sud amaliyotida fuqaroning oilaviy yoki maishiy sabablarga ko‘ra qasddan yashirinishi yoki oiladan ketishi holatlari ham uchraydi, bu esa uning vafot etgan deb e’lon qilinishiga olib kelishi mumkin. Sudning oldidagi asosiy masala — fuqaroning o‘limi faktini aniqlash yoki uning sud yoki tergovdan qasddan yashirinayotgani haqida ma’lumot bor-yo‘qligini aniqlashdir.[3. 73-b]

A.M.Terenyak qasddan yashirinish holatini taxmin qilishga yetarlicha asoslar bo‘lsa, sudlarga bunday shaxsni bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topmaslik huquqini berish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi[9]. Bunday vaziyatlarda bedarak yo‘qolgan shaxsni qidirish bo‘yicha huquqni muhofaza qilish organlarining aniq va tezkor ishi talab etiladi.

FPK 306-moddasiga “sudya ishni muhokamaga tayyorlashda ichki ishlar organlaridan nafaqat ma’lumot so‘rab oladi, balki fuqaroning qasddan yashirinishi yuzasidan asosli taxminlar mavjudligini aniqlash uchun alohida so‘rov yuborish” majburiyatini kiritish maqsadga muvofiq.

O‘zR FPK 305-moddasiga ko‘ra, fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ariza manfaatdor shaxs tomonidan beriladi. Amaliyotda oila a’zolari bedarak yo‘qolgan shaxsni bedarak deb topish jarayonini boshlamasligi, uning mulkidan uzoq vaqt davomida o‘z xohishlaricha foydalanishi holatlari ko‘p uchraydi. Bu esa kreditorlarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzadi.[4. 43-b]

Bu o‘rinda kreditorlar ham manfaatdor shaxs sifatida ariza berish huquqiga egami? degan savol tug‘iladi. Nazariy jihatdan “manfaatdor shaxs” keng tushuncha bo‘lsa-da, buni qonunda aniq belgilash talab etiladi. Kreditorlarga fuqaroni bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topish tartibini qo‘zg‘atish huquqini to‘g‘ridan-to‘g‘ri berish imkoniyati mavjud bo‘lishi lozim. Bu o‘zgartirish kreditorlarga mulkni ishonchli boshqaruv jarayonida ishtirok etish imkoniyatini beradi. Hatto kreditorlarni ishonchli boshqaruvchi sifatida ko‘rib chiqish ham mumkin.

FK 34-moddasiga ko‘ra, bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy suratda boshqarib turish zarur bo‘lsa, bu mol-mulk sudning qaroriga muvofiq vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadigan va ushbu organ bilan tuziladigan ishonchli boshqaruv to‘g‘risidagi shartnoma asosida ish olib boradigan shaxsga topshiriladi. Ushbu mol-mulkdan bedarak yo‘qolgan shaxs qonunga muvofiq boqishi kerak bo‘lgan fuqarolarga ta’minot beriladi va uning soliqlar va boshqa majburiyatlar bo‘yicha qarzlari to‘lanadi. Vasiylik va homiylik organi yo‘qolgan fuqaroning qayerdaligi to‘g‘risida ma’lumot olingan kundan boshlab bir yil o‘tganga qadar ham uning mol-mulkini muhofaza qiluvchi shaxsni belgilashi mumkin.

Bu o‘rinda qaysi mulk “doimiy boshqarib turish zarur bo‘lgan mol-mulk” hisoblanishi va qaysi mulk “qimmatli ko‘char mulk” ekanligi FKda aniq ko‘rsatilmagan. Natijada, qaysi mulkni

ishonchli boshqaruvga berish kerakligi tushunarsiz bo‘lib qoladi. Fikrimizcha, ishonchli boshqaruvni talab qiladigan mulk turlarining (masalan, qimmatli qog‘ozlar, intellektual mulk obyektlari, ko‘chmas mulk majmualari) ochiq ro‘yxatini yoki taxminiy mezonlarini belgilash huquqni qo‘llash amaliyoti uchun foydali bo‘ladi.

Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning o‘lgan kuni qonuniy kuchga kirgan sud qarori hisoblanadi. Agar insonning halok bo‘lishi muayyan baxtsiz hodisadan bo‘lishi ehtimoli taxmin qilinsa, sud fuqaroning o‘lgan kunini uning taxmin qilingan halokat kuni deb topishi mumkin.[5. 325-b]

Birinchidan, shuni aytish kerakki, agar fuqaro nikohda bo‘lgan va sudning o‘lim haqidagi qarori chiqarilganligi sababli nikoh bekor qilingan bo‘lsa, bunday fuqaro mol-mulkni qaytarishni faqat o‘zining ulushi doirasida, xuddi ajralishdan keyingidek talab qilishi mumkin. Agar u vafot etgan deb e’lon qilinganidan so‘ng qaytib kelib, nikohni tiklashni xohlasa, ikkinchi tomon yangi nikohga kirmaganligini inobatga olgan holda, ikkala fuqaroning arizasi talab qilinadi.

Ikkinchidan, xato tufayli vafot etgan deb e’lon qilingan shaxsning mol-mulkini qaytarish masalasi noqonuniy o‘zga shaxs egaligidan mol-mulkni talab qilib olish normalari bilan chambarchas bog‘liq. Agar fuqaroning mol-mulkini qaytarib berishdan bosh tortilsa, u nima qilishi kerak? Bunday holda, u sudga vindikatsion da’vo (mol-mulkni talab qilib olish haqidagi da’vo) arizasi bilan murojaat qilishi kerak bo‘ladi. [6. 114-b]

Fikrimizcha, fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va uni vafot etgan deb e’lon qilish jarayoni murakkab protsessual harakat ekanligiga e’tibor qaratishni istaymiz, chunki sudga berilgan arizada fuqaroning g‘oyib bo‘lganligi yoki vafot etganligi faktini tasdiqlovchi tegishli dalillarni ko‘rsatish zarur. O‘lim va g‘oyib bo‘lish faktlarini aniqlash masalalarini yoritib, fuqarolarning paydo bo‘lishi (qaytib kelishi) o‘zi bilan yuqorida aytilgan muayyan oqibatlarni keltirib chiqarishini ta’kidlash lozim.

Ushbu institut tahlilini o‘tkazib, biz amaldagi fuqarolik qonunchiligi bunday masalada isloh qilinishini talab qilmaydi degan xulosaga keldik. Biroq, bedarak yo‘qolgan deb e’lon qilingan shaxslarni samarali qidirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Bu holda, biz aholining daktiloskopik ro‘yxatdan o‘tkazilishining ilmiy-texnikaviy ta’minotini takomillashtirishni zarur deb hisoblaymiz. Bu g‘oyib bo‘lgan shaxslarni muvaffaqiyatli va tez topish imkonini beradi.

FKning 37-moddasiga ko‘ra, vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma’lum bo‘lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi. Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin u har qanday shaxsdan bu shaxsga bepul o‘tib qolgan mavjud mol-mulkini o‘ziga qaytarib berishni uch yil mobaynida sud orqali talab qilishga haqli, ushbu Kodeksning 229-moddasi ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Agar vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo‘lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom to‘lamagan bo‘lsalar, bu holda to‘lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o‘tadi. Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning mol-mulkini haq to‘lashni nazarda tutadigan bitimlar asosida olgan shaxslar mol-mulkni vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning tirikligini bila turib sotib olganliklari isbotlansa, ular fuqaroga bu mol-mulkni qaytarib berishlari shart. Bunday mol-mulkni asli holida qaytarib berishning imkoni bo‘lmasa, uning qiymati to‘lanadi. Agar vafot etgan deb e’lon qilingan shaxsning mol-mulki meros huquqi

bo‘yicha davlatga o‘tgan va sotib yuborilgan bo‘lsa, fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi.

Demak, fuqaro qaytib kelganda, unga bepul o‘tib qolgan mavjud mol-mulkni sud orqali talab qilish huquqi beriladi. Tekin bitimlar bo‘yicha yangi eganing huquqlari himoyalanmagan. Haq to‘lash evaziga tuzilgan bitimlar bo‘yicha esa, qaytib kelgan shaxs yangi eganing sotib oluvchi uning tirikligini bilganini isbotlashi kerak. Amalda qaytib kelgan shaxsga o‘z mulkini to‘liq hajmda qaytarish deyarli imkonsiz. Bu inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining samarali huquqlarni tiklash haqidagi 8-moddasiga zid.[7. 13-b]

Fuqarolik kodeksining fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi normalarini asosiy takomillashtirish yo‘nalishlari:

Kreditorlarga jarayonni qo‘zg‘atish huquqini aniq berish;

Qasddan yashirinish holatlarida sudning vakolatlarini kengaytirish;

Ishonchli boshqaruvga beriladigan mulk turlarini aniqlashtirish;

Qaytib kelgan fuqaroning huquqlarini de-fakto samarali tiklash mexanizmlarini takomillashtirish.

FKning 33-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

33-modda. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish

Agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, ***qidiruv tadbirlari samarasiz bo‘lganligi to‘g‘risida ichki ishlar organlarining ma’lumotnomasi mavjud bo‘lgan taqdirda*** manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin. ***Manfaatdor shaxslar qatoriga, agar ularning moliyaviy majburiyatlariga putur yetkazilgan bo‘lsa, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb e’lon qilinishi so‘ralayotgan shaxsning kreditorlari ham kiradi.***

FKning 34-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

“34-modda. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish oqibatlari

Doimiy suratda boshqarib turish zarur bo‘lgan mol-mulk jumlasiga, xususan, ulushlar, qimmatli qog‘ozlar, tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan ko‘chmas mulk majmualari va boshqa tijorat ahamiyatiga ega bo‘lgan aktivlar kiradi.

FKning 37-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

“37-modda. Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelishining oqibatlari

Fuqaro qaytib kelgan taqdirda, unga bepul yoki haq to‘lash asosida o‘tib ketgan mol-mulk, agar uchinchi shaxs uning tirik ekanligini bilmaganligi isbotlanmasa, qaytariladi.”

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Гражданский кодекс Российской Федерации: Ч. 1, 2, 3, 4 : (по состоянию на 19. 10. 2019). — Москва, 2019. — 700 с.
2. Тереняк А.М. Некоторые проблемы института признания гражданина безвестно отсутствующим и объявления умершим // Скиф. 2020. №9 (49). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-problemy-instituta-priznaniya-grazhdanina-bezvestno-otsutstvuyuschim-i-obyavleniya-umershim (дата обращения: 27.11.2025).
3. Михайлова И.А. Теоретические и практические проблемы признания гражданина безвестно отсутствующим и объявления умершим. — Москва. — Наследственное право. — 2006. — N 2.

4. Овсиенко Е. В. Некоторые проблемы признания лица безвестно отсутствующим и объявления его умершим / Е. В. Овсиенко. — Текст : непосредственный, электронный // Право: история, теория, практика : материалы V Междунар. науч. конф. — Санкт-Петербург : Свое издательство, 2017. — С. 48-50. — URL: https://moluch.ru/conf/law/archive/227/12699
5. Смоленский М.Б., Астапова Е.В., Михайлов С.В. Гражданское право. // КноРус2021. С.325.
6. Леонова В.А., Усоян С.Р. Последствия явки лица признанного безвестно отсутствующим или объявленного умершим // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2021. №11-4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/posledstviya-yavki-litsa-priznannogo-bezvestno-otsutstvuyuschim-ili-obyavlennogo-umershim (дата обращения: 27.11.2025).
7. https://constitution.uz/uz/pages/humanrights

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

PROBLEMS OF LEGAL REGULATION OF THE USE OF GEOGRAPHICAL INDICATIONS

Jumumbetov Rasul Zhengizbaevich
Basic Doctoral Student
Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines key issues related to the legal regulation and enforcement of the use of geographical indications (GIs) from both theoretical and practical perspectives. It analyzes the conditions for lawful use of geographical indications, the scope of rights of right holders, and civil law remedies applied in cases of infringement. Special attention is paid to the correlation between national legislation and international standards, as well as challenges arising in law enforcement practice. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are proposed to improve the legal framework governing the use of geographical indications.

Keywords: geographical indication, right of use, legal regulation, intellectual property, protection of rights, infringement, civil law.

GEOGRAFIK KO‘RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY TA’MINLASH MUAMMOLARI

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada geografik ko‘rsatkichlardan (GK) foydalanishni huquqiy ta’minlash bilan bog‘liq dolzarb muammolar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Geografik ko‘rsatkichlardan qonuniy foydalanish shartlari, huquq egalarining vakolatlari hamda huquqbuzarlik holatlarida qo‘llaniladigan fuqarolik-huquqiy himoya choralari o‘rganiladi. Milliy qonunchilik normalarining xalqaro standartlar bilan uyg‘unligi va huquqni qo‘llash amaliyotida uchraydigan muammolar aniqlanadi. Tadqiqot natijasida geografik ko‘rsatkichlardan foydalanishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: geografik ko‘rsatkich, foydalanish huquqi, huquqiy ta’minlash, intellektual mulk, huquqni himoya qilish, huquqbuzarlik, fuqarolik huquqi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N17

Fuqarolik-huquqiy tartibga solish tizimida intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilishga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining kuchga kirganiga o‘ttiz yil to‘ldi. FKning 4-bo‘limi hamda intellektual mulkka oid maxsus qonunlarda qism intellektual faoliyat natijalari hamda ularga tenglashtirilgan tovarlar, ishlar va xizmatlar, shuningdek yuridik shaxslar va korxonalarni individuallashtirish vositalarining huquqiy muhofaza qilinadigan to‘liq va yakunlangan ro‘yxatini belgilab berdi.

Shu bilan birga, tovarlar va xizmatlar bozorlarining jadal xalqarolashuvi, savdo aylanmasining kengayishi va iqtisodiy munosabatlarning global rivojlanishi tovarlar hamda

xizmatlarni samarali individuallashtirishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Mazkur sharoitda ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish, tovar va xizmatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish, shuningdek muayyan hududlarning iqtisodiy va ishbilarmonlik nufuzini muhofaza qilishning muhim huquqiy mexanizmlaridan biri sifatida geografik ko‘rsatkichlar hamda tovarlar kelib chiqqan joy nomi instituti alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Butunjahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishiga intilishi milliy qonunchilikni xalqaro majburiyatlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Jumladan, geografik ko‘rsatkichlarni huquqiy muhofaza qilish sohasida qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha muayyan majburiyatlar zimmasiga yuklatildi. Shu nuqtai nazardan, “geografik ko‘rsatkich” tushunchasi intellektual mulk obyektlari tizimida eng o‘ziga xos, murakkab va ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan institutlardan biri hisoblanadi.

“Geografik ko‘rsatkich” atamasi mustaqil huquqiy kategoriya sifatida nisbatan yaqin davrda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) amaliyotida shakllangan bo‘lib, mazkur tashkilot ushbu atamani yangi xalqaro shartnoma predmeti sifatida ilk bor qo‘llay boshlagan. Shuni ta’kidlash lozimki, ushbu shartnoma ustidagi ishlanmalar BIMT doirasida XX asrning 1970-yillaridan boshlab olib borilgan.

BIMTning dastlabki konsepsiyasiga muvofiq, “geografik ko‘rsatkich” tushunchasi imkoni boricha keng ma’noda qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, u tovarning geografik kelib chiqish joyi haqida aniq tasavvur berishga qodir bo‘lgan barcha nomlar va belgilarni qamrab olishi lozim edi. Bunda tovarning alohida sifatlari tabiiy yoki inson omili bilan bog‘liq ekanligi yoki geografik nom faqatgina tovar ishlab chiqarilgan joyni ko‘rsatishi kabi holatlar uni muayyan geografik hududga bog‘lashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmasligi nazarda tutilgan.

Biroq, ushbu konsepsiyaning haddan tashqari keng qamrovli ekanligi va turli huquqiy holatlarni o‘z ichiga olganligi natijasida “geografik ko‘rsatkich” atamasini yagona, qisqa va aniq huquqiy ta’rif shaklida ifodalash imkoniyati paydo bo‘lmadi. Natijada mazkur institut hech bir xalqaro shartnomada yagona va lakonik huquqiy ta’rif sifatida mustahkamlanmadi [1].

Intellektual mulk huquqlari tizimida “geografik ko‘rsatkich” obyektini joriy etishdan ko‘zlangan qonunchilik maqsadi muayyan sifatlarga, o‘ziga xos xususiyatlarga va barqaror ishbilarmonlik nufuziga ega bo‘lgan, biroq ayrim holatlar tufayli “tovar kelib chiqqan joy nomi” (keyingi o‘rinlarda — TKJN) toifasiga kiritilishi mumkin bo‘lmagan tovar belgilarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan iboratdir.

Tovar kelib chiqqan joy nomi tushunchasi amaldagi qonunchilikda ilgari mavjud bo‘lgan huquqiy kategoriya hisoblanib, u muayyan geografik hududda ishlab chiqariladigan va aynan shu hududga xos bo‘lgan alohida sifatlari, xususiyatlari yoki nufuzi bilan uzviy bog‘langan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladigan belgini anglatadi.

Geografik ko‘rsatkich bilan tovar kelib chiqqan joy nomi o‘rtasidagi asosiy farq ularni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi hamda qo‘yiladigan talablarning soddalashtirilganligida namoyon bo‘ladi. Xususan, yangi qonunchilik yondashuviga muvofiq, geografik ko‘rsatkich sifatida belgilanishi uchun tovar ishlab chiqarishning texnologik jarayonlaridan kamida biri – tovarning maxsus sifatlari, reputatsiyasi yoki boshqa ahamiyatli xususiyatlarini shakllantirishga ta’sir etuvchi bosqichi – tegishli geografik hududda amalga oshirilishi talab etiladi.

Qonun chiqaruvchi organ tovar kelib chiqqan joy nomini davlat roʻyxatidan oʻtkazishda ishlab chiqaruvchilar uchun bir qator qat'iy talablarni belgilagan. Jumladan, ishlab chiqaruvchi maxsus va hujjatlar bilan tasdiqlangan alohida xususiyatlarga ega boʻlgan tovar ishlab chiqarishi, shuningdek mazkur xususiyatlarni yuzaga keltirish imkonini beruvchi muayyan geografik hududda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishi shart.

Qabul qilingan "Geografik koʻrsatkichlar toʻgʻrisida"gi qonunga muvofiq, huquqiy muhofaza beriladigan geografik koʻrsatkich deb tovarni muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan deb identifikatsiya qilish imkonini beruvchi belgilar e'tirof etiladi. Bunda tovarning ma'lum sifati, reputatsiyasi yoki boshqa muhim xususiyatlari koʻp jihatdan uning geografik kelib chiqishi bilan belgilangan boʻlishi lozim. Shu bilan birga, geografik obyekt hududida tovar ishlab chiqarishning kamida bitta bosqichi — uning sifati, reputatsiyasi yoki boshqa xususiyatlarini shakllantirishga ta'sir koʻrsatuvchi texnologik jarayon amalga oshirilishi talab etiladi.

Geografik koʻrsatkich sifatida muayyan hududlarga xos boʻlgan regional brendlarni ham roʻyxatdan oʻtkazish mumkin. Masalan, bunday belgilar qatoriga Gʻijduvon shashligi, Samarqand nomi, Chust pichogʻi, Chiroqchi jizi kabi nomlarni kiritish mumkin.

Qonunchilikka muvofiq, geografik koʻrsatkichlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazish vakolati arizalarni koʻrib chiqish natijalari asosida Adliya vazirligi intellektual mulk departamentiga yuklatilgan. Geografik koʻrsatkich instituti dastlab oʻn yil muddatga amal qiladi. Shu bilan birga, intellektual mulk huquqining ushbu yangi instituti – geografik koʻrsatkich – belgilangan talablarga javob beradigan tovarni ishlab chiqarish imkoniyati mavjud boʻlgan barcha davr mobaynida huquqiy muhofazaga ega boʻladi.

Geografik koʻrsatkichni davlat roʻyxatidan oʻtkazgan shaxslarga mazkur belgidan foydalanish boʻyicha maxsus huquq taqdim etiladi, biroq bu huquq barcha belgilangan talablarga qat'iy rioya qilingan taqdirdagina amal qiladi. Ta'kidlash joizki, geografik koʻrsatkichni roʻyxatdan oʻtkazuvchi subyektlar sifatida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, shuningdek turli uyushmalar va assotsiatsiyalar ishtirok etishi mumkin.

Geografik koʻrsatkich unga taalluqli talablarga javob beradigan tovar ishlab chiqarish davom etgan butun muddat davomida huquqiy muhofaza qilinadi. Qonunchilikda asosiy muhofaza muddati sifatida oʻn yillik davr belgilangan boʻlib, mazkur muddat tugagach, geografik koʻrsatkich patentini uzaytirish uchun tegishli ariza berish talab etiladi. Shu bilan birga, belgilangan talablarga rioya etilmagan holatlar aniqlansa, geografik koʻrsatkichga berilgan huquqiy muhofaza muddatidan oldin ham bekor qilinishi mumkin [2].

Intellektual mulk ikki tomonlama va ziddiyatli tabiatga ega, chunki bir tomondan u ijodiy faoliyatga asoslangan nomoddiy ne'mat sifatida namoyon boʻladi, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy muomalada tovar sifatida ishtirok etadi va bozorda faoliyat yuritishi mumkin. Bu xususiyat intellektual mulkni nafaqat ma'naviy, balki mamlakatning iqtisodiy boyligi sifatida ham e'tirof etish zarurligini yuzaga keltiradi. Shu bois, yangi turdagi intellektual mulk obyektlarini yaratishga undashi mumkin boʻlgan ijodiy imkoniyatlarni ta'minlash uchun, masalan, tovarlar, ishlar va xizmatlarni individuallashtirish vositasiga qoʻshimcha tarzda geografik koʻrsatkichlarni kiritish yoʻli bilan, 2023-yil 15-noyabrdagi OʻRQ-878-sonli qonuniga asosan FKga oʻzgartishlar kiritilishi orqali, intellektual faoliyat obyektlarini muhofaza qilish va intellektual huquqlarni himoya qilishni kafolatlaydigan huquqiy asos yaratildi. Davlat tomonidan ta'minlanadigan muhofaza ijodiy salohiyatni ochishga va intellektual faoliyat

natijalari hamda individuallashtirish vositalarini mamlakatning tarixiy va madaniy merosini rivojlantirishga jalb etishga yordam beradi, shu yo‘sinda O‘zbekiston – 2030 strategiyasida belgilangan maqsadlariga erishishni ta’minlaydi.

Bugungi kunda bozor munosabatlari sharoitida yuridik shaxslarning va ular ishlab chiqaradigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning individuallashtirish vositalariga oid huquqlar instituti faol rivojlanmoqda. Bu munosabatlar turli xil tovarlar ishlab chiqaradigan va turli xizmatlar ko‘rsatadigan ko‘plab xo‘jalik subyektlarini yuzaga keltirmoqda, ularning o‘zini ham, tovarlarini ham, xizmatlarini ham tegishlicha individuallashtirishni talab qiladi. Milliy qonunchilik muhofaza qiladigan tovarlar, ishlar, xizmatlar va tashkilotlarni individuallashtirish vositalariga tegishli intellektual mulk obyektlari ro‘yxati kengayib bormoqda, va firma nomlari, tovar belgilari, tijorat belgilari va tovarlarning kelib chiqish joyi nomlariga yangi obyekt – GK qo‘shildi.

Individuallashtirish vositalari (IV) ham, intellektual faoliyat natijalari ham – moddiy jihatdan predmet emas, shuning uchun ularga mulk huquqi qo‘llanilmaydi, va huquqiy muhofaza faqat huquq egasining istisno huquqlari orqali ta’minlanishi lozim.

Tadqiqotning dolzarbligi ayrim intellektual mulk obyektlariga (tovarlarning kelib chiqish joyi nomlari (TKJN) va GK nisbatan huquq egasi tomonidan istisno huquqdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq, ya’ni bir geografik obyekt hududida tovar ishlab chiqaradigan istalgan shaxsning roziligisiz ham istisno huquqdan foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi. Asosiy tadqiqot predmeti esa – ushbu intellektual huquqlarni olish tartibida ishtirok etuvchi subyektlar tarkibi, ularning xususiyatli va farqli jihatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani tahlil qilish, shuningdek tovarlarning kelib chiqish joyi nomlari va GKlarini huquqiy muhofaza qilishni ta’minlash masalalari hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda tovarlarning kelib chiqish ko‘rsatkichlari yoki kelib chiqish joyi nomini sanoat mulki obyekti sifatida e’tirof etgan birinchi normativ hujjat Parij konvensiyasi hisoblanadi. U import qilinayotgan mahsulotga nisbatan yolg‘on kelib chiqish ko‘rsatkichlari ishlatilganda, ana shunday ko‘rsatkichlarga huquqiy muhofaza berilgan davlatlarga olib kirilishini to‘xtatib turish chorasini nazarda tutdi [3].

Ya’ni, mazkur xalqaro shartnoma to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib chiqish ko‘rsatkichlarini yoki kelib chiqish joyi nomlarini huquqiy muhofaza qilishni ta’minlashni nazarda tutmagan, balki tovarlarning haqiqiy kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlarga tajovuz qilinganda davlatlarning himoya choralarini ta’minlash vazifasini qo‘ygan.

Tovarlarda yolg‘on yoki chalkashuvga olib keluvchi kelib chiqish ko‘rsatkichlarini to‘xtatish to‘g‘risidagi Madrid kelishuvi esa bunday ko‘rsatkichlarni to‘xtatish uchun sanksiyalarni yanada batafsil belgilab berdi [4]. Bu yerda ham tovarlarning kelib chiqish ko‘rsatkichlarini himoya qilish choralari nazarda tutilgan.

Lissabon kelishuvi esa tovarlarning kelib chiqish joyi nomlarini muhofaza qilish va ularni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha kelishuv bo‘lib, kelib chiqish joyi nomini ta’riflab berdi, ya’ni muayyan mamlakat, hudud yoki mahallada ishlab chiqarilgan, o‘ziga xos xususiyatlari aynan shu geografik muhit (tabiiy va inson omili) bilan belgilanadigan mahsulotni bildiruvchi nomni nazarda tutdi [5]. Ushbu kelishuvda kelib chiqish joyi nomlarini va geografik ko‘rsatkichlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi belgilandi, hamda ro‘yxatdan o‘tgan nomni noqonuniy egallash yoki taqlid qilishdan himoya qilish choralari ko‘rsatib o‘tildi.

GK va tovarlarning kelib chiqish joyi nomlarini muhofaza qilishni mustahkamlovchi asosiy milliy hujjat FK hisoblanadi, xususan, FKning 1032-moddasida ushbu intellektual mulk obyektlari nazarda tutilganga tegishli atamalarni belgilaydi.

GK – bu tovarning geografik kelib chiqish hududi bilan bog‘liq va undan ta’sirlanuvchi sifat, obro‘ kabi asosiy xususiyatlarini belgilaydigan ko‘rsatkichdir. Shu geografik obyekt hududida tovarni ishlab chiqarish jarayonining kamida bir bosqichi amalga oshirilishi kerak, bu bosqich tovarning xususiyatlarini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

TKCHJN esa – tovarga nisbatan qo‘llaniladigan, o‘sha geografik obyekt (mamlakat, shahar, qishloq yoki boshqa hudud) nomini yoki undan kelib chiqqan nomni bildiradigan belgidir, u tovarga nisbatan qo‘llanilishi orqali mashhurlikka ega bo‘lgan va o‘sha geografik hududga tegishli barcha tabiiy va (yoki) inson omillarini qamrab oladi.

GKdan farqli o‘laroq, TKCHJN uchun tovarni ishlab chiqarishning barcha bosqichlari ana shu geografik hududda amalga oshirilishi va tovarning o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirishi shart.

GK va TKCHJN o‘rtasidagi farqlar tovarni ishlab chiqarish bosqichlari bilan bog‘liq farqlardan tashqari quyidagicha ham ko‘rinadi:

– ro‘yxatdan o‘tkaziladigan belgida: GK uchun tovar kelib chiqish joyi bilan bog‘liq istalgan belgi bo‘lishi mumkin, TKCHJN uchun esa faqat so‘z belgisi bo‘lishi mumkin;

– tovar xususiyatlarida: GK uchun tovar haqidagi ma’lumotni ariza beruvchi taqdim etadi, TKJN uchun esa tovarning o‘ziga xos xususiyatlarini vakolatli organlar belgilaydi;

– individuallashtirish vositasining tanilishida: GK uchun mahsulot va uning geografik kelib chiqish hududini aniqlash mumkinligi kifoya, TKJN uchun esa tovarga nisbatan foydalanish orqali mashhur bo‘lgan nom talab qilinadi.

V.I. Yeremenkoning fikriga ko‘ra, geografik ko‘rsatkich ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining joylashgan manzilini ko‘rsatadigan, lekin tovarning sifatiga kafolat bermaydigan oddiy ko‘rsatkich hisoblanuvchi kelib chiqish ko‘rsatkichi va tovarlarning kelib chiqish joyi nomi o‘rtasida o‘rtacha o‘rinni egallaydi. Tovarning sifati esa aynan tabiiy va (yoki) inson omili ta’sirida o‘ziga xos bo‘lib, belgilangan geografik obyekt bilan bog‘liqdir [6].

N.S. Mixaylova esa geografik ko‘rsatkichni umumiy huquqiy toifa sifatida, tovarlarning kelib chiqish joyi nomini esa geografik ko‘rsatkichning bir turi sifatida ko‘rib chiqishni tavsiya qiladi [7].

Shunday qilib, tovarlarning kelib chiqish joyi nomi va geografik ko‘rsatkich o‘zaro umumiy va xususiy munosabatda turishini aytish mumkin.

Intellektual mulk obyektlari turli xildir, jumladan ularning kelib chiqish manbasi ham turlicha, ammo ularning barchasi bilim shaklidagi nomoddiy ne’mat hisoblanadi, ya’ni biror narsa haqidagi ma’lumotlar majmuasini tashkil qiladi. Bu bilimlarni shartli ravishda ikki toifaga bo‘lish mumkin: “insonning intellektual mehnati natijasi bo‘lgan bilimlar, ya’ni muayyan omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yangi mahsulot yaratiladigan bilimlar; va intellektual mehnat natijasi hisoblanmaydigan bilimlar yoki ma’lumotlar, shuningdek, ba’zi hollarda bir vaqtning o‘zida ham intellektual mehnat natijasi, ham ijodiy faoliyatdan xoli ma’lumot sifatida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar” (masalan, tijorat sirlari)[8].

Shu sababli intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish bo‘yicha huquqiy tartibga solish ularning turli xususiyatlariga qarab shakllantiriladi: mazmun-mohiyati bilan bog‘liq obyektlar (iqtisodiy muomala uchun tijoriy qiymatga ega bo‘lgan texnik yechimlarni muhofaza

qilish, masalan patentlar orqali amalga oshiriladi va ularning muhofaza muddati kamida 10-yildan 20-yilgacha davom etadi); shakl (natura) ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlar (fan, adabiyot va san’at asarlari), ular uchun muallif prezumpsiyasi qo‘llaniladi, ya’ni maxsus muhofaza tartibi talab etilmaydi va asar “ommaga yetkazilgan” paytdan muhofaza qilinadi, muhofaza muallif umri davomida va uning o‘limidan keyin 70-yil mobaynida amal qiladi; muallifi yo‘q natijalar ham mavjud bo‘lib, ular davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin muhofaza qilinadi. Bular yuridik shaxslarni, tovarlarni, ishlar yoki xizmatlarni individuallashtirish vositalari hisoblanadi (tovar belgilari, firma nomlari, tijorat belgisi, geografik ko‘rsatkichlar, tovarlarning kelib chiqish joyi nomlari) [9].

O‘RQ-757-son qonunning 26-moddasi birinchi qismiga binoan guvohnomaning egasiga GKdan qonunga zid bo‘lmagan har qanday usulda foydalanish mumkin. Bundan usullarga quyidagilarni kiritsa bo‘ladi:

“1) ishlab chiqarilayotgan, sotuvga taqdim etilayotgan, sotilayotgan, ko‘rgazmalarda va yarmarkalarda namoyish etilayotgan yoki boshqacha tarzda O‘zR hududida fuqarolik muomalasiga kiritilayotgan yoxud shu maqsadda saqlanayotgan yoki tashilayotgan yoxud O‘zR hududiga olib kirilayotgan tovarlarda, tovarlarning yorliqlarida, o‘rovlarida;

2) tovarlarni fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan blankalarda, hisobvaraqlarda, boshqa hujjatlarda va bosma nashrlarda;

3) tovarlarni sotish to‘g‘risidagi takliflarda, shuningdek e’lonlarda, peshlavhalarda va reklamada foydalanish huquqi tegishlidir”.

Mazkur usullar borasida xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsa, ular bir qadar keng ekanligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, RF GKning 1519-moddasi 2-qismida O‘zR qonunchilikda sanab o‘tilgan usullardan tashqari “Internet tarmog‘ida, jumladan domen nomi va boshqa elektron manzil ko‘rsatish usulida” foydalanish mumkinligi nazarda tutilgan. Fikrimizcha, mazkur usul O‘RQ-757-son qonunning 26-moddasi birinchi qismiga kiritilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Лиджеева К.В. Правовая охрана географических указаний в Российской Федерации // Вестник Калмыкского института гуманитарных исследований РАН. – 2013. – №1. – С. 107.
2. Рузакова О.А., Аабричный С.Ю. Новеллы законодательства об интеллектуальных правах 2017 года и перспективы его развития // Имущественные отношения в Российской Федерации. – 2018. – №3.
3. Парижская конвенция по охране промышленной собственности [Электронный ресурс] // Конвенции и соглашения – Всемирная организация интеллектуальной собственности (ВОИС). – Электрон. текстовые дан. – 2023. – Режим доступа: https:wipolex.wipo.int/ru/text/287556
4. Мадридское соглашение о пресечении ложных или вводящих в заблуждение указаний происхождения на товарах [Электронный ресурс] // Конвенции и соглашения – Всемирная организация интеллектуальной собственности (ВОИС). – Электрон. текстовые дан. – 2023. – Режим доступа: https://wipolex.wipo.int/ru/text/286776 (
5. Лиссабонское соглашение об охране наименований мест происхождения и их международной реги-страции [Электронный ресурс] // Конвенции и соглашения – Всемирная организация интеллектуальной собственности (ВОИС). – Электрон. текстовые дан. – 2023. – Режим доступа: https://wipolex.wipo.int/ru/text/401406

6. Еременко В.И. О введении правовой охраны географического указания в Российской Федерации // Государство и право. 2021. № 1. С. 72-80.
7. Михайлова Н. С. Охрана географических указаний в Российской Федерации // Ex jure. 2019. № 2. С. 76–86. DOI: 10.17072/2619-0648-2019-2-76-89
8. Калина И.И., Типологизация объектов интеллектуальной собственности [Электронный ресурс] // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. / Саратов, 2011 г. Режим доступа : https://cyberleninka.ru/article/n/tipologizatsiya-obektov-intellektualnoy-sobstvennosti
9. Ширкова И.В. Правовая охрана или защита наименования мест происхождения товаров и географического указания // Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского Юридические науки. – 2023. – Т. 9 (75). № 2. – С. 236–242.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

ROBBERY IN THE DIGITAL SOCIETY: CYBER-RISKS AND WAYS TO PREVENT THEM

Suyunov Bobir Bahodirovich,
Independent researcher of the Academy
of the Ministry of Internal Affairs
E-mail: : suyunov@akadmvd.uz
http://www.orcid.org/0000-1234-5678-9101

Abstract. This article is devoted to a systematic study of modern forms of fraud in the digital society, their cyber threats, and methods of prevention. The research analyzes the types of cyber fraud, their mechanisms, and legal consequences. National and international legislation, as well as best practices from foreign countries, are comparatively examined. The study provides strategies for detecting, preventing, and mitigating cyber threats. The results offer scientific and practical foundations for enhancing preventive measures against cyber fraud for citizens and public institutions.

Keywords: cyber fraud, digital society, cyber threat, embezzlement, prevention, risk management, legal regulation, online fraud, public policy, international experience.

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK: KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO‘LLARI

Suyunov Bobir Bahodirovich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli jamiyatda talon-tarojlikning zamonaviy ko‘rinishlarini, kiber-xavflarini va ularni oldini olish usullarini tizimli o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida kiber-muhitda sodir bo‘ladigan firibgarlik turlari, ularning mexanizmlari va huquqiy oqibatlari tahlil qilindi. Maqolada milliy va xalqaro qonunchilik, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalar solishtirildi. Tadqiqot kiber-xavflarni aniqlash, oldini olish va ularni kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Natijalar fuqarolar va davlat organlari uchun kiberfiribgarlikka qarshi profilaktik choralarni kuchaytirishning ilmiy-amaliy asoslarini beradi.

Kalit so‘zlar: kiber-firibgarlik, raqamli jamiyat, kiber-xavf, talon- tarojlik, oldini olish, profilaktika, huquqiy nazorat, onlayn firibgarlik, davlat siyosati, xalqaro tajriba g‘ori.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N18

Kirish. Insoniyatning raqamli texnologiyalar va internet infratuzilmasiga tobora ko‘proq bog‘lanishi global miqyosda yangi xavflarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda raqamli jamiyatda moliyaviy, huquqiy va axborot resurslari onlayn tizimlar orqali boshqariladi, bu esa kiber-muhitda turli xil talon-tarojlik va firibgarlik shakllarining paydo bo‘lishiga imkon yaratadi. Kiberfiribgarlik nafaqat moliyaviy zarar yetkazadi, balki fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, kiberfiribgarlikni o‘rganish, uning mexanizmlari va oldini olish strategiyalarini aniqlash bugungi kunning eng dolzarb ilmiy va amaliy masalalaridan biridir.

Kiber-muhitda sodir bo‘ladigan talon-tarojlik turlari turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, onlayn bank firibgarligi, elektron to‘lov tizimlarida noqonuniy operatsiyalar, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash va firibgarlik orqali mablag‘larni talon-taroj qilish kabi hodisalar keng tarqalgan. Shu bilan birga, kiberfiribgarlik ko‘pincha ko‘p bosqichli va murakkab mexanizmlarga ega bo‘lib, ularning ortida tajribali jinoyatchilar va texnologik vositalar turadi. Bu esa kiberfiribgarlikning aniqlanishini qiyinlashtiradi va unga qarshi samarali choralar ko‘rishni talab qiladi.

Ilmiy adabiyotlar va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kiberfiribgarlikning oldini olishda nafaqat huquqiy me’yorlar, balki texnologik, institutsional va ijtimoiy choralar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, elektron tizimlarda xavfsizlik protokollarini kuchaytirish, onlayn monitoring va tahlil tizimlarini joriy etish, shuningdek, fuqarolarning axborot savodxonligini oshirish kiber-xavflarni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, milliy va xalqaro qonunchilikni solishtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish kiberfiribgarlikni oldini olish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos yaratadi.

Bugungi kunda kiberfiribgarlik nafaqat moliyaviy tizimlarda, balki davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy tarmoqlarda ham uchrab, keng ko‘lamli xavflarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, kiberfiribgarlikni o‘rganish va unga qarshi kompleks yondashuvni shakllantirishning ilmiy asoslari katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot kiberfiribgarlikning turli shakllarini tahlil qilish, ularning sodir etilish mexanizmlarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu maqolada kiberfiribgarlikning zamonaviy xususiyatlari, uning kiber-xavflari va ularni oldini olish strategiyalari batafsil o‘rganiladi. Tadqiqot milliy va xalqaro qonunchilikni solishtiradi, ilg‘or tajribalarni tahlil qiladi va fuqarolar hamda davlat organlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqola kiberfiribgarlikni ilmiy asosda tahlil qilish, oldini olish choralarini takomillashtirish va raqamli jamiyat xavfsizligini oshirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Kiberfiribgarlik va raqamli jamiyatdagi talon-tarojlik masalalarini o‘rganish bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar keng qamrovli va turlicha yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, kiberfiribgarlik nafaqat moliyaviy tizimlar, balki davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy tarmoqlarda ham uchrab, zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Rose-Ackerman va Palifka (2016)[1] kiberfiribgarlikning iqtisodiy va siyosiy oqibatlarini tahlil qilgan bo‘lsa, Heidenheimer va Johnston (2011) siyosiy korrupsiya va firibgarlik hodisalarining strukturasini o‘rganish bo‘yicha keng qamrovli nazariy yondashuvni taqdim etadi. Shuningdek, Transparency International va UNODC tomonidan olib borilgan global tadqiqotlar kiber-xavflarning holati va ularning oldini olish choralari haqida dolzarb ma’lumotlarni beradi.[2]

Maqolada foydalanilgan metodologiya bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi navbatda, qiyosiy-huquqiy metod milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni aniqlashda qo‘llanildi. Bu usul kiberfiribgarlikning huquqiy me’yorlarini takomillashtirish va samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish imkonini beradi. Ikkinchi usul sifatida analitik metod tadqiqot natijalarini tizimli tahlil qilish va kiber-xavflarni aniqlashda qo‘llanildi. [3]Shu bilan birga, sotsiologik metod fuqarolar va mutaxassislar fikrini o‘rganish, ularning onlayn tizimlarda firibgarlik xavfi haqidagi qarashlarini tahlil qilish imkonini berdi.

Bundan tashqari, tadqiqotda mantiqiy-nazariy metod qo‘llanilib, ilmiy xulosalar va tavsiyalar shakllantirildi. Taqqoslash metod esa xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini milliy qonunchilik va amaliyot bilan solishtirish orqali kiberfiribgarlikning oldini olish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi. Shu usullar kompleks tarzda qo‘llanib, kiberfiribgarlik hodisalarining sabab va oqibatlari, sodir etilish mexanizmlari hamda ularni oldini olish yo‘llari ilmiy asosda aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kiberfiribgarlik bilan kurashishda faqat huquqiy choralar yetarli emas. Shu bois, texnologik xavfsizlik protokollari, onlayn monitoring tizimlari, fuqarolarning axborot savodxonligini oshirish, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki kabi choralarni qo‘llash zarur. Mazkur metodologiya kiberfiribgarlikni ilmiy asosda tahlil qilish, uni aniqlash va oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli jamiyatda kiberfiribgarlikning yangi shakllari nafaqat moliyaviy tizimlar, balki davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy tarmoqlarda ham uchraydi. Olingan ma’lumotlar kiberfiribgarlikning murakkab va ko‘p bosqichli mexanizmlarga ega ekanligini, shuningdek, uni sodir etish jarayonida tajribali jinoyatchilar va texnologik vositalar faol ishlatilishini ko‘rsatadi. Shu bois, kiberfiribgarlikni aniqlash va unga qarshi samarali choralar ko‘rish faqat huquqiy me’yorlar bilan cheklanmasligi, balki texnologik va institutsional choralarni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Maqolada o‘rganilgan adabiyotlar va xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, shaffoflikni oshirish, xavfsizlik protokollarini kuchaytirish, onlayn monitoring tizimlarini joriy etish va fuqarolarning axborot savodxonligini oshirish kiber-xavflarni kamaytirishda samarali vositalardir. Shu bilan birga, tadqiqot kiberfiribgarlikni oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini ta’kidladi, chunki ularning nazorati va ishtiroki onlayn firibgarlikning paydo bo‘lishi va tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Muhokama davomida shuningdek, kiberfiribgarlikning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy oqibatlari alohida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kiberfiribgarlik nafaqat moliyaviy zarar yetkazadi, balki fuqarolar va tashkilotlarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi, raqamli tizimlarda xavfsizlikni susaytiradi va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir qiladi. Shu bois, kiberfiribgarlikni oldini olish bo‘yicha kompleks yondashuv ishlab chiqish zarur bo‘lib, unda huquqiy, texnologik va ijtimoiy choralar birlashtirilishi lozim.

Shuningdek, tadqiqot xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini tahlil qilib, kiberfiribgarlik bilan samarali kurashish bo‘yicha institutsional mexanizmlarni aniqladi. Masalan, onlayn tizimlarda avtomatlashtirilgan monitoring, shaffoflikni oshirish uchun elektron resurslar, javobgarlikni kuchaytirish va fuqarolik jamiyati ishtirokini ta’minlash kiber-xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kiberfiribgarlikni aniqlash va oldini olishda tizimli va ilmiy yondashuv zarur, bu esa nafaqat milliy qonunchilikni takomillashtirish, balki xalqaro standartlar bilan uyg‘un strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.[5]

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot kiberfiribgarlik hodisalarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning sodir etilish mexanizmlarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos yaratadi. Tadqiqot natijalari kiberfiribgarlikni kamaytirish, raqamli

jamiyat xavfsizligini oshirish va davlat organlari hamda fuqarolar uchun profilaktik choralarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, raqamli jamiyatda sodir boʻlayotgan talon-tarojlik va kiberfiribgarlik hodisalari koʻp qirrali va murakkab xarakterga ega. Olingan maʼlumotlar asosida kiberfiribgarlik turlari bir nechta asosiy kategoriyalarga ajratildi: onlayn moliyaviy firibgarlik, elektron toʻlov tizimlarida noqonuniy operatsiyalar, shaxsiy maʼlumotlarni oʻgʻirlash, talon-tarojlik orqali mablagʻlarni noqonuniy ravishda oʻtkazish va onlayn savdo platformalarida firibgarlik. Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, ushbu hodisalar koʻpincha murakkab va koʻp bosqichli mexanizmlarga ega boʻlib, ularni aniqlash va oldini olish qiyin.

Shuningdek, kiberfiribgarlik sodir etilishida asosiy omillar aniqlangan. Ular orasida texnologik boʻshliqlar, zaif xavfsizlik protokollari, raqamli tizimlarda shaffoflikning yetishmasligi, fuqarolar va tashkilotlarning axborot savodxonligining pastligi hamda ijtimoiy muhitdagi beparvolik alohida oʻrin tutadi. [6]Natijalar shuni koʻrsatdiki, kiberfiribgarlik hodisalari faqat texnologik jihatdan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy muhit bilan chambarchas bogʻliq.

Tadqiqot davomida milliy va xalqaro qonunchilik tahlil qilindi. Aniqlanishicha, milliy qonunchilikda ayrim kiberfiribgarlik turlarining taʼrifida izchillik yetishmasligi, javobgarlikni taʼminlash mexanizmlarining cheklanganligi va profilaktik choralar yetarli emasligi kiberfiribgarlik xavfini oshiradi.[7] Shu bilan birga, xalqaro standartlar va ilgʻor xorijiy tajribalar shaffoflikni oshirish, xavfsizlik protokollarini kuchaytirish va fuqarolarning axborot savodxonligini oshirish orqali kiberfiribgarlikni kamaytirish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, kiberfiribgarlikning iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy oqibatlari sezilarli. Masalan, onlayn bank firibgarligi va elektron toʻlov tizimlaridagi noqonuniy operatsiyalar moliyaviy zarar keltiradi, shaxsiy maʼlumotlarni oʻgʻirlash esa fuqaro ishonchini pasaytiradi va davlat organlari va korporatsiyalar uchun xavfsizlik muammolarini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, kiberfiribgarlikning rivojlanishi raqamli tizimlarda ishonchni susaytiradi va iqtisodiy barqarorlikka salbiy taʼsir qiladi.

Natijalar shuni ham koʻrsatadiki, samarali oldini olish strategiyalari huquqiy choralar, texnologik himoya, monitoring tizimlari va fuqarolarning axborot savodxonligini oshirishni oʻz ichiga olishi lozim. Tadqiqot maʼlumotlariga koʻra, xorijiy davlatlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan institutsional mexanizmlar kiberfiribgarlikni kamaytirish va oldini olishda yuqori samaradorlikka ega. Shu bois, kiberfiribgarlik bilan kurashda tizimli va kompleks yondashuv zarur, bu esa huquqiy, texnologik va ijtimoiy choralarni birlashtirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari kiberfiribgarlik hodisalarini aniqlash, ularni oldini olish va samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish boʻyicha ilmiy-amaliy asos yaratadi. Shu bilan birga, natijalar davlat organlari, korporatsiyalar va fuqarolar uchun kiberfiribgarlik xavflarini kamaytirish va raqamli jamiyat xavfsizligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, raqamli jamiyatda sodir boʻlayotgan kiberfiribgarlik va talon-tarojlik hodisalari murakkab, koʻp bosqichli va turli sohalarga taʼsir qiluvchi xarakterga ega. Olingan maʼlumotlar asosida kiberfiribgarlikning asosiy shakllari aniqlanib, ularning sodir etilish mexanizmlari va ijtimoiy, iqtisodiy hamda huquqiy oqibatlari tahlil qilindi. Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, kiberfiribgarlik nafaqat moliyaviy zarar keltiradi, balki

fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va raqamli tizimlarning xavfsizligini susaytiradi.

Tadqiqotning yana bir muhim xulosasi shuki, kiberfiribgarlikni oldini olishda kompleks yondashuv zarur. Ushbu yondashuv huquqiy choralar, texnologik himoya, monitoring tizimlari va fuqarolarning axborot savodxonligini oshirishni o‘z ichiga olishi lozim. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi va ilg‘or institutsional mexanizmlarni qo‘llash kiberfiribgarlikni kamaytirish va profilaktik choralarni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, samarali oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishda milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki va shaffoflikni oshirish choralari kiberfiribgarlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot kiberfiribgarlikni ilmiy asosda tahlil qilish, ularning sodir etilish mexanizmlarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari davlat organlari, korporatsiyalar va fuqarolar uchun kiberfiribgarlik xavflarini kamaytirish, raqamli jamiyat xavfsizligini oshirish va profilaktik choralarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot kiberfiribgarlik bilan kurash bo‘yicha milliy siyosatni takomillashtirish va xalqaro standartlar bilan uyg‘un strategiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga va kiberfiribgarlikka qarshi kurashish Qonuni. Toshkent, 2021.
3. Transparency International. Corruption Perceptions Index. Berlin, 2023.
4. UNODC. Cybercrime and Economic Crime. Vienna, 2022.
5. OECD. Anti-Corruption and Integrity in Public Sector. Paris, 2021.
6. Rose-Ackerman, S., & Palifka, B. J. (2016). Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. Cambridge University Press.
7. Heidenheimer, A. J., & Johnston, M. (2011). Political Corruption: Concepts and Contexts. Routledge.
8. Wall, D. S. (2007). Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age. Polity Press.
9. Chawki, M. (2019). Cybersecurity and Digital Fraud: Prevention and Policies. London: Routledge.
10. Nye, J. S. (2002). Corruption and Political Development: A Cost-Benefit Analysis. American Political Science Review, 56(2), 417–427.
11. Andrianov, V. I. (2018). Kibermoshennichestvo i zakon: uchebnoe posobie. Moskva: Yurayt.
12. OECD. Preventing Policy Capture: Integrity in Public Governance. Paris, 2022.
13. UNODC. Corruption in Public Procurement: Global Survey. Vienna, 2021.
14. Johnston, M. (2014). Syndromes of Corruption: Wealth, Power, and Democracy. Cambridge University Press.
15. Wall, D. S., & Williams, M. L. (2013). Policing Cybercrime: Networked and Social Media Investigations. Routledge.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

SCIENTIFIC ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF DEVELOPING REGULATIONS ON THE SERVICE OF WOMEN IN INTERNAL AFFAIRS BODIES IN VARIOUS COUNTRIES

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna
Independent researcher
E-mail: : abduxoshimov@akadmvd.uz
http://www.orcid.org/0000-1234-5678-9101

Abstract. This article is devoted to a scientific analysis of the experience of regulating the service of women in internal affairs bodies in developed countries. The study examines legal, social, and institutional aspects of women's participation in service, as well as their professional development opportunities. Both national legislation and international standards, along with advanced foreign practices, are comparatively analyzed. The findings of the research help identify effective mechanisms and policy strategies for organizing women's service. Furthermore, the article provides practical recommendations for ensuring gender equality, optimizing service processes, and enhancing the efficiency of women's professional activities in internal affairs bodies. The research demonstrates that involving women in service not only strengthens social justice and gender equality but also increases the efficiency of internal affairs institutions and improves the quality of services provided to citizens.

Keywords: internal affairs bodies, women, service regulation, gender equality, professional development, legal framework, international experience, institutional mechanism, social protection, service efficiency.

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O‘TASH TARTIBINI BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna
IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqola ichki ishlar organlarida xotin-qizlarning xizmat o‘tash tartibi va ularning faoliyatini tartibga solish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasini ilmiy asosda tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida xotin-qizlar xizmatidagi huquqiy, ijtimoiy va institutsional jihatlar, shuningdek ularning xizmatga jalb qilinishi va professional rivojlanish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Maqolada milliy qonunchilik bilan bir qatorda xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribalar solishtirildi. Tadqiqot natijalari xotin-qizlar xizmatini tartibga solish bo‘yicha samarali mexanizmlar va siyosiy strategiyalarni aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, maqola ichki ishlar organlarida gender tengligini ta’minlash, xizmat jarayonlarini optimallashtirish va xotin-qizlar faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, xotin-qizlarni xizmatga jalb qilish nafaqat ijtimoiy adolat va gender tengligini mustahkamlash, balki ichki ishlar organlarining samaradorligini oshirish va fuqarolarga xizmat sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, xotin-qizlar, xizmat o‘tash tartibi, gender tengligi, professional rivojlanish, huquqiy asoslar, xalqaro tajriba, institutsional mexanizm, ijtimoiy himoya, xizmat samaradorligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N19

Kirish. Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar xizmat o‘tashining huquqiy-tashkiliy tartibini o‘rganish rivojlangan davlatlarning huquq-amaliy tajribalarini chuqur tahlil qilishni talab etadi, chunki huquqni muhofaza qiluvchi organlarda gender tengligi, ayniqsa kuch

ishlatish vakolatiga ega tizimlarda, faqat huquqiy normalar bilan cheklanmaydi. Bu sohada xalqaro standartlar, politsiyaning institutsional madaniyati, xizmatga qabul qilish va unda ilgarilashdagi ochiqlik, ayollar uchun mehnat sharoiti hamda xizmat xavfsizligiga oid kafolatlar o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarda politsiya tizimlari eng avvalo tenglik, professionallik va shaffoflik tamoyillariga tayangan holda, ayollarning faol xizmat o‘tashini ta’minlash uchun maxsus huquqiy va tashkiliy mexanizmlar yaratishga katta e’tibor qaratadi. Shu bois mazkur davlatlar tajribasini ilmiy tahlil qilish O‘zbekistonda gender siyosatini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Avvalo, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, xususan, Germaniya, Fransiya va Shvetsiya politsiya tizimida xotin-qizlarning xizmatdagi ishtirokini kengaytirish bo‘yicha mustaqil institutsional siyosat yuritadi.[1] Masalan, Germaniya federal politsiyasida ayollar uchun xizmatga qabul qilish jarayoni keskin neytrallashtirilgan: nomzodlarni tanlashda jismoniy testlar genderga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilgan, test natijalari “bir xil mezon – har xil fiziologik imkoniyat” tamoyiliga muvofiq baholanadi. Bu orqali ayollarning jismoniy tayyorgarligini faqat erkak standartlari bilan o‘lchash amaliyoti bekor qilingan. Shuningdek, Germaniya politsiya muassasalarida qulay xizmat sharoitlari: o‘zgartirilgan smena jadvali, xavfsiz hududlarda patrul xizmati, bolali ayollar uchun qisqargan smenalar joriy etilgan. Politsiya tizimidagi bunday model institutsional tenglikni ta’minlash bilan bir qatorda xizmat sifatini saqlab qolishga ham yordam beradi.

Fransiya tajribasi esa xotin-qizlarni politsiya tarkibida saqlab qolish va ularning rahbarlik lavozimlaridagi ulushini oshirishga qaratilgan maxsus siyosat bilan ajralib turadi. Bu mamlakatda Ichki ishlar vazirligi tarkibida “Gender Mission” deb ataluvchi doimiy tuzilma mavjud bo‘lib, u politsiya kadrlarining gender tarkibini monitoring qiladi, har yillik hisobot tayyorlaydi, xizmatda ayollarga nisbatan yashirin diskriminatsiya holatlarini aniqlash va bartaraf etish bilan shug‘ullanadi. Bu amaliyot, ilmiy nuqtai nazardan, politsiya tizimida gender muammolarini faqat normativ-huquqiy yo‘l bilan emas, balki institutsional tahlil va tizimli monitoring orqali hal qilish zarurligini ko‘rsatadi.[2]

Shvetsiya politsiyasi xalqaro darajada eng rivojlangan gender tengligi modellaridan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda politsiya rahbariyatida xotin-qizlar ulushi 30 foizdan yuqori, yana bir muhim jihat — jamoat xavfsizligi sohasida ayollar tajribasi va muloqot madaniyati “konfliktni yumshatish” strategiyalarida samarali deb tan olingan.[3] Shvetsiyada politsiya xodimlarini tayyorlash tizimida gender sezgirlik, psixologik muloqot, stress holatlarini boshqarish kabi kurslar majburiy hisoblanadi, bu esa ayol xodimlar uchun qo‘shimcha psixologik qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratadi.

Angliya va Uels milliy politsiyasida ham xotin-qizlarning xizmat o‘tashi yuqori standartlar bilan tartibga solinadi. Bu mamlakatda “Police Code of Ethics”da ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning har qanday shakli jinoyat sifatida baholanadi va ichki tergov organlari tomonidan qat’iy tekshiriladi. [4]Xizmat vaqti, o‘z navbatida, eng ilg‘or moslashuvchan modelda tashkil etilgan: masofadan turib ishlash, qisqa smenali patrullar, bolali ayollar uchun “on-call” emas, balki “part-flex” grafikdan foydalanish imkoniyati bor. Ilmiy jihatdan, bu amaliyot “keskin stress va xizmatga moslashish sindromlarini yumshatuvchi” institutsional siyosat sifatida baholanadi.

Kanada politsiyasida esa xotin-qizlar uchun xavfsizlik va xizmat barqarorligi birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Bu tizimda ayollar uchun xizmatdagi zo‘ravonlik, diskriminatsiya yoki tahdid

holatlarini yoritishning maxsus himoyalangan kanali (Protected Reporting Line) mavjud. Bunday tizim ichki ishlar organlarida madaniy muhitni sog‘lomlashtirishda muhim omil bo‘lib, ilmiy manbalarda “institutsional xavfsizlik modeli” deb yuritiladi. [5]Kanadada, shuningdek, politsiya akademiyalarida ayollar uchun ayrim modullar — zaruratdan ortiq kuch ishlatmaslik, jamoat bilan muloqot, psixoemotsional barqarorlik bo‘yicha mashg‘ulotlar joriy etilgan.

Результаты проведённого исследования позволяют сформулировать ряд выводов, имеющих значение для осмысления современных проблем функционирования института общеизвестных товарных знаков.

Прежде всего установлено, что совокупность международных и национальных источников права формирует лишь общий нормативный контур правовой охраны общеизвестных товарных знаков, не обеспечивая достаточной детализации критериев их признания. Вследствие этого правоприменительные органы наделяются значительной степенью усмотрения, что объективно обусловливает вариативность принимаемых решений и снижает уровень правовой определённости для правообладателей.

Кроме того, выявлена несформированность согласованной методологии оценки доказательств общеизвестности. Используемые на практике доказательства — результаты социологических исследований, сведения о рекламной активности, данные об объёмах реализации продукции и степени присутствия обозначения в цифровом пространстве — анализируются фрагментарно и не всегда в их совокупности. Подобный подход затрудняет всестороннюю оценку фактической известности товарного знака среди соответствующих групп потребителей.

Отдельного внимания заслуживает проблема формализованного установления связи между обозначением и источником происхождения товаров. Как показал анализ, буквальное следование данному критерию способно препятствовать признанию товарного знака общеизвестным даже при наличии устойчивой известности среди потребителей, особенно в случаях, когда заявитель осуществляет деятельность в рамках корпоративных групп либо сложных хозяйственных структур и не располагает полным набором документов, предусмотренных подзаконными актами.

Наряду с этим установлено, что цифровые источники доказательственной информации, играющие всё более значимую роль в формировании известности товарных знаков, на сегодняшний день не интегрированы в устойчивую нормативно-методическую модель оценки. Отсутствие единых подходов к использованию данных, получаемых из сети Интернет, социальных сетей и электронных торговых платформ, ограничивает их доказательственную значимость и способствует возникновению дополнительных правовых споров.

В совокупности полученные результаты позволяют сделать вывод о том, что институт общеизвестных товарных знаков сохраняет ключевое значение в системе правовой охраны средств индивидуализации, однако его практическая реализация в современных условиях требует дальнейшего нормативного и методического развития. В частности, обоснованной представляется необходимость формирования согласованных методических подходов к оценке доказательств общеизвестности,

включая цифровые данные, а также внедрения более гибкого и экономически обоснованного анализа восприятия обозначения соответствующей аудиторией. Реализация указанных мер позволит повысить уровень правовой определённости и обеспечить адаптацию института общеизвестных товарных знаков к актуальным экономическим и цифровым процессам.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Парижская конвенция по охране промышленной собственности от 20 марта 1883 г. Парижская конвенция по охране промышленной собственности от 20 марта 1883 г. // Электронный фонд правовых и нормативно-технических документов. [Электронный ресурс] URL.: https://docs.cntd.ru/document/1900359 (дата обращения: 10.04.2023).
2. Соглашение по торговым аспектам прав интеллектуальной собственности (ТРИПС) от 15 апреля 1994 г. Соглашение по торговым аспектам прав интеллектуальной собственности 1994 г. [Электронный ресурс] URL.: https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/treaties/ru/wto01/trt_wto01_001ru.pdf (дата обращения: 10.04.2023).
3. Батыков И.В. Правовые основы определения пороговых значений для уровня известности общеизвестного товарного знака // Пробелы в российском законодательстве. – 2019. – № 2. – С. 59–62.
4. Закон Республики Узбекистан, от 30.08.2001 г. № 267-II «О товарных знаках, знаках обслуживания и наименованиях мест происхождения товаров».
5. Постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 23 июня 2023 г. № 19 «О некоторых вопросах рассмотрения дел, связанных с интеллектуальной собственностью»
6. Правила подачи и рассмотрения апелляций и заявлений о признании общеизвестных товарных знаков в Республике Узбекистан в Апелляционный совет Министерства юстиции Республики Узбекистан от 30 октября 2019 г. №3190
7. Зайцева Е.А. Правовая охрана общеизвестных товарных знаков: Автореферат дис. канд. юрид. наук. 12.00.03. – М., 1998. 23 с.
8. Приказ Роспатента от 01.06.2001 № 74 (ред. от 02.04.2004) «Об утверждении Рекомендаций по проведению опроса потребителей по вопросу общеизвестности товарного знака в Российской Федерации».
9. Mostert F. Famous and Well-Known Marks. An International Analysis. - London, Butterworths, 1997.
10. Зайцева Е.А. Правовая охрана общеизвестных товарных знаков. Диссертация канд. юрид. наук. 12.00.03. – М., 1998. 101 с.
11. Величко В.Е. Правовой режим общеизвестных товарных знаков: особенности предоставления охраны, основания прекращения и защита от нарушений / Интеллектуальные права: вызовы XXI века: материалы Международной конференции (14–16 ноября 2019 г.) / под ред. Э.П. Гаврилова, С.В. Бутенко. – Томск: Издательский дом Томск, 2019. 188 с.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES: THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli
PhD student,
Tashkent State University of Law
E-mail: davronbekabdugaffarov@gmail.com

Abstract. This article analyzes the enhancement of private international law rules within the context of Uzbekistan's WTO accession. To foster trade in services and ensure full compliance with GATS requirements, it proposes modernizing the Civil Code based on the 2015 Hague Principles.

Keywords: Uzbekistan; WTO Accession; GATS; Private International Law; Choice of Law; Article 1190 Civil Code; Domestic Regulation; Hague Principles.

O‘ZBEKISTON XALQARO XUSUSIY HUQUQINI JST TAMOYILLARI BILAN MUVOFIQLASHTIRISH: GATSNI IMPLEMENTATSIYA QILISHDA HUQUQ TANLOVINING O‘RNI

Abdugaffarov Davronbek Dilshod o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish jarayonida xalqaro xususiy huquq normalarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Xizmatlar savdosini rivojlantirish va GATS talablariga to‘liq rioya etish maqsadida Fuqarolik kodeksini 2015-yilgi Gaaga tamoyillari asosida modernizatsiya qilish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: O'zbekiston; JSTga a'zo bo'lish; GATS; Xalqaro xususiy huquq; Huquq tanlovi; Fuqarolik kodeksi 1190-moddasi; Ichki tartibga solish; Gaaga tamoyillari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N22

Introduction. The Republic of Uzbekistan, following a period of relative economic isolation [15], initiated a comprehensive package of socio-economic reforms post-2016 aimed at trade liberalization [18] and modernization [7]. A central pillar of this transformation is the reactivation and acceleration of its accession to the World Trade Organization (WTO) [15]. This process, originally initiated in 1994 but subsequently frozen [2], is now designated as an "absolute priority" by the government. Significant progress has been achieved; the 6th Working Party meeting was convened in March 2023 [17], and crucial bilateral negotiations on market access for both goods and services have been concluded with key WTO members, including the European Union [4] and the United States [16]. These concluded bilateral agreements, which detail Uzbekistan's "concessions in services", will be consolidated into its final Protocol of Accession and Schedule of Specific Commitments under the General Agreement on Trade in Services (GATS) [7].

This *de jure* liberalization, supported by international partners like the World Bank and UNDP [20], is intended to establish a predictable, transparent, and rules-based trade environment to attract investment and foster sustainable growth [12]. However, the focus of both policy implementation and academic analysis has overwhelmingly centered on *public law* harmonization. This includes analysis of national treatment principles [8], specific sectors like tourism [14], customs procedures [21], intellectual property law, technical barriers to trade (TBT), and the creation of GATS-compliant regulatory bodies [10]. A significant analytical gap exists regarding the critical role of *private law* in facilitating these commitments.

Trade in services, unlike trade in goods, does not primarily consist of cross-border movements of physical products. It comprises the provision of intangible economic activities—such as financial, telecommunication, legal, or data-processing services—which are governed by complex international contracts [9]. The commercial value of a GATS market access commitment for a foreign service provider is therefore contingent upon the legal predictability and enforceability of these contracts. This predictability is governed by the domestic rules of Private International Law (PIL), or conflict of laws, which are codified in Section VI of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. This article argues that a critical dissonance exists between Uzbekistan's progressive public law reforms for WTO accession and the significant inertia of its private law framework.

Literature Review and Methodology. *The GATS Framework: Domestic Regulation as a Qualitative Barrier* The GATS establishes a comprehensive framework applying to "measures by Members affecting trade in services" [22]. This definition is intentionally broad, encompassing actions by central, regional, or local governments, as well as non-governmental bodies exercising delegated powers. A Member's domestic PIL regime, specifically the conflict-of-law rules codified in its Civil Code, indisputably falls within this definition as a "measure of general application" that directly affects the operation of service contracts [13]. While GATS explicitly recognizes the sovereign "right of Members to regulate... in order to meet national policy objectives", it disciplines the exercise of that right through two primary obligations relevant to PIL: transparency and domestic regulation.

The general obligation of Transparency under GATS Article III requires each Member to "publish promptly... all relevant measures of general application which pertain to or affect the operation of this Agreement" [19]. This extends beyond mere publication; it implies that the measures themselves must be clear. An archaic or ambiguous PIL rule, which creates uncertainty for foreign service suppliers regarding the governing law of their contracts, fails to provide effective transparency. However, the more potent challenge arises from GATS Article VI, "Domestic Regulation". Article VI:1 mandates that in sectors where specific commitments are undertaken, Members must ensure that all measures of general application affecting trade in services are "administered in a reasonable, objective and impartial manner" [13]. A PIL framework that relies on an unpredictable, outdated default rule for contractual disputes cannot be considered "reasonable" or "objective" in the context of modern, intangible service transactions.

Analysis of Uzbekistan's Conflict-of-Law Regime (Civil Code, Section VI) The primary legal instrument governing contractual choice of law in Uzbekistan is Section VI ("International Private Law") of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan [3]. This code, originally adopted in 1995-1997 and modeled substantially on other post-Soviet civil codes, contains two central

provisions that determine the applicable law for international service contracts. The first, Article 1189 ("Choice of Law by Agreement of Parties"), establishes the principle of party autonomy. It provides that "the contract is governed by the law of the country, chosen by agreement of the parties" [6]. This provision also correctly permits *dépeçage*, allowing the parties to select the applicable law for the contract as a whole or for its individual parts. This codification of party autonomy is a necessary foundation for international commerce.

The critical deficiency, however, resides in Article 1190 ("Law Applicable to Contract in Absence of Agreement"). This article provides the default rule, or *lex generalis*, when parties have failed to make an explicit choice. In such cases, Article 1190 applies "the law of the country in which the party that performs the performance that is crucial to the content of such a contract is established" [1]. This "characteristic" or "crucial performance" test, while a common feature of 20th-century PIL (designed primarily for the international sale of goods), is fundamentally unworkable and archaic for the complex, intangible, and delocalized services GATS seeks to liberalize.

Discussion. *Party Autonomy as a Prerequisite for GATS Compliance* Existing scholarship concerning Uzbekistan's WTO accession has appropriately analyzed the challenges of economic reform and the harmonization of specific public law regimes. However, this article identifies the domestic private international law regime as a distinct, and overlooked, *de facto* non-tariff barrier to GATS implementation. It posits that the *private law substrate*—the foundational rules of the Civil Code governing the contracts that constitute the trade in services—has been ignored. The analysis moves beyond the conventional view of GATS "domestic regulation" as purely administrative or licensing law. The absence of a modern, flexible, and predictable PIL regime functions as a barrier that creates systemic legal risk, deterring foreign service providers, and thereby "hollows out" the *de jure* market access concessions [4] that Uzbekistan is making.

Sectoral Analysis: Financial Services and Telecommunications The dissonance between public law reform and private law inertia is most acute in high-value service sectors. In the financial sector, despite significant public law reforms [20], a foreign financial institution contemplating entry faces a dual-risk profile. First, the public law risk of opaque administrative barriers, and second, the private law risk stemming from Article 1190 of the Civil Code. The "crucial performance" test is wholly inadequate for determining the applicable law for complex, cross-border financial instruments such as derivatives or syndicated loans.

Similarly, in the telecommunications sector, Uzbekistan has recently mandated the formation of an independent regulatory body [10], mirroring GATS requirements. This reform is designed to attract foreign service providers. However, this liberalization creates a new market for complex private contracts (interconnection agreements, roaming contracts) which fall under the archaic PIL regime. Thus, while the public regulatory framework is becoming GATS-compliant, the private law framework governing the resulting transactions remains governed by the ambiguous "crucial performance" test, lagging behind as a primary legal barrier.

Results. *A Normative Blueprint for Reform: The Hague Principles* To resolve this public-private dissonance and ensure GATS compliance, Uzbekistan should align Section VI of the Civil Code with the 2015 Hague Principles on Choice of Law in International Commercial Contracts

(Hague Principles) [5]. The Hague Principles are a modern "soft-law" instrument designed explicitly to promote party autonomy and legal certainty in cross-border trade.

Adopting the Hague Principles would remedy the identified deficiencies in two ways:

1. **Modernizing Party Autonomy:** It would modernize and expand party autonomy under Article 1189. Article 3 of the Hague Principles explicitly permits parties to choose non-state "rules of law" to govern their contract [5], such as the UNIDROIT Principles. This flexibility is precisely what sophisticated financial and technology service providers require.
2. **Replacing the Default Rule:** The Hague Principles provide a clear normative benchmark for replacing the archaic "crucial performance" test in Article 1190. By adopting this global standard, Uzbekistan would create a PIL framework that is "reasonable, objective and impartial" (GATS Art. VI:1).

Conclusion. Uzbekistan's accelerated WTO accession is a critical component of its national development strategy. The conclusion of bilateral agreements on services with major partners demonstrates significant progress in its *public law* commitments. However, this analysis has demonstrated that WTO accession is a dual project, requiring the harmonization of both public and private law. The current PIL regime, specifically the reliance on the archaic "crucial performance" test in Article 1190 of the Civil Code, fails to provide the legal certainty required for modern trade in services. This ambiguity functions as a substantive *de facto* barrier to trade, which "nullifies or impairs" (GATS Art. VI:5) the value of market access commitments. The modernization of Section VI of the Civil Code, using the 2015 Hague Principles on Choice of Law as a normative blueprint, is an essential, non-negotiable step for fulfilling the letter and spirit of GATS obligations and realizing the full economic benefits of WTO membership.

References/Adabiyotlar/Литература:

1. Azizov & Partners. Overview of conclusion and registration a franchise agreement [Electronic resource]. URL: https://azizovpartners.uz/en/memos/overview-of-conclusion-and-registration-a-franchise-agreement/ (date of access: 20.10.2025).
2. CAREC Program. Current Status Accession Uzbekistan WTO [Electronic resource]. URL: https://www.carecprogram.org/uploads/06-Current-Status-Accession-Uzbekistan-WTO.pdf (date of access: 20.10.2025).
3. Civil Code of the Republic of Uzbekistan. URL: https://lex.uz/docs/-180552
4. European Commission. EU and Uzbekistan conclude deal on WTO accession [Electronic resource]. – 2025. – URL: https://policy.trade.ec.europa.eu/news/eu-and-uzbekistan-conclude-deal-wto-accession-2025-10-24_en.
5. Hague Conference on Private International Law. The Hague Principles on Choice of Law in International Commercial Contracts. – The Hague: HCCH, 2015. – 20 p.
6. Horizon.uz. Choice of Law by Agreement of Parties [Electronic resource]. URL: https://horizon.uz/en/news/j90 (date of access: 20.10.2025).
7. Institute for International Trade. Uzbekistan and the WTO [Electronic resource]. – Adelaide: University of Adelaide. URL: https://iit.adelaide.edu.au/ua/media/726/uzbekistan-wto.pdf.
8. International Journal of Law and Commerce. National treatment principles in Uzbekistan [Electronic resource]. URL: https://inlibrary.uz/index.php/ijlc/article/view/38864.
9. International Trade Centre (ITC). Trade in Services [Electronic resource]. URL: https://www.intracen.org/es/node/170853.

10. Kun.uz. Uzbekistan strengthens telecommunications oversight with new legislation [Electronic resource]. – 2024. – URL: https://kun.uz/en/news/2024/10/23/uzbekistan-strengthens-telecommunications-oversight-with-new-legislation.
11. Namangan State University Library. Xalqaro xususiy huquq [Electronic resource]. URL: https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/05/NamDU-ARM-4005-Xalqaro_xususiy_huquq.pdf.
12. Normatov J. EUCACIS Online Paper No 2 [Electronic resource]. – CIFE. URL: https://www.cife.eu/Ressources/FCK/EUCACIS%20Online%20Paper%20No%202%20Normatov_final.pdf.
13. Reference Works Brill. GATS Article VI Domestic Regulation [Electronic resource]. URL: https://referenceworks.brill.com/display/entries/WTCO/COM-5005.xml.
14. ResearchGate. Tourism services' regulation in the process of Uzbekistan's accessing the WTO [Electronic resource]. URL: https://www.google.com/search?q=https://www.researchgate.net/publication/379672862.
15. ResearchGate. Uzbekistan and the World Trade Organization [Electronic resource]. URL: https://www.google.com/search?q=https://www.researchgate.net/publication/344977803.
16. USTR. Statement by Ambassador Katherine Tai on Uzbekistan’s Work Toward Accession [Electronic resource]. – 2024. URL: https://ustr.gov/about-us/policy-offices/press-office/press-releases/2024/december.
17. UNDP Uzbekistan. Uzbekistan held 6th Working Party meeting on accession to WTO [Electronic resource]. URL: https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/uzbekistan-held-6th-working-party-meeting-accession-wto-support-undp.
18. UZBWTO. WTO Accession Process [Electronic resource]. URL: https://uzbwto.uz/en/wto-accession.
19. World Trade Organization. GATS: General Agreement on Trade in Services [Electronic resource]. URL: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/26-gats.pdf.
20. World Bank. The Promise of Services-Led Growth in Uzbekistan [Electronic resource]. URL: https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/promise-of-services-led-growth.
21. World Customs Journal. Issues relating to the identification and customs examination [Electronic resource]. URL: https://www.google.com/search?q=https://www.worldcustomsjournal.org/article/12/2758.
22. WorldTradeLaw.net. GATS Agreement Text [Electronic resource]. URL: https://www.worldtradelaw.net/document.php?id=uragreements/gats.pdf.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT AND LEGAL STATUS OF A FOREIGN CITIZEN IN UZBEKISTAN

Aripov Abid
Independent researcher of the Academy of the
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article comprehensively analyzes the concept of foreign citizens in the Republic of Uzbekistan and their legal status based on international legal and national legislation. The relevance of clearly defining the legal status of foreign citizens is substantiated. Also, the doctrinal views of legal scholars were studied, and the author's definition and practical proposals aimed at improving national legislation were put forward.

Keywords: foreign citizen, legal status, human rights, international law, national legislation, multiple citizenship, legal order.

O‘ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI

Aripov Abid Adilovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Email: abidaripov9@gmail.com
http://www.orcid.org/0009-0004-5317-0481

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari tushunchasi va ularning huquqiy maqomi xalqaro-huquqiy hamda milliy qonunchilik asosida kompleks tahlil qilingan. Chet el fuqarolarining huquqiy maqomini aniq belgilashning dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek, huquqshunos olimlarning doktrinal qarashlari o‘rganilib, milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan mualliflik ta’rifi va amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: chet el fuqarosi, huquqiy maqom, inson huquqlari, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, ko‘p fuqarolik, huquqiy tartib.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N23

Kirish. Globallashuv va xalqaro migratsiya jarayonlarining kengayishi davlatlar oldida chet el fuqarolarining huquqiy maqomini aniq belgilash masalasini dolzarb vazifa sifatida qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, ushbu tamoyil chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O‘zbekistonda aholining huquqlarini ta’minlash va muhofaza qilish — mamlakatdagi huquqiy tizimning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu bilan birga, bugungi kunda jamiyatdagi huquqiy munosabatlarning murakkabligi va globallashuvning ta’siri asosida chet el fuqarolarining huquqlarini ta’minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu masala, ayniqsa, O‘zbekistonning xalqaro hamkorlik makonidagi mavqeyini o‘sishida va milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan ustuvor siyosatning bir qismi sifatida ahamiyatga ega. Chet el fuqarolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda, ayrim holatlarda, turli qiyinchiliklarga duch

kelishi mumkin. Ular mamlakatga kirish, yashash, ishlash va boshqa huquqiy munosabatlar bilan bog‘liq holatlarda yuqori darajada qonuniy himoyani talab qilishi mumkin. O‘zbekiston hududida yashovchi chet el fuqarolari huquqlarini, Konstitutsiya, xalqaro shartnomalar va mahalliy qonunlar asosi to‘liq ta’minlangan. Biroq, amaliyotda ayrim hollarda ularning huquqlarini ta’minlashda muammolar va kamchiliklar yuzaga kelmoqda. Bu esa “chet el fuqarosi” tushunchasining ilmiy-huquqiy jihatdan aniq va yagona ta’rifga ega emasligi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbekistonda turli millat va millatlararo munosabatlarning shakllanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o‘zgarishi, shuningdek, huquqiy ta’limotni targ‘ib qilish va jamiyatdagi manfaatlarni muvozanatlashtirishga intilish kabi omillar chet el fuqarolarining huquqlarini muhofaza qilishning dolzarbligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Turli etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning rivojlanishi, globallashuv jarayonlari va migratsiya oqimlarining ko‘payishi tufayli, xorijiy fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash milliy qonunchilik va xalqaro huquq doirasida muhim vazifaga aylanmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi o‘zgarishlar, xususan, mehnat migratsiyasining ko‘payishi va multimillat jamiyatning shakllanishi mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni saqlash va inson huquqlarini himoya qilishga bo‘lgan talablarni kuchaytiradi.

Shu munosabat bilan, huquqiy ta’limotni keng targ‘ib qilish va jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini muvozanatlashtirish, chet el fuqarolarining huquqlarini mustahkamlash hamda ularning ijtimoiy-huquqiy maqomini ta’minlash sohasida samarali mexanizmlarni yaratish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda chet el fuqarolari uchun huquqiy himoyani yanada kuchaytirish, ularning huquqlari bo‘yicha ma’lumotlarni targ‘ib qilish va yuridik yordam ko‘rsatishni bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilmoqda. Buning natijasida, chet el fuqarolari O‘zbekistonda o‘z huquqlarini samarali ishlatish va ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

O‘zbekistonda chet el fuqarolariga nisbatan va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, ularni tergov qilishda, tergov organlarini boshqarishning tashkiliy huquqiy asoslarini keltirishimizdan avval, chet el fuqarosi kim?, uning huquq va majburiyatlar chegarasi?, bu huquqlar qanday tarixiy asosga ega?, O‘zbekiston Respublikasi hududida ularning huquqiy maqomi qanday?, chet el fuqarosi va ularga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar qaysi normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan?, degan bir nechta savollarga javob bersak.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — mamlakatning asosiy huquqiy hujjati bo‘lib, unda inson va fuqaro huquqlari, erkinliklari va burchlari, ularni himoya qilishning huquqiy asoslari belgilab qo‘yilgan. Inson huquqlari Konstitutsiyada markaziy o‘rin tutadi va davlatning birinchi maqsadi sifatida belgilangan. Konstitutsiyaning 13-moddasida: ***“O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoyalanadi”***,-deb belgilab qo‘yilgan [11].

Inson qadr-qimmati va huquqlari tabiiy va ajralmasdir: Konstitutsiyaning 24-moddasiga ko‘ra, ***“O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq***

ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro huquq shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar",-deb belgilab qo'yilgan [11]. Bu, o'z navbatida, insonning qimmati tabiiy va ajralmas bo'lib, har qanday shaxs o'zining bunyodkor huquqlaridan foydalanishi va ularni himoya qilishda erkin bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari, O'zbekiston Respublikasining o'zining fuqarolariga qaraganda huquqiy munosabatlari alohida xususiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga chet elliklar bilan davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar masalasini tahlil qilishdan avval aynan **"chet ellik"** tushunchasini ko'rib chiqish lozim. Chunki dastlab chet ellik toifasiga kiruvchi shaxslar doirasi belgilab olinmasa, oldimizga qo'ygan maqsad va muammoli vaziyatni to'liq tadqiqoti va aniq yechimiga ega bo'lish mushkul vazifa hisoblanadi. Dastlab oldimizga qo'yilgan masalani tahlil qilish uchun xalqaro hujjatlarni o'rganilganda, **"chet ellik va uning huquqlari"**ni tarixiy kelib chiqishi va belgilanishiga e'tibor qaratishimiz kerak .

Birlashgan millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida [4; B.33.] birinchi navbatda har bir insonning irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar biror bir ayirmachiliksiz unda e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklar sohibi bo'lishi lozimligi bayon etgan. Ushbu talab tadqiqot ishining obyekt, ya'ni chet elliklarning huquq va erkinliklariga bevosita aloqadorligi bilan muhim o'rin egallaydi.

Mazkur deklaratsiya shaxsning siyosiy, fuqarolik madaniy huquq va erkinliklarini aks etish bilan birga uning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini, ya'ni yashash joyini tanlash, erkin harakat qilish mehnat qilish, ta'lim olish va boshqa turdagi huquqlarini ham kafolatlaydi.

Bundan tashqari, deklaratsiyada shaxs bo'lib turgan biror bir mamlakatning yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomi nuqtai — nazaridan, hamda ushbu hududning mustaqillik vasiylik ostida yoki o'zini o'zi boshqarish maqomida bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu shaxsga nisbatan ayirmachilik munosabatida bo'lish taqiqlanishi qayd etilgan.

Ushbu deklaratsiyadagi chet elliklarning huquq va majburiyatlarga oid talablarning aksariyat mamlakatimizdagi huquqiy sohalarga oid qonunlarda aks ettirilganligi bilan e'tiborga loyiqdir. O'z o'rnida chet elliklarga oid O'zbekiston Jinoyat-protsessual qonunchilikni qo'llashdagi ayrim muammolar masalasi diplom ishimizning keyingi bo'limlarida yoritilishi nazarda tutilganligi sababli, keyingi bo'limlarda alohida to'xtalib o'tamiz.

Deklaratsiyada inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanuvchi erkin harakatlanish huquqi aks ettirilgan bo'lib, unga muvofiq har bir shaxs har qanday mamlakatdan, shu jumladan o'z mamlakatidan chiqib ketish va unga qaytib kelish huquqiga ega.

Deklaratsiyadagi bu qoida chet elliklar huquqining ajralmas qismi bo'lganligi bilan ham biz uchun katta ahamiyatga ega.

Chet ellikni u fuqarosi bo'lgan davlat tomonidan himoya qilish yoki domitsiliya tamoyili biror bir davlat hududida bo'lgan chet ellik zarur bo'lganda o'zining fuqaroligi bo'lgan davlat himoyasidan foydalanish imkoniga egaligini anglatadi. Bu esa deklaratsiyaga muvofiq barcha shaxslar har qanday kamsitilishdan himoyalanishida teng huquqlarga ega ekanliklari bilan sharhlanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan keyin qabul qilingan quyidagi xalqaro hujjatlar chet elliklarga oid xalqaro hujjatlar qatoriga kiradi. Bu "Iqtisodiy, ijtimoiy, va madaniy

huquqlar” [1; B.19-32.] hamda “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro Paktlardir [2; B.35-58.].

Mazkur xalqaro hujjatlar ularda inson huquq va erkinliklariga oid o‘rnatilgan talablarning xalqaro miqyosda ta’minlanishi belgilanganligi bilan tadqiqot ishiga bog‘liq masalalarni hal qilishga katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, 1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan bo‘lib, u 1995-yil 31-avgustda O‘zbekiston Parlamenti tomonidan imzolangan.

Ushbu Paktda shaxslar, shu jumladan chet elliklarning huquqiy holatiga oid talab va qoidalarning umumiy tizimi keltirilgan (2-modda). Unga muvofiq chet elliklar bo‘lib turgan mamlakatning fuqarolari bilan bir qatorda mehnat qilish va erkin kasb tanlash mehnati uchun adolatli ish haqi olish huquqiga egadirlar. Paktning mazkur moddasida, shuningdek chet elliklarning ijtimoiy ta’minotga, yetarli turmush darajasini va sog‘liqni saqlash huquqlariga ega bo‘lishi to‘g‘risidagi qoidalar ham e’tirof etilgan.

“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro Pakt [3; B.201-205.] ham 1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlardan biridir. Mazkur Pakt hamda uning fakultativ Protokoli ham O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1995-yilning 31-avgustida imzolangan.

Ushbu Paktning 2-moddasiga muvofiq, ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar o‘zining yurisdiksiyasida bo‘lgan shaxslarning hech qanday ayirmachilik qilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. Bu bilan shuni anglashimiz mumkinki chet el fuqarolari ham ushbu Paktga a’zo bo‘lgan davlatning huquq doirasida bo‘lgan taqdirda unga nisbatan ishga qabul qilishda ham kamsitilishi mumkin emasligini anglashimiz mumkin.

Har bir kishi qayerda turishidan qat’iy nazar uning shaxsiy huquqi tan olinishi huquqiga ega. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar zimmasiga unda tan olingan huquqlarni amalga oshirish borasida o‘zlari qabul qilgan tadbirlar va mazkur huquqlardan foydalanishda erishilgan o‘zgarishlar haqida BMTga ma’ruzalar taqdim etish talabi yuklagan.

Mazkur Deklaratsiya muqaddimasida shaxsning irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar uning huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hamda rioya etilishini BMT har tomonlama rag‘batlantirishi ko‘rsatib o‘tilgan.

“Chet ellik” iborasi Deklaratsiyaning 1-moddasida ilk bor qo‘llanilgan bo‘lib, unga muvofiq, deklaratsiya moddalarni zarur darajada hisobga olgan holda, belgilangan davlat hududida bo‘lgan va uning fuqaroligiga ega bo‘lmagan har qanday shaxs **“Chet ellik”** ma’nosini anglatishi qayd etilgan.

Mazkur Deklaratsiyada, shuningdek biror bir chet ellikning qonunga zid tarzda biror bir davlat hududiga kirib kelishi yoki unda bo‘lib turishi uchun Deklaratsiya qoidalari va talablari asos bo‘la olmasligi talabi o‘rnatilgan. Shu o‘rinda mazkur Deklaratsiyaning biror bir qoidasi unga a’zo bo‘lgan davlatning chet elliklarning ushbu davlat hududiga kirib kelishi yoki bo‘lib turishi masalasi bo‘yicha qonun va qoidalar qabul qilishlarida cheklanish sifatida talqin etilishish yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi qoida o‘rnatilgan.

Ushbu Deklaratsiyada, ichki qonun va xalqaro huquq asosida chet elliklarga davlatlar taqdim etadigan huquqlarga, hatto ular mazkur Deklaratsiyada tan olinmagan yoki kam hajmda tan olingan bo‘lsa-da, zarar yetkazmaslik lozimligi qayd etilgan.

Deklaratsiya unga a’zo bo‘lgan har bir davlat o‘zining chet elliklarga oid milliy qonun hujjatlarini yoki qoidalarini matbuotda e’lon qilishi zarurligi talabini ham o‘zida mujassamlashtirgan.

O‘z navbatida Deklaratsiya chet elliklarni yashab turgan yoki bo‘lib turgan davlatning qonunlariga rioya etish hamda mazkur davlat xalqlarining urf- odatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish talabini qo‘ygan. Deklaratsiyada chet elliklar bo‘lib turgan davlatlari hududidan faqat qonun asosidagi qarorga muvofiq chiqarilishi yoki chiqarib yuborilishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoida o‘rnatilgan. Unga muvofiq agar mazkur qarorda davlat xavfsizligi imperativ nuqtai nazardan boshqacha talab o‘rnatilmagan bo‘lsa, u holda chet ellikka o‘zining chiqarib yuborilishiga qarshi asoslarni taqdim etish huquqi berilgan. Bundan tashqari chet ellikka vakolatli davlat organlariga unga nisbatan chiqarilgan qarorlarni tegishli davlat idoralarida qayta ko‘rib chiqishni talab etish huquqi ham taqdim etilgan. Deklaratsiyaning mazkur moddasida, shuningdek chet elliklarni irqi, terisining rangi, dini, madaniyati va etnik kelib chiqishiga ko‘ra individual yoki jamoatchilik tarzida chiqarib yuborish taqiqlangan.

Huquqshunos olimlarning fikrlarini o‘rganilganda, yuqorida keltirilgan tavsif **“Chet ellik”** iborasiga nisbatan turli xil, ya’ni tor va keng ma’nodagi tavsif qo‘llanilishi to‘g‘risidagi mulohazalar ilgari surilganligini aniqlashimiz mumkin [6; B.120.].

Hamma insonlarning umumiy jihatdan **“chet elliklar”** deyilganda, boshqa davlat hududida doimiy ravishda istiqomat qiladigan shaxslar va boshqa davlatdan kelgan fuqarolarni tushunishimiz sir emas. Ushbu fikrimiz qisman to‘g‘ri bo‘lsa-da, lekin ushbu tushuncha quyilgan masalaning yuridik mazmunini batafsil ochib bera olmaydi.

Shu boisdan ham ushbu tushuncha o‘zining to‘liq mantiqiy yechimiga ega bo‘lishi uchun uni xalqaro huquqiy va milliy qonunlar doirasida chuqurroq tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Huquqshunos olim A. Mamatqulov **“chet ellik”** iborasiga tasnif berishda, *“chet ellik deganda muayyan davlat hududida yashaydigan, lekin uning fuqarosi bo‘lmagan va boshqa davlat fuqaroligida turgan shaxs”* anglanishini qayd etgan [5; B.98.]. Huquqshunos olim R. Qayumov *“O‘zbekiston fuqarosi bo‘lmagan va o‘zining chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlovchi dalillari bo‘lgan shaxslar “chet ellik fuqarolar” deb tan olinishini”*,- e’tirof etgan [8; B.129.]. Huquqshunos olim R.Hakimov esa *“bo‘lib turgan mamlakati fuqaroligiga ega bo‘lmagan har qanday shaxs chet ellik”,- deb tushunilishini qayd etgan* [10; B.56-58.].

Huquqshunos olim X.T. Odilqoriyevning fikricha *“o‘zi yashab turgan davlatning fuqaroligiga ega bo‘lmagan va boshqa davlatning fuqaroligida bo‘lgan shaxsni chet ellik deb e’tirof etiladi”* [7; B.152.] deb fikr bildirganlar.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar **“chet ellik”** tushunchasi ma’lum davlat hududida bo‘lib turgan va mazkur davlat fuqaroligiga ega bo‘lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga ega shaxslarni anglashligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi kabi mustaqil davlatlarning aksariyatida fuqarolik masalalariga oid qonunlar qabul qilingan. Ushbu davlatlarning ko‘p qismida fuqarolik masalasini tartibga solishning asosi tariqasida “tenglik tamoyil” deb nomlanuvchi mezon olingan. Unga muvofiq tegishli davlatning fuqaroligi mazkur davlating fuqarolik to‘g‘risidagi qonuni kuchga kirguniga qadar uning hududida yashab turgan barcha shaxslar havola etilishi ko‘zda tutilgan [9; B.47.].

Bir qator davlatlarning qonunlarida davlat o‘z hududida istiqomat qiladigan chet fuqarolarini himoya qilish majburiyatini olishi yuzasidan qarama–qarshi fikrlar mavjud.

Chet elliklar huquqiy tartibining quyidagi uch ko‘rinishi eng ko‘p tarqalgan: **milliy**, **eng qulay** va **maxsus** tartiblar mavjud.

Milliy tartib chet elliklarga davlatning fuqarolari bilan teng huquq va erkinliklar berilishini nazarda tutadi.

Eng qulay tartib-chet elliklarga har qanday uchinchi davlat fuqarolari foydalanayotgan yoki foydalanadigan huquq va erkinliklarning berilishidir. Bu tartibning tabiati faqat shartnomaviydir.

Chet elliklarning milliy qonunchilik yoki xalqaro shartnoma asosida maxsus huquqlarini berishni nazarda tutuvchi **maxsus** tartib kabi chet elliklarning huquqiy tartibi ko‘rinishi ham mavjud. Bu tartib chet elliklarga ma’lum bir imtiyoz va ustunliklarni berishni nazarda tutishi bilan ajralib turadi [7; B.154.].

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining huquq va erkinliklari davlatlar o‘rtasida va xalqaro tashkilotlar tomonidan chiqarilgan xalqaro hujjatlar bilan tartibga solinishi haqida Konstitutsiyamizning Muqaddimasida “xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan holda” qabul qilinganligi belgilan qo‘yilgan. Bundan tashqari Konstitutsiyaning 15-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi siyosatiga oid tamoyillari to‘g‘risida”gi Qonunida ham O‘zbekiston uchun xalqaro huquq qoidalari va tamoyillarining ustuvorligini tan olingan [11].

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomaga qat’i rioya qilishi Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilishi biz xalqaro shartnomalarga qat’iy rioya qilishimiz kerakligini bildiradi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risidagi qonunining 27-moddasida ham xalqaro O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquq normalariga muvofiq qat’iy va majburiy ravishda rioya etmog‘i lozimligini belgilab qo‘yilgan [14].

Xalqaro shartnomalar tushunchasi va ularning tasniflanishiga mutaxassislar **G.A.Matkarimova, G.Yuldasheva**lar ancha batafsil to‘xtalib o‘tishgan. Jumladan, **G.A.Matkarimova**ning qayd etishicha, *“xalqaro shartnoma – bu davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari o‘rtasidagi ma’lum bir masalalarni tartibga solish maqsadida o‘zaro kelishuv tartibida yozma shaklda tuziladigan xalqaro huquqiy hujjat”* hisoblanadi [14; B.221.].

Konstitutsiyamizning yuqorida ko‘rsatilib o‘tilgan qoidalaridan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari ularning huquqiy holatini tartibga solishda xalqaro hujjatlar va xalqaro qoidalar asosida hal etilishini ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to‘g‘risidagi qonunida xalqaro shartnomalarining tushunchasi berilgan bo‘lib unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi — respublikaning bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvi [12].

Demak yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, chet el fuqarolarini huquqiy holatini tartibga soladigan xalqaro hujjatlar hozirda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ushbu xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan xalqaro hujjatlarni qonun hujjatlarida berilgan tartibda ratifikatsiya qilmasak biz uchun majburiy ahamiyatga ega emas.

Inson qayerda tug‘ilishidan qat’iy nazar, har qanday davlatga ko‘chib borib, u yerda yashab shaxsiy huquq va erkinliklaridan foydalanishi mumkin hisoblanadi. Albatta, ko‘chib borishlar ham qonuniy yo‘l bilan amalga oshirilsagina uning huquqlari himoya qilinishi mumkin. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt”ning 13-moddasida esa

ushbu Paktda ishtirok etayotgan davlatlar qonuniy yo‘l bilan yashayotgan chet el fuqarosini faqatgina qonunga muvofiq chiqarilgan qaror ijro etilishi bilangina davlatdan chiqarilib yuborilishi mumkin. Ammo chet el fuqarosi chiqarib yuborilishiga qarshi dalillar taqdim etish va shu maqsadda ayni tegishli hokimiyat tomonidan maxsus tayinlangan shaxs yoki shaxslar qayta ko‘rib chiqishi hamda ushbu maqsadda ayni hokimiyat, shaxs yoki shaxslar huzuriga kirish huquqiga ega ekanligini belgilab qo‘yilgan.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 6-moddasida “Har bir inson qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zining huquqli subyekt sifatida tan olinishiga haqli” deb ko‘rsatilgan. Bundan tashqari “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt”ning 16-moddasida shunday norma mavjud bo‘lib, uning asosiy ma’nosi shaxs qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar jismoniy shaxsning huquq va erkinliklari davlatlar tomonidan ta’minlanishi kerak hisoblanadi. Ya’ni chet el fuqarosi davlatga kirib kelganda (qonuniy yo‘l bilan) uning barcha huquq va erkinliklari kirib borgan davlat tomonidan chet el fuqarosini huquqlarini ta’minlab berishi kerak.

Huquqshunos olim X.T.Odilqoriyev ta’kidlashicha, chet elliklarning huquqiy maqomi ularning o‘zlari yashab turgan davlatdagi shu davlatning inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquq normalarini inobatga olgan holda kafolatlangan huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari yig‘indisi kiradi [7; B.152.] — deb aytib o‘tgan.

Muhokama. O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida Qonuniga asosan; “**chet el fuqarosi”** — O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga va o‘zining boshqa davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo‘lgan shaxs [13], — deb tarif berilgan.

Ushbu prinsip orqali chet el fuqarosi o‘zining fuqaroligiga mansub bo‘lgan davlatning himoyalanish imkoniga egaligini yoki domisiliyani bildiradi. Ya’ni chet el fuqarosining buzilgan huquqlarini himoya qilish uchun, davlat uning nomidan huquqlarini himoya qilish maqsadida xalqaro normalar orqali uning huquqlarini ta’minlab beradi. Jahondagi ayrim davlatlar o‘z qonunchiligida ko‘p fuqarolikni cheklovsiz tan oladi va o‘z fuqarolariga cheklovsiz ko‘p fuqarolikka ega bo‘lish huquqini taqdim etish orqali inson huquqlari va beqiyos harakatlanish erkinligini kengaytirishga intiladi.

Xususan, ***Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Shvetsiya, Avstraliya, Braziliya va Argentina*** kabi mamlakatlarda fuqarolik masalasida erkinlik prinsipi ustuvor ahamiyat kasb etadi [15]. Bu davlatlarda fuqaro yangi fuqarolik qabul qilganini davlat organlariga xabar qilish majburiyatiga ega emas va qonunchilikda bir shaxsning **to‘rt yoki undan ortiq** fuqarolikka ega bo‘lishiga hech qanday huquqiy to‘siqlar mavjud emas.

Bu huquqiy holat xalqaro huquq va milliy qonunchilik darajasida katta ahamiyatga ega bo‘lib, chet el fuqarosining huquqiy maqomini belgilashda bir qator muhim muammolarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, ko‘p fuqarolik holatida shaxs qaysi davlat fuqarosi sifatida huquq va majburiyatlarga ega ekanligiga doir muammolar paydo bo‘ladi. Masalan, turli davlatlarda bir shaxsning fuqarolikka doir huquqiy maqomi turlicha talqin qilinishi mumkin, bu esa uning xalqaro munosabatlardagi maqomini aniqlashda murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ko‘p fuqarolik holatida diplomatik himoya va konsullik yordami masalalari yanada murakkablashadi. Xalqaro huquqda davlat faqat o‘z fuqarosini himoya qilish huquqiga ega bo‘ladi, ammo agar shaxs bir necha davlat fuqaroligiga ega bo‘lsa, qaysi davlat

uning manfaatlarini himoya qiladi, degan savol tug‘iladi. Bu masala “siyosiy fuqarolik” tamoyili va fuqaroning davlat bilan o‘zidagi real bog‘lanishini aniqlash talab qiladi.

Uchinchidan, ko‘p fuqarolik insonning shaxsiy erkinligini kengaytirish va globallashuv sharoitida harakatchanlik imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro mehnat migratsiyasi, ta’lim, tadqiqot va iqtisodiy faoliyatda ko‘p fuqarolik shaxslarga keng imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida, milliy va xalqaro qonunchilikni muvofiqlashtirish, fuqarolik tushunchasini qayta ko‘rib chiqish va yangi huquqiy mexanizmlar yaratish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Natijalar. Yuqorida yuridik adabiyotlar, xalqaro-huquqiy aktlar va chet el fuqarolarining huquqiy maqomini o‘rganish bilan bog‘liq chet el va milliy qonunchiligimizni o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyidagilarga alohida e’tibor qaratilishi lozim hisobladik:

1) shaxsning “huquqiy maqomi” deganda, avvalambor, ularning barcha huquq va majburiyatlari tushunilishi;

2) chet el fuqarosi deb, xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tan olingan davlatning fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxs tushunilishi lozimligi;

3) chet elliklar deb O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy va vaqtincha yashaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini dalil sifatida taqdim quluvchi asosi bo‘lmagan boshqa davlat fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushunilishi;

4) O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lib turgan bir yoki bir nechta boshqa davlatlar fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ega bo‘lgan huquq va erkinliklarga egaligidir, ularga milliy qonunchilik tatbiq qilinishi.

Biz bilamizki chet el fuqarolari boshqa davlatda bo‘lib turganida, uning huquqlari biron bir davlatning yurisdiksiyasida asossiz poymol qilinsa, shu davlat uchun ham xalqaro hujjatda berilgan prinsip va normalarni buzilishiga olib kelishi mumkin.

Chet elliklarning huquqiy maqomi deganda, chet el fuqarolarini uning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularga berilgan ustuvorlik va imtiyozlarning ta’minlashi, davlatning huquqiy makonida yashayotgan chet el fuqarolarini to‘liq huquqini ta’minlab berishi kerakligi nazarda tutiladi, shu bilan bir qatorda ularning javobgarligi ham xuddi shu tartibda amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Chet el fuqarolari davlatlarning qonun hujjatlariga amal qilishi kerak ekanligi, ularning an’analarini hurmat qilishi va boshqa majburiyatlarni bajarishga majburligi inobatga olingan.

Xulosa. Chet el fuqarolarining huquqiy maqomi — bu zamonaviy xalqaro va milliy huquq tizimlarida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy-huquqiy tushuncha bo‘lib, u chet el fuqarolarining huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, ularga berilgan imtiyozlar hamda ustuvorliklarni ta’minlash bilan bir qatorda, ularning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro huquq shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etish imkoniyatlarini to‘liq ta’minlash hamda javobgarlikka tortilishi bilan bir qatorda ijtimoiy majburiyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasida “Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan chet el fuqarosi tushunchasiga qo‘yidagicha o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: ***“Chet el fuqarosi —*** *O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lmagan, bir yoki bir nechta boshqa davlatlar fuqaroligiga mansubligi va tegishli huquqiy hujjatlarga ega bo‘lgan taqdirda, o‘z xohishi bilan bir davlat mansubligiga doir dalilni taqdim qilgan shaxs”*. Bu ta’rif chet el fuqarolarining huquqiy maqomini aniq belgilashda

muhim ahamiyat kasb etadi va huquqiy munosabatlarni to‘g‘ri tartibga solishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zero, chet el fuqarolarining davlat qonun hujjatlariga rioya etishi va milliy an’analarni hurmat qilishi ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi hamda huquqiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sanaladi. Shu tariqa, chet el fuqarolarining huquqiy maqomini to‘liq va mukammal tartibga solish inson huquqlarini himoya qilish, huquqiy barqarorlikni ta’minlash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1966 йил 16 дек. қабул қилинган «Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисида››ги халқаро Пакт // А.Х. Саидов. Международные конвенции по зашите прав человека и борьбе с преступностью. Т., 1995. –С.19-32;
2. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1966 йил 19 дек. қабул қилинган «Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида»ги халқаро пакт // А.Х. Саидов. Международные конвенции по зашите прав человека и борьбе с преступностью. Т., 1995. – С.33-58
3. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1985 йил 13 декабрда қабул қилинган «Яшаб турган мамлакат фуқаролигига эга бўлмаган шахсларга оид инсон ҳуқуқлари Декларация››си // А.Х.Саидов. Права человека. Т.1.-Т., 1995.- С.201 – 205
4. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар / Масъул муҳаррир А.Х.Саидов .-Т.,2022. Б-33
5. Маматқулов А. Халқаро ҳуқуқ – Т.: Адолат, 1997. Б.98
6. Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Е. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи: Дарслик.- Т.: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия ун-ти, 2000. – Б 120
7. Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Е. Халқаро оммавий ҳуқуқ: Олий ўқув юртлари учун Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик институти.- Т.: Адолат, 2007. – Б 152
8. Қаюмов Р.Қ. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи: Дарслик . – Т.: ИИВ Акад., 1997. –Б 129
9. Самиев И.В. Халқаро ва миллий меъёрлар бўйича чет элликларнинг ҳуқуқий ҳолати: миллий ва хорижий тажриба Диссертация Т.: - 2005 Б.47
10. Тузмухамедов Р.А., Хакимов РТ.Основы международного права – Т.: Мир экономики и права, 1998.-Б.56-58.
11. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // URL: https://lex.uz/docs/ 6445145
12. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида” ги Қонуни. // URL: https://lex.uz/docs/4193761
13. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида чет эл фуқароларининг ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг ҳуқуқий ҳолати тўғрисида” Қонуни // URL: https://lex.uz/docs/5443899
14. Юлдашева Г. Халқаро ҳуқуқ. Дарслик. -Т.: ТДЮИ, 2006 й. 221 б.
15. https://companies.rbc.ru/news/BqqhnEpsEM/v-kakih-stranah-vozmozhno-dvojnoe-grazhdanstvo-obzor-2025-goda/

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

PARTICIPATION OF LAWYERS IN ECONOMIC AND CIVIL PROCEEDINGS: ANALYSIS OF FOREIGN AND NATIONAL LEGISLATION

Tollibaeva Malika
Independent researcher at the Academy of Justice of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article provides a comprehensive legal analysis of the participation of lawyers in economic and civil proceedings based on a comparative study of foreign experience and the national legislation of the Republic of Uzbekistan. The research examines in detail the procedural status of lawyers, their rights and obligations, as well as their role in ensuring the protection of the rights and lawful interests of the parties. In particular, the article analyzes the practice of developed foreign countries, where the participation of lawyers in judicial proceedings is mandatory, their professional independence is guaranteed, and high professional standards are applied, and compares these approaches with the norms of national legislation. The article scientifically substantiates that the participation of lawyers in economic and civil cases is an important factor in ensuring the legality, validity, and fairness of judicial decisions. In addition, certain problems of the current legislation are identified and analyzed, including the limited scope of lawyers' powers and the недостаточность (insufficiency) of procedural guarantees for their activities. Based on the results of the study, scientifically grounded conclusions and proposals are formulated aimed at improving national legislation, expanding the procedural capabilities of lawyers, and increasing the effectiveness of judicial protection.

Keywords: attorney, economic litigation, civil litigation, judge, judicial protection, procedural guarantees, legislation.

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI: XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI

Tollibayeva Malika Ulmasjon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.
E-mail: malikatollibayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada advokatning iqtisodiy va fuqarolik protsessidagi ishtiroki masalasi xorijiy davlatlar tajribasi hamda O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda advokatning protsessual maqomi, huquq va majburiyatlari, shuningdek taraflarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi roli keng yoritiladi. Xususan, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda advokat ishtirokining majburiyligi, uning sud jarayonidagi mustaqilligi va professional standartlari tahlil qilinib, milliy qonunchilikdagi mavjud normalar bilan qiyosiy o‘rganiladi. Maqolada iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokat ishtiroki sud qarorlarining qonuniyligi va adolatliligini ta’minlashda muhim omil ekanligi ilmiy asoslanadi. Shuningdek, amaldagi qonunchilikda uchrayotgan ayrim muammolar, jumladan, advokat vakolatlarining cheklanganligi yoki protsessual kafolatlarning yetarli emasligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish, advokatning protsessual imkoniyatlarini kengaytirish va sud himoyasining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: advokat, iqtisodiy sud protsessi, fuqarolik sud protsessi, sudya, sud himoyasi, protsessual kafolatlar, qonunchilik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N24

Kirish. Iqtisodiy va fuqarolik sudlarida advokatning vakil sifatida qatnashishi qonun bilan kafolatlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi [1]

(IPK)ning 61-moddasiga koʻra, har bir shaxs (jismoniy yoki yuridik shaxs) sudda oʻz ishini shaxsan yoki vakil orqali yuritishi mumkin, hatto taraflar shaxsan qatnashganda ham vakil olish huquqidan mahrum etilmaydi. Demak, qonun taraflarga iqtisodiy sudda malakali vakil – xususan, advokat orqali qatnashish imkoniyatini beradi.

IPK va Fuqarolik protsessual kodeksi [2] (FPK) vakil sifatida qatnashishi mumkin boʻlgan subyektlar doirasini belgilab, advokatlarni ham shulardan biri sifatida e'tirof etadi. Ya'ni, qonunchilikka muvofiq, advokatlar, tarafning qarindoshlari yoki boshqa ishonchli shaxslar vakil sifatida ishda qatnashishlari mumkin. IPK 61-moddaning va boshqa me'yorlarga binoan quyidagi shaxslar esa vakil boʻla olmaydi: toʻliq muomala layoqatiga ega boʻlmagan shaxslar, sudyalar, tergovchilar, prokuratura xodimlari va sud devoni xodimlari, shuningdek muayyan ishga doir mediatorlar va boshqalar. Bunday cheklovlar vakillikni suiiste'mol qilish yoki manfaatlar toʻqnashuvining oldini olishga qaratilgan.

Advokatning iqtisodiy sudda vakil sifatida ishtirok etish huquqi nafaqat protsessual kodekslarda, balki maxsus qonunlarda ham mustahkamlangan. Jumladan, **"**Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida"gi Qonunning [3] 4-moddasiga muvofiq, advokatning muayyan ishni yuritish vakolati advokatlik orderi bilan tasdiqlanadi. Order – bu advokatga belgilangan tartibda berilgan rasmiy hujjat boʻlib, unda u ma'lum bir ish boʻyicha vakillik qilishga vakolatli ekani koʻrsatiladi. Shu tariqa, amaldagi qonunchilik advokatga iqtisodiy va fuqarolik ishlarda ishtirok etishi uchun maxsus ishonchnoma talab etmaydi, balki advokatlik orderi yetarli hisoblanadi. Oliy sud Plenumi qarorlarida ham advokat vakilligining ahamiyati va huquqiy negizlari qayd etilgan boʻlib, ushbu qarorlar sudlar uchun qoʻllanma vazifasini oʻtaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Advokatning iqtisodiy va fuqarolik protsessdagi ishtiroki masalasi huquq nazariyasida keng muhokama qilingan boʻlib, ushbu masalaga oid ilmiy yondashuvlar xorijiy va milliy olimlar ishlarida turlicha talqin etilgan.

Xorijiy huquqshunos olimlar orasida advokatning sud protsessdagi roli va protsessual maqomini oʻrganishga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, M. Kappelletti oʻzining fuqarolik sud ishlarini yuritishda adolatga yetishish konsepsiyasiga bagʻishlangan ishlarida [4] advokat ishtirokini sud himoyasining samaradorligini ta'minlovchi asosiy kafolat sifatida baholaydi. Uning fikricha, advokat ishtirokisiz taraflarning protsessual tengligi toʻliq ta'minlanmaydi. Bu borada A.Timoshenko [5] esa advokat professional ravishda ishonch bildiruvchi manfaatlarini himoya qilishi, protsessual huquqlarni nazorat qilishi va sud qarorlarining qonuniyligini ta'minlashda muhim rol ekanligini oʻz asarida keltirib oʻtgan. Zukkyerman [6]huquq tizimida fuqarolik protsessini isloh etish zaruratini belgilaydi va bu islohot faqatgina protsessual qoidalarni soddalashtirish bilan cheklanmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Unga koʻra, islohotlar jarayonida nizolarni hal qilishning samaradorligi va huquqqa kirish imkoniyatini oshirish uchun toʻliq strategiya yaratish muhimdir. Bu tezkor sud mexanizmlarini joriy etish, xarajatlarni nazorat qilish va huquqiy xizmatlarga teng kirishni ta'minlashni oʻz ichiga olishi kerak. Bu yondashuv advokatlarning protsessdagi rolini, qonunlarning aniq va samarali amal qilinishini ta'minlash bilan chambarchas bogʻliq degan xulosaga keladi. Shuningdek, oʻzbek olimlaridan M.Rustambayev, B.Salomovlar [7] advokatlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini, F.Otaxonov [8] yuridik xizmat va advokaturaning oʻzaro bogʻliqligini, Z.Esanova, D. Habibullayev va F.Ibratovalar [9] iqtisodiy va fuqarolik sudlarida advokatning vakil sifatidagi

ishtirokining ayrim jihatlarini, G.Tulyaganova va S.Qodiraliyevlar [10] advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordamlar tavsifini ma’lum darajada tadqiq etganlar.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus huquqiy metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez metodlari orqali advokatning protsessual maqomi, huquq va majburiyatlari tizimli ravishda o‘rganildi.

Qiyosiy-huquqiy metod asosida xorijiy davlatlarning iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarida advokat ishtirokiga oid qonun normalari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan solishtirib tahlil qilindi. Bu usul advokat faoliyatini tartibga solishdagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Muhokama. *Iqtisodiy va fuqarolik sud jarayonida advokat – vakilning vazifasi* tarafning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishdan iborat. Advokat da’vo arizasini tayyorlashda huquqiy asoslarni bayon etadi, dalillarni to‘plab, ularni sudga taqdim etadi hamda muhokama davomida taraf nomidan chiqish qiladi. Shu bilan birga, advokat protsessual qoidalarga rioya qilishini ta’minlaydi, tarafning protsessual huquqlaridan to‘liq foydalanishiga ko‘maklashadi. Masalan, advokat da’vogar nomidan da’voni asoslab beradi, javobgar tomon vakili sifatida esa da’voni rad etish uchun zarur huquqiy dalillar keltiradi, shu orqali ishni xolis hal etilishiga yordam beradi. Advokatning ishtirokidagi ishlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, da’vogarlar o‘z talablarini aniq va asosli qo‘yadi, javobgarlar esa o‘z e’tirozlarini dolzarb asoslar bilan bildiradi hamda dalillarni o‘z vaqtida taqdim etadi – bu esa ishlarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi. Demak, advokat ishda qatnashishi orqali sudya huquqiy jihatdan bahslarni to‘g‘ri baholashga va adolatli hal etishga zamin yaratadi.

Advokatning vakolatlari iqtisodiy protsessual qonunchilikda va maxsus qonunlarda batafsil belgilangan. IPK va FPKda sudda ish yuritish vakolati vakilga (shu jumladan advokatga) ishonch bildiruvchi shaxs nomidan barcha protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqini beradi. Boshqacha aytganda, advokat vakil sifatida ishonch bildiruvchi – taraf nomidan suddagi deyarli barcha harakatlarni bajarishi mumkin: da’vo arizasi yuborish, raddiyalar taqdim etish, dalillarni so‘rash va taqdim etish, guvohlarga savollar berish, iltimosnomalar berish, qarorlarga shikoyat qilish va h.k. Advokatning vakolati tegishli tartibda rasmiylashtirilgan order bilan tasdiqlangani uchun, u protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqlarga ega deb hisoblanadi. Shu orqali advokat sud muhokamasida to‘laqonli protsessual ishtirokchi maqomiga ega bo‘ladi va mijozi himoyasi uchun zarur bo‘lgan barcha harakatlarni amalga oshira oladi.

Shuni ta’kidlash joizki, qonunchilik advokatga umumiy tarzda keng vakolatlar bergan bo‘lsa-da, ayrim muhim protsessual harakatlar uchun maxsus vakolat (ishonchnoma) talab etiladi. Jumladan, IPK va FPKdagi tegishli normalarga muvofiq quyidagi harakatlar faqat ishonch bildiruvchi shaxs tomonidan beriladigan alohida ishonchnomaga asoslanib amalga oshirilishi mumkin: da’vo arizasini imzolash, da’vodan to‘liq yoki qisman voz kechish, da’vo talablarini kamaytirish yoki oshirish, kelishuv bitimi tuzish, taraflarga tegishli pul mablag‘larini olish, yuqori instansiya sud qarorlariga shikoyat qilish va boshqalar. Masalan, da’vo arizasini advokat imzolashi uchun unga ishonch bildiruvchi tomonidan shunday huquq berilgan notarial ishonchnoma ilova qilinishi shart (agar da’voni bevosita da’vogarning o‘zi imzolamagan bo‘lsa). Xuddi shu kabi kelishuv bitimi tuzish yoki da’vodan voz kechish ham advokatga alohida yozma vakolat berilgandagina amalga oshishi mumkin. Bu talablarning maqsadi – protsessda eng mas’uliyatli, ishonch bildiruvchi huquqlariga daxl qiluvchi harakatlarni faqat uning roziligi

bilan amalga oshirishni ta’minlashdir. Binobarin, advokat odatdagi holatlarda order asosida tarafning barcha huquqlaridan foydalanishi mumkin bo‘lsa, ayrim muhim protsessual qarorlarda u ishonch bildiruvchidan olingan ishonchnomaga suyanadi.

Advokatning ishdagi o‘rni va ahamiyati uning yuqorida ta’riflangan vazifa va vakolatlaridan kelib chiqadi. Advokat professional yuridik bilim va tajribaga ega shaxs sifatida, iqtisodiy nizolarda taraflar manfaatini malaka bilan himoya qiladi. Bu bir tomondan sudga dadillarni aniqlashda ko‘maklashsa, ikkinchi tomondan taraflarning huquq va majburiyatlari to‘g‘ri amalga oshirilishiga kafolat bo‘ladi. Advokat sudda vakil sifatida ishtirok etib, da’volarning ko‘rib chiqilishi sifatini oshiradi, chunki u protsessual tartibni yaxshi biladi va tarafning pozitsiyasini to‘g‘ri taqdim etadi. Shu tariqa, iqtisodiy sud ishlarida advokatning ishtiroki odil sudlov samaradorligini oshiradi, taraflar o‘rtasidagi mojarolarning qonuniy hal etilishiga xizmat qiladi va sud qarorlarining adolatli chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Amaldagi iqtisodiy va fuqarolik sud amaliyotida advokatning vakil sifatida ishtirok etishi bo‘yicha ayrim muammo va bahsli holatlar kuzatilgan. Eng ko‘p tarqalgan muammolardan biri – advokat vakolatini tasdiqlashdagi turlicha yondashuvlardir. Qonunchilikda order advokat vakolatini tasdiqlovchi yetarli hujjat deb belgilanganiga qaramay, ayrim holatlarda sudlarda va qarshi taraf vakillarida noto‘g‘ri tushuncha va talqinlar uchragan. Masalan, ba’zi sud amaliyotida advokatda ishonchnoma bo‘lmasa, u faqat “himoyachi” sifatida ishtirok etib, to‘liq vakillik huquqiga ega emas, degan qarashlar bo‘lgan. Shuningdek, ishonchnomasi yo‘q advokat taraf nomidan sudda tushuntirish berishga yoki qarshi tarafga savol berishga haqli emas, degan e’tirozlarni ham uchratish mumkin. Bunday yondashuvlar amalda qonun normalari va advokatning maqomiga to‘g‘ri kelmaydi, lekin ayrim sudlarga murojaat etayotgan taraflar yoki hatto ayrim sudyalar o‘rtasida shunday qarash mavjud bo‘lgan. Bu holatlar advokatlarning faoliyatiga asossiz to‘siq yaratib, tarafning huquqlarini cheklashi mumkin.

Yana bir amaliy muammo – advokat vakolatlarini hujjat bilan tasdiqlash masalasidagi farqlardir. Mazkur yo‘nalish bevosita yuqoridagi tushunmovchilik bilan bog‘liq: qonun bo‘yicha order yetarli bo‘lsa-da, ba’zi tashkilot yoki shaxslar advokatdan bevosita ishonchnoma taqdim etilishini talab qilishadi. Masalan, bank yoki boshqa muassasa manfaatida ish olib borayotgan advokatdan ayrim sudyalar ish boshlanishidayoq notarial tasdiqlangan ishonchnomani ko‘rsatishni so‘ragan holatlar bo‘lgan. Vaholanki, IPK 62-moddasi va FPK 68-moddasida advokatning vakolatlari qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanishi lozimligi qayd etilib, bu masala maxsus qonunlarga havola qilingan. Shu bois, ishonchnoma talab qilish amalda order instituti mohiyatiga ziddir. Bunday bahslar va turlicha yondashuvlar ayrim sud ishlari cho‘zilishiga, orderning huquqiy qiymati tushirilib yuborilishiga olib keladi.

Iqtisodiy sudlarning turli hududlardagi amaliyotida bir xil masalaga turlicha yondashuv kuzatilgan hollar ham mavjud. Masalan, ba’zi sudlar advokatning orderini qabul qilar ekan, uning barcha vakolatlarini tan oladi va protsessni olib boradi. Boshqa ba’zi sudlarda esa, order borligini tan olgan holda ham, muayyan harakatlar (jumladan, da’vo arizasini imzolash, apellyatsiya shikoyati kiritish) uchun ishonchnoma taqdim etilishini talab qilishadi. Bunday nomutanosiblik, asosan, qonun normalarini turlicha talqin qilish va ilgarigi sud amaliyoti tajribasi bilan bog‘liq.

Boshqa bir muammo, garchi kamroq kuzatilsa-da, advokatning protsessual huquqlaridan to‘liq foydalanishiga to‘siqlardir. Masalan, ba’zi iqtisodiy sud muhokamalarida advokatga so‘z bermaslik, unga savol berish imkonini cheklash kabi holatlar yuzaga kelgani

haqida xabarlar mavjud. Bu holatlar, odatda, yuqorida bayon etilgan “advokat faqat himoyachi, vakil emas” kabi noto‘g‘ri qarashlarning amaliy ifodasi bo‘lib, natijada advokat ishtirok etib turib, tarafning ayrim huquqlaridan foydalana olmasligiga olib keladi. Chunki qonunga ko‘ra advokat protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqlarga ega va ishonch bildiruvchi nomidan yoki uning manfaati uchun barcha kerakli harakatlarni qonuniy tarzda amalga oshirishga haqlidir. Shu bois, bu kabi to‘siqlar huquqni qo‘llash amaliyotini yaxshilash orqali bartaraf etilishi lozim.

Advokatning sud ishlarida vakil sifatida qatnashishi har bir davlatning protsessual qonunchiligiga bog‘liq ravishda turlicha tartibga solingan. O‘zbekiston qonunchiligida, yuqorida qayd etilganidek, advokatlik orderi vakolatni tasdiqlash uchun kifoya qiladi va advokat deyarli barcha protsessual harakatlarni amalga oshirishi mumkin (ayrim istisnolar bilan). Xorijiy tajribaga nazar solsak, qator mamlakatlarda protsessual vakillik instituti o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Masalan, Rossiya Federatsiyasida arbitraj sudlarida vakil sifatida qatnashish uchun *alohida rasmiy ishonchnoma talab etiladi*. Rossiyaning Arbitraj protsessual kodeksi [11] 61-moddasiga ko‘ra, arbitraj sudda ish yuritish bo‘yicha vakolatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan tasdiqlanishi lozim. Advokatning o‘ziga xos “order” tushunchasi bor bo‘lsa-da, u faqat jinoyat ishlarida himoyachi sifatida o‘tishi mumkin, fuqarolik va iqtisodiy ishlar uchun esa baribir ishonchnoma talab etiladi.

AQSH [12] va Buyuk Britaniya [13] kabi anglo-sakson huquq tizimiga mansub mamlakatlarda, odatda, tarafning sudda vakili faqat litsenziyalangan advokat (yuriskonsult) bo‘lishi mumkin. Masalan, AQShda shaxs o‘zi istisno holatlardagina sudda o‘zini o‘zi himoya qilishi mumkin, lekin boshqalarning nomidan faoliyat yuritish uchun albatta advokatlik litsenziyasi talab etiladi. Bunda ishonchnoma konsepsiyasi faqat moliyaviy yoki vakolatni umumiy berishga oid holatlarda mavjud; sud jarayonida esa advokat sudga o‘zini tarafning vakili sifatida rasman taqdim etishi orqali vakillik huquqini oladi. Ya’ni, anglo-sakson tizimida advokat vakil sifatida qatnashishi sud oldidagi majburiyatlar orqali tartibga solinadi, ishonchnoma kabi hujjatlarga emas.

Qozog‘iston [14] va Qirg‘iziston [15] kabi qo‘shni mamlakatlar tajribasi O‘zbekistonga yaqin, chunki ular ham postsovet protsessual tizim asosida ish yuritadi. Qozog‘istonning joriy Fuqarolik protsessual kodeksida vakillikni tasdiqlovchi hujjat sifatida ishonchnoma talab qilinadi va unda ba’zi vakolatlar alohida ko‘rsatilishi shart etib belgilangan. Lekin Qozog‘istonda ham advokat vakolatini tasdiqlovchi orderdan foydalanish amaliyoti bor, faqat u order bilan birga ishonchnoma taqdim etishni istisno etmaydi – aksincha, order advokatning maqomini ko‘rsatsa, ishonchnoma mijoz bilan munosabatini ko‘rsatadi.

Natijalar. Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish va advokatning iqtisodiy va fuqarolik sud ishlaridagi rolini mustahkamlash maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Qonunchilikka aniqlik kiritish va uni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish: IPK va FPKni takomillashtirib, unga vakilning (jumladan, advokatning) protsessdagi maqomi va huquqlarini ochiq bayon etuvchi o‘zgartishlar kiritish lozim. Masalan, IPKning 41-moddasiga vakilni ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida qo‘shish, shuningdek, vakolatlarni amalga oshirish shartlarini bir xil talqinda yozish taklifi qo‘llab-quvvatlanadi. Bunda IPK va FPK o‘rtasidagi barcha kelishmovchiliklarni bartaraf etish,

xususan “advokat ishonchnomasiz amalga oshiradigan huquqlar” va “ishonchnoma talab etiladigan harakatlar” bo‘yicha normalarni aniq bir xillashtirish zarur. Normativ uyg‘unlashtirish orqali sudlar va taraflar uchun qoidalar tushunarli va birma-bir ravon bo‘ladi.

2. Oliy sud tushuntirishlari va huquqni qo‘llashni birxillashtirish: Oliy sud Plenumi darajasida yoki huquqiy tushuntirish shaklida advokatning vakolatlari bo‘yicha yangilangan qaror qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Unda aniq tarzda: *“advokatlik orderi vakillik vakolatini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib, ishonchnoma talab qilinmaydi, faqat protsessual kodekslarda sanab o‘tilgan ayrim harakatlar uchun ishonchnoma kerak bo‘lishi mumkin”* degan mazmundagi qoidani bayon etish lozim. Bunday umumiy ko‘rsatma barcha sudlar uchun majburiy bo‘lib, amaliyotda turlicha talqinlarni yo‘q qiladi. Shu bilan birga, Oliy sud o‘zining iqtisodiy sudlarga doir qarorlarida advokat ishtirokini har doim qo‘llab-quvvatlashi va uning teng huquqliligini ta’kidlab borishi darkor. Bu sudyalar ongida ham bir xil tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.
3. Advokatlik orderi tizimini takomillashtirish: Amalda advokatlar Advokatlar palatasi tomonidan berilgan maxsus blank orderlardan foydalanishadi. Orderning elektron reyestrini yaratish, uni sudlar bilan integratsiya qilish taklif etiladi. Masalan, elektron Ye-SUD tizimida advokatlar uchun alohida ro‘yxatdan o‘tish va order ma’lumotlarini kiritish imkoniyatini yaratish mumkin. Shu orqali sudyalar advokatdan qo‘shimcha hujjat talab qilmasdan, elektron tizim orqali uning orderini va vakolat doirasini tasdiqlay oladilar. Bu bir tomondan qog‘ozbozlikni kamaytiradi, ikkinchi tomondan esa order suiiste’mol qilinishi yoki soxtalashtirilishi xavfini pasaytiradi.
4. Sudyalar va ishtirokchilar uchun ma’rifiy ishlarni oshirish: Advokat vakolati va vakillik instituti bo‘yicha sudyalar, sud xodimlari va hatto keng jamoatchilikka mo‘ljallangan qo‘llanmalar va seminarlar o‘tkazish zarur. Sudyalar malaka oshirish kurslari doirasida mazkur mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish, odatdagi xato talqinlar va ularning qonuniy yechimlarini muhokama qilish foydali bo‘ladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari va boshqa foydalanuvchilar uchun Adliya vazirligi yoki Advokatlar palatasi tomonidan broshyuralar chiqarilib, advokat qanday holatda qanday hujjat bilan ish tutishi kerakligi tushuntirilsa, ular ham o‘z haq-huquqlarini yaxshi anglab, sud jarayonida to‘g‘ri talab qila oladilar.
5. Vakolatli harakatlar cheklovini qayta ko‘rib chiqish: Qonunchilikni takomillashtirish nuqtai nazaridan bahs qilish mumkin bo‘lgan mavzu – advokatning ayrim harakatlari uchun ishonchnoma talab etilishi masalasidir. Amalda hozircha da’vo arizasini imzolash, sulh tuzish, da’vodan voz kechish kabi harakatlar uchun alohida ishonchnoma talab etiladi. Lekin, nazariy jihatdan, advokatga beriladigan orderning o‘zida yoki shartnomada ishonch bildiruvchi bunday vakolatlarni berishi mumkinligi qayd etilsa, notarial ishonchnomaga ehtiyoj qolmasligi mumkin. Masalan, yuridik yordam ko‘rsatish shartnomasini imzolanar ekan, ishonch bildiruvchi unga muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqini ham berayotgani ko‘rsatilishi mumkin. Qonunchilikda shunday mexanizm joriy etilsa, protsess yanada osonlashadi – taraflar notariusga borib ishonchnoma qilish o‘rniga, advokat bilan shartnomaning o‘zi orderga ilova bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, bu masala bahsli bo‘lishi mumkin va har

ikki tomonning manfaatlarini hisobga olish kerak, biroq shu yo‘nalishda muhokamalar olib borish advokat vakilligining kelgusidagi rivoji uchun muhim.

6. Xorijiy tajribadan o‘rganish va tatbiq etish**:** Yuqorida ko‘rib chiqilgan xorijiy tajriba asosida, tegishli tartiblarning ijobiy jihatlarini qabul qilish mumkin. Masalan, faqat litsenziyali advokatlar iqtisodiy sudlarda ishtirok etishi talabini joriy etish haqidagi munozarani ko‘rib chiqish mumkin. Ya’ni, muayyan yirik summadagi yoki nizo murakkab bo‘lgan ishlarda advokat ishtirokisiz taraflar sudda qatnasha olmasligi tortishuvchanlik prinsipini ishga tushiradi.

Xulosa. Iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarida advokatning vakil sifatidagi ishtiroki nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham juda katta ahamiyatga ega. Mavjud qonunchilik asosan yetarli huquqiy kafolatlarni bergan bo‘lsa-da, uni amalda to‘g‘ri qo‘llash va ba’zi jihatlarini takomillashtirish talab etiladi. Yuqorida keltirilgan takliflarni amalga oshirish orqali advokat vakilligining samaradorligini yanada oshirish, iqtisodiy sudlarda odil sudlovni mustahkamlash mumkin. Zamon talablari va yuridik amaliyot rivoji shuni ko‘rsatmoqdaki, advokat instituti qancha kuchli va tartibga solingan bo‘lsa, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari shunchalik ishonchli himoya qilinadi. Advokatning vakil sifatida sud jarayonlarida faol ishtirok etishi yesa aynan shunday himoyaning muhim tarkibiy qismidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекси.
2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодекси.
3. Ўзбекистон Республикаси “Адвокатлик фаолиятининг кафолатлари ва адвокатларнинг ижтимоий ҳимояси тўғрисида”ги Қонуни.
4. Cappelletti M. & B. Garth — Access to Justice – Oxford Academic / NCJRS Virtual Library. https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/access-justice-vol-2-promising-institutions?
5. Тимошенко А. А., Хашаева Д. А. ПРОЦЕССУАЛЬНАЯ РОЛЬ АДВОКАТА В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ // Научные высказывания. 2024. №9 (56). С. 70-73. УРЛ: ҳттпс://нвжоурнал.ру/артисле/ПРОЦЕССУАЛНАЖа РОЛ АДВОКАТА В ГРАЗҳДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ
6. Zuckerman A. A. S (ed.), Reform of Civil Procedure: Essays on ‘Access to Justice’ — Oxford University Press (Clarendon Press, 1995). https://academic.oup.com/book/50736?__cf_chl_tk=7zlPSG_hdQPPMqrUk99ZAQHWiGqbHYIpCE.o0MOJoh4-1767018705-1.0.1.1-ж82д85бҲОп1ВслокОдвомаКЕжПмЙв9и6ГЙБХРВвТ3КА
7. Ўзбекистон Республикасида адвокатлик фаолияти. Муаллифлар жамоаси // Масъул муҳаррирлар М.Х.Рустамбоев., Б.Саломов. Дарслик. ИИ жилд. – Т: Консаудитинформ нашриёти, 2007. – 469 б.
8. Отахонов Ф.Х. Юридик хизматнинг назарий-ҳуқуқий муаммолари Монография. – Т.: 2019. – 290 б.
9. Иқтисодий процессуал ҳуқуқ. Дарслик. Муаллифлар жамоаси // Масъул муҳаррир З.Н.Эсанова. – Т: ТДЮУ нашриёти, 2018. – 518 б.
10. Қодиралиев С.Б. Адвокатура институтининг ташкилий-ҳуқуқий масалалари. Ўқув қўлланма. – Т: ТДЮУ нашриёти, 2023. – 193 б.
11. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_37800/
12. https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2023 title28/html/USCODE-2023-title28-partV-chap11 1

13. https://www.justice.gov.uk/courts/procedure-rules/civil
14. https://cbd.minjust.gov.kg/3-29/edition/1261675/ru
15. https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000375

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

IMAGE-BASED SEXUAL VIOLENCE IN UZBEKISTAN: ASSESSMENT OF EXISTING LEGISLATION AND WAYS TO IMPROVE IT

Normurodova Aziza Azimjon qizi
Doctoral student at the law Enforcement Academy

Abstract. This paper examines the features of legal regulation of image-based sexual violence in the Republic of Uzbekistan. It analyzes both criminal and civil legislation, identifying its limitations and gaps in addressing modern forms of digital violence. Particular attention is given to Article 141^3 of the Criminal Code, as well as the potential application of Article 139 in cases involving the distribution of deepfakes and photo manipulation. The study highlights the need to adopt a more flexible and comprehensive approach, similar to international practices (e.g., legislation in the United Kingdom and Germany), which would cover not only the distribution but also the creation, repeated dissemination of images, and the liability of online platforms. In addition, the advantages of civil protection for victims are explored, particularly the possibility of claiming moral damages, compensation for losses, and prompt response to unlawful actions without the need to initiate a criminal case.

Keywords: image-based sexual violence, sexual deepfake, civil protection, sexual images, sexual photoshopped images.

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Нормуродова Азиза Азимжон кизи
докторант Правоохранительной Академии Республики Узбекистан

Аннотация. В данной работе рассматриваются особенности правового регулирования сексуального насилия с использованием изображений в Республике Узбекистан. Анализируется уголовное и гражданское законодательство, выявляются его ограничения и пробелы в части охвата современных форм цифрового насилия. Особое внимание уделяется статье 141^3 Уголовного кодекса, а также возможности применения статьи 139 в случаях распространения дипфейков и фотомонтажей. Отмечается необходимость внедрения более гибкого и широкого подхода, аналогичного зарубежной практике (например, законодательству Великобритании и Германии), который позволил бы учитывать не только распространение, но и создание изображений, их повторное распространение, а также ответственность интернет-платформ. Кроме того, раскрываются преимущества гражданско-правовой защиты пострадавших, в частности возможность взыскания морального вреда, компенсации убытков и оперативного реагирования на противоправные действия без необходимости возбуждения уголовного дела.

Ключевые слова: сексуальное насилие с использованием изображений, сексуальный дипфейк, гражданская защита, сексуальные изображения.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N25

В настоящее время сексуальное насилие с использованием изображений является одним из наиболее распространённых преступлений, совершаемых в отношении женщин по всему миру. С целью противодействия данному явлению многие государства вносят изменения в национальное законодательство. В частности, усиливается

уголовно-правовое регулирование — предусматривается криминализация такого рода деяний. Наряду с этим совершенствуется и гражданское законодательство, предоставляющее пострадавшим возможность получить компенсацию за причинённый моральный и (или) материальный вред.

При этом подходы государств к правовому регулированию данного вида насилия различаются. Некоторые страны не принимают специальные законы, а адаптируют уже существующие правовые нормы под особенности сексуального насилия на основе изображений. В то же время другие государства разрабатывают и принимают отдельные нормативно-правовые акты, которые прямо регулируют ответственность за сексуальное насилие с использованием изображений и учитывают специфику данных посягательств.

В числе государств, предпринимающих шаги по усилению правового реагирования на сексуальное насилие с использованием изображений, находится и Республика Узбекистан. В 2023 году в Уголовный кодекс была введена статья 141^3, устанавливающая ответственность за разглашение сведений, ущемляющих честь и достоинство личности и затрагивающих интимную сторону жизни человека. Данная норма направлена на криминализацию сексуального насилия с использованием изображений [1]

В соответствии со статьёй 141^3, уголовно наказуемыми признаются действия, связанные с распространением информации, включающей фото- или видеоматериалы, изображающие обнажённое тело либо половые органы человека без его согласия. Уголовная ответственность наступает как за фактическое распространение таких материалов, в том числе через средства массовой информации, телекоммуникационные сети или в сети Интернет, так и за угрозу их распространения.

При изучении научных работ исследовательницы Clare McGlynn [2], было установлено что уголовное законодательство, направленное на криминализацию сексуального насилия с использованием изображений, должно опираться на ряд ключевых принципов.

Во-первых, такое законодательство должно быть ясным, чётким и понятным как для сотрудников правоохранительных органов, так и для жертв и потенциальных правонарушителей. Это важно для того, чтобы все участники процесса точно понимали, какие действия являются нарушением закона, а какие — нет. Чёткие формулировки помогают избежать разных трактовок и ошибок при применении закона. Кроме того, понятное законодательство способствует тому, чтобы люди осознавали последствия своих поступков и заранее знали об ответственности, которая может наступить за совершение таких действий.

Во-вторых, законодательство должно в полной мере охватывать проблему сексуального насилия с использованием изображений. Однако на практике многие страны ограничиваются лишь частичным или ситуативным регулированием данной формы насилия. В ряде случаев законы подробно описывают, какие конкретные действия считаются сексуальным насилием с использованием изображений, и тем самым оставляют за рамками другие, не менее вредоносные формы. В результате те деяния, которые прямо не указаны в законе, не признаются преступными, и виновные лица избегают ответственности.

Для более эффективной защиты пострадавших некоторые государства выбирают более гибкий и широкий подход. Так, например, в законодательстве Великобритании используется критерий разумного человека, согласно которому изображение считается сексуальным, если оно демонстрирует то, что разумный человек счёл бы сексуальным по своей природе, либо если всё содержание изображения в целом воспринимается как сексуальное [3]. Такой подход позволяет толковать закон не формально, а с учётом контекста, цели распространения изображения и характера причинённого вреда пострадавшему.

В законодательстве Республики Узбекистан также сохраняется тенденция частичного охвата проблемы сексуального насилия с использованием изображений. В частности, статья 141^3 Уголовного кодекса устанавливает ответственность за распространение изображений, затрагивающих интимную сторону жизни человека, включая фото- и видеоматериалы, изображающие обнажённое тело или половые органы без согласия лица. Однако такая формулировка охватывает лишь ограниченный круг случаев и не отражает всего спектра форм сексуального насилия с использованием изображений, которые могут причинять моральный вред пострадавшим.

Таким образом, данная норма не обеспечивает полного охвата проблемы и не гарантирует эффективной правовой защиты во всех ситуациях, связанных с распространением интимного контента. В связи с этим представляется целесообразным внедрение в уголовное законодательство Республики Узбекистан более гибкого и широкого подхода, аналогичного применяемому в законодательстве Великобритании.

Использование критерия "разумного человека" при оценке характера изображений позволяет учитывать не только содержание изображения, но и контекст его распространения, а также восприятие со стороны общества. Такой подход обеспечит более полное и справедливое реагирование на разнообразные формы цифрового сексуального насилия и позволит привлечь к ответственности лиц, действия которых пока остаются вне сферы уголовного преследования.

Введение более гибкой правовой модели будет способствовать не только улучшению правовой защиты пострадавших, но и повышению эффективности работы судов и следственных органов, поскольку предоставит им возможность рассматривать конкретные дела с учётом обстоятельств, а не ограничиваться строго формализованным перечнем действий. В долгосрочной перспективе это станет важным шагом в направлении совершенствования уголовного законодательства и повышения уровня защиты прав человека в цифровую эпоху.

В-третьих, законодательство, направленное на криминализацию сексуального насилия с использованием изображений, должно охватывать не только их распространение, но и сам факт создания таких материалов. Современная цифровая реальность породила множество способов незаконного создания сексуальных изображений без согласия изображаемого лица. Несмотря на то, что распространение сексуальных изображений уже признаётся во многих странах преступным деянием, сам процесс создания таких изображений также может причинить серьёзный вред пострадавшим.

Особую тревогу вызывает тот факт, что в настоящее время изображения сексуального характера всё чаще создаются с использованием как технических средств,

так и цифровых технологий [4]. К числу технических средств относятся, в частности, скрытые камеры и иные устройства скрытой фиксации изображения. Одновременно активно применяются цифровые технологии, такие как цифровой монтаж и технологии искусственного интеллекта.

Например, с использованием программного обеспечения создаются дипфейки (deepfakes) — синтетические аудиовизуальные материалы, при которых лицо реального человека накладывается на изображение чужого тела в сексуализированном контексте, а также фотошоп-коллажи, формирующие образ обнажённого человека либо изображающие его в компрометирующей позе. При этом пострадавшее лицо в действительности не участвовало в съёмке и не давало согласия на использование своего изображения.

Несмотря на отсутствие реального события, последствия подобных действий оказываются разрушительными, поскольку они наносят существенный ущерб репутации, психическому состоянию и социальной жизни потерпевшего.

Законодательство Республики Узбекистан должно учитывать подобные формы создания сексуальных изображений как самостоятельные противоправные действия, представляющие угрозу для чести, достоинства и частной жизни личности. Без соответствующего регулирования такие деяния остаются безнаказанными, несмотря на их реальный вред.

Следует отметить, что статья 141^3 Уголовного кодекса Республики Узбекистан устанавливает уголовную ответственность исключительно за распространение сексуальных изображений, а также за угрозу их распространения без согласия лица. Вместе с тем данная норма не охватывает действия по созданию изображений интимного характера, что свидетельствует о наличии существенного пробела в правовом регулировании.

При этом общественная опасность создания таких изображений, как правило, является менее значительной по сравнению с их распространением, поскольку основной вред правам и законным интересам личности причиняется именно на этапе доведения соответствующих материалов до третьих лиц. В связи с этим представляется целесообразным предусмотреть административную ответственность за создание изображений сексуального характера без согласия изображаемого лица. В то же время в случаях, когда создание таких изображений повлекло тяжкие последствия обоснованным является установление уголовной ответственности за соответствующие деяния.

Кроме того, на практике нередко возникают случаи, когда лицо, создающее такие изображения, и лицо, их распространяющее, не совпадают. Они могут действовать совместно или независимо друг от друга, и при этом уголовное законодательство охватывает лишь одно звено в цепочке цифрового насилия — распространителя. Это препятствует привлечению к ответственности всех участников противоправного деяния.

В связи с этим представляется необходимым дополнить законодательство Республики Узбекистан нормой, предусматривающей ответственность не только за распространение, но и за создание сексуальных изображений без согласия лица. Такой подход позволит обеспечить более полную защиту пострадавших, а также адекватно

реагировать на современные вызовы, связанные с развитием технологий, и обеспечить надлежащее наказание всем участникам противоправного процесса.

В-четвертых, закон должен предусмотреть привлечение к ответственности как первичных, так и последующих распространителей сексуальных изображений. Законодательство многих стран, криминализирующее сексуальное насилие на основе изображений, в основном направлены на привлечение к ответственности только тех лиц, которые впервые разместили сексуальные изображения. Однако, по мнению многих исследователей, включая Clare McGlynn [5], проблема сексуального насилия на основе изображений заключается не только в первичном размещении контента, но и в его последующем распространении другими людьми. И не важно это происходит через интернет, через специальные сети или на бумаге. При этом не имеет значения, видел ли человек изображение ранее или нет: каждая пересылка всё равно является частью проблемы. Поддерживая мнение Clare McGlynn, Дерек Бамбауэр отмечает, что в случаях сексуального насилия на основе изображений наибольший вред, как правило возникает именно из-за широкого распространения изображений [6].

По нашему мнению, привлечение к ответственности как первичных, так и последующих распространителей имеет свои положительные и отрицательные стороны. С одной стороны, привлечение их к уголовной ответственности позволило бы более эффективно защищать права пострадавших и сдерживать дальнейшее распространение таких изображений. Однако, с другой стороны, это может привести к чрезмерному количеству уголовных дел, поскольку каждое лицо, переславшее изображение, будет автоматически подпадать под уголовное наказание.

Для решения этой проблемы предлагается разграничивать степень ответственности. Уголовная ответственность может применяться к тем, кто осознанно или намеренно распространяет изображения с целью нанесения вреда жертве. Для вторичных распространителей возможно введение иных мер – например, привлечение к административной ответственности и назначение обязательства удалить материалы. Такой подход позволит защитить права пострадавших и одновременно избежать чрезмерной уголовной репрессии.

В-пятых, законодательство, направленное на криминализацию сексуального насилия с использованием изображений, должно учитывать не только действия отдельных лиц, создающих или распространяющих такой контент, но и ответственность онлайн-платформ и веб-сайтов, которые допускают размещение материалов сексуального характера без согласия изображённых лиц. Подобный подход уже реализован в некоторых зарубежных юрисдикциях. Так, в Германии был принят специальный нормативно-правовой акт — Netzwerkdurchsetzungsgesetz [7] (сокращённо — NetzDG), который возложил на социальные сети, в том числе Facebook Germany, обязательство оперативно реагировать на жалобы пользователей о противоправном контенте. Согласно этому закону, платформы обязаны удалять или блокировать незаконные публикации, включая материалы сексуального характера, в течение 24 часов с момента получения жалобы. В противном случае к ним могут быть применены значительные штрафные санкции. Этот пример демонстрирует важность законодательного регулирования ответственности не только авторов и

распространителей контента, но и самих цифровых платформ, на которых этот контент размещается.

Наличие специальной уголовной нормы, направленной на борьбу с сексуальным насилием с использованием изображений, позволяет ясно и чётко обозначить, что такие действия являются недопустимыми. Эта норма показывает обществу, что распространение или создание сексуальных изображений без согласия — это нарушение закона, за которое предусмотрена уголовная ответственность. Кроме того, наличие такой нормы играет важную профилактическую роль, так как предупреждает возможных нарушителей о наказании и помогает предотвратить совершение подобных преступлений.

Следует отметить, что помимо применения уголовно-правовых механизмов, жертвы сексуального насилия на основе изображений могут обращаться к средствам гражданско-правовой защиты. Преимущество гражданского иска заключается в том, что он предоставляет пострадавшей больше контроля над процессом: для начала производства не стоит обращаться в правоохранительные органы и убеждать их в серьёзности инцидента. В рамках гражданского судопроизводства ключевое внимание уделяется действиям ответчика – таким, как нарушение неприкосновенности частной жизни, право на изображение и др. Результатом гражданского иска может стать присуждение значительной денежной компенсации, что зачастую оказывает более прямое и ощутимое воздействие на восстановление нормальной жизни пострадавшей.

В статье 99 Гражданского Кодекса Республики Узбекистан установлено, что честь и достоинство личности, неприкосновенность частной жизни и право на изображение являются неотъемлемыми и неприкосновенными. В развитие этой нормы статья 100 Гражданского Кодекса предусматривает, что гражданин имеет право требовать в судебном порядке опровержения сведений, порочащих его честь, достоинство или деловую репутацию. Более того, лицо, в отношении которого были распространены такие сведения, вправе наряду с их опровержением требовать возмещения понесенных убытков и компенсации морального вреда [8].

Вывод. Проведённый анализ показывает, что действующее законодательство Республики Узбекистан в области противодействия сексуальному насилию с использованием изображений требует существенного совершенствования. Статья 141^3 охватывает лишь ограниченный круг ситуаций, касающихся распространения интимных изображений, оставляя за рамками такие важные аспекты, как их создание, повторное распространение и ответственность цифровых платформ. Введение гибких правовых механизмов, учитывающих современные технологии (в том числе дипфейки и фотомонтажи), а также разграничение степени вины различных распространителей, позволило бы создать более полную и справедливую систему защиты. Кроме того, активное применение гражданско-правовых средств защиты усиливает возможности пострадавших в защите своей чести, достоинства и частной жизни. Таким образом, комплексный подход — объединение уголовной и гражданской ответственности, а также установление обязанности цифровых платформ — представляется наиболее эффективным решением в условиях цифровой эпохи.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Уголовный Кодекс Республики Узбекистан https://lex.uz/docs/111457

2. Clare McGlynn, “Image-Based Sexual Abuse,” Oxford Journal of Legal Studies 37, no. 3 (2017): 534–561, https://doi.org/10.1093/ojls/gqw033.
3. https://www.gov.uk/government/publications/revengeporn?utm_source=chatgpt.com
4. Henry, N., McGlynn, C., Flynn, A., Johnson, K., Powell, A., & Scott, A. J. (2020). Image-based sexual abuse: A study on the causes and consequences of non-consensual nude or sexual imagery (1st ed.). Routledge. https://www.routledge.com/Image-Based-Sexual-Abuse-A-Study-on-the-Causes-and-Consequences-of-Non-Consensual/Henry-McGlynn-Flynn-Johnson-Powell-Scott/p/book/9780367074994
5. Clare McGlynn, “Image-Based Sexual Abuse,” Oxford Journal of Legal Studies 37, no. 3 (2017): 534–561, https://doi.org/10.1093/ojls/gqw033
6. Bambauer, D. E. (2014). Exposed. Minnesota Law Review, 98, 2025–2102. Retrieved from https://scholarship.law.umn.edu/mlr/326
7. https://www.bmj.de/SharedDocs/Downloads/DE/Gesetzgebung/BGBl/BGBl_NetzDG.html?utm_source=chatgpt.com
8. Гражданский Кодекс Республики Узбекистан https://lex.uz/docs/111181

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

INTERPRETATION OF CONCEPTS RELATED TO DIGITAL PLATFORMS

Abdullaeva Parvina Baxrilloyevna
PhD Student at the Academy of Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article interprets some key concepts related to employment on the digital platform, studies related foreign experience, and suggests strengthening these concepts in legislation.

Keywords: e-commerce, e-commerce operator, e-commerce platform.

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG‘LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI

Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tayanch doktoranti
E-mail: parvina.abdullayeva.99@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli platformadagi bandlik bilan bog‘liq ayrim asosiy tushunchalar talqin qilingan, bu bilan bog‘liq xorijiy tajriba o‘rganilgan va qonunchilikda bu tushunchalarni mustahkamlash bilan bog‘liq takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, elektron tijorat operatori, elektron savdo platformasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N26

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichi xo‘jalik jarayonlarini jadal raqamlashtirish bilan tavsiflanib, bu aholining bandligini ta’minlashning tubdan yangi shakllarini, jumladan platformaviy bandlikni shakllantirdi. Mazkur bandlik shakli elektron savdo va xizmat ko‘rsatish platformalari orqali amalga oshiriladi. Ushbu sharoitda elektron tijorat faqat fuqarolik-huquqiy muomalalar sohasi bo‘lib qolmay, balki tobora ko‘proq mehnat faoliyatini amalga oshirishning institutsional muhiti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa uni kompleks huquqiy tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda elektron savdo jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2024-yilda global elektron tijorat bozori hajmi 6,3 trillion AQSH dollaridan oshib, onlayn-sotuvning jahon tovar aylanmasidagi ulushi 22 foizdan ko‘proqni (taxminan 286 milliard AQSH dollari) tashkil etdi.

O‘zbekistonda ham ushbu sektor jadal o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda.

So‘nggi sakkiz yilda mamlakatimizda elektron tijorat hajmi 20 barobarga oshib, 1,3 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu esa taxminan 750 mingta yangi ish o‘rinlari yaratilishiga imkon berdi. Natijada, davlat byudjetiga har yili qo‘shimcha ravishda 200 milliard so‘m tushum kelmoqda [1]

Bugungi kunda O‘zbekistonda 100 dan ortiq milliy elektron tijorat maydonlari (marketpleyslar) faoliyat yuritmoqda, jumladan: Uzum, Sello, ZoodMall va boshqalar.

Shuningdek, mamlakat bozorida Wildberries va Wolt kabi yirik xalqaro platformalar ham muvaffaqiyatli ishlab kelmoqda. Ular O‘zbekistonda yuridik shaxs yoki vakolatxona sifatida rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan.

O‘zbekistonda chakana savdoda elektron tijorat ulushi hozirda taxminan 4% ni tashkil etmoqda, bu esa jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan (22%) besh barobar past.

Shu bilan birga, o‘sish salohiyati ham hanuz katta qolmoqda: 2024-yil yakuniga ko‘ra elektron tijorat bozori hajmi 13,2 trillion AQSH dollariga (taxminan 1 trillion dollari AQSH) yetishi kutilmoqda. Bu esa barqaror ijobiy dinamikani tasdiqlaydi [1]

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi PQ–381-son qaroriga asoslangan holda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 885-son “O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori davlatning raqamli platformalarni tartibga solishdagi yondashuvi o‘zgarayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Xususan, iqtisodiy-texnik yondashuvdan ijtimoiy-huquqiy yondashuvga o‘tilishi, platformalar faoliyati, orqali band bo‘lgan shaxslarning mehnati, daromadlari va huquqiy himoyasi masalalariga e’tibor qaratilmoqda.

Muhokama va takliflar. Raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan mehnat faoliyati — kuryerlik xizmati, yo‘lovchilar tashish, onlayn xizmatlar ko‘rsatish, raqamli mahsulotlar tarqatish kabi sohalarda bandlikning yangi shaklini vujudga keltirmoqda. Biroq platformaviy bandlikni samarali ta’minlashdan oldin uning huquqiy asoslarini aniq va tizimli ravishda mustahkamlash zarur. Xususan, raqamli platforma qanday huquqiy maqomga ega ekani, platforma orqali ishlayotgan shaxsning huquqiy holati, shuningdek, platforma, ijrochi va iste’molchi o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati qonunchilikda aniq belgilanmas ekan, platformaviy bandlikni qonuniy, barqaror va ijtimoiy jihatdan himoyalangan shaklda rivojlantirish imkoniyati cheklangan bo‘lib qolaveradi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, ayniqsa “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunda platformaviy bandlik bilan bevosita bog‘liq tushuncha va institutlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Raqamli platformalarda bandlikni ta’minlashning huquqiy asoslari — elektron tijorat tushunchasi bilan mazmunan va huquqiy jihatdan uzviy bog‘liq hisoblanadi, chunki raqamli platformalarning katta qismi elektron tijorat muhitida faoliyat yuritadi va aynan shu muhit platformaviy bandlik vujudga keladigan asosiy makonni tashkil etadi. Elektron tijorat mazkur munosabatlar uchun iqtisodiy va huquqiy muhit sifatida namoyon bo‘lsa, raqamli platforma ushbu muhitda faoliyat yurituvchi tashkiliy-texnologik vosita hisoblanadi, platformalarda band bo‘lgan shaxslar esa elektron tijorat munosabatlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi subyektlar sifatida qatnashadi. Elektron tijorat tushunchasida asosiy e’tibor masofaviy faoliyatga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga hamda mulkiy huquq va majburiyatlarning vujudga kelishiga qaratilgan bo‘lib, raqamli platformalarda bandlik munosabatlarida ham ish yoki xizmat masofadan turib bajariladi, platforma axborot tizimi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi va ijrochi mehnati natijasida haq to‘lash, komissiya undirish, javobgarlik kabi mulkiy talablar shakllanadi.

Elektron tijorat munosabatlari mehnat munosabatlari yoki ularga yaqin bo‘lgan munosabatlar bilan kesishadi va o‘zaro chambarchas bog‘lanadi. Elektron tijorat ishtirokchilari sifatida odatda sotuvchi, xaridor va vositachi sifatida platforma ko‘rsatiladi, raqamli platformalar sharoitida esa platforma elektron tijoratni tashkil etuvchi va boshqaruvchi

subyekt sifatida namoyon bo‘ladi, ijrochi (kuryer, haydovchi, frilanser va boshqalar) elektron bitimni amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi, buyurtmachi esa xaridor sifatida qatnashadi, shu sababli platformaviy ishchilarni elektron tijorat munosabatlaridan ajratib qarash mumkin emas.

Mazkur bog‘liqlik o‘rganilayotgan mavzu uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki elektron tijorat to‘g‘risidagi qonunchilik raqamli platformalar orqali tashkil etiladigan bandlikning huquqiy asosini bilvosita shakllantiradi, elektron tijorat tushunchasining keng yoki tor talqin qilinishi platformalarda ishlayotgan shaxslarning huquqiy maqomiga bevosita ta’sir qiladi, elektron tijorat faqat savdo faoliyati sifatida qabul qilingan taqdirda platformaviy mehnat huquqiy tartibga solish doirasidan chetda qolishi mumkin, aksincha elektron tijorat raqamli faoliyatning mustaqil shakli sifatida qaralganda platformaviy ishchilarni huquqiy himoya qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu ma’noda elektron tijorat munosabatlari raqamli platformalar faoliyat yuritadigan asosiy huquqiy muhitni tashkil etadi va elektron tijoratning qonuniy ta’rifi hamda uning qamrov doirasi raqamli platformalar orqali shakllanadigan bandlik munosabatlarining huquqiy tabiatini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shuningdek, elektron tijorat tushunchasi amaldagi qonunchilikda tor doirada belgilanishi uni faqat tadbirkorlik faoliyati doirasida elektron savdo maydonchasi orqali tuziladigan oldi-sotdi bitimlari bilan cheklab qo‘yadi. Bunday yondashuv axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib tuziladigan boshqa fuqarolik-huquqiy bitimlarni, shu jumladan jismoniy shaxslar ishtirokidagi munosabatlarni to‘liq qamrab olmaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasi elektron tijoratni keng ma’noda — elektron vositalar orqali tuziladigan va amalga oshiriladigan mulkiy huquqiy munosabatlar majmui sifatida tartibga solish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi (UNCITRAL) tomonidan qabul qilingan Elektron tijorat to‘g‘risidagi namunaviy qonun elektron shakldagi bitimlar, xabarlar va jarayonlarni huquqiy jihatdan tan olishga qaratilgan bo‘lib, elektron tijoratni alohida savdo maydonchasi yoki muayyan shakl bilan cheklamaydi . [2]

Yevropa Ittifoqida ham elektron tijorat keng huquqiy yondashuv asosida tartibga solinadi. Xususan, 2000/31/EC-sonli «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi Direktivada elektron vositalar orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar va tuziladigan shartnomalar axborot jamiyati xizmatlari doirasida fuqarolik-huquqiy munosabatlar sifatida qaraladi va ular elektron savdo platformalari bilan cheklanmaydi. [3]

Shuningdek, qator davlatlar milliy qonunchiligida elektron tijorat elektron shaklda tuzilgan bitimlar va ularni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan huquq va majburiyatlar majmui sifatida belgilangan. Masalan, AQSHda elektron bitimlar va elektron imzolarning huquqiy kuchini ta’minlovchi normativ hujjatlar elektron tijoratni shartnomalar tuzish va ijro etish jarayoni bilan uzviy bog‘laydi [4] Maqolada taklif etilayotgan elektron tijorat tushunchasining asosli ekanini xorijiy huquqiy tajriba ham tasdiqlaydi. Xususan, Yevropa Ittifoqida elektron tijoratning huquqiy rejimi, avvalo, 2000/31/YEI-sonli «Axborot jamiyati xizmatlarining, xususan elektron tijoratning huquqiy jihatlari to‘g‘risida»gi Direktiva orqali shakllantirilgan bo‘lib, mazkur hujjat elektron tijoratga elektron vositalar orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar va tuziladigan shartnomalar axborot jamiyati xizmatlari doirasida fuqarolik-huquqiy munosabatlar sifatida qaraladi va ular elektron savdo platformalari bilan cheklanmaydi. Ushbu hujjat yagona ichki bozor doirasida axborot jamiyati xizmatlari va onlayn-tijorat uchun umumiy

huquqiy asos yaratadi, biroq elektron tijorat tushunchasining o‘zi va uning aniq chegaralari alohida qat’iy ta’rif orqali emas, balki elektron tarmoqlar orqali ko‘rsatiladigan xizmatlarni tartibga solishning umumiy prinsiplari darajasida belgilangan. Bu holat Yevropa Ittifoqida elektron tijorat faqat tovar sotish yoki xarid qilish jarayoni sifatida emas, balki ichki bozor va raqamli iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kengroq axborot xizmatlarining tarkibiy qismi sifatida qaralishini ko‘rsatadi va terminologiya raqamli muhitda amalga oshiriladigan faoliyatni oddiy bitimlar bilan cheklamasdan, kompleks tarzda qamrab olishi mumkinligini tasdiqlaydi. Rossiya Federatsiyasi tajribasi ham ushbu yondashuvni bilvosita qo‘llab-quvvatlaydi, chunki u yerda hozirga qadar «elektron tijorat» tushunchasining federal darajada yagona qonuniy ta’rifi mavjud emas va mazkur tushunchaga nisbatan yondashuv ko‘proq ilmiy tadqiqotlar hamda qonun loyihalari doirasida shakllantirilgan, huquqni qo‘llash amaliyotida esa elektron tijorat elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan savdo operatsiyalari majmuasi sifatida talqin qilinadi hamda ko‘pincha elektron tijorat keng ma’nodagi tushuncha, elektron savdo esa uning torroq qismi sifatida ajratiladi. Bu esa marketingdan tortib sotish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishgacha bo‘lgan ko‘p bosqichli raqamli faoliyatni hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi va men taklif qilayotgan, elektron tijoratni faqat bitim emas, balki raqamli faoliyat shakli sifatida qamrab oluvchi yondashuvga yaqin ekanini anglatadi.

Janubiy Koreya qonunchiligi esa elektron tijoratga nisbatan yanada aniq va tizimli yondashuvni namoyon etadi, chunki u yerda «Elektron tijoratda iste’molchilarni himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun hamda elektron hujjatlar va elektron bitimlar to‘g‘risidagi ramkaviy qonun orqali elektron tijorat operatsiyalari elektron vositalar orqali amalga oshiriladigan tijorat faoliyati sifatida belgilab qo‘yilgan va tovarlar yoki xizmatlar savdosini elektron xabarlardan to‘liq yoki qisman foydalangan holda amalga oshirish hal qiluvchi belgi sifatida e’tirof etilgan. Bunday yondashuv elektron tijoratda asosiy ahamiyat elektron vositalar, masofaviy faoliyat va natijada tomonlar o‘rtasida mulkiy huquq hamda majburiyatlarning vujudga kelishiga qaratilishini aniq ko‘rsatadi. Shu bois, xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, elektron tijoratni faqat oldi-sotdi jarayoni bilan cheklash maqsadga muvofiq emas, aksincha raqamli muhitda yuzaga keladigan barcha tijorat munosabatlarini qamrab oluvchi keng, biroq huquqiy jihatdan aniq ta’rif berish zarur, chunki xalqaro tizimlar va model qonunlarda ham elektron tijorat ishtirokchilari o‘rtasida huquq va majburiyatlarning, javobgarlik va huquqiy oqibatlarning vujudga kelishi aynan raqamli kommunikatsiyalar orqali amalga oshiriladigan faoliyat bilan bog‘lanadi. Shu ma’noda, men taklif qilayotgan elektron tijorat ta’rifi o‘zaro munosabatlarning raqamli tabiatiga, ularning masofaviy xarakteriga hamda mulkiy huquq va majburiyatlarning shakllanishiga alohida e’tibor qaratgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, u xalqaro umumiy yondashuvlarga ham, alohida davlatlar qonunchiligi tajribasiga ham mos keladi va shuning uchun qonunga kiritilishi lozim bo‘lgan yangi, zamonaviy va asosli huquqiy tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu munosabat bilan elektron tijorat tushunchasini Elektron tijorat to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunning tushunchalar to‘g‘risidagi 3-moddasida quyidagi tahrirda mustahkamlash kerak deb hisoblayman. Elektron tijorat deganda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida masofaviy tarzda tovarlarni olib sotish, yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan bitimlarni tuzish

va ijro etish jarayonida shakllanadigan, natijada ishtirokchi tomonlar uchun mulkiy huquq va majburiyatlar yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tushuniladi.

Shu bilan birga, amaldagi qonunda “elektron tijorat ishtirokchilari” atamasi asosiy tushunchalar bo‘limida mustaqil ravishda belgilanmagan. Holbuki, mazkur atama elektron tijorat sohasida tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotish yoki xarid qilish orqali bevosita ishtirok etuvchi jismoniy va yuridik shaxslarni ifodalaydi hamda o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra bazaviy tushuncha hisoblanadi. Qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiq, qonun normalarini bir xil talqin qilishni ta’minlash uchun bunday asosiy huquqiy toifalar aynan asosiy tushunchalar qatorida mustahkamlanishi lozim. Shu bilan birga, qonunda mavjud bo‘lgan “elektron tijorat subyektlari” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u elektron tijorat ishtirokchilari bilan bir qatorda elektron tijorat operatorlarini ham o‘z ichiga oladi.

Elektron tijorat operatori platformaviy bandlik munosabatlarida asosiy tashkiliy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. U elektron platforma orqali ish buyurtmachilari va ish bajaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlovchi texnik, tashkiliy va axborot infratuzilmasini yaratadi hamda uni boshqaradi. Platforma operatori algoritmlar orqali buyurtmalarni joylashtirish, taqsimlash, bajarilgan ishlar natijalarini baholash, to‘lovlarni amalga oshirish kabi jarayonlarni tashkil etadi. Shu bilan birga, u ko‘p hollarda ish bajaruvchilarni rasman xodim sifatida ishga olmaydi, balki ularning faoliyatini raqamli muhitda muvofiqlashtiruvchi vositachi sifatida ishtirok etadi. Mazkur holat platformaviy bandlik munosabatlarining huquqiy tabiatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Elektron tijorat ishtirokchilari esa platformaviy bandlik tizimida bevosita faoliyat yurituvchi subyektlar hisoblanadi. Ularga, bir tomondan, platforma orqali ish yoki xizmatlarga buyurtma beruvchi shaxslar, ikkinchi tomondan esa ushbu platformalar orqali ishlarni bajaruvchi yoki xizmatlarni ko‘rsatuvchi jismoniy va yuridik shaxslar kiradi. Ayniqsa, platformalar orqali mustaqil ravishda ish bajarayotgan jismoniy shaxslar — kuryerlar, haydovchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar, frilanserlar platformaviy bandlikning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Ularning faoliyati elektron shartnomalar va platforma qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Platformaviy bandlik sharoitida elektron tijorat operatori va ishtirokchilari o‘rtasidagi farq, avvalo, mehnat munosabatlaridagi o‘rni bilan belgilanadi. Platforma operatori mehnat jarayonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashkil etuvchi ish beruvchi sifatida e’tirof etilmasdan, ish bajarish uchun raqamli muhit va vositalarni taqdim etuvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Elektron tijorat ishtirokchilari esa mazkur muhitdan foydalangan holda ish bajaradi va daromad oladi. Shu bilan birga, platforma operatorining algoritmlar orqali nazorat, reyting tizimi va shartlarni belgilashi ish bajaruvchilarning iqtisodiy jihatdan platformadan qaramligini kuchaytiradi, bu esa platformaviy bandlikning mehnat huquqi nuqtai nazaridan bahsli jihatlarini yuzaga keltiradi.

Ayni paytda, elektron tijorat operatori va elektron tijorat ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ular birgalikda platformaviy bandlik tizimini shakllantiradi. Ularning har ikkisi axborot texnologiyalariga tayanadi, raqamli shartnomalar orqali huquqiy munosabatlarga kiradi hamda mehnat bozorining yangi, norasmiydan rasmiyga o‘tish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, platformaviy bandlik munosabatlarini samarali tartibga solish uchun elektron tijorat operatorlari va ishtirokchilarining huquqiy maqomini

aniq belgilash, shu jumladan, mehnat va fuqarolik huquqi chegaralarini aniqlash zarur hisoblanadi.

“Elektron tijorat ishtirokchilari” atamasining asosiy tushunchalar bo‘limida aniq belgilanmagani subyektlar va ishtirokchilar o‘rtasidagi farqning noaniq bo‘lishiga hamda bitimlarni bevosita amalga oshiruvchi shaxslar bilan elektron infratuzilmani ta’minlovchi shaxslarning aralashib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu tushunmovchilikni bartaraf etish maqsadida 29.09.2022-yildagi O‘RQ-792-sonli O‘zbekiston Respublikasining Elektron tijorat to‘g‘risidagi qonunining asosiy tushunchalar deb nomlangan 3-moddasi quyidagi talqindagi tushuncha bilan to‘ldirilishi kerak: “Elektron tijorat ishtirokchilari — axborot tizimlari hamda elektron aloqa vositalari orqali tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotish va xarid qilish jarayonlarida ishtirok etib, elektron tijorat sohasida faoliyat olib boradigan jismoniy yoki yuridik shaxslardir.” Shuningdek, bu kiritilgan tushunchaga muvofiq ravishda mazkur qonunning tegishli moddalarida “elektron tijorat subyektlari” so‘z birikmasini o‘rniga “elektron tijorat ishtirokchilari” so‘z birikmasi ishlatilsa qonunchilikdagi bir xillik va tushunmovchilikdan xoli bo‘lgan bo‘lardi (Masalan, 4-moddaning to‘rtinchi va beshinchi moddaning beshinchi xatboshisida “elektron tijorat subyektlari” so‘z birikmalari “elektron tijorat ishtirokchilari” so‘z birikmasi bilan almashtirilishidagi kabi). Qo‘shimcha sifatida shu tushunchani ham ushbu moddaga kiritsak, yuqoridagi fikrimizga to‘g‘ri bo‘lardi: “Elektron tijorat operatori — elektron savdo jarayonlarini qonuniy va samarali amalga oshirish uchun zarur texnik, tashkiliy va axborot sharoitlarini tashkil qiluvchi yuridik shaxsdir.”

Aniqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risi”dagi qonunida “Agar yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor foydalanuvchilarga faqat o‘z axborot tizimlari yoki platformasi orqali tovarlar, ishlar, xizmatlar va raqamli mahsulotlar haqida ma’lumot taqdim qilsa, lekin elektron shartnoma yoki bitimlar orqali majburiyat olishga kirishmasa, u elektron tijorat operatori hisoblanmaydi” kabi mazmundagi qo‘shimcha kiritilsa, elektron tijorat operatorlarining faoliyat doirasi va maqomi yanada aniqroq ko‘rsatiladi.

Mazkur atamalarni Qonunning asosiy tushunchalari bo‘limiga kiritish platformaviy bandlikda elektron tijorat ishtirokchilari va operatorlarini aniq farqlash, huquqiy aniqlikni oshirish hamda qonun normalarining to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, elektron savdo platformalarini nafaqat tor texnologik infratuzilma, balki ikki tomonli bozorlar, vositachilik funksiyasi va bozor institutlari sifatida qarash talab etiladi. Bu yondashuv platformalarning faoliyatini to‘liqroq, kengroq va jamiyat iqtisodiyotidagi o‘rnini ham aniqroq aks ettiradi. Bu holat elektron savdo munosabatlarini tartibga solishda milliy qonunchilikni ham shunday institutsional tushuncha — “elektron savdo platformasi” — bilan belgilash iqtisodiy va huquqiy aniqlikni oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida elektron savdo munosabatlari an’anaviy “elektron savdo maydonchasi” tushunchasi doirasidan ancha kengayib, zamonaviy raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, elektron savdo platformalari faqat tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisini amalga oshirish uchun texnik imkoniyat yaratib beruvchi axborot tizimi emas, balki sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni tashkil etuvchi, muvofiqlashtiruvchi hamda muayyan darajada ularning ijrosiga ko‘maklashuvchi mustaqil huquqiy institut sifatida qaralmoqda.

Xususan, Yevropa Ittifoqida 2022-yilda qabul qilingan Digital Services Act (Regulation (EU) 2022/2065) raqamli xizmatlar va onlayn platformalarni, jumladan elektron savdo platformalarini huquqiy tartibga solishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu reglament onlayn bozorlarni alohida turdagi platforma sifatida tan oladi hamda ularga shaffoflik, foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish, axborot oshkor etish va vositachilik faoliyatini mas'uliyatli amalga oshirish kabi majburiyatlarni yuklaydi. Mazkur hujjatga muvofiq, elektron savdo platformalari faqat texnik infratuzilma emas, balki uchinchi shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tashkil etuvchi va tartibga soluvchi faol subyekt sifatida qaraladi [5]

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida elektron savdo munosabatlari an'anaviy "elektron savdo maydonchasi" tushunchasidan ancha kengayib, zamonaviy raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotda platformalar nafaqat texnik infratuzilma sifatida, balki ikki tomonli bozorlar (two-sided markets) mexanizmi orqali vazifalarni bajaruvchi institutlar sifatida ham ko'riladi. Ikki tomonli bozorlar modeli platformalarda sotuvchilar va xaridorlar kabi ikki alohida guruh ishtirokchi o'rtasida o'zaro ta'sir va tarmoq ta'siri bo'lishini hamda bu ta'sirlar iqtisodiy natijalarga salmoqli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Masalan, ko'pgina tadqiqotlar platformalarni bozorlarda vositachilik funksiyasini bajaruvchi va ishtirokchilar o'rtasida moslashtiruvchi subyektlar sifatida tasniflaydi, bu esa platformalarning iqtisodiy ta'sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi [6].

Xitoy Xalq Respublikasida 2018-yilda qabul qilingan "E-Commerce Law of the People's Republic of China" elektron savdo platformalarining huquqiy maqomini yanada aniq belgilab berdi. Ushbu qonunga ko'ra, "elektron savdo platformasi operatori" sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida savdo shartnomalarini tuzish uchun shart-sharoit yaratib beruvchi, axborot almashinuvini ta'minlovchi va ayrim hollarda ularning qonuniy faoliyati uchun javobgarlikni ham zimmasiga oluvchi subyekt sifatida e'tirof etiladi. Qonun platformalarga sotuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish, ma'lumotlarni saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha aniq majburiyatlarni yuklaydi, bu esa elektron savdo platformasining institutsional mohiyatini yaqqol namoyon etadi [7].

AQShda esa elektron savdo platformalarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi yagona qonun mavjud bo'lmasa-da, Communications Decency Actning 230-bo'limi (Section 230) internet platformalarining huquqiy maqomini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu normaga muvofiq, platformalar uchinchi shaxslar joylashtirgan axborot uchun cheklangan javobgarlikka ega bo'ladi. Bu yondashuv elektron savdo platformalarini mustaqil vositachi sifatida tan olish bilan birga, ularning faoliyatini alohida huquqiy institut sifatida ko'rish zarurligini ham ko'rsatadi [8].

Ba'zi adabiyotlarda platformalar ikki (yoki undan ortiq) guruh ishtirokchilari o'rtasida moslashuvchi bozorlar sifatida tasniflanib, ularning o'zaro ta'siri va tarmoq ta'siri mexanizmlari tahlil qilingani qayd etiladi. Bu tadqiqotlar elektron savdo platformalarining institutsional ahamiyatini to'liqroq va mukammalroq anglashga xizmat qiladi [9].

Yuqoridagi xalqaro tajriba va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron savdo munosabatlarini faqat "elektron savdo maydonchasi" tushunchasi bilan cheklash zamonaviy raqamli iqtisodiy voqelikni to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli milliy qonunchilikda "elektron savdo platformasi" tushunchasini sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida shartnomalar tuzish va ularning ijrosiga ko'maklashishga qodir bo'lgan texnik, tashkiliy va institutsional vositachi

tizim sifatida belgilash huquqiy aniqlikni ta’minlaydi. Bunday yondashuv elektron savdo sohasida ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tasniflash, platforma operatorlarining huquq va majburiyatlarini belgilash hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Shulardan inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasiga quyidagi tushunchani kiritish kerak, deb hisoblaymiz: “Elektron savdo platformasi — Internet jahon axborot va telekommunikatsiya tarmog‘i orqali faoliyat yurituvchi, sotuvchilar va xaridorlarga ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, tovarlarni, shu jumladan raqamli mahsulotlarni taklif etish, sotib olish va sotish, yetkazib berish bo‘yicha elektron bitimlarni rasmiylashtirish hamda bunday bitimlar doirasida shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish va amalga oshirishga tashkiliy, texnik va axborot jihatdan imkoniyat yaratib beruvchi axborot-kommunikatsiya tizimi hisoblanadi”.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, raqamli platformalardagi bandlikning huquqiy asosini mustahkamlashni, ushbu soha bilan bog‘liq tushunchalarni qonun darajasida mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Bu avvalo platformaviy bandlikda nazariy va amaliy jihatdan bir xillikni ta’minlaydi va noto‘g‘ri talqin qilishni oldini oladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. NAPP (O’zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi) vakilining 2025-yil 15-oktyabrdagi Marketpleyslar bo’yicha III xalqaro konferensiyada tayyorlagan ma’lumotidan. NAPP da amaliyot o’tash davomida muallif tomonidan o’rganilgan
2. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce (1996). https://digitallibrary.un.org/nanna/record/286739/files/19-04970_ebook.pdf?withWatermark=0&withMetadata=0&registerDownload=1&version=1
3. Directive 2000/31/EC of the European Parliament and of the Council (E-Commerce Directive). https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2000/31/2024-02-17
4. Uniform Electronic Transactions Act (UETA), USA. https://www.uaipit.com/uploads/legislacion/files/0000004550_UNIFORM%20ELECTRONIC%20TRANSACTIONS%20ACT.pdf
5. https://ipkey.eu/sites/default/files/documents/resources/PRC_E-Commerce_Law.pdf?utm_source
6. The Impact of Two-Sided Market Platforms on Participants’ Trading Strategies: An Evolutionary Game Analysis (2023) — Yingxiu Zhao & Sitong Zhou. https://www.mdpi.com/2227-7390/11/8/1927
7. https://ipkey.eu/sites/default/files/documents/resources/PRC_E-Commerce_Law.pdf?utm_source
8. Platform investment and seller competition in two-sided markets Francesco Angelini1 · Massimiliano Castellani1 · Lorenzo Zirulia2,3 https://link.springer.com/article/10.1007/s00712-024-00874-x?utm_source
9. https://www.justice.gov/ag/media/1072971/dl?inline=

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

RETROSPECTIVE ANALYSIS OF OFFENSES PREVENTION AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Nurmatov Jasur
Independent researcher of the Academy of the
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article provides a retrospective analysis of the historical development of crime prevention among students of higher educational institutions. The evolution from ancient times to the conditions of New Uzbekistan has been studied. The stages of combating (punishing) the consequences of offenses to their prevention and modern reforms are described. Based on the research results, a number of proposals and recommendations have been developed.

Keywords: higher education institution, student, offense, retrospective analysis, Avesta, punishment, tutoring institute, prevention inspector.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARI O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI

Nurmatov Jasur
O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: jnurmatov738@gmail.com
http://www.orcid.org/0009-0007-2283-0549

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining tarixiy rivojlanishi retrospektiv tahlil qilingan. Qadimgi davrlardan to Yangi O‘zbekiston sharoitigacha bo‘lgan evolyutsiya o‘rganilgan. Huquqbuzarliklarning oqibati bilan kurashish (jazolash)dan uning oldini olishga qadar bo‘lgan bosqichlar va bugungi zamonaviy islohotlar bayon qilingan. Tadqiqot natijalariga asosan, qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim muassasasi, talaba, huquqbuzarlik, retrospektiv tahlil, Avesto, jazolash, tyutorlik instituti, profilaktika inspektori.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N26.1

Kirish. Hozirgi globallashuv va ijtimoiy transformatsiya sharoitida oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish davlatning huquqiy tartibotini mustahkamlash, yoshlarning shaxsiy va kasbiy kamoloti, shuningdek, jamiyat barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Talabalar o‘rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar nafaqat alohida shaxsning huquqiy xulq-atvori, balki ta’lim muassasasining ijtimoiy vazifalari va davlatning yoshlar siyosati bilan uzviy bog‘liqdir.

Mazkur muammo ma’muriy huquq, huquqbuzarliklar profilaktikasi, kriminologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlari kesishmasida shakllangan kompleks tadqiqot obyekti

hisoblanadi. Shu bois, talabalar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini takomillashtirish uchun uning tarixiy shakllanishi va evolyutsiyasini retrospektiv tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bizningcha, oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining tarixiy rivojlanishini quyidagi 7 bosqichga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. Inson jamiyatining shakllanishi va Zardushtiylik dinining paydo bo‘lish davri.
2. Qadimgi antik davr.
3. Islom sivilizatsiyasi davri.
4. Temuriylar va Yevropa ma’rifatparvarlik davri.
5. Turkistonda xonliklar davri.
6. Jadidchilik davridan O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo‘lgan davr.
7. Mustaqil va Yangi O‘zbekiston davri.

O‘quvchi-talabalar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi g‘oyalari insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlaridayoq shakllangan bo‘lib, ular dastlab diniy-axloqiy me’yorlar orqali ifoda etilgan. Bu borada eng qadimgi yozma manbalardan biri — “Avesto” alohida ahamiyatga ega.

Zero, **Zardushtiylik davrida** bugungi kungi kabi universitetlar bo‘lmasa-da, oliy maktablar, akademiyalar va oliy o‘quv markazlari mavjud bo‘lgan. Bular Avesto davridagi Zardushtiylik o‘quv markazlari (mil. avv. X–VIII asrlar) [1; 84-b.], Shumer-Edubba epistolyar maktablari (mil. avv. III–II ming yilliklar), Qadimgi Misr oliy maktablari (mil. avv. II ming yillik), Herbedestān oliy diniy-ilmiy akademiyasi va uning negizida tashkil etilgan Jundishopur akademiyasi hisoblanib, Ahamoniylar hamda Sosoniylar imperiyasi (milodiy III–VII asrlar) davrida ham faoliyat yuritgan.

Bu davrda talabalar **“hērbed” yoki “shāgird”**, ya’ni muqaddas bilim egalari deb nomlanib [2], ularning Akademiyada o‘rnatilgan qonun-qoidalarga amal qilmaslik *(muqaddas kamarni taqmaslik, ovqatlanish vaqtida gaplashish, darslarni o‘zlashtirolmaslik, o‘qishda sustkashlik)*, axloq-odob me’yorlaridan chetga chiqish *(kun tartibini buzish, yolg‘on gapirish, safdoshlarini masxaralash yoki haqorat qilish, muallimga va ota-onaga hurmatsizlik, jinsiy erkinlikni cheklash)*, huquqbuzarlik va jinoyatlar *(bezorilik, o‘g‘irlik, zo‘ravonlik, qasddan badanga shikast yetkazish, jangdan qochish, hayvonlarni besabab o‘ldirish)*ga qo‘l urish kabi barcha xatti-harakatlariga “gunoh” deb qaralib, Zardushtiylikning huquqiy va diniy normalari *(Avesto, Vendidad va Pahlaviy matnlari)*ga asoslangan holda gunohning takrorlanish soni va muddatiga qarab, ogohlantirish, poklanish marosimlari (abdest va duo o‘qish), talabani akademiyadan chetlashtirish [3; 230-b.], qamoq, jismoniy jazo (kaltaklash), mutillatsiya – bo‘yinbog‘ bilan bo‘g‘ish, hibsga olish, qo‘l yoki oyoqni kesish, o‘lim kabi jazolar qo‘llanilgan.

Bunda jazolar qat’iy xarakterga ega bo‘lib, jazoning maqsadi – gunohkorning ruhini poklash, kelajakdagi azoblardan (do‘zaxdan) qutqarish va atrofdagilarni ogohlikka chaqirish edi.

Mazkur davrning muqaddas “Avesto” kitobida ta’lim-tarbiya, jamoat intizomi, yoshlarni nazorat qilish va jinoyatlarning ma’naviy oqibatlari haqida mufassal qoidalar bayon etilgan. Zardushtiylikning asosiy tamoyillari — **“Humata”** (ezgu fikr), **“Huxta”** (ezgu so‘z), **“Huvarshta”** (ezgu amal) pedagogik va profilaktik falsafaning o‘zagi bo‘lgan.

Qadimgi antik davrda esa, oliy ta’limning ilk shakllari Yunoniston va Ellinistik davr (Aleksandr Zulqarnayn imperiyasi)da paydo bo‘lgan. Bu davrda “oliy ta’lim” zamonaviy universitetlarga o‘xshamas, balki falsafiy va ilmiy maktablar (akademiyalar) sifatida shakllangan. Ular asosan Afinalarda joylashgan bo‘lib, elit (aristokratlar va boylar) o‘g‘illari uchun faoliyat yuritgan, qizlar va qullar unda o‘qishi taqiqlangan edi. Bu davrdagi eng mashhur oliy ta’lim beruvchi muassasalar – Platon akademiyasi miloddan avvalgi 387-yilda Afinalarda (Akademos bog‘ida) Platon tomonidan, Aristotel likeyi miloddan avvalgi 335-yilda Apollon Likeyi ibodatxonasi yaqinida Aristotel tomonidan, Iskandariya muzeyi miloddan avvalgi 290–280-yillarda Misrning Iskandariya shahrida Ptolemey I Soter tomonidan tashkil etilgan.

Ularda talabalarni “shogirdlar” (scholars), “o‘quvchilar” (students), “peripatetiklar” (yurib o‘qiganlar), “olimlar” (academics) deb atashgan. Barcha zamonlarning olimlari uchun ustoz hisoblangan buyuk yunon faylasufi Arastu 367-yilda Afinada mashhur Aflotun akademiyasiga o‘qishga kiradi va 12-yil davomida Aflotunning falsafiy maktabida shogirdlikni o‘taydi. Aflotun o‘sha davrda shogirdi Arastu bilan faxrlanadi va uni boshqa, dangasaroq shogirdi Ksenokratga taqqoslab, “Bunisini qamchi bilan urib turish, unisining jilovini tortib turish kerak” [4; 5-b.], – deb tartib-intizomni buzuvchi, huquqbuzarlik sodir etuvchi talabalarni qamchi bilan jazolaganligi haqida yozadi.

Bundan tashqari, huquqbuzarlik *(adolatsizlik, ko‘chirmachilik, kutubxona qoidalarini buzish, ilmiy bahs qoidalarini buzish, tuhmat, haqorat va boshqalar)* sodir etgan talabalar uchun ogohlantirish, jamoada muhokama qilish orqali tarbiya, akademiyada o‘qishdan chetlashtirish, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etish, qamchilash kabi jazo choralari qo‘llanilgan [5].

Islom sivilizatsiyasi davrida oliy ta’lim muassasalari masjidlar, madrasalar va universitetlar shaklida rivojlangan. Bu davrda Islom dunyosidagi muassasalar dunyodagi eng qadimiylari hisoblanadi, ular ilmiy va diniy ta’limni birlashtirgan.

Xususan, eng birinchi islomiy oliy ta’lim muassasa milodiy 737-yilda Tunisda dastlab masjid sifatida asos solinib, keyinchalik universitetga aylantirilgan **Ez-Zituna universiteti** [6] bo‘lib, undan keyin qator oliy ta’lim muassasalari, jumladan, dunyodagi eng qadimiy faoliyat yuritayotgan universitet sifatida Ginness Rekordlari kitobiga kiritilgan Al-Qaraviyin universiteti [7], Al-azhar universiteti [8] hamda Nizomiya madrasalarida [9] talabalar “tolib” (ilm talabgori), “mutafaqqih” (fiqh o‘quvchisi) yoki “fazil” (ilm egasi) deb atalgan. Yuqori kursdagi talabalar “danishmand” (bilimdon) nomi bilan yuritilgan. Ular asosan 15–20 yoshdagi erkaklar bo‘lib, talabalardan qat’iy tartib (ustozga ehtirom, namoz o‘qish, ota-onaga itoat) talab qilingan.

Tartib-intizomni buzgan talabaga qilmishning og‘irligiga qarab, jismoniy jazo (qamchi, kaltak), ommaviy tahqirlash va madrasada o‘qishdan chetlashtirishgacha bo‘lgan jazolar qo‘llanilgan. O‘rta asr islom madrasalari va akademiyalarida jazolar shariat qonun-qoidalariga asoslanganligi sababli og‘ir jinoyatlar (o‘g‘irlik, zo‘ravonlik, tuhmat, yolg‘on guvohlik berish, nomusga teshgish) uchun qamchi, qo‘l kesish yoki o‘lim jazosi ham qo‘llanilgan. Ta’limda jismoniy jazo (korporal jazo) faqat zarur hollarda tarbiyalash usuli sifatida ustozlar tomonidan qo‘llanilgan [10].

Bundan tashqari, sodir etilgan har bir huquqbuzarlikka gunoh sifatida qaralib, gunohlar uchun poklanish marosimlari yoki ma’lum miqdordagi mol-mulkni musodara qilish tarzidagi ta’sir choralari ko‘rilgan. Diniy tarbiya orqali profilaktika amalga oshirilgan [11].

Temuriylar va Yevropa ma’rifatparvarlik davri jahon ta’limi tarixida muhim o‘zgarishlarning guvohi bo‘ldi. Bu davrning bir tomonida Temuriylar imperiyasi (Markaziy Osiyodagi turkiy-mongol davlati, 1405–1507-yillar) ilmiy-ma’rifiy rivojlanishning markazi sifatida madrasalar orqali ilm-fanni rivojlantirdi, ikkinchi tomonida esa Yevropa Renessans (XV–XVI asrlar) va ma’rifatparvarlik (XVII–XVIII asrlar) davrida universitetlar orqali gumanistik ilmiy qarashlarni tarqatdi.

Ushbu o‘rinda biz ikki hududning oliy ta’lim muassasalari, talabalar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar turlari va jazo choralarining o‘ziga xos jihatlarini taqqoslaymiz. Tahlil ilmiy manbalarga asoslangan bo‘lib, davrning ijtimoiy-madaniy kontekstida jinoyatchilik profilaktikasi va tarbiyaviy tizimning evolyutsiyasini ko‘rsatadi. Temuriylar davrida ta’lim diniy-ilmiy birlikka asoslangan bo‘lsa, Yevropada sekulyarlashuv va gumanizm ustun bo‘ldi, bu esa huquqbuzarliklarning turlari va jazo mexanizmlarida ham aks etdi.

Temuriylar imperiyasi (asoschisi Temur, 1336–1405) davrida oliy ta’lim madrasalar (islomiy oliy maktablar) orqali amalga oshirilgan, ular diniy va ilmiy ta’limni birlashtirgan. Davrning eng mashhur muassasasi – Ulug‘bek madrasasi (Samarqand, 1417–1420-yillarda qurilgan), Ulug‘bek (Temurning nabirasi, 1394–1449) tomonidan tashkil etilgan [12; 156-164-b.]. Shuningdek, Buxoro Ulug‘bek madrasasi (1417–1418) va Gijduvon madrasasi (1433) ham faoliyat yuritgan, ularda 100–150 nafar talabalar o‘qigan. Bu muassasalar islohotlar natijasida ilmiy ta’limni kuchaytirgan, masalan, Ulug‘bek madrasasida astronomik observatoriya ham bor edi. Talabalar “tolib” (ilm talabgori) yoki “shohgird” (ustoz shogirdi) deb nomlangan.

Binobarin, bu davrda talabalar huquqbuzarliklari asosan diniy va tartib-intizomga oid bo‘lgan. Masalan, ateizm (dinsizlik), madrasada o‘rnatilgan tartibni buzish (ustozga hurmatsizlik), o‘g‘irlik, zo‘ravonlik, tuhmat, yolg‘on guvohlik berish va bezorilik. Bu huquqbuzarliklar ijtimoiy tengsizlik va diniy fanatizmdan kelib chiqqan, masalan, madrasalarda ilmiy nizolar diniy gunoh sifatida ko‘rilgan. Ularga jazo choralari shariatga asoslangan bo‘lib, qat’iy xarakterga ega, ya’ni yengil holatlarda ommaviy tanbeh yoki poklanish marosimlari, o‘rtacha og‘irlikdagi qilmishlar uchun qamchi bilan darra urish yoki madrasada o‘qishdan chetlashtirish, og‘ir jinoyatlar (ateizm, o‘g‘irlik) uchun qo‘l kesish yoki o‘lim jazosi qo‘llanilgan [13; 256-264-b.]. Bu choralar nafaqat jazo, balki ruhiy tarbiya sifatida ham ko‘rilgan, chunki gunohlar Ahriman (yomonlik) ta’siri sifatida baholangan. Huquqbuzarliklar profilaktikasi diniy tarbiya va ustoz nazorati orqali amalga oshirilgan.

Yevropa Renessans va ma’rifatparvarlik davrida oliy ta’lim universitetlar orqali rivojlangan, ular cherkov va shahar hokimiyati nazoratida bo‘lgan. Jumladan, 1088-yilda Italiyada tashkil etilgan Bolonya universiteti Yevropadagi eng qadimiy universitet hisoblanadi [14; 18-b.]. Undan keyin Oksford universiteti (Angliya), Parij universiteti (Fransiya), Kembrij universiteti (Angliya), Salamanka universiteti (Ispaniya), Geydelberg universiteti (Germaniya) va Krakov universiteti (Polsha) tashkil topgan bo‘lib, ularda talabalar “scholar” (olim) yoki “student” (o‘quvchi) deb atalgan.

Bu davrda shahar va universitet o‘rtasidagi nizolarda talabalar faol bo‘lib, ular tomonidan zo‘ravonlik (talabalar guruhlari hujumlari), o‘g‘irlik, ichkilik va jamoat tartibini buzish kabi huquqbuzarliklar sodir etilgan.

Xususan, Oksford va Bolonyada talabalar shahar aholisi bilan tez-tez nizoli to‘qnashuvga duch kelgan, bu esa ommaviy zo‘ravonlikka olib kelgan [15]. Mazkur nizoli to‘qnashuvlarning asosiy sababi shaharlarning urbanizatsiyalashuvi natijasida joriy etilgan yangi qonunlarga

universitet talabalarining ko‘nika olmaganligi bo‘lgan edi. Bunday ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etgan talabalarga qat’iy jazo choralari belgilangan bo‘lib, yetkazilgan zarar va ishtirokchilikning darajasidan kelib chiqqan holda ularga ogohlantirish, ommaviy tahqirlash, qamchi bilan urish, hibsga olish hamda jarima jazolari va hatto o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun o‘lim jazosi (boshini kesish, kuydirish) ham tayinlangan [16; 389-407-b.].

Mazkur davrda gumanistik islohotlar (Ch.Bekkariyaning “Jinoyatlar va jazolar haqida” esse, 1764) jazolarni birmuncha yengillashtirdi, ammo amaliyotda qat’iy tizim baribir saqlanib qoldi. Talabalar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi sodir etilgan salbiy holatlar yuzasidan tanqidiy muhokama o‘tkazish va universitet kodekslari orqali amalga oshirilgan. Universitetda tartib-intizomga amal qilmagan va huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan talabalar “bejauni” (sarg‘ish tumshuq) [17] deb nomlangan hamda darhol o‘qishdan chetlashtirilgan.

Xuddi shuningdek, XIX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududida zamonaviy ma’nodagi universitetlar mavjud bo‘lmagan. Oliy ta’lim vazifasini madrasalar bajargan bo‘lib, ular **Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida** faoliyat yuritgan. Bu davrda huquqbuzarliklar profilaktikasi diniy-axloqiy normalar, shariat qoidalari, ustoz–shogird munosabatlari va jamoatchilik nazorati orqali amalga oshirilgan. Madrasalarda talabalar (tolibi ilmlar)ning xulq-atvori maxsus nizomlar bilan emas, balki odob-axloq qoidalari, islomiy ta’limot normalari hamda jamoatchilik nazorati yordamida idora qilingan [18; 166-192-b.].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro amirligida 1800 yillarda 180 ta madrasa (shundan 103 tasi Buxoro shahrida) va 15000 ga yaqin talaba tahsil olgan hamda ularda amalga oshirilgan profilaktika tizimi feodal jamiyat munosabatlariga mos bo‘lib, u talabalar huquqlarini himoya qilish va huquqiy ongni shakllantirishga emas, balki amaldagi ijtimoiy-siyosiy tuzumni saqlab qolish, markazlashtirilgan boshqaruv va diniy-axloqiy nazoratni ta’minlashga qaratilgan. Boshqa hududlarda (Xiva – 25, Toshkent – 10, Samarqand – 50, Qo‘qon – 118 madrasa) ham shunday tizim mavjud bo‘lgan [19; 4-5-b.]. Shu sababli, mazkur davrda huquqbuzarliklar profilaktikasi huquqiy institut emas, balki axloqiy-diniy va qat’iy jazoga asoslangan nazorat tizimi sifatida namoyon bo‘lgan desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jadidlar harakati (XIX asr oxiri – XX asr boshi) madrasalarni modernizatsiya qilishga harakat qilgan va yangi usuldagi 92 ta maktab tashkil etilgan, e’tiborga molik jihati shundaki, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid islohotlarga u qadar ehtiyoj sezilmagan, chunki diniy normalarga itoat kuchli edi [19; 7-b.].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilishi natijasida ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar yuz berdi. An’anaviy madrasalar bilan bir qatorda rus-tuzem maktablari, o‘qituvchilar seminariyalari hamda keyinchalik oliy ta’limga yaqinlashgan muassasalar tashkil etildi. Mazkur muassasalarda talabalar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi ma’muriy-intizomiy mexanizmlar orqali amalga oshirilib, ta’lim jarayoni qat’iy nazorat ostiga olindi. Bu davrda profilaktika jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarning oldini olishdan ko‘ra, mustamlakachilik tartibini saqlash va davlat xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

1917-yilgi inqilobdan so‘ng Turkiston hududida sovet ta’lim tizimi shakllantirildi. Turkiston xalq universiteti (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) va keyinchalik tashkil etilgan oliy o‘quv yurtlarida huquqbuzarliklar profilaktikasi mafkuraviy tarbiya bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirildi. Kommunistik partiya va komsomol tashkilotlari talabalarning xulq-atvorini nazorat qilishning asosiy subyektiga aylandi. Talabalar o‘rtasida

huquqbuzarliklar profilaktikasi mustaqil huquqiy institut sifatida emas, balki siyosiy-ideologik ta’sir vositasi sifatida namoyon bo‘ldi [20; 3-11-b.].

Shundan so‘ng, 1930–1950-yillarda sovet davlatining markazlashgan siyosati natijasida oliy ta’lim muassasalarida profilaktika yanada qat’iylashdi. Talabalar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish partiya-komsomol nazorati, intizomiy jazolar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik orqali amalga oshirildi. Bu davrda profilaktika asosan repressiv xarakter kasb etib, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishdan ko‘ra, “huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori” deb baholangan shaxslarni aniqlash va ularni jamiyatdan ajratishga qaratilgan edi [21; 302-303-b.].

XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa 1960–1980 yillarda, oliy ta’lim muassasalarida profilaktika siyosati ma’lum darajada liberallashdi. Kuratorlik instituti, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, talabalar jamoat birlashmasi orqali tarbiyaviy profilaktika kuchaytirildi. Biroq, shu bilan birga, mafkuraviy nazorat va intizomiy choralar saqlanib qolgan bo‘lib, profilaktika to‘liq gumanistik va huquqiy asosga o‘ta olmadi.

1985–1991-yillarda amalga oshirilgan qayta qurish siyosati natijasida mafkuraviy nazorat zaiflashdi, biroq uning o‘rnini bosuvchi mukammal huquqiy profilaktika tizimi shakllantirilmadi. Bu holat oliy ta’lim muassasalarida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida muayyan bo‘shliqlarni yuzaga keltirib, mustaqil O‘zbekiston sharoitida yangi, huquqiy va kompleks profilaktika konsepsiyasini ishlab chiqish zaruratini taqozo etdi.

Muhokama. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk yillarida, iqtisodiy beqarorlik va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida Birinchi Prezident I.A.Karimov sa’y-harakatlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasining poydevori shakllantirildi.

Bu davrda talabalar o‘rtasida jinoyatchilik ko‘rsatkichlari ortdi. Masalan, oliy ta’lim muassasalari talabalari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 1991-yilda 97 ta holatdan 1992-yilda 115 tagacha ko‘paydi, kasb-hunar o‘quv yurtlari talabalari orasida esa 106 dan 129 tagacha oshdi [22; 79-b.]. Bu o‘sishning asosiy sababi iqtisodiy qiyinchiliklar va uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi bo‘ldi. Profilaktika tizimining shakllanishi 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati asoslari to‘g‘risida”gi Qonun [23] bilan boshlandi, u 2016-yilda yangilandi va “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunga aylandi. Bu hujjatda talabalarning huquqlarini himoya qilish, ota-onalar, mahalla va ta’lim muassasalarining vazifalari belgilab qo‘yildi.

Sovet davrida amal qilgan mafkuraviy va repressiv profilaktika amaliyoti inqirozga uchrab, uning o‘rnini bosuvchi demokratik va huquqiy mexanizmlarni shakllantirish ustida ish olib borildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [24] va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” [25] oliy ta’lim muassasalarining nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy funksiyasini ham qonuniy jihatdan mustahkamladi. Mazkur hujjatlarda yosh avlodni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosati darajasida belgilandi.

Bu davrda profilaktika, asosan, **axloqiy-tarbiyaviy mazmunda** bo‘lib, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy va psixologik omillarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan ilmiy mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan.

Keyinchalik, 2000-yillar boshlaridan talabalar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi yoshlar siyosati bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqila boshlandi. Oliy ta’lim

muassasalarida dekanatlar huzurida tarbiyaviy ishlar bo‘limlari, kuratorlik (murabbiylik) instituti joriy etildi.

Keyingi yillarda profilaktika tizimi rivojlanib, statistik ko‘rsatkichlarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Masalan, 1996–1997-yillarda yoshlar jinoyatchiligi 1,7% ga (3243 dan 3189 taga) kamaydi, 2002-yilda esa yoshlar o‘rtasida qotillik holatlari 23,5% ga qisqardi, ammo ayrim hududlarda (masalan, Samarqand viloyatida) o‘sish saqlanib qoldi [26; 49-50-b.].

Natijalar. 2014-yil 14-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligi huquqbuzarliklar profilaktikasida fuqarolik jamiyatining ishtirokini kuchaytirdi. Jumladan, 2015-yilda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida o‘tkazilgan 7 760 ta huquqiy targ‘ibot tadbirlari (shundan 923 tasi OAVda) natijasida voyaga yetmaganlar va yoshlar jinoyatchiligi sezilarli kamaydi [22; 79-80-b.]. Mazkur tadbirlarda Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari, mahalla organlari va ta’lim muassasalarining hamkorligi ta’minlandi, bu esa tizimning samaradorligini yanada oshirdi.

2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi yangi bosqichga ko‘tarildi, innovatsion va xalqaro standartlarga moslashtirildi. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish borasida an’anaviy kuratorlik (murabbiylik) instituti o‘z samarasini yo‘qotganligi sababli, uning o‘rniga xorijiy tajribaga asoslangan **tyutorlik instituti** joriy etildi [27; 3-b.]. Bu islohot talabalar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi mexanizmini kuchaytirish va talaba-yoshlar bilan individual ishlashni yaxshilashga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi.

Moliyaviy mustaqillik O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlari uchun hal qiluvchi masaladir. Davlat tasarrufidagi muassasalardan farqli o‘laroq, O‘zbekistondagi xususiy universitetlar daromad olish uchun o‘quv to‘lovlari va investitsiyalarga tayanadi. Gap shundaki, AMITY universiteti mahalliy va xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan, buyurtma qilingan korporativ o‘quv dasturlari va maslahat xizmatlarini taklif qiladi. Ushbu strategik yondashuv universitetga daromad oqimlarini diversifikatsiya qilish va moliyaviy xatarlarni kamaytirishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbekistondagi xususiy universitetlar abituriyentlar uchun katta raqobatga duch kelmoqda, bu esa ta’lim xizmatlari sifati va infratuzilmani rivojlantirishga katta e’tibor qaratishni taqozo etadi. Masalan, Toshkentdagi Vebster universiteti talabalarni bitiruvdan oldin ham ish bilan ta’minlashga yordam beradigan, shu bilan institutning jozibadorligini oshiradigan va talabalarning rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondiradigan zamonaviy hamkorlik joylari va martaba markazlarini tashkil etdi [12; BB. 463-471].

O‘zbekistondagi xususiy universitetlarni boshqarish bir qator muhim muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir. Eng muhimlaridan biri bu eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim sifatini ta’minlashdir. O‘quv dasturlari zamonaviy standartlarga javob berishini va professor-o‘qituvchilar tarkibining yuqori malakali bo‘lishini ta’minlash xususiy OTM rahbariyatiga yuklatilgan. Masalan, Toshkent shahridagi INHA universiteti o‘qitiladigan materialning dolzarbligi va qo‘llanilishini ta’minlash, shu orqali ta’lim natijalarini

bozor talablariga moslashtirish uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda turli sohalardagi amaliyotchilarni jalb qiladi [1; BB.7-8.].

Yuqori raqobat muhitida abituriyentlarni jalb qilish. O‘zbekistondagi xususiy oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida kuchli raqobat sharoitida faol marketing va xizmatlarni ilgari surish muhim ahamiyat kasb etdi. Ochiq kunlarni o‘tkazadigan, ta’lim yarmarkalarida qatnashadigan va ijtimoiy tarmoqlarda kuchli ishtirok etadigan AMITY universiteti. Bundan tashqari, universitet iqtidorli talabalarga stipendiya va chegirmalar taklif etadi va shu bilan uning jozibadorligini oshiradi [11; BB. 58-69].

Oliy ta’limda infratuzilmani rivojlantirish: zamonaviy universitet talabalarga sifatli ta’lim va qulay o‘quv sharoitlarini ta’minlash uchun bosim ostida. Masalan, Toshkent shahridagi Vebster universiteti elektron resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega zamonaviy o‘quv xonalari, laboratoriyalar va kutubxonalarni yaratishga sarmoya kiritmoqda [8; BB. 63-69].

Zamonaviy oliy ta’lim manzarasida xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Universitetlarning Erasmus+ dasturi kabi xalqaro dasturlarda ishtirok etishi, xalqaro akkreditatsiyani olish bilan birga, muassasa obro‘sini oshirishga va global talabalar aholisini jalb qilishga xizmat qiladi. Baynalmilallashtirishga bo‘lgan ushbu majburiyatning yorqin namunasi Toshkentdagi INHA universiteti bo‘lib, u o‘z takliflarini sezilarli darajada kengaytirdi va talabalarga O‘zbekistonda ham, xorijda ham o‘qish imkonini beruvchi ikki darajali dasturlarni o‘z ichiga oldi [6; BB. 12-15].

Ko‘pgina afzalliklarga qaramay, O‘zbekistondagi xususiy oliy o‘quv yurtlari ularning rivojlanishi va barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan bir qator muhim muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarga jamoatchilik ishonchi, tartibga rioya qilish, moliyaviy cheklovlar va davlat universitetlarining raqobati bilan bog‘liq muammolar kiradi. Bularning barchasi uzoq muddatli o‘sish va muvaffaqiyatni ta’minlash uchun strategik yechimlarni talab qiladi.

Ta’lim bozori sharoitida xususiy va davlat universitetlari o‘rtasida yuqori darajadagi raqobat mavjud. Masalan, O‘zbekiston Milliy universiteti kabi Davlat OTMlari tomonidan taqdim etilayotgan o‘quv to‘lovlari va bandlik kafolatlarining pastligi ularning bo‘lajak talabalarga murojaatini kuchaytirishga xizmat qiladi [9; BB. 161-165].

Xususiy universitetlarga jamoatchilik ishonchi qiyin bo‘lib qolmoqda. Ko‘pgina shaxslar hanuzgacha xususiy muassasalarda ta’lim sifati davlat universitetlaridan past deb hisoblashadi. Ushbu idrokni hal qilish uchun AMITY universiteti kabi xususiy universitetlar o‘z bitiruvchilarining bandlik reytinglarini faol ravishda tarqatadilar va ularning ishonchliligini asoslash va ta’lim dasturlarining ahamiyatini namoyish etish uchun muvaffaqiyatli talabalarning guvohliklarini baham ko‘rishadi [5; BB. 300-307].

Muhokama. Xususiy universitetlarning moliyaviy barqarorligi o‘quv to‘lovlariga bog‘liq bo‘lib, bu ularni iqtisodiy inqiroz davrida yoki ta’limga bo‘lgan talabning pasayishi davrida zaiflashtiradi. Masalan, Toshkent shahridagi INHA universitetida uzoq muddatli rivojlanish uchun mablag’ to‘plash maqsadida jamg‘arma fondi tashkil etilgan.

Davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekistondagi xususiy oliy ta’lim muassasalaridan litsenziyalash, akkreditatsiya qilish va hisobotlarni taqdim etishni o‘z ichiga olgan amaldagi qonuniy talablarga rioya qilishni talab qiladi. Masalan, xususiy OTMlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan muntazam tekshiruvdan o‘tkaziladi, bu jarayon ko‘p vaqt talab etadi va

qimmatga tushadi, belgilangan standartlarga muvofiqligini ta’minlaydi va ta’lim sifatini saqlaydi [13].

O‘zbekiston bo‘yicha statistik ma’lumotlar O‘zbekiston oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligidan O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlari soni bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar to‘plangan:

O‘zbekistonda xususiy universitetlarning rivojlanishi

Ko‘rsatkich	Ma’nosi
2023 yilda xususiy universitetlar soni	50+ (universitetlarning umumiy sonining 30%)
5 yil ichida xususiy universitetlar sonining o‘sishi	+20%
Xususiy universitetlar talabalari uchun	≈15% (≈150 000 talaba)
2025 yil uchun prognoz	Talabalar umumiy sonining 20% ni tashkil qiladi
Bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash	Bitirgandan keyingi birinchi yilda 75%
Mashhur yo‘nalishlar	IT, biznes boshqaruvi, muhandislik yo‘nalishlari
O‘quv to‘lovi (yiliga)	$2 000 – $5 000
Jamg‘arma mablag‘lari (misollar)	Inha Universiteti – $10-20 million

Boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash

Mamlakat	Xususiy universitetlarning ulushi	O‘rtacha o‘quv to‘lovi (yiliga)	Bitiruvchilarning bandlik darajasi
O‘zbekiston	30%	$2 000 – $5 000	75%
AQSh	40%	$20 000 – $50 000	80–90%
Buyuk Britaniya	10%	£12 000 – £20 000	95%
Hindiston	20%	$2 000 – $10 000	Ko‘rsatilmagan

Hozirgi kunda duch kelayotgan muammolarga qaramay, O‘zbekistonda xususiy oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish istiqbollari ijobiy va ahamiyatli bo‘lib qolmoqda. O‘sish va rivojlanishga yo‘naltirilgan quyidagi asosiy yo‘nalishlar aniqlanadi:

Onlayn kurslarni amalga oshirishni, masofaviy o‘qitish platformalaridan foydalanishni va raqamli ta’lim resurslarini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan ta’limni raqamlashtirish xususiy universitetlarga turli xil geografik joylar va millatlardan talabalarni jalb qilishga imkon beradi. Ushbu hodisaning diqqatga sazovor tasviri Toshkentdagi INHA universiteti bo‘lib, u talabalarga akademik mashg‘ulotlarni kasbiy majburiyatlar bilan muvozanatlashda yordam beradigan to‘liq onlayn dasturlarni taklif etadi.

Universitet va tadbirkorlik subyekti o‘rtasidagi hamkorlik mehnat bozori talablariga mos keladigan tegishli o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Masalan, AMITY universiteti taniqli korporatsiyalar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatdi, bu erda talabalar haqiqiy loyiha ishlari bilan shug‘ullanishlari mumkin bo‘lgan qo‘shma laboratoriyalarni tashkil etishga olib keldi va shu bilan professional sohada talab yuqori bo‘lgan amaliy tajriba va vakolatlarga ega bo‘ldi.

Katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda ta’limni individuallashtirish har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan ta’lim trayektoriyalarini yaratishni osonlashtiradi. Masalan, Toshkent

shahridagi Vebster universitetida o‘quv materialini talabalarning bilim darajasi va ehtiyojlariga avtomatik tarzda moslashtiradigan, shu orqali o‘quv jarayonini yanada samarali va moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydigan adaptiv ta’lim tizimlari qo‘llaniladi.

Natijalar. Xalqaro kengayish, shu jumladan xalqaro akkreditatsiyani olish va global ta’lim tashabbuslarida ishtirok etish universitetning obro‘sini oshirishga yordam beradi. Masalan, Toshkent shahridagi INHA universiteti xorijda o‘z filiallarini ochish, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, o‘z nufuzi va talabalar imkoniyatlarini kengaytirish orqali xalqaro hamkorlikni faol rivojlantirmoqda.

Turli mamlakatlardagi xususiy universitetlar amaliyotidan misollar o‘quv jarayonini tashkil etishga yondashuvlarning xilma-xilligini namoyish etadi (Smit, 2019). AQShda eng yirik xususiy universitetlardan biri bo‘lgan Feniks universiteti onlayn ta’limga ixtisoslashgan bo‘lib, talabalarga o‘qish va ishlashni birlashtirishga imkon beradigan moslashuvchan dasturlarni taklif etadi (Braun va boshq., 2021). Buyuk Britaniyada Bukingem universiteti, mamlakatning birinchi xususiy universiteti, talabalarni atigi ikki yil ichida bakalavr darajasini olishga imkon beradigan tezlashtirilgan dasturlar bilan jalb qiladi, bu mehnat bozoriga tezroq kirishni istaganlar uchun ayniqsa jozibali variant. Hindistonda, Amity universiteti, eng yirik xususiy oliy ta’lim muassasalaridan biri, faol innovatsion texnologiyalarni joriy, xorijiy universitetlar bilan dual darajasi dasturlarini taklif etadi va shunday qilib global ta’lim maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlash, xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik.

Davlat xususiy universitetlarni tartibga solishda ularning faoliyati, ular beradigan ta’lim sifati va ta’lim sohasidagi raqobatbardoshligini belgilaydigan Qonunchilik bazasini yaratish orqali hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda xususiy OTMlar ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlaydigan va ular ko‘rsatayotgan xizmatlarni takomillashtirishga hissa qo‘shadigan litsenziyalash, akkreditatsiya va sifat nazorati kabi tartibga solish mexanizmlariga bo‘ysunadi.

Xususiy oliy ta’lim muassasalari o‘zlarining ta’lim dasturlari belgilangan davlat standartlariga muvofiqligini tekshirish uchun litsenziyalash va akkreditatsiya qilish tartib-qoidalarini bajarishlari shart.

Davlat ta’lim sifatini nazorat qilish uchun javobgardir va bunga muntazam tekshiruvlar, tekshiruvlar, o‘quv dasturlari monitoringi va o‘qituvchilar malakasini baholash orqali erishiladi. Xususiy universitetlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash soliq imtiyozlari va ularni uzoq muddatli moliyalashtirish uchun fond fondlarini yaratish orqali ta’minlanishi mumkin.

Xulosa. O‘zbekistondagi xususiy oliy ta’lim muassasalarida ta’limni boshqarish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u nafaqat ta’lim sohasini chuqur bilishni, balki strategik rejalashtirish, marketing va moliyaviy menejment bo‘yicha ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Qiyinchiliklarga qaramay, xususiy universitetlar malakali mutaxassislarni tayyorlash, innovatsiyalarni joriy etish va zamonaviy jamiyat talablarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘zgarishlarga moslashish, yuqori sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish va mavjud resurslardan samarali foydalanish qobiliyatiga bog‘liq. Kelajakda xususiy universitetlar o‘sishda davom etishi, yangi texnologiyalardan foydalanishi va xalqaro ta’lim bozorida o‘z mavqeyini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qudratova, G. M. (2025). THE EVALUATION OF UNIVERSITY COMPETITIVENESS: A REVIEW OF METHODOLOGIES. SHOKH LIBRARY.
2. Azimov, B. F., Maksudovich, A. Z., & Qudratova, G. M. (2025). THE IMPORTANCE OF INNOVATION IN ENHANCING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION UNIVERSITIES. SHOKH LIBRARY.
3. Husenov, A., & Qudratova, G. (2025). RAQOBAT VA RAQOBAT STRATEGIYALARI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR. Modern Science and Research, 4(2), 292- 299.
4. Sodiqova, N. (2025). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' TECHNICAL THINKING IN ECONOMICS CLASSES. International Journal of Artificial Intelligence, 1(1), 885-891.
5. Islomova, M., & Sodiqova, N. (2025). ILM-FAN VA TA'LIMDAGI INNOVATION RIVOJLANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI. Modern Science and Research, 4(2), 300-307.
6. Bahodirovich, X. B., & To'rayevna, S. N. (2025). LOMBARD TASHKILOTLARI VA ULARNING XIZMATLARI. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT, 1(3), 290-298.
7. Bahodirovich, X. B. (2025). XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB YURITISH SIYOSATI. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(6), 210-215.
8. Bahodirovich, X. B. (2025). BUXGALTERIYA HISOBINING O'RGANISH USULLARI. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT, 1(5), 257-262.
9. Bakhodirovich, K. B. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. IMRAS, 6 (6), 161–165.
10. Бахтиёров, Д., & Алимова, Ш. А. (2025). КОНКУРЕНЦИЯ НА РЫНКЕ: КАК БОРЬБА КОМПАНИЙ ВЛИЯЕТ НА ЦЕНЫ, КАЧЕСТВО И ИННОВАЦИИ. Modern Science and Research, 4(2), 463-471.
11. EI, I. (2025). MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(6), 58-69.
12. Abdullaev, R. (2020). *Higher Education Reforms in Uzbekistan: Challenges and Opportunities*. Tashkent: Uzbekistan Education Press.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

THE IMPACT OF AN INNOVATIVE APPROACH ON THE CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS AND EDUCATORS

Berdiyorova Nilufar
Independent researcher at the International Nordic University,
Lecturer at the Department of Psychology and Preschool Education

Abstract. The modern education system requires future teachers and educators to possess not only professional knowledge but also creative thinking and the ability to adapt to pedagogical challenges. This article examines the significance of innovative approaches in the professional training of future educators and analyzes their influence on the development of creative competence. It is argued that educational practices based on innovation foster independent thinking, creative problem-solving, and a conscious attitude toward pedagogical activity. Special attention is given to the use of modern educational technologies as an effective means of unlocking creative potential. The article concludes with practical insights and recommendations aimed at improving the quality of teacher education.

Keywords: creative potential, educational technologies, innovative activity, professional adaptability, modernization of education, independent thinking.

INNOVATSION YONDASHUVNING BO‘LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIY KOMPETENSIYASIGA TA’SIRI

Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi
Xalqaro Nordik Universiteti mustaqil izlanuvchisi,
“Psixologiya va maktabgacha ta’lim” kafedrasi o’qituvchisi
Email: n.berdiyorova@nordicuniversity.org
http://www.orcid.org/0009-0005-0573-1923

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim tizimi bo‘lajak pedagog va tarbiyachilardan nafaqat kasbiy bilim, balki yangicha fikrlash, ijodkorlik va pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan yondashuvni ham talab etmoqda. Ushbu maqolada innovatsion yondashuvning bo‘lajak pedagog va tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligida tutgan o‘rni hamda uning ijodiy kompetensiya rivojiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak mutaxassislarda mustaqil fikrlash, kreativ yechimlar ishlab chiqish va pedagogik faoliyatga ongli yondashish kabi muhim sifatlarni shakllantirishi asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarishning samarali omili sifatida talqin etiladi. Maqola yakunida innovatsion yondashuvni ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir amaliy xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: kreativ salohiyat, pedagogik texnologiyalar, innovatsion faoliyat, kasbiy moslashuvchanlik, ta’limni modernizatsiyalash, mustaqil fikrlash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N32

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida kechayotgan jadal islohotlar pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, bo‘lajak pedagog va tarbiyachilardan faqat nazariy bilimlar emas, balki ta’lim jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarga moslashuvchan yondasha olish, mustaqil fikrlash va ijodiy yechimlar ishlab

chiqish qobiliyati talab etilmoqda.[4-5:2b] Shu bois, pedagoglarni tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalasi bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Zamonaviy ta’lim muhitida innovatsion yondashuv pedagogik jarayonni faollashtirish, talabalarning bilish faolligini oshirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.[1-2:2b] Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarda yangicha fikrlash, pedagogik jarayonga ijodiy yondashish, muammoli vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish kabi sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ularning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Maktabgacha ta’lim tizimi doirasida faoliyat yurituvchi pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.[3-4:2b] Chunki bolalar bilan ishlash jarayonida har bir pedagogdan pedagogik vaziyatlarni noan’anaviy yondashuv asosida hal qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish talab etiladi. Shu jihatdan, bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarni tayyorlashda innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyatga ega.Mazkur maqolada innovatsion yondashuvning bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni nazariy jihatdan tahlil qilinadi hamda zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda ushbu jarayonni takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar ilgari suriladi. [2-5:2b]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik faoliyatni kompetensiyaviy asosda rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar masalasi pedagogika fanining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda innovatsion yondashuv ta’lim jarayonini yangilash, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar innovatsion yondashuvni nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki pedagogik fikrlash uslubini o‘zgartirish, ta’lim subyektlarining faolligini oshirish bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rsatadilar.[1-3:3b] Bir qator ilmiy ishlarda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning bilish faolligini kuchaytiradi, o‘quv jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptiradi va kasbiy refleksiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Ijodiy kompetensiya masalasiga bag‘ishlangan ilmiy manbalarda ushbu tushuncha pedagogning kasbiy faoliyatida yangicha yondashuvlarni qo‘llay olish, ta’lim jarayonini kreativ tashkil etish hamda tarbiyaviy vazifalarni samarali hal qilish qobiliyati bilan izohlanadi. Ayrim mualliflar ijodiy kompetensiyani pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlarining integratsiyalashgan ko‘rinishi sifatida baholab, unda kreativ fikrlash, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik va pedagogik improvizatsiya muhim o‘rin tutishini qayd etadilar. Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuv va ijodiy kompetensiya o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Biroq aksariyat ishlarda ushbu masala umumiy pedagogik kontekstda yoritilgan bo‘lib, aynan bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi nuqtai nazaridan chuqur tahlil yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur holat innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ta’sirini maxsus tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.[2-7-9:3b]

Muhokama. O‘tkazilgan kuzatish va tahlillar shundan dalolat beradiki, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ta’lim faoliyatini yangicha mazmunda tashkil etishga yo‘naltirilgan yondashuvlar bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday yondashuvlar o‘quv jarayonini faollashtirish bilan birga, talabalarning bilimlarni tayyor shaklda qabul qilishdan voz kechib, ularni mustaqil izlanishga yo‘naltirishga xizmat qiladi. [1-4:3b] Natijada, bo‘lajak mutaxassislar ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etib, o‘z kasbiy imkoniyatlarini anglash va rivojlantirishga intiladi. Innovatsion xarakterga ega bo‘lgan ta’lim jarayoni talabalarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va kasbiy vaziyatlarga ijodiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bunda innovatsion yondashuv o‘quv mashg‘ulotlarini faqat texnologiyalar bilan boyitish emas, balki pedagogik vazifalarni muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish, talabalarning fikrini rag‘batlantirish va reflektiv faoliyatni kuchaytirish orqali namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, ijodiy kompetensiya shaxsiy tajriba va amaliy faoliyat bilan uyg‘un holda rivojlanadi.

An’anaviy o‘qitish shakllariga nisbatan innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning pedagogik vaziyatlarga munosabatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Xususan, talabalarda pedagogik muammolarni noan’anaviy usullar orqali hal etish, ta’lim jarayonini kreativ rejalashtirish va o‘z pedagogik qarashlarini asoslab bera olish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida mustaqil va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorligini oshiradi.[3-5-9:4b] Shuningdek, tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ta’siri faqat texnologik vositalardan foydalanish bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, mazkur yondashuv pedagog va talaba o‘rtasida ochiq muloqot va hamkorlik muhitini yaratish, talabalarning shaxsiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali yanada samarali natijalarga olib keladi. Bunday muhitda bo‘lajak pedagog va tarbiyachilar o‘z kasbiy rolini chuqur anglab, ta’lim jarayoniga ongli va mas’uliyatli yondashishni o‘rganadi. Olingan natijalar ilgari olib borilgan tadqiqotlarda ilgari surilgan ilmiy xulosalar bilan uyg‘unlashadi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanganidek, pedagogik jarayonni modernizatsiyalash ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi va ta’lim subyektlarining faolligini oshiradi. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu qarashlarni bo‘lajak pedagog va tarbiyachilar tayyorlash jarayoni misolida aniqlashtirib, innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyani shakllantirishdagi amaliy ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Umuman olganda, muhokama qilingan natijalar innovatsion yondashuvni pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga izchil va tizimli ravishda joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. [8-12:4b]Chunki aynan shu yondashuv bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni zamonaviy ta’lim talablariga mos, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion yondashuvni ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash va uni amaliyotga tatbiq etish pedagogik ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur tadqiqot innovatsion yondashuvning bo‘lajak pedagog va tarbiyachilar tayyorlash tizimidagi funksional ahamiyatini ochib berdi. Olib borilgan tahlillar natijasida innovatsion yondashuv pedagogik jarayonni faqat yangilash vositasi sifatida emas, balki bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy kompetensiyasini tizimli shakllantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ushbu holat innovatsion yondashuvga nisbatan mavjud

qarashlarni kengaytirib, uni kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi.[1-3-4:4b] Bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasi innovatsion yondashuv ta’sirida bosqichma-bosqich rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Xususan, ijodiy kompetensiya tarkibiy qismlarining shakllanishi innovatsion yondashuvning mazmuni, ta’lim muhiti va pedagogik hamkorlik darajasi bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlanib, ushbu bog‘liqlik pedagogik jarayonda hisobga olinishi lozimligi ta’kidlandi. Muhim ilmiy yangiligi shundaki, innovatsion yondashuv bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda alohida omillar majmuasi sifatida emas, balki yagona tizimli model doirasida qaraldi. Ushbu model ijodiy kompetensiyani shakllantirishda ta’lim mazmuni, metodlar va reflektiv faoliyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion yondashuvdan foydalanishda individual va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi.[5-8-9:4b] Bu esa bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etish uchun qulay pedagogik sharoit yaratish imkonini beradi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim faoliyatining bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasiga ta’siri tizimli ravishda o‘rganildi. Olingan natijalar innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiya rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

1. Ijodiy kompetensiya darajalarining qiyosiy tahlili

Tadqiqot davomida bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasi boshlang‘ich**,** o‘rta va yuqori darajalar bo‘yicha baholandi. Baholash innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlardan oldin va keyin amalga oshirildi.

1-jadval

Bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiya darajalaridagi o‘zgarishlar

Ijodiy kompetensiya darajasi	Tajriba boshida (%)	Tajriba yakunida (%)
Past daraja	42	18
O‘rta daraja	38	46
Yuqori daraja	20	36

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni natijasida past darajadagi ko‘rsatkichlar sezilarli kamaygan, yuqori darajadagi ijodiy kompetensiyaga ega talabalar ulushi esa ancha oshgan. Bu holat innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.[2-6:5b]

2. Ijodiy kompetensiya tarkibiy qismlarining rivojlanish dinamikasi

Tadqiqotda ijodiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari alohida tahlil qilindi:

kreativ fikrlash

muammoli vaziyatlarda yechim topish

pedagogik tashabbuskorlik

reflektiv faoliyat

2-jadval

Ijodiy kompetensiya tarkibiy qismlarining rivojlanish koʻrsatkichlari

Tarkibiy komponentlar	Tajriba boshida	Tajriba yakunida
Kreativ fikrlash	Past	Oʻrta–yuqori
Muammo yechish koʻnikmalari	Oʻrta	Yuqori
Pedagogik tashabbuskorlik	Past	Oʻrta
Reflektiv faoliyat	Oʻrta	Yuqori

Mazkur natijalar innovatsion yondashuv ijodiy kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlariga kompleks ta’sir koʻrsatganini anglatadi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va reflektiv faoliyat koʻrsatkichlarida sezilarli oʻsish kuzatildi.

3. Innovatsion yondashuv va ijodiy kompetensiya oʻrtasidagi bogʻliqlik

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ta’sir mexanizmi sxematik tarzda ifodalandi.

1-sxema

Innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ta’sir mexanizmi

Innovatsion ta’lim yondashuvi
↓
Faol va muammoli oʻquv muhiti
↓
Mustaqil fikrlash va tashabbuskorlik
↓
Kreativ faoliyat va refleksiya
↓
Ijodiy kompetensiyaning rivojlanishi

Sxemadan koʻrinib turibdiki, innovatsion yondashuv ta’lim jarayonini faollashtirish orqali boʻlajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy faoliyatini ragʻbatlantiradi hamda ularning kasbiy kompetensiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.[1-7-10:6b]

4. Natijalarning umumiy tavsifi

Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni:

- boʻlajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi;
- an’anaviy ta’lim shakllariga nisbatan samaraliroq natija beradi;
- talabalarning kasbiy faoliyatga ongli va ijodiy yondashuvini shakllantiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, innovatsion yondashuv pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmi hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa sifatida, innovatsion yondashuvni boʻlajak pedagog va tarbiyachilar tayyorlash jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish nafaqat ijodiy kompetensiyani rivojlantirishga, balki pedagogik ta’lim sifatini oshirish, ta’lim amaliyotining zamonaviy talablarga moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos boʻlib, innovatsion pedagogik modellarni ishlab chiqishda muhim manba boʻla oladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvni rivojlantirish uchun boʻlajak pedagog va tarbiyachilarni ta’lim muassasalaridan boshlash va ijodiy

kompetensiyalarini shakllantirish uchun yangi texnologiyalar joriy etish lozim. Hozirgi paytda pedagoglarda muammoni hal qilishi va unga kreativ yechim berish qobiliyatlari yetishmaydi. Bu o‘z-o‘zidan rivojlanib kelayotgan yosh avlodni ham ijodiy qobiliyatlarini susaytiradi. Innovatsion yondashuv bu pedagoglar faoliyatini bir qancha oshirib beradi va pedagoglar faoliyatini samaradorlik bilan ta’minlaydi. Ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlarning faoliyatini rivojlantirish va ish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv asosida ijodiy kompetensiyalarni rivojlanishi muhimdir. Shuningdek, bu tadqiqot pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvning ta’siri haqida ilmiy qarashlarni yanada chuqurlashtiradi va kelgusida innovatsion metodlarning pedagog kadrlar tayyorlashdagi rolini kengaytirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Raximova, N. A. (2021). *Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim jarayonida ijodiy yondashuv*. Toshkent: Fan va texnologiya. https://library.ziyonet.uz
2. Qodirova, F. R. (2020). Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati. *Pedagogik ta’lim*, 4, 45–49. https://pedagogika.uz/journal.
3. Хуторской, А. В. (2017). *Компетентностный подход в образовании*. Москва: Юрайт. https://urait.ru
4. Fullan, M. (2016). *The New Meaning of Educational Change* (5th ed.). New York, NY: Teachers College Press. https://www.tcpress.com
5. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. San Francisco, CA: Jossey-Bass. https://www.wiley.com
6. Tursunov, S. N. (2019). *Maktabgacha ta’limda pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish*. Toshkent: O‘qituvchi. https://arm.natlib.uz
7. Сластёнин, В. А., & Исаев, И. Ф. (2019). *Педагогика: инновационная деятельность учителя*. Москва: Академия. https://academia-moscow.ru
8. Беспалько, В. П. (2018). *Слагаемые педагогической технологии*. Москва: Педагогика. https://elibrary.ru/item.asp?id=36718945
9. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective Teacher Professional Development*. Palo Alto, CA: Learning Policy Institute. https://learningpolicyinstitute.org
10. Robinson, K. (2011). *Out of Our Minds: Learning to Be Creative*. Oxford: Capstone Publishing. https://www.wiley.com
11. Yuldasheva, N. Sh. (2022). Ijodiy kompetensiyani shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining roli. *Ta’lim va tarbiya*, 2, 67–71. https://scienceweb.uz
12. Загвязинский, В. И. (2020). Педагогические инновации и творчество учителя. *Образование и наука*, 22(3), 9–25. https://doi.org/10.17853/1994-5639-2020-3-9-25

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM IN HIGHER EDUCATION OF UZBEKISTAN AND ITS IMPACT ON THE EDUCATIONAL PROCESS

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich
Abu Rayhan Beruniy Urgench State University

Abstract. This article will consider the introduction of the credit-module system in higher education institutions and its role in improving educational efficiency.his article will consider the introduction of the credit-module system in higher education institutions and its role in improving educational efficiency. The article also includes suggestios.

Keywords: credit-modular system, Higher Education, independent education, assessment of student knowledge, mathematical education, improving the quality of education, educational process, academic mobility.

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich
Urganch davlat universiteti
“Kompyuter injiniringi” fakulteti
“Kompyuter ilmlari va sun’iy intellekt texnologiyalari”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kredit-modul tizimining oliy ta’lim muassasalarida joriy etilishi va uning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida matematik ta’limni takomillashtirish uchun takliflar va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, oliy ta’lim, mustaqil ta'lim, talabalar bilimini baholash, matematik ta’lim, ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayoni, akademik mobillik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N33

Kirish. Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o‘rganiladigan o‘quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma’lum bir bilim va ko‘nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma’ruzalar o‘qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o‘rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi. Modul asosida o‘qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko‘nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o‘quv faoliyati, ya’ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o‘zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi. Kredit (credit) — talabaning alohida ta’lim yo‘nalishi yoki dasturi (kurs) bo‘yicha fanlarni o‘qib o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun sarflangan o‘quv yuklamasining (vaqtning) o‘lchov birligidir. Kredit — talabaning me’yoriy

hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta’lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o‘lchovidir. [1; 5-8-b.]Talabaga kredit ma’lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng beriladi. Har bir talaba kelajakda tanlagan yo‘nalishi va mutaxassisligi bo‘yicha diplomga ega bo‘lishi uchun kreditlarni yig‘ib borishi lozim. To‘plangan kredit talabaga butun umr davomida o‘zining malakasini oshirib borish yoki qo‘shimcha oliy ma’lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to‘plangan kredit talabaning akademik “aktivi”ga aylanib boradi. Kredit texnologiyasi ta’lim oluvchilarga ishchi o‘quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o‘quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o‘qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o‘quv jarayonlarini baholashning o‘ziga xos qiymat ko‘rsatkichi bo‘lib ham hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunga kelib, ta’limiy islohotlar jarayonida jahon andozalariga mos keladigan uzluksiz ta’lim tizimini yaratish, ta’lim tizimini samaradorlini yuqori bosqichlarga ko‘tarish masalarining ijobiy hal etilishiga erishish dolzarb vazifalar hisoblanadi. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni [2; 10-16-b.], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori hamda 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab respublikamizdagi barcha oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy etildi. [3; 12-16-b.] Bular Amerika qo‘shma Shtatlarining kredit tizimi (USCS); Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS); Osiyo — Tinch okeani mamlakatlarining kredit tizimi (UCTS); Buyuk Britaniyaning kredit tizimi (CATS). Ushbu modellarning ichida eng ko‘p tarqalgani AqSh va Yevropa modellaridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoniga ko‘ra [1; 10-12-b]. 2017-2021 yillarda oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida O‘zbekistonning Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilishiga shartsharoitlar yaratildi va oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasining Bolonya jarayoniga qo‘shilishining zarurati zamon talabidan kelib chiqib, bir qancha ijtimoiy-siyosiy faktorlarga va ta’lim sohasida ro‘y berayotgan ob’ektiv voqeliklar bilan bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi suveren mamlakat sifatida jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda, demak u hozirgi xalqaro taraqqiyot tendensiyalaridan chetda tura olmaydi. O‘zbekiston Respublikasining Bolonya jarayoni ta’lim tizimiga qo‘shilishi unga dunyoning ko‘plab mamlakatlari bilan oliy ta’lim sohasidagi aloqalarni yanada kengaytirishni ta’minlaydi va mamlakatimiz ta’lim tizimining xalqaro miqyosidagi reytingini oshishiga olib keladi. Bolonya jarayoni - bu Yevropa mamlakatlari orasida oliy ta’limni uyg‘unlashtirish jarayonidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda ta’lim jarayonini yaxshilashda yangi texnologiyalarning rolini oshirishda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

— o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;

— bitta fan, kurs (kredit)ningqiymatini aniqlash;

— talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;

— talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;

— ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;

— ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi.

Kredit-modul tizimi oliy ta'limda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy usulidir. Ushbu tizimning afzalliklari va kamchiliklari quyidagicha:

I. Afzalliklari:

- Moslashuvchanlik: Kredit-modul tizimi talabalarga o‘z o‘qish rejalarini mustaqil ravishda tuzish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, talabalar uchun o‘qish jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi.
- Mustaqil ta'limni rivojlantirish: Tizim talabalarning mustaqil ishlashini rag‘batlantiradi, bu esa ularning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishiga olib keladi.
- O‘qish yuklamasining muvozanatli taqsimoti: Har bir fan uchun belgilangan kreditlar talabalarga o‘qish yuklamasini muvozanatli taqsimlash imkonini beradi, bu esa o‘qish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.
- Baholashning shaffofligi: Kredit-modul tizimi baholash jarayonini shaffof qiladi, bu esa talabalar uchun o‘z bilimlarini baholashda aniq ko‘rsatkichlar beradi.
- Xalqaro standartlarga moslik: Tizim Yevropa ta'lim tizimlari bilan mos keladi, bu esa talabalar uchun xalqaro miqyosda tan olinadigan diplomlar olish imkonini yaratadi.

II. Kamchiliklari:

- O‘qituvchilar uchun qo‘shimcha yuklama: Tizimning joriy etilishi o‘qituvchilarga yangi metodologiyalarni o‘rganish va qo‘llashni talab qiladi, bu esa ularning ish yuklamasini oshirishi mumkin.
- Talabalar uchun bosim: Talabalar ko‘pincha ko‘p fanlarni o‘rganishga majbur bo‘lishadi, bu esa ularning stress darajasini oshirishi mumkin.
- Resurslar yetishmasligi: Kredit-modul tizimini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslar (masalan, o‘quv materiallari, texnologiyalar) har doim mavjud bo‘lmasligi mumkin.
- Tizimning to‘liq joriy etilishi: O‘zbekistonda kredit-modul tizimining to‘liq joriy etilishi hali ham muammoli bo‘lib qolmoqda, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Ushbu afzalliklar va kamchiliklar kredit-modul tizimining oliy ta'limda qanday ishlashini va uning samaradorligini belgilaydi. Tizimning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning to‘g‘ri joriy etilishiga va ta'lim muassasalarining tayyorgarligiga bog‘liqdir.

O‘zbekistonda kredit-modul tizimining to‘liq joriy etilishi hali ham muammoli bo‘lib qolmoqda, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Mamlakatimizda talabalarni ijodiy faolligi, shuningdek, mustaqil ta'lim olish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish yo‘llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, ilmiy-

didaktik asoslari respublikamiz olimlaridan A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, A.R.Xodjaboyev, N.A.Muslimov, M.M.Qambarova, B.R.Adizov, O‘.N.Sultonova, D.M.Maxmudova, S.R.Abdalova, F.M.Sadikova, O.A.Qo‘ysinov, E.G‘oziyev, B.S.Abdullayeva, B.M.Do‘monov, A.I.Xudoyberdiyeva, M.N.Ibodova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan [4; 120-122-b].

MDH mamlakatlarida oliy ta’limda pedagoglarni tayyorlash jarayonida ijodiy qobiliyatlarni faollashtirish va rivojlantirish masalalari L.A.Burovkina, Ye.A.Znovenko, Ye.A.Lapina, M.A.Dedyulina, I.V.Dinershteyn va boshqalarninig tadqiqotlarida ko‘rib o‘tilgan. Ta’lim jarayonida ijodkorlik va kommunikativlikning ba’zi aspektlari D.P.Koxanovskaya, A.M.Leshenko, V.V.Moroz, A.P.Tryapitsina, M.M.Nimatulayev, I.M.Fayzraxmanova tadqiqotlarida o‘rganilgan va tahlil etilgan. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari va bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini esa F.G.Fatkulina, E.N.Morozkina, Yu.N.Egorova, A.K.Suleimanova, I.I.Gancherenok, E.L.Gribovskaya va boshqa bir qator olim, tadqiqotchi, pedagoglar tadqiq etgan.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish zarurati an’anaviy ta’lim tizimining kamchiliklarini bartaraf etish bilan bog‘liq. An’anaviy tizimning kamchiliklari orasida talabalar faqat tinglovchi bo‘lib qolishi, baholash tizimidagi bo‘shliqlar va talabalarning ijodiy faoliyatining sustligi mavjud. Kredit-modul tizimi esa, talabalarni mustaqil ta’lim olishga, o‘z o‘qish rejalarini tuzishga va baholash jarayonida shaffoflikni ta’minlashga imkon beradi [5; 24-28-b].

Matematika sohalarini o‘rgatuvchi fanlar kuchli fikr va tafakkurni talab etadi. Kredit-modul tizimini tadbiq etish, matematika sohasidagi talabalarga akademik mobillik, o‘qituvchini tanlash erkinligi va o‘z istaklariga ko‘ra fanlarni tanlash imkoniyatini beradi. Bu esa, talabalarning bilim saviyasini oshirishga va ularni jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi [6; 115-120-b].



1-chizma. **Kredit-modul tizimining afzalliklari va kamchiliklari**.[1]

[1] Izlanishlariga ko‘ra muallif ishlanmasi

Ushbu 1-chizmada kredit-modul tizimining asosiy komponentlarini, jarayonini va afzalliklari hamda kamchiliklarini ko‘rsatilgan. Bu ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Kredit-modul tizimida baholash jarayoni talabalarning bilim va ko‘nikmalarini reyting asosida baholashga qaratilgan. Ushbu tizimning asosiy maqsadi talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash va o‘qish jarayonini yanada samarali tashkil etishdir.

Kredit-modul tizimida talabalar baholari reyting asosida hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi formulalar orqali amalga oshiriladi:

GPA (Grade Point Average): Talabaning o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati hisoblanadi. GPA quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

GPA=K1U1+K2U2+K3U3+...+KnUnK1+K2+K3+...+KnGPA = \frac{K_1U_1 + K_2U_2 + K_3U_3 + ... + K_nU_n}{K_1 + K_2 + K_3 + ... + K_n}GPA=K1+K2+K3+...+Kn K1 U1+K2 U2 +K3 U3 +...+Kn Un

Bu yerda:

KKK — har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

UUU — har bir fan/modul bo'yicha talaba to'plagan baho.

Kredit-modul tizimi, bu — ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi [7; 50-52-b].

Xulosa. Kredit-modul tizimi O‘zbekiston oliy ta’limida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim vosita hisoblanadi. Tizimning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning to‘g‘ri joriy etilishiga va ta’lim muassasalarining tayyorgarligiga bog‘liqdir. O‘zbekiston ta’lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish, mamlakatimizning ta’lim sifatini oshirish va kelajakda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizida kredit-modul tizimining joriy etilishi ta’lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashish maqsadida amalga oshirilmoqda. Bu tizim talabalar uchun moslashuvchan o‘quv rejalari, mustaqil ta’lim imkoniyatlari va baholash jarayonining shaffofligini ta’minlaydi. Shuningdek, Bolonya jarayoni va xalqaro tajribalar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Matematika va informatika ta’limida raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlar qo‘llanilishi, talabalar bilimini baholashda zamonaviy vositalar va metodlar yordamida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi esa o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish va talabalarni jahon standartlariga mos mutaxassislar sifatida tayyorlashga qaratilgan. Bu jarayonlar ta’lim sohasida innovatsion rivojlanishning muhim omillaridan biridir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish to‘g‘risidagi qarori.
4. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma.–Toshkent, TKTI, 2020. – 120 bet.
5. O‘rinov V. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar”. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020-y.
6. Каримбеков С. “Узбекистан в XXI веке: обучение с исползованием системы кредитов.” Перспективы развития высшего оброзования №3.Ташкент 2015. 115-с.
7. Tojiyev M. Mamadaliyev K. Xurramov A. “Rivojlangan xorijiy mamalakatlar oliy ta’lim tizimi rivojlanishida kredit sisitemasining o‘rni va ahamiyati”. Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari: to’plam №3. Toshkent 2015. 52-b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

METHODOLOGY OF INTEGRATIVE DEVELOPMENT OF TRAINING AND CREATIVE ACTIVITIES OF STUDENTS IN THE FIELD OF FINE ARTS

Kurbonova Shoxsanam
Lecturer, Department of General Professional Sciences,
Alfraganus University
E-mail: shoxsanamkurbonova1994@gmail.com

Abstract. This article discusses the methodology for developing students' educational and creative activities based on an integrative approach in the process of teaching fine arts disciplines and genres. The article analyzes the possibilities of teaching theoretical and practical aspects of fine arts in an inextricable link with other disciplines, and the formation of creative thinking, imagination, artistic thinking and professionally oriented competencies in students. The effectiveness of integrative educational technologies, a synergistic approach, problem-based and project-based teaching methods is substantiated. Methodological recommendations are also developed to activate students' independent creative activities. Recommendations are given to improve the quality of teaching fine arts disciplines, strengthen interdisciplinary connections, and comprehensively develop students' creative potential.

Keywords: fine arts, music, theater, cinema, choreography, architecture, applied decorative arts, idea, form, aesthetics, architecture, miniature, painter, sculptor, architect, potter, composer, writer, design, color, graphics, botal, animalistic, mythological, landscape, marina, architecture, photography, portrait.

TASVIRIY SAN’AT FANLARINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILAR O‘QUV-IJODIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Kurbonova Shoxsanam
Lecturer, Department of General Professional Sciences,
Alfraganus University

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san’at fanlarini va janrlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘quv-ijodiy faoliyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Maqolada tasviriy san’atning nazariy va amaliy jihatlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘qitish, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, tasavvur, badiiy tafakkur va kasbiy yo‘naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Integrativ ta’lim texnologiyalari, sinergetik yondashuv, muammoli va loyiha asosida o‘qitish metodlarining samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tasviriy san’at fanlarini o‘qitish sifatini oshirish, fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlash hamda o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini kompleks rivojlantirish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, musiqa, teatr, kino, xoreografiya, me’morchilik, amaliy bezak san’ati, g’oya, shakl, estetika, me’morchilik, miniatyura, rassom, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi, dizayn, rang, grafika, botal, animalistik, mifologik, peyzaj, marina, arxitektura, fotografiya, portret.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N34

Kirish. Tasviriy san’at — eng qadimiy va keng tarqalgan san’at turlaridan biridir. Aslida san’atning turlari juda ko‘p. Ular badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, teatr, kino, xoreografiya, me’morchilik, amaliy bezak kabi boshqa san’at turlari ham mavjuddir. Odatda, haqqoniy borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog‘oz

yuzasida) aks ettiradigan san’at tasviriy san’at deb ataladi. Tasviriy san’at insoniyat tarixida muhim rol o‘ynaydi. U bizga o‘tmishni o‘rganishga, turli xalqlar madaniyatini tushunishga va o‘zimizni anglashga yordam beradi. Tasviriy san’at — bu insonning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini, g‘oyalarini va kuzatuvlarini vizual shakllar orqali ifodalashga qaratilgan san’at turi. Uning asosiy maqsadi — estetik zavq berish, fikrlashga undash va tomoshabinni o‘ziga jalb qilish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tasviriy san’at tushunchasi keng ma’noga ega. XIX asrgacha me’morchilik, haykaltaroshlik va rangtasvir tasviriy san’atning turlari bo‘lib hisoblangan. Asrning oxirlarida esa grafika tasviriy san’atning eng muhim va hozirjavob turlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda tasviriy san’at darslarida ijodiy faoliyatlarini integratsiyalashtirib o‘qitish prinsiplarini qo‘llash yuzasidan rassom-pedagoglardan O‘.Tansiqboev, I.Ikromov, Ch.Ahmarov, A. Abdullaev, M. Nabiyev, R.Xasanov, B.R.Haqberdiyev, O‘.Nurtoev, S. Abdirasilov, S. Bulatov, T. Koxanskiy, M.Fisher, B.Azimov, S.Abdullayev, B.Oripov, K.Vashburn, N. Leytes, B.Blumlar ilmiy izlanishlar olib borishga bir bir qancha kerakli manbalar yozishgan. Tasviriy san’at darslarida o‘quv ijodiy faoliyatini integrativ tashkil etishda, ta’lim oluvchilarning rivojlanish ko‘rsatgichi ularning qobiliyatlariga qarab o‘quv-ijodiy faoliyatini integrativ rivojlantirish yo‘llari, usullari, shakllari tanlab olinishi tushuniladi. Tabaqalashtirilgan ta’limning bunday turida sinfdagi o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘quvchilar bilan individual ishlar olib boriladi. Buning uchun xar bir o‘qituvchi bolalarning individual-psixologik xususiyatlari: qobiliyatlari, diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, nutq, iroda, emotsionallik, qiziqishlari haqida tasavvurga, o‘quvchilarning xarakteri, xulq-atvori temperament tiplari haqida tushunchaga ega bo‘lishi kerak [1. 546-b].

Muhokama. So‘nggi 20 yil ichida san’atning dizayn kabi turi ham o‘z-o‘zini topdi. Tasviriy san’atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o‘xshashliklari bor. Lekin har birining o‘ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o‘zi, tasvirlaydigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator turlarga va janrlarga bo‘linadi. O‘zbek xalqi o‘zining tasviriy, amaliy, me’morchilik san’ati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O‘zbekiston hududida eramizdan avval ham tasviriy san’atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me’morchilik turlari nihoyatda rivojlandi, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiyob, Holchayon, Tuproq qal’a, Bolalik tepa, Ayritom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo‘yqirilgan qal’a, Ajina tepa, Teshik qal’a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Amir Temur va Temuriylar davri davrida tasviriy san’at turlaridan me’morchilik, miniatyura gullab – yashnadi [2. 388-b].

Bu davrda miniatyura va kitob grafikasi shunchalik rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san’atiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag‘dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfahon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi. Tasviriy san’at rivojlanishi davomida, uzoq yillar barcha janrlarda ijod qilish bir-biri bilan birga bordi. Odamlar tomonidan biror — bir ish, narsa, buyum va hokazolar mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazilib ishlanishi insonning san’atkorlik darajasini bildiradi. Shu boisdan ham rassom, haykaltarosh, me’mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni san’at asarlari deyiladi [3. 132-b].

Natija. Tasviriy san’atga quyidagi turlar kiradi:

- Bo‘yoqlar yordamida tasvirlar yaratish rassomlar uchun bo‘yoqlar yordamida tasvirlar yaratish — bu rassomlik san’atidir. Rassomlikda turli xil bo‘yoqlar (masalan, moybo‘yoq, akvarel, tempera, akril) yordamida tuval, qog‘oz, yog‘och yoki boshqa sirtlarda tasvirlar yaratiladi. Rassomlar o‘zlarining g‘oyalarini, his-tuyg‘ularini va kuzatuvlarini bo‘yoqlar orqali ifodalaydilar. Rassomlik — bu tasviriy san’atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri. U nafaqat bo‘yoqlar va sirtlar bilan cheklanib qolmay, balki juda ko‘p texnika, uslub va janrlarni o‘z ichiga oladi.
- Rangtasvir — rangli. voqelikni badiiy tasvirlash va talqin qilish; tomoshabin fikri va tuyg‘ulariga ta’sir etishning muhim vositasi; muhim ijtimoiy mazmun va rang-barang g‘oyaviy vazifalarga ega. Rang orqali borliq yoki xayoliy dunyoni ko‘rinarli shakllarda tasvirlaydi. Ranglar cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini hajm va fakturasini ko‘rsatishi, harakat, inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o‘y-xayollarni aks ettirishi mumkin.
- Janrli rangtasvir — xalq turmush shakllari va uni o‘rab turgan voqelikni aks ettirish sifatida kundalik hayot manzaralarini badiiy tasvirlash. Bunday tasvir haqiqiy, xayoliy yoki yaratuvchisi tomonidan romantik bo‘lishi mumkin. Janrli rangtasvirga misollar bozor manzaralari, bayramlar, interyerlar, ko‘cha sahnalari va boshqalar. Janrli rangtasvir bu asosan hayotdan olingan tasvirlar bo‘lib, rassom uni badiiy fantaziya bilan boyitib yaratadi. Bu janrlar hayotni aks ettirib, undagi turli holatlarni ko‘rsatadi va ko‘pincha ma’naviy yoki axloqiy g‘oyalarni ifodalaydi.
- Grafika — qog‘ozda turli xil texnikalar yordamida tasvirlar yaratish (masalan, qalamtasvir, gravyura, litografiya). Tasviriy san’atda grafika — bu tasvirlarni qog‘oz yoki boshqa sirtlarda qo‘lda yoki bosma usullar yordamida yaratish san’atidir. Grafika rangli yoki oq-qora bo‘lishi mumkin va u o‘zining aniqligi, chiziqlarning nafisligi va ko‘paytirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Qalam, ko‘mir, sangina, pastel, ruchka va boshqa materiallar yordamida yaratilgan tasvirlar qo‘lda chizishga kiradi. Bunga rasm, eskiz, etyudlar kiradi. Maxsus tayyorlangan shakllardan (doskalar, toshlar, ekranlar) bosma usulda yaratilgan tasvirlardir. Grafika san’ati tasviriy san’atning muhim bir qismi bo‘lib, u o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari bilan ajralib turadi.
- Mifologik janr — bu tasviriy san’at bo‘limi bo‘lib, unda turli xalqlarning qadimiy afsonalari, afsonalari, afsonalari yoki ertaklari asarlar syujeti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Mifologik janrdagi rasmlar ko‘pincha allegorik va ramziy ma’noga ega. Mifologik janr an’anaviy ravishda san’atdagi yuqori ma’naviy va axloqiy ideallarni aks ettiradi.
- Haykaltaroshlik — hajmli shakllar yaratish (masalan, tosh, yog‘och, metalldan). Haykaltaroshlik bajaradigan vazifasi va mazmuniga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi: monumental haykaltaroshlik, bezak haykaltaroshligi, dastgoh. Haykaltaroshlikning 2 asosiy ko‘rinishi — aylanib kuzatish imkonini beruvchi dumaloq haykal hamda faqat bir tomondan ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘rtma (qabariq) tasvir relyef turi farqlanadi. Relyef, o‘z navbatida, yuzaga nisbatan bir oz bo‘rttirib ishlanadigan barelyef hamda tasvir yuzaga nisbatan ancha bo‘rttirib ishlanadigan gorelyefta bo‘linadi; shuningdek nursoya o‘yini hisobiga tasvir ko‘zga tashlanadigan tekis yuzaga ishlanadigan yana o‘yma ko‘rinish mavjud.
- Batal — tasviriy san’atning urush va harbiy hayot mavzulariga bag‘ishlangan janri. XX asrga kelib jahon urushlari davrida yaratilgan, urush dahshatlari, xalq boshiga tushgan

kulfatlar, ozodlik uchun kurash g‘oyalarini aks ettirgan asarlarda batal janri, tarixiy va maishiy janrlar o‘zaro uyg‘unlashib ketdi. Ijtimoiy va milliy ozodlik harakatlari batal janrida burilish yasadi, uning imkoniyat doirasini kengaytirdi, badiiy mazmunini boyitdi.

- Dizayn — estetik va funksional jihatdan qulay muhit yaratish (masalan, interyer dizayni, grafik dizayn). Dizayn tafakkuri bu ko‘nikmalar to‘plamiga asoslangan muammolarni hal qilishning innovatsion jarayoni. Ushbu yondashuv bir necha o‘n yillar davomida mavjud bo‘lib, lekin u faqatgina 2008 yilgi Garvard Business Review jurnalining IDEO dizayn kompaniyasi rahbari va prezidenti Tim Braunning “Dizayn tafakkuri” nomli maqolasidan so‘ng dizaynerlik jamiyatidan tashqarida o‘z kuchini topa boshladi [4. 110-b].
- Tarixiy — uyg‘onish davrida paydo bo‘lgan va nafaqat real voqealar asosidagi syujetli asarlarni, balki mifologik mavzularni o‘z ichiga olgan rangtasvir janri.
- Amaliy san’at — kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni badiiy jihatdan bezash (masalan, kashtachilik, kulolchilik, zargarlik). Amaliy san’at asarlari ko‘z bilan ko‘rish, his etish va anglashga mo‘ljallangan. Amaliy san’at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go‘zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o‘zining ko‘rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta’sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmati bo‘lgani uchun ham qadrlanadi [5. 98-b].
- Animalistik — janrning asosiy syujeti hayvonlarning tasviridir. Tasviriy san’at rivojlanishi davomida, uzoq yillar barcha janrlarda ijod qilish bir-biri bilan birga bordi. Shulardan ajralib chiqqan animalistik janr ham keyinchalik rivojlandi. Hayvonlar obrazini yaratish uchun uning xarakterini bilish lozim. Chunki u hayvon yoki qushlar faqat bizga go‘sht, tuxum, jun va boshqa narsalargagina kerak emas. Ular tabiat muvozanatini saqlash,insonlarga har qanday damlarida hamroh bo‘lish uchun yaratilgandir. Haykaltaroshlikda ijodkor nursoya o‘yinidan foydalanish orqali asarning ta’sir kuchini oshirishga erishadi (nur tushishi bilan haykal jonlanadi, nur yo‘nalishining o‘zgarishi bilan undagi nur-soya tovlanishi ham o‘zgaradi, natijada undan tomoshabin oladigan taassurot ham o‘zgarib boradi).
- Peyzaj — bu rangtasvirning asosiy janri bo‘lib, tasvirning predmeti haqiqiy yoki inson tomonida sayqallangan tabiatdir. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshirish, syujet rivojini tezlatish yoki sekinlatish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi. Bu bilan peyzaj badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarni yanada to‘laqonli ifodalashga yordam beradi. Badiiy asarda peyzajdan 2 xil usulda foydalaniladi: qahramonning ruhiy holatini tabiat tasviri bilan parallel ravishda tasvirlash va qarama-qarshi (kontrast) usulda tasvirlash. Peyzaj tasviri orqali muallif o‘zining asosiy g‘oyaviy niyatini ilgari surishi ham mumkin.
- Arxitektura — bino va inshootlarni loyihalash va qurish (garchi ko‘pchilik arxitekturani tasviriy san’atga kiritmasa ham, unda estetik jihat muhim rol o‘ynaydi). Sohalar ichida eng qadimiy va nafis sohalardan biri bu arxitekturadir. Arxitektura qurilish san’atining oliy darajasi, biroq har qanday qurilishni ham arxitekturaga tenglashtirish yoki o‘xshatish mumkin emas. Chunki qurilish juda keng qamrovli so‘z bo‘lib, arxitekturaga

mos bo‘lmagan ayrim sohalarni ham o‘z ichiga oladi [6. 460-b]. Arxitekturani inson amaliy faoliyatining boshqa turlaridan, shu jumladan, qurilishdan farqi shundaki, u foydalilik masalalaridan tashqari muayyan tarixiy, ijtimoiy-ma’naviy muhit, davr ehtiyojlarini qondiruvchi mafkuraviy va badiiy estetik vazifalarni ham bajaradi.

- Marina (fransuz. dengiz, Italiya. marina, lat. marinus “dengiz”) tasviriy san’atning janr turi bo‘lib, unda tasvir mavzusi dengiz turlari, shuningdek dengiz janglari, bo‘ronlar, kema halokatlari yoki dengizda sodir bo‘layotgan boshqa voqealar sahnalari hisoblanadi. Bu landshaft janrining bir turi. Dengiz hayotidagi muhim voqealar, harbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda ushbu yo‘nalish muhim ahamiyat kasb qiladi. Golland manzarachi rassomlaridan Ya.Porsellis, S.deVliger, X.Sigers va boshqalar dengiznavislik janri imkoniyatlarini yanada kengaytirib, dengiz tabiati va u bilan bog‘liq baliqchilar hayotini haqqoniy aks ettirishda samarali ijod qildilar. Dengiz ko‘rinishlari portret, tarixiy, batal, maishiy, animal janrdagi suratlarning orqa planida ham tasvirlanishi mumkin.
- Portret — bu haqiqatda mavjud bo‘lgan shaxs yoki odamlar guruhining tasviri. Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish mumkin. Uning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model, asli)ga aynan o‘xshashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma’naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o‘rnini, kasbi, jamiyatdagi mavqeyini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy iqtisodiy ahvol haqida ma’lumot bera oladi. Rassomning kasbiy mahorati, portret ishlash uchun tanlagan materiallari esa uning yaratgan asarlariga takrorlanmas o‘ziga xoslik baxsh etadi. Tarixan portretning xilma-xil tur va ko‘rinishlari shakllangan: ishlanish usuli, bajaradigan vazifasi, shakli, mazmuniga ko‘ra, dastgoh (kartina, byust, grafika varag‘i) va monumental (haykal, freska, mozaika), tantanavor parad va intim, .hxajviy, satirik portret tarzida tasvirlanuvchining faqat bosh qismi, beligacha, butun bo‘y-basti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin
- Fotografiya — obyektiv yordamida tasvirlarni suratga olish (ba’zida tasviriy san’atga kiritiladi). Fotografiya tasviriy ifodaning eng mukammal ko‘rinishi bo‘lib, uni dunyoning istalgan burchagida tarjimasiz teng tushunish mumkin. Axborotning eng ta’sirchan ko‘rinishi sanbalgan fotografiya o‘zida bir qancha janrlarni qamrab oladi. Bugungi kunda uning portret, reportaj, reklama, peyzaj hamda tijoriy janrlari keng tarqalgan, Yorug‘lik sezgir materiallardan foydalanib hajmiy (fazoviy) tasvirlar olishning alohida usuli golografiya deb ataladi. U 15-asrda obyektlar tasvirini proyeksiyalab, so‘ngra qog‘ozga rasmini chizishdan boshlangan. Bu usulni Leonardo da Vinchi qo‘llagan.

Xulosa. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning o‘quv-ijodiy faoliyatini integrativ tashkil etish ta’lim oluvchilarning individual qobiliyatlari, psixologik xususiyatlari va ijodiy salohiyatini inobatga olgan holda samarali pedagogik jarayonni ta’minlaydi. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o‘quv-ijodiy faoliyatni rivojlantirish yo‘llari, usullari va shakllarining maqsadga muvofiq tanlanishi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, badiiy tafakkur va ijodkorlik kompetensiyalarining bosqichma-bosqich shakllanishiga xizmat qiladi. Integrativ ta’lim jarayonida individual va guruhiy ishlarning uyg‘unligi o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga, dars samaradorligini oshirishga hamda tasviriy san’at fanlarini o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Haqberdiyev, B., Sotiboldiyev, A., & Abdumutalibov, O. (2025). Muhandislik grafikasi va tasviriy san'at, arxitektura va dizayn (texnik va san'at) fanlarini o'zaro integratsiyalash. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(6), 543-546.
2. Haqberdiyev, Baxtiyor (2025) Texnik va san'at fanlarini integrativ o'qitishda sinergetik kompetentlikni takomillashtirish. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (1). pp. 387-391. ISSN 2181-1342
3. Rustamovich, H. B. (2025). Learning To Make Pencil Drawings And Sketches Using Linear And Aerial Perspective. Nvpubhouse Library for European International Journal of Pedagogics, 5(11), 131-133.
4. Haqberdiyev, B. R. Projection method in the integration of design elements and engineering graphics and design sciences. НАУКА и ОБЩЕСТВО, 110.
5. Rustamovich, H. B., & Qabiljanovich, R. U. (2024). The educational direction" fine arts and engineering graphics" in the formation of the scientific worldview of students the role of computer graphics engineering science. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 6(03), 97-100.
6. Haqberdiyev, B. (2025). O'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlar. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(5), 459-463.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 December 2025
Accepted: 1 January 2026
Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

COMPONENTS OF SOCIAL INTELLIGENCE AND ITS ROLE IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

Tokhirov Shakhzod Tokhirovich
independent researcher at the National Institute
of Educational Pedagogy named after Qori Niyoziy
www.chirchiqsspagent@gmail.com

Abstract. This article describes social intelligence, the dynamics of its study, the pedagogical essence of social intelligence, the role of a person in personal professional activity, the importance of social intelligence in stabilizing teacher-student relationships, its components, and the pedagogical characteristics of each component. Accordingly, this article serves as a source for the scientific and pedagogical community, researchers, and readers.

Keywords: social intelligence, social will, communication, self-management, synthesis, interpersonal relations, behavior, forms, social ability, social adaptation.

IJTIMOIY INTELLEKTNING TARKIBIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O‘RNI

Toxirov Shaxzod Toxirovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy intellekt, uning o‘rganilish dinamikasi, ijtimoiy intellektning pedagogik mohiyati, insonning shaxsiy kasbiy faoliyatida tutgan o‘rni, o‘qituvchi o‘quvchi munosabatlarini barqarorlashtirishda ijtimoiy intellektning ahamiyati, tarkibiy qismlari, har bir tarkibiy qismining pedagogik xususiyati bayon qilingan. Shunga ko‘ra ushbu maqola ilmiy pedagogik jamoatchilik, tadqiqotchi va o‘quvchilar uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy intellekt, ijtimoiy iroda, muloqot, o‘z o‘zini boshqarish, sintezivlik, shaxslararo munosabatlar, xulq-atvor, shakllari, ijtimoiy qobiliyat, ijtimoiy moslashuv.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N35

Kirish. Pedagogik xarakterdagi ijtimoiy intellekt o‘qituvchining jamoadoshlari, o‘quvchilari, maqsadlari, qiyinchiliklari va xulq-atvorini to‘g‘ri tushunishi, ijtimoiy pedagogik vaziyatlarda moslashuvchan harakat qilish, samarali muloqotga kirisha olish va ijtimoiy pedagogik munosabatlarni boshqara olish ko‘nikmasini egaligini anglatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ijtimoiy intellekt tushunchasini E. Torndayk [1] keng ko‘lamda asoslashga harakat qilgan. U shaxslararo munosabatlarning uzoq istiqboldagi holatini tasavvur qilish maqsadida ushbu atamaga murojaat qilgan. Kyeyinchalik esa D. Goulman [2], X. Gardner [3], R. Stenberglar [4] tomonidan rivojlantirilgan. Psixologlar ushbu tushunchani turlicha talqin qilganlar. 1937-yilda G. Allport ijtimoiy intellektni odamlar haqida tez, deyarli avtomatik xulosalar chiqarish, shaxsning ehtimoliy reaksiyalarini bashorat qilish qobiliyati bilan bog‘lagan. G. Allportga ko‘ra, ijtimoiy intellekt bu odamlar bilan

munosabatda yengillikni ta’minlaydigan maxsus “ijtimoiy qobiliyat” bo‘lib, uning asosiy natijasi tushunishning chuqurligi emas, balki ijtimoiy moslashuv hisoblanadi. [5]

Ijtimoiy intellektni o‘lchash uchun ishlab chiqilgan ilk ishonchli test muallifi J. Gilford [6] hisoblanadi. Uning fikricha, ijtimoiy intellekt umumiy intellekt omillariga bog‘liq bo‘lmagan intellektual qobiliyatlar tizimini tashkil etadi. Bu qobiliyatlar ham umumiy intellektual imkoniyatlar kabi uchta o‘zgaruvchi ko‘rsatkichlar asosida tavsiflanadi. Ular: mazmun, jarayon va natijalar. J. Gilford bitta operatsiya bilishni ajratib, o‘z tadqiqotlarini xulq-atvor bilishiga qaratgan. Bu qobiliyat quyidagi oltita omilni o‘z ichiga oladi:

1. Shaxsning o‘z xulq-atvori tarkibiga kiradigan elementlarni bilishi, bu inson muayyan kontekstdan verbal va noverbal ekspressiv xulq-atvorni ajratish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

2. Xulq-atvor guruhlarini bilishi, inson xulqi haqidagi umumiy ma’lumotlar ichidan umumiy belgilarni ajrata olish qobiliyati.

3. Xulq-atvor ko‘rsatkichi bo‘lgan munosabatlarni bilish, xulq-atvor ko‘rinishilari orasidagi munosabatlarni anglash.

4. Xulq-atvor tizimlarini bilish, insonlar orasidagi o‘zaro ta’sir ko‘rsatish vaziyatlarining rivojlanish asoslari va dinamikasini bilish, ushbu vaziyatlardagi xulq ko‘rinishlari mohiyatini tushunish qobiliyati.

5. Xulq-atvor ko‘rinishlari transformatsiyalarini bilish, turli vaziyatlarda o‘xshash xulq-atvorning dastlabki mazmun mohiyatini bilish.

6. Xulq-atvorga oid harakatlarning natijalarini bilish, mavjud ma’lumotlarga asoslangan holda xulq-atvor ko‘rinishlarining oqibatlarini oldindan ko‘ra olish.

Ye.S. Mixaylova[7], X.Kdirbayeva[8], U.Buteva[9]lar ijtimoiy intellektni turli hayotiy vaziyatlarda insonlarning xulq-atvorini tushunish va bashorat qilish, ularning niyatlari, his-tuyg‘ulari va emotsional holatlarini verbal va noverbal ekspressiya asosida farqlay olish oid intellektual qobiliyat sifatida tavsiflaganlar. Mutaxassislar umumiy tarzda ijtimoiy intellektni tashkil etuvchi jarayonlarga ijtimoiy senzitivlik, ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy xotira va ijtimoiy tafakkurni kiritganlar. Shunga ko‘ra ijtimoiy intellekt shaxsning muloqoti va ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydigan integrativ xarakterdagi intellektual qobiliyatdir. U muloqotdoshlar, insonlar guruhi aks ettirish bilan bog‘liq bilish jarayonlarini mujassamlashtirish va tartibga solishni ta’minlaydi. Mutaxassilar ijtimoiy intellektni biror jarayon, ko‘pincha ijtimoiy tafakkur yoki ijtimoiy persepsiya bilan ham tenglashtiradilar.

Tadqiqot muhokamasi va natijalari. Ijtimoiy intellektning empatiya, muloqot, ijtimoiy idrok, o‘z o‘zini boshqarish kompetensiyasi, moslashuvchanlik va ijtimoiy amaliy ko‘nikmalarga egalik kabi tarkibiy qismlari mavjud bo‘lib, ular professor-o‘qituvchi va talabalar orasidagi munosabatlarni barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan **empatiya** o‘qituvchining o‘quvchining his-tuyg‘ularini aniq his etish, anglash, ularning ichki kechinmalarini tushunish va ularga nisbatan ruhiy hamdardlik bildirish qobiliyatidir. U “emotsiya” va “hissiyot” tushunchalarini o‘zida mujassamlashtirib, pedagogik va psixologik munosabatlar va o‘qituvchi o‘quvchilar asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Empatiya ijtimoiy intellektning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qituvchining o‘quvchilarni his qilish, anglash va ularga nisbatan madaniyatli munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonida esa o‘qituvchi kasbiy mahoratining tarkibiy qismi sifatida jamoaviy munosabatlar, pedagogik-psixologik muhit va o‘quvchilarning faolligini ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muloqot o‘qituvchi ijtimoiy intellektining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilar orasida almashish, o‘zaro bir birini tushunish, bir biriga ta’sir ko‘rsatish va o‘zaro hamkorlikka kirishish imkoniyatidir. Pedagogik-psixologik jarayonda muloqot o‘zaro so‘zlashuvdan iborat emas, balki emotsional, ijtimoiy va perseptiv munosabatlarni qamrab olgan keng didaktik vosita hisoblanadi. Muloqot bo‘lajak o‘qituvchining istiqbolda samarali pedagogik faoliyat ko‘rsatishi, o‘quvchilar bilan hamkorlik o‘rnatishi va shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etishiga ko‘maklashadigan asosiy vosita hisoblanadi. U o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘zaro bir birini tushunish, ishonch, faollik, bir birini anglash, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini kengaytiruvchi didaktik jarayon hamdir.

Ijtimoiy intellektning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri **ijtimoiy idrokdir**. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy idrokni shakllantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega, chunki ular ijtimoiy idrok yordamida istiqboldagi kasbiy faoliyatlari jarayonida o‘z o‘quvchilari va kasbdoshlari, ijtimoiy vaziyatlarni idrok qilish, baholash va tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular hamkasblari, o‘quvchilari, ularning ota-onalarining tashqi qiyofasi, xulq-atvorini, istaklari, niyatlari, hissiyotlari, maqsadlarini, ijtimoiy pedagogik vaziyatlarning mohiyatini
